$$e_{i,j} \leq \frac{26}{3} \cdot 0,3^{|i-j|}, \quad i = 2,3,\dots, N-1, \quad j = 3,4,\dots, N-4, \quad j \neq i-1, \quad i \neq j,$$

$$e_{i,i} \leq 5,2, \quad i = 2,3,\dots, N-1, \quad e_{i,N-3} \leq 2,5 \cdot 0,3^{N-3-i}, \quad i = 1,2,\dots, N-3, \quad e_{N-2,N-3} \leq 4,6,$$

$$e_{i,N-2} \leq 4,2 \cdot 0,3^{N-2-i}, \quad i = 1,2,\dots, N-2, \quad e_{N-1,N-2} \leq 6,85,$$

$$e_{i,N-1} \leq 3 \cdot 0,3^{N-1-i}, \quad i = 1,2,\dots, N-1, \quad e_{N,N-1} \leq 2,5,$$

$$e_{N,j} \leq \frac{46}{3} \cdot 0,3^{N-1-j}, \quad j = 1,2,\dots, N-4, \quad e_{N,N-3} \leq 2,72,$$

$$e_{N,N-2} \leq 4,5, \quad e_{i,i} \leq 3,36, \quad i = 3,2,\dots, N-3.$$

Сравнивая эти неравенства, получаем, что для всех i, j , для которых выполняется (1), справедлива оценка

$$e_{i,j} \leq 4,2 \cdot 0,3^{|i-j|-1}.$$

Отсюда

$$e_{i,j} \leq \frac{4,2}{N^\alpha}.$$

Заметим также, что для всех i ($1 \leq i \leq N$)

$$\sum_{j=0}^{N-1} |\hat{E}_{i,j}(x)| \leq \sum_{j=0}^{N-1} e_{i,j} \leq 23.$$

Соотношения (2) и (4) доказываются аналогично (3) и (5).

Лемма 1 доказана.

В работе [1] доказана следующая

Теорема 1. Пусть на отрезке $[0,1]$ $f(x)$ имеет первую производную и $f' \in Lip\alpha$, $0 < \alpha \leq 1$,

$f(x) \neq 0$. Тогда, если $a(x)$ – непрерывная гладкая функция, $\frac{h\sqrt{n}}{\log n \sqrt{\log N}} \rightarrow \infty$, $\sqrt{h} \log n \rightarrow 0$,

$nh^{1+2\alpha} \log n \rightarrow 0$ при $n \rightarrow \infty$, то случайная величина

$$\frac{T_n - \Delta}{\hat{\sigma} \sqrt{h}}$$

асимптотически нормальна со средней 0 и дисперсией 1. Здесь T_n определяется соотношением (*),

а

$$\Delta = \int_0^1 f(x)a(x)dx \int_0^1 B(x)dx,$$

$$\hat{\sigma}^2 = 2 \int_0^1 f^2(x)a^2(x)dx \sum_{d=-\infty}^{\infty} \int_0^1 \int_0^1 B_d^2(x_1, x_2)dx_1dx_2,$$

$B_d(x_1, x_2)$ определено выше.

Теорема 1 позволяет построить асимптотический критерий уровня α проверки гипотезы H_0 , согласно которой $f(x) = f_0(x)$, где $f_0(x)$ - заданная плотность. Для этого следует вычислить T_n и отвергнуть H_0 , если

$$T_n \geq \int_0^1 f(x)a(x)dx \int_0^1 B(x)dx + \sqrt{h}\lambda_\alpha\sigma_0,$$

где λ_α - квантиль уровня α стандартного нормального распределения.

Пусть нам нужно проверить гипотезу $H_0 : f(x) = f_0(x)$, где $f_0(x)$ - заданная плотность распределения, и пусть далее H_n - произвольное, близкое к H_0 семейство альтернатив вида:

$$H_n : f(x) = f_0(x) + \gamma_n g(x), \gamma_n \downarrow 0 \text{ при } n \rightarrow \infty. \quad (6)$$

Мы можем проверить H_0 против альтернатив (6), используя для этой цели статистику T_n и выбирая критическую область вида $\{T_n \geq t_\alpha\}$, где по теореме 1 при $n \rightarrow \infty$

$$t_\alpha = \Delta_0 + \sqrt{h}\lambda_\alpha\sigma_0,$$

и λ_α означает $1-\alpha$ -квантиль стандартного нормального распределения, т.е. $\Phi(\lambda_\alpha) = 1-\alpha$, а Δ_0 и σ_0 по сути - параметры, фигурирующие в теореме 1, вычисленные при гипотезе H_0 . Оказывается, что для таких альтернатив критерий, основанный на T_n , имеет нетривиальную мощность; точнее, справедлива следующая

Теорема 2. Пусть выполнены условия теоремы 1 и $N = n^\alpha$, $\gamma_n = n^{\frac{\alpha-2}{4}}$, где $0 < \alpha < \frac{2}{3}$. Тогда (при $n \rightarrow \infty$)

$$P_{H_n}(T_n > \Delta_0 + \sqrt{h}\lambda_\alpha\sigma_0) \rightarrow 1 - \Phi\left(\lambda_\alpha - \sigma_0^{-1} \int_0^1 g^2(x)a(x)dx\right).$$

Доказательство. Обозначим через Δ_n и $\hat{\sigma}_N^2$ значения Δ и $\hat{\sigma}^2$ при гипотезе H_n и положим

$$f_N^0(x) = M(S'_N(x) / H_0), \quad f_N(x) = (S'_N(x) / H_n),$$

$$\hat{T}_n = nh \int_0^1 [S'_N(x) - f_N(x)]^2 a(x)dx.$$

Ясно, что

$$\Delta_n = \Delta_0 + \gamma_n \int_0^1 a(x)g(x)dx \int_0^1 B(x)dx,$$

$$\hat{\sigma}_N^2 = \sigma_0^2 + o(\gamma_n).$$

Легко видеть, что

$$\frac{T_n - \Delta_0}{\sigma_0 \sqrt{h}} = U_1 + U_2 + U_3 + U_4,$$

где
$$U_1 = \frac{\hat{T}_n - \Delta_n}{\sigma_0 \sqrt{h}}, \quad U_2 = \frac{2n\sqrt{h}}{\sigma_0} \int_0^1 [S'_N(x) - f_N(x)] [f_N(x) - f_N^0(x)] a(x) dx,$$

$$U_3 = \frac{n\sqrt{h}}{\sigma_0} \int_0^1 [f_N(x) - f_N^0(x)]^2 a(x) dx, \quad U_4 = \frac{\Delta_N - \Delta_0}{\sigma_0 \sqrt{h}}.$$

Согласно теореме 1, если $\sqrt{N} \gamma_n \rightarrow 0$, когда $n \rightarrow \infty$, U_1 распределена при гипотезе H_n асимптотически нормально со средним 0 и дисперсией 1.

Имеем

$$\int_0^1 [f_N(x) - f_N^0(x)]^2 a(x) dx = \gamma_n^2 \int_0^1 \left(\frac{1}{h} \int W_N(x, y) g(y) dy \right)^2 a(x) dx, \quad (7)$$

$$\begin{aligned} \frac{1}{h} \int_0^1 W_N(x, y) g(y) dy &= \frac{1}{h} \int_0^1 W_N(x, y) dG(y) = \frac{1}{h} \sum_{j=0}^{N-1} \hat{E}_{i,j}(x) [G(x_{j+1}) - G(x_j)] = \\ &= \frac{G(x_i) - G(x_{i-1})}{h} + \frac{1}{h} \sum_{j=0}^{N-1} \hat{D}_{i,j}(x) [G(x_{j+1}) - G(x_j)], \end{aligned} \quad (8)$$

где $G'(x) = g(x)$, $x \in [x_{i-1}, x_i]$

Используя формулу Тейлора и лемму 1, легко находим (при $n \rightarrow \infty$)

$$G(x_i) - G(x_{i-1}) = hg(x) + o(h), \quad x \in [x_{i-1}, x_i]$$

$$\frac{1}{h} \sum_{j=0}^{N-1} \hat{D}_{i,j}(x) [G(x_{j+1}) - G(x_j)] = o(1). \quad (9)$$

Учитывая (8) и (9), получим

$$\frac{1}{h} \int_0^1 W_N(x, y) g(y) dy = g(x) + o(1) \quad \text{при } n \rightarrow \infty. \quad (10)$$

Из условия теоремы и из соотношений (7), (10) непосредственно следует, что

$$U_3 = \frac{1}{\sigma_0} \int_0^1 g^2(x) a(x) dx + o(1) \quad \text{при } n \rightarrow \infty.$$

Далее,

$$U_4 = \frac{\gamma_n}{\sigma_0 \sqrt{h}} \int_0^1 a(x) g(x) dx \int_0^1 B(x) dx = \sigma_0^{-1} n^{-\frac{\alpha+2}{4}} \int_0^1 a(x) g(x) dx \int_0^1 B(x) dx;$$

и $U_4 \rightarrow 0$ при $n \rightarrow \infty$.

В силу (16) из [2] и (10) следует, что $U_2 \rightarrow 0$ по вероятности, при $n \rightarrow \infty$. Теорема 2 доказана.

ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА:

1. Муминов М. "Построение сплайн-оценки плотности вероятностей". "Узб.матем.журнал"- 2015, № 2, с.84-88.

MATEMATIKADAN RIVOJLANTIRUVCHI TA'LIMGA ASOSLANGAN O'QUV JARAYONI MODELII QURILISHINING ASOSLANISHI

Dilsora ABDUVALIYEVA – Nizomiy nomidagi TDPU magistranti

Ta'lim jarayonining tamoyillarini aniqlash va optimallashtirishga yo'naltirilgan usullar, materiallarni loyihalash va tizimlilik pedagogik nazariyaning ilmiylik mezonlaridan biridir. Mazkur maqolada matematikada fikrlashning tizimli usulini joriy etish, ma'lum yaxlitlikni hosil qiluvchi elementlar va ular orasidagi munosabatlar, matematik ta'lim maqsadlari va ularni tatbiq etish masalalari to'g'risida so'z yuritiladi.

In education field correcting principle and make optimal approaches, using materials, systemizing and pedagogical theory is on of the criterion of science. In this article tell about implement thinking mathematics systemizing type, gathering parts and fint connection between them, mathematics educational goals.

Kalit so'zlar: *komponent, o'qitish texnologiyasi, didaktik muammo, pedagogik texnologiya, tizim, ijtimoiy tajriba.*

Ключевые слова: *технология обучении, компонент, проблема дидактики, педагогическая технология, система, социальный опыт.*

Rivojlantiruvchi ta'lim texnologiyasi modelini ishlab chiqish jarayonida ta'lim to'g'risidagi qarashlarning komponentlari, tuzilishi, aloqadorliklar darajasi aniqlashtiriladi.


«O'qitish texnologiyasi» atamasi o'quv jarayonida turli texnik vositalardan foydalanish tufayli XX asrda yuzaga kelgan. Bunday xatti-harakatlarning muhim natijasi dasturiy ta'limning yuzaga kelganligi bo'ldi. O'tgan asrning yetmishinchi yillarida tizimli yondashuvning ta'siri aniq belgilangan maqsadlar va ularga erishishni aniq ifodalash va belgilashga ega bo'lgan o'quv jarayonini boshqarish bilan bog'liq didaktik muammolarni hal qilishda pedagogik texnologiyalarning umumiy belgilanishiga olib keldi.

Pedagogik texnologiyalarga bag'ishlangan zamonaviy tadqiqotlarda uni yangicha tushunish kuzatiladi. U ta'lim jarayonining tamoyillarini aniqlash va optimallashtirish usullarini, yo'naltirilgan usullar va materiallarni loyihalash va qo'llashni nazarda tutadi. Uning mohiyati o'quv jarayonining to'liq boshqarilishidan iborat.

Yapon pedagog olimi T. Sakamotoning tavsifiga ko'ra, pedagogik texnologiya pedagogikada fikrlashning tizimli usulini joriy etishni ifodalaydi, uni "ta'limni tizimlashtirish" yoki "sinf ta'limini tizimlashtirish" deb atash mumkin.

V.V. Kraevskiy pedagogik nazariyaning ilmiylik mezonlaridan biri tizimlilik belgisi ekanligini ta'kidlaydi.


Ta'lim jarayonini tizim sifatida tushunishga turlicha yondashuvlar murakkab hodisani oqilona anglashning zarurati tufayli yuzaga kelgan: ularning mavjudligi tizimni turlicha ta'riflash imkoniyatini ifodalaydi. Rivojlantiruvchi ta'lim tizimi ta'lim jarayoni qonuniyatlarini aniq tushunish asosida quriladi. Shuning uchun rivojlantiruvchi ta'lim xususiyatlariga ega bo'lgan o'quv jarayonining modeli zarurdir. Tizim deganda ma'lum yaxlitlikni hosil qiluvchi ko'pgina elementlar ular orasidagi munosabatlar va aloqalar bilan tushunladi.



Bunday tushunishdan kelib chiqqan holda, biz matematikadan rivojlantiruvchi ta'lim tizimi modelini qurdik. Odatda, umumiy tizimni qurishda avvalo uning alohida komponentlarini ajratib olish talab etiladi. So'ngra komponentlararo aloqalar o'rnatiladi, komponentlarning mazmuni aniqlab olinadi va oqibatda tizim yuzaga keladi. U o'z navbatida

kelgusidagi nazariy va amaliy ishlanmalarga turtki beradi.


Metodikani an'anaviy tushunish quyidagi savollarga javob topishdan iborat: "nimaga o'qitish?", "nimani o'qitish?" va "qanday o'qitish?". Chiziqli ketma-ketlikda ifodalash mumkin bo'lgan o'quv jarayonining komponentlari (*elementlari*) ajratiladi:



Keltirilgan sxemada ta'lim maqsadlari birinchi hisoblanadi, barcha qolgan komponentlar avvalgilarning natijasi hisoblanadi.

A.M. Pishkalo matematikadan boshlang'ich ta'lim metodikasining ishlab chiqilishi sababli tizimli

yondashuv variantini taklif etdi. Unda sanab o'tilgan ko'pgina komponentlar ma'lum ichki aloqalar bilan yagona yaxlitlikni tashkil etadi. Bunda tizimning tuzilishi quyidagicha ifodalanadi:



A.M. Pishkalo taklif etgan tuzilma, albatta, metodik fikrning rivojlanishidagi bir qadam hisoblanadi, ammo u qator kamchiliklarga ega. Haqiqatda "nima uchun o'qish?", "nimani o'qish?" va "qanday o'qish?" savollari bilan bir qatorda "kimni o'qitish?" savoli yuzaga keladi.

Bunday savolning qo'yilishida, o'quv jarayonida boshqa omillar bilan bir qatorda o'quvchilarning fikrlash faoliyatlarining o'ziga xosliklarini inobatga olish zarur.


A.M. Pishkaloning an'anaviy sxemasi va tizimida esa o'quv jarayonining mazkur jihati yaqqol ko'rinishda ajratilmaydi. Shu sababli, matematikani o'rganishda ahamiyatli rol o'ynaydigan, o'quv jarayonida bilish metodlarining o'rni ravshan bo'ladi.

Ta'limning ob'ektiv tomoni bilan bir vaqtda uning sub'ektiv tomoni ham mavjud. O'quvchi an'anaviy ta'lim jarayoniga mos ravishda, unga beriladigan bilimlarni faqatgina o'zlashtiribgina qolmay, o'z

shaxsiy faoliyati jarayonida egallaydi. Bunda o'qituvchining roli bilimlarni yetkazish emas, balki bilimlarni egallash jarayonini tashkil etishdir. Ish mazmuni shunday tashkil etilishi kerakki, unda o'quvchi uni mustaqil ravishda asta-sekin o'zi ochishi lozim.

Ko'pincha o'qitish deganda, o'quvchining ijtimoiy tajribaning biror qismini egallashi maqsadida o'quvchi va o'qituvchining o'zaro munosabati tushuniladi, bunda o'qituvchining vazifasi esa mazkur tajribani yetkazish emas, balki o'quvchilar tomonidan tajribani egallash jarayonini tezlashtirish hisoblanadi.

I.Ya. Lerner "Ta'limning asosiy elementi faoliyat hisoblanadi va usiz faoliyat, o'quv faoliyati va ta'lim mazmuni mavjud bo'lmaydi. Ular o'rtasidagi o'zaro aloqalar ta'limni tashkil etadi" deb ta'kidlagan. I.Ya. Lerner sxematik aloqadorlikni quyidagicha tarzda ifodalagan:



Metodika darajasida o'qituvchi va o'quvchining o'zaro munosabati ta'lim mazmunining materiali orqali sodir bo'ladi deb hisoblash tabiiydir. An'anaviy metodikada o'quv materiali avvaldan ishlangan deb hisoblanadi.

Aqliy rivojlanish uchun rivojlantiruvchi ta'limning yaxlit tavsifini yaratish nuqtai nazaridan I.Ya. Lerner o'quv jarayoni doirasida ijodiy faoliyat tuzilmasini yaratish zarurati to'g'risidagi muhim fikrni bildirgan. Ijodiy faoliyat tuzilmalarini ta'lim faoliyati bilan

qiyoslash va rivojlantiruvchi ta'limni qurishda ularni o'quv jarayonining mantiqi nuqtai nazaridan ko'rib chiqish qiziqish uyg'otadi.

Rivojlantiruvchi ta'lim tizimini qurishda o'quv jarayoni ma'lum elementlar: maqsad, ta'lim mazmuni, metodlar va vositalar, tashkiliy shakllar, nazoratdan iborat statik modelnigina emas, balki o'quv jarayoni dinamikasi ham nazarda tutiladi.

L.Ya. Zorina didaktik davriylikning bo'g'inlarini uchta holatlarda aniqlaydi:

1. Materialni faqatgina u qo'llaniladigan va bilish ob'ektiga shaxsiy munosabat vaziyatida to'liq o'zlashtirish sodir bo'ladi;

2. O'qitishning roli didaktik davriylikka ta'lim mazmuni, uni o'zlashtirishni tashkil etishni kiritish ta'minlanishidan iborat o'qitish va o'qishning yaxlitligi;

3. O'quvchilar motivatsiyalarini, o'quv faoliyati xarakterini aniqlash, oxir oqibatda mazmuni tashkil etish va kirish yo'llarining o'ziga xosliklari orqali bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish.

Mazkur holatlar bilan mos ravishda umumiy va maxsus didaktik vazifalarni amalga oshiruvchi ta'lim jarayonining didaktik davriyligining beshta tarkibiy element-bo'g'inlari ajratilgan:

1) umumiy didaktik maqsadlarni belgilash va uni o'quvchilar tomonidan qabul qilinishi;

2) o'quv materialining yangi bo'lagini turli usullar bilan taqdim etish va uni ongli ravishda idrok etilishi;

3) yangi o'quv materialini optimal darajada (mazkur sharoitlarda) qo'llashda o'quvchilarni tashkil etish va o'z-o'zini tashkil etish;

4) qayta aloqani tashkil etish, o'quv materialini o'zlashtirish nazorati va o'z-o'zini nazoratini tashkil qilish;

5) o'quvchilarni maktabdan tashqari ishlarga tayyorlash.

O'quvchilarning rivojlanishlari, avvalo, ularning maktabdagi ta'lim olishlari bilan bog'liq. Shuningdek, ijtimoiy tajriba, turli kasb egalari bilan muloqot, ommaviy axborot vositalaridan keladigan ma'lumotlar – bularning barchasi ham o'quvchilarning rivojlanishlariga ta'sir ko'rsatadi.

O'quvchilarning «dasturdan tashqari» faoliyatlarining rivojlantiruvchi ta'sirini kuchaytirish lozim. Bu sinfdan tashqari va maktabdan tashqari ishlar, ekskursiyalar, olimlar bilan uchrashuvlar va boshqalar bo'lishi mumkin. Bu holatlarda maktabning uning ijtimoiy atrof-muhiti bilan o'zaro munosabati namoyon bo'ladi. Maktab o'quvchisi muhit bilan o'zaro munosabatning faol ishtirokchisiga aylanadi.

Xulosa shuki, rivojlantiruvchi ta'limda didaktik tizimning komponentlar ierarxiyasidagi yetakchi rol o'qituvchi va o'quvchilarning hamkorlikdagi faoliyatlariga taalluqli hisoblanadi. Rivojlantiruvchi ta'lim tizimining dinamikligi va boshqariluvchanligiga didaktik davriyliklarning almashishi va yakunlanishi bilan erishiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. «Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori». T.: «Sharq» NMK-1997.
2. Ahmedov M., Abdurahmonova N., Jumayev M. Birinchi sinf matematika darsligi. T.: "Sharq" – 2005.
3. Ahmedov M va boshqalar. To'rtinchi sinf matematika darsligi. T.: "O'qituvchi"- 2005.
4. Bikbayeva N., Sidelnikova R., Adambekova G. "Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasi". T.: "O'qituvchi" -1996 .
5. Jumayev M. "Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasidan praktikum". T.: "O'qituvchi"- 2004.

RESPUBLIKAMIZDAGI SUT EMIZUVCHILARDA PARAZITLIK QILUVCHI FILYARIATLAR VA ULARNING ORALIQ XO'JAYINLARI

Qalandar SAPAROV – Nizomiy nomidagi TDPU Tabiiy fanlar fakulteti dekani, biologiya fanlari doktori
Ziyoda MIRKOMILOVA – Nizomiy nomidagi TDPU talabasi

Mazkur maqolada O'zbekistonda sut emizuvchilarning turlari, ularning gelmintlari, filyariatlarning hayvonlarning tana bo'shlig'ida, teri osti to'qimasida, muskullar orasidagi biriktiruvchi to'qimalarida, bo'g'im oralig'i bo'shliqlarida hamda qon va limfa suyuqliklarida parazitlik qilishi hamda ularning tur tarkibini o'rganish bo'yicha olib borilgan ilmiy tahlillar natijalari to'g'risida so'z yuritiladi. Shuningdek, sut emizuvchilar filyariatlarining rivojlanish siklida ikki qanotli hasharotlarning oraliq xo'jayinlar sifatidagi ishtiroki, sut emizuvchilarda uchrovchi filyariatlarning asosiy va oraliq xo'jayinlari o'rtasidagi biosenotik munosabatlar yoritib berilgan.

В этой статье рассматриваются результаты научного анализа и исследования млекопитающих Узбекистана, их гельминты, филяриаты в полости животного, подкожные ткани, соединительные ткани между мышцами, суставов, а также лимфотические жидкости в крови в диапазоне исследования вакуума паразитов и их видового состава. Также описываются отношения участие двухкрылых насекомых в качестве промежуточных владельцев в развитии филяриат млекопитающих и связь биоцинозов между основными и промежуточными хозяевами млекопитающих.

In this article, the results of the scientific analysis and research of mammals of Uzbekistan, their helminths, filarial in the animal's cavity, subcutaneous tissue, connective tissues between the muscles, joints, as well as lymphatic fluid in the blood in the range of study of the parasitic vacuum of their species composition are considered. Also describes the relationship of the participation of Dipterous insects as intermediate owner in the development of military filarias and relationship of biocinosis between the main and intermediate hosts of mammals.

Kalit so'zlar: sut emizuvchilar, gelmintlar, juft tuyoqlilar, yirtqichlar va kemiruvchilar, hasharotxo'rlar, filyariatlar, «Parazitlar ekologiyasi».

Ключевые слова: млекопитающие, гельминты, парнокопытные, хищники и грызуны, насекомоядные, филяриады, «Экология паразитов».

Key words: mammal, helminth, cleft-footed, predator, gnawing beasts, insect-eater, filariasis, "Ecological parasite"

O'zbekistonda sut emizuvchilarning 105 ta turi mavjud bo'lib, ularning tabiiy sharoitga moslashganligi aniqlangan.

Sut emizuvchilarning gelmintlari uzoq yillardan beri olimlarimiz tomonidan o'rganilib kelinmoqda. Ayniqsa, juft tuyoqlilar, toq tuyoqlilar, qadoqoyoqlilar, yirtqichlar va kemiruvchilar turkumlariga kiruvchi hayvonlarning gelmintlari batafsil o'rganilgan. Shuningdek, tovushqonsimonlar, hasharotxo'rlar va qo'lqanotlilarning gelmintlari to'g'risida ham ayrim ma'lumotlar mavjud. Lekin, respublikamizda sut emizuvchilarda parazitlik qiluvchi filyariatlarning tur tarkibi, ularning turli mintaqalarda tarqalishi, keng tarqalgan va mahsuldor hayvonlarga katta ziyon keltiruvchi vakillarining bioekologik xususiyatlarini o'rganish hamda ularga qarshi profilaktik choratadbirlarni ishlab chiqish bo'yicha maqsadli tadqiqot ishlari olib borilmagan. Shularni hisobga olgan holda, oxirgi yillarda O'zbekistonning turli mintaqalarida sut emizuvchilarda parazitlik qiluvchi filyariatlarning tur tarkibi, taksonomiyasi, tarqalishi va bioekologik xususiyatlarini o'rganish maqsadga muvofiqligini ta'kidlash lozim.

Filyariatlar hayvonlarning tana bo'shlig'ida, teri osti to'qimasida, muskullar orasidagi biriktiruvchi to'qimalarida, bo'g'im oralig'i bo'shliqlarida hamda qon va limfa suyuqliklarida parazitlik qiladi.

Filyariatlarning tur tarkibini o'rganish uchun oxirgi yillarda respublikamizning turli mintaqalarida 1550 bosh uy va yovvoyi sut emizuvchilarni to'liq gelmintologik tekshiruvdan o'tkazildi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi FA Zoologiya institutining «Parazitlar ekologiyasi» laboratoriyasi ilmiy xodimlari tomonidan uzoq yillar davomida sut emizuvchilarning gelmintlari bo'yicha yig'ilgan materiallar ham o'rganib, tahlil qilindi.

Sut emizuvchilarda parazitlik qiluvchi filyariatlarning oraliq xo'jayinlarini aniqlash maqsadida Respublikamizning turli mintaqalarida 39 turga kiruvchi 50 mingga yaqin ikki qanotli hasharotlar gelmintologik tekshiruvdan o'tkazildi. Tadqiqotlar natijasiga ko'ra va adabiyotlar ma'lumotlarining tahlili asosida [1; 2; 3; 4; 5; 6; 7] O'zbekiston sharoitida sut emizuvchilarda 23 ta turga mansub filyariatlar parazitlik qilishi ma'lum bo'ldi (1-jadval).

1-jadval

Respublikamiz sut emizuvchilarida parazitlik qiluvchi filyariatlarning tur tarkibi

| № | Filyariatlarning tur tarkibi | Filyariatlarning asosiy xo'jayinlari (turkumlari) | | | | | | |
|------|---|---|-------------------|---------------|-------------|----------------|-----------------|----------------|
| | | Qo'lqanotlilar | Tovushqonsimonlar | Kemiruvchilar | Yirtqichlar | Toq tuyoqlilar | Juft tuyoqlilar | Qadoqoyoqlilar |
| 1 | 2 | 3 | 4 | 5 | 6 | 7 | 8 | 9 |
| 1 | <i>Litomosa dogieli</i> Bogdanov et Vladimirov, 1956 | + | - | - | - | - | - | - |
| 2 | <i>L. skarbilovitchi</i> Petrov et Tschertkova, 1954 | + | - | - | - | - | - | - |
| 3 | <i>Micipsella numidica</i> (Seurat, 1917) | - | + | - | - | - | - | - |
| 4 | <i>Dipetalonema viteae</i> (Krepkogorskaya, 1933) | - | - | + | - | - | - | - |
| 5 | <i>D. evansi</i> (Lewis, 1882) | - | - | - | - | - | - | + |
| 6 | <i>Dirofilaria immitis</i> (Leidy, 1865) | - | - | - | + | - | - | - |
| 7 | <i>D. repens</i> Railliet et Henry, 1911 | - | - | - | + | - | - | - |
| 8 | <i>Onchocerca reticulata</i> Diesing, 1841 | - | - | - | - | + | - | - |
| 9 | <i>O. cervicalis</i> Railliet et Henry, 1910 | - | - | - | - | + | - | - |
| 10 | <i>O. caprae</i> (Linstow, 1883) | - | - | - | - | - | + | - |
| 11 | <i>O. lienalis</i> (Stiles, 1892) | - | - | - | - | - | + | - |
| 12 | <i>O. fasciata</i> Railliet et Henry, 1910 | - | - | - | - | - | - | + |
| 13 | <i>Parafilaria multipapillosa</i> (Condamine et Drouilly, 1878) | - | - | - | - | + | - | - |
| 14 | <i>P. antipini</i> Ruchliadev, 1947 | - | - | - | - | - | + | - |
| 15 | <i>P. bovicola</i> Tubanguai, 1934 | - | - | - | - | - | + | - |
| 16 | <i>Setaria equina</i> (Abildgaard, 1789) | - | - | - | - | + | - | - |
| 17 | <i>S. bernardi</i> Railliet et Henry, 1911 | - | - | - | - | - | + | - |
| 18 | <i>S. digitata</i> (Linstow, 1906) | - | - | - | - | + | + | - |
| 19 | <i>S. labiato-papillosa</i> (Alessandrini, 1838) | - | - | - | - | + | + | + |
| 20 | <i>S. cervi</i> (Rudolphi, 1819) | - | - | - | - | - | + | - |
| 21 | <i>Skrjabinodera saiga</i> Gnedina et Vsevolodov, 1947 | - | - | - | - | - | + | - |
| 22 | <i>Stephanofilaria stilesi</i> Chitwood, 1934 | - | - | - | - | - | + | - |
| 23 | <i>S. assamensis</i> Pande, 1936 | - | - | - | - | - | + | - |
| Jami | | 2 | 1 | 1 | 2 | 6 | 11 | 3 |

Birinchi jadvalda keltirilgan ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, O'zbekiston sharoitida sut emizuvchilarda parazitlik qiluvchi filyariatlardan 2 tadan turlari qo'lqanotlilar va yirtqichlar turkumlarida, 3 ta turi qadoqoyoqlilar, 1 tadan turi tovushqonsimonlar va kemiruvchilar, 6 ta turi toq tuyoqlilar va 11 ta turi juft tuyoqlilar vakillarida uchraydi. Eng ko'p tur filyariatlar asosan, juft tuyoqlilar (11 ta tur) va toq tuyoqlilar (6 ta tur) turkumlari vakillarida parazitlik qiladi. Bu esa, filyariatlarning uzoq evolyutsiya jarayonida turli ekologik muhitda, asosan juft tuyoqlilar va toq

tuyoqlilar turkumlarida parazitlik qilishga moslashganligidan dalolat beradi.

Ma'lumki, filyariatlarning rivojlanish sikli asosan hasharotlar va kanalar orqali boradi. Respublikamizning turli mintaqalarida katta miqdordagi ikki qanotli hasharotlarni yig'ib gelmintologik tekshiruvdan o'tkazdik. Natijada yig'ilgan va tekshirilgan 39 ta turga kiruvchi ikki qanotli hasharotlardan 11 ta turi filyariatlarning rivojlanish siklida oraliq xo'jayinlar sifatida ishtirok etishini aniqladik (2- jadval).

Sut emizuvchilar filyariatlarining rivojlanish siklida ikki qanotli hasharotlarning oraliq xo'jayinlar sifatidagi ishtiroki

| № | Ikki qanotli hasharotlar turkumi turlari | Tekshirilgan hasharotlar soni | Zararlangan hasharotlar | | Hasharotlarda topilgan filyariatlarning lichinkasi |
|----|--|-------------------------------|-------------------------|------------|--|
| | | | soni | foizi, (%) | |
| | 1 | 2 | 3 | 4 | 5 |
| 1 | <i>Musca domestica</i> | 2689 | | | |
| 2 | <i>Musca autumnalis</i> | 561 | | | |
| 3 | <i>Musca direcina</i> | 112 | | | |
| 4 | <i>Musca vitripennis</i> | 87 | | | |
| 5 | <i>Musca osiris</i> | 144 | | | |
| 6 | <i>Musca larvipara</i> | 745 | | | |
| 7 | <i>Musca tempesta</i> | 1827 | | | |
| 8 | <i>Musca sp.</i> | 667 | | | |
| 9 | <i>Muscina stabulans</i> | 565 | | | |
| 10 | <i>Lyperosia irritans</i> | 6233 | 161 | 2,6 | <i>Stephanofilaria stilesi, S. assamensis</i> |
| 11 | <i>Lyperosia titillans</i> | 5639 | 152 | 2,7 | <i>Stephanofilaria stilesi, S. assamensis</i> |
| 12 | <i>Stomoxys calcitrans</i> | 989 | 7 | 0,7 | <i>Stephanofilaria stilesi, S. assamensis, Setaria sp.</i> |
| 13 | <i>Pyrellia cadavaina</i> | 27 | | | |
| 14 | <i>Fannia canicularis</i> | 16 | | | |
| 15 | <i>Haematobia atripalpis</i> | 168 | 1 | 0,5 | <i>Parafilaria multipapillosa</i> |
| 16 | <i>Chrysops mlokosiewiczzi</i> | 193 | | | |
| 17 | <i>Hybomitra erberi</i> | 139 | | | |
| 18 | <i>Hybomitra peculiaris</i> | 125 | | | |
| 19 | <i>Tabanus leleani</i> | 98 | | | |
| 20 | <i>Culex pipiens</i> | 867 | 3 | 0,3 | <i>Setaria sp., Dirofilaria sp.</i> |
| 21 | <i>Culex pusiellus</i> | 194 | | | |
| 22 | <i>Aedes caspius caspius</i> | 2336 | 7 | 0,3 | <i>Setaria labiato-papillosa, Dirofilaria immitis, D.repens, Dipetalonema evansi</i> |
| 23 | <i>Aedes vexans</i> | 543 | | | |
| 24 | <i>Anopheles superpictus</i> | 194 | 2 | 1,0 | <i>Setaria sp., Dirofilaria sp.</i> |
| 25 | <i>Anopheles maculipennis</i> | 64 | | | |
| 26 | <i>Culicoides puncticollis</i> | 920 | 2 | 0,2 | <i>Onchocerca cervicalis</i> |
| 27 | <i>Culicoides desertorum</i> | 315 | | | |
| 28 | <i>Culicoides circumscriptus</i> | 287 | | | |
| 29 | <i>Culicoides schultzei</i> | 258 | | | |
| 30 | <i>Odagmia ornata</i> | 7940 | 379 | 4,8 | <i>O. lienalis</i> |
| 31 | <i>Odagmia barocornis</i> | 146 | | | |
| 32 | <i>Odagmia caucasica</i> | 138 | | | |
| 33 | <i>Friesia alajensis</i> | 5824 | 237 | 4,0 | <i>O. lienalis</i> |
| 34 | <i>Friesia desertorum</i> | 117 | | | |
| 35 | <i>Friesia cerisorum</i> | 97 | | | |
| 36 | <i>Friesia coarctata</i> | 75 | | | |
| 37 | <i>Simulium flavidum</i> | 109 | 1 | 0,9 | <i>Onchocerca sp.</i> |
| 38 | <i>Wilhelmia mediterranea</i> | 68 | | | |
| 39 | <i>Wilhelmia veltisthevi</i> | 57 | | | |
| | | 48981 | | | |

Ma'lumki, «parazit - xo'jayin» sistemasining epizootologik zanjirida parazitning ikki xo'jayin o'rtasidagi aloqa muhim hisoblanadi. O'zbekistonda

sut emizuvchilar filyariatlarining asosiy va oraliq xo'jayinlari o'rtasidagi biotsenotik munosabatlar quyidagi 3-jadvalda keltirilgan.

Respublikamizda sut emizuvchilarda uchrovchi filyariatlarning asosiy va oraliq xo'jayinlari o'rtasidagi biosenotik munosabatlar

| № | Filyariatlarning tur tarkibi | Asosiy xo'jayinlari | Parazitlik qiladigan organlari | Oraliq xo'jayinlari |
|----|-----------------------------------|---|--|--|
| 1 | 2 | 3 | 4 | 5 |
| 1 | <i>Litomosa dogieli</i> | O'tkir quloqli ko'rshapalak va uch rangli tunshapalaklar | Tana bo'shlig'i | |
| 2 | <i>L. skarbilovitchi</i> | Buxoro taqaburun ko'rshapalagi | Tana bo'shlig'i, oshqozon | |
| 3 | <i>Micipsella numidica</i> | Tolay tovushqoni | Qorin bo'shlig'i, jigar qon tomirlari | |
| 4 | <i>Dipetalonema viteae</i> | Qizildum va katta qum sichqonlari | Teri osti to'qimalari, qorin bo'shlig'i | Adabiyot ma'lumotlariga ko'ra <i>Ornithodoros tartakowskyi</i> , <i>O.erraticus</i> va <i>Rhinocephalus sp.</i> kanalari |
| 5 | <i>D. evansi</i> | Tuya | Yurak, o'pka, qorindagi qon tomirlari, ko'krak bo'shlig'i | <i>Aedes caspius caspius</i> chivin turi |
| 6 | <i>Dirofilaria immitis</i> | It, chiyabo'ri | Yurakning o'ng qorinchasi va o'pka arteriyasi | <i>Anopheles sp.</i> <i>Culex sp.</i> va <i>Aedes caspius caspius</i> chivinlari |
| 7 | <i>D. repens</i> | It, chiyabo'ri, to'qay mushugi | Teri osti to'qimalari | |
| 8 | <i>Onchocerca reticulata</i> | Ot va eshak | Bo'yin, oyoq paylari va bo'g'inlari | |
| 9 | <i>O. cervicalis</i> , | Ot va eshak | Bo'yin paylari, teri osti to'qimalari, kurak usti bog'lami | <i>Culicoides</i> zahkash chivini |
| 10 | <i>O. caprae</i> | Echki | Til osti muskullari | |
| 11 | <i>O. lienalis</i> | Qoramol | Gastrolial bog'lag'ichi | <i>Odagmia sp.</i> bukur chivini |
| 12 | <i>O. fasciata</i> | Tuya | Teri osti to'qimalari va bo'yin paylari | |
| 13 | <i>Parafilaria multipapillosa</i> | Ot, eshak | Teri osti to'qimalari | <i>Haematobia atripalpis</i> pashsha turi |
| 14 | <i>P. antipini</i> | Sayg'oq | Teri osti to'qimalari | |
| 15 | <i>P. bovicola</i> | Qoramol | Teri va teri osti to'qimalari | |
| 16 | <i>Setaria equina</i> | Ot, eshak | Qorin va ko'krak bo'shlig'i | <i>Aedes caspius caspius</i> , <i>Culex sp.</i> chivinlari va <i>Stomoxys calcitrans</i> pashshasi |
| 17 | <i>S. bernardi</i> | Cho'chqa, to'ng'iz | Qorin bo'shlig'i | |
| 18 | <i>S. digitata</i> | Qoramol, ot | Qorin bo'shlig'i | <i>Anopheles sp.</i> iskabtopari va <i>Aedes sp.</i> chivini |
| 19 | <i>S. labiato-papillosa</i> | Qo'y, echki, qoramol, tuya, jayron, Buxoro bug'usi, yelik | Qorin bo'shlig'i, ichak | <i>Aedes caspius caspius</i> , <i>Culex sp.</i> chivinlari va <i>Stomoxys calcitrans</i> pashshasi |
| 20 | <i>S. cervi</i> | Buxoro bug'usi, yelik | Ko'krak va qorin bo'shlig'i | <i>Haematobia sp.</i> pashshasi |
| 21 | <i>Skrjabinodera saiga</i> | Sayg'oq, qo'y | Teri osti to'qimalari, qorin bo'shlig'i | |

| | | | | |
|----|--------------------------------|---------|--|---|
| 22 | <i>Stephanofilaria stilesi</i> | Qoramol | Quloq ichki tomonining o'рта qismi va qorin terisi | <i>Lyperosia irritans</i> , <i>Lyperosia titillans</i> , <i>Stomoxys calcitrans</i> pashsha turlari |
| 23 | <i>S. assamensis</i> | Qoramol | Quloq ichki tomonining o'рта qismi va qorin terisi | <i>Lyperosia irritans</i> , <i>Lyperosia titillans</i> , <i>Stomoxys calcitrans</i> pashsha turlari. |

Uchunchi jadvalda keltirilgan ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, O'zbekistonda sut emizuvchilarda parazitlik qiluvchi filyariatlardan onxotserkalarining rivojlanishi asosan, *Culicoides puncticollis* - zahkash chivini va *Odagmia ornata*, *Friesia alajensis*, *Simulium flavidum* kabi bukir chivinlari orqali boradi.

Setariylarning rivojlanish siklida *Aedes caspius caspius*, *Culex sp.*, *Anopheles sp.* chivinlari va *Stomoxys calcitrans*, *Haematobia sp.* pashshalari oraliq xo'jayinlar sifatida ishtirok etadi.

Qoramollarda parazitlik qiluvchi stefanofilyariyalarning rivojlanish siklida asosan, *Lyperosia irritans*, *Lyperosia titillans* va *Stomoxys calcitrans* turlariga kiruvchi qon so'ruvchi pashshalar oraliq xo'jayinlar sifatida qatnashadi. Parafilyariyalarning rivojlanish siklida esa qon so'ruvchi pashsha *Haematobia aripalpis* oraliq xo'jayin hisoblanadi. Dipetalonemaning rivojlanishida esa asosan, *Aedes caspius caspius* chivin turi oraliq xo'jayin sifatida aniqlangan.

Yirtqich sut emizuvchilarda parazitlik qiluvchi dirofilariyalarning rivojlanish sikli esa *Aedes caspius caspius*, *Culex sp.* va *Anopheles sp.* kabi qon so'ruvchi chivinlar orqali boradi.

O'zbekistonda sut emizuvchilarda parazitlik qiluvchi filyariatlardan: *Litomosa dogieli*, *L. skarbilovitchi*, *Micipsella numidica*, *Dipetalonema viteae*, *Dirofilaria immitis*, *Onchocerca reticulata*, *O. fasciata*, *Parafilaria antipini*, *P. bovicola*, *Skrjabinodera saiga* kabi turlarining biologik xususiyatlari haqida aniq ma'lumotlar yo'q. Shunday

ekan, O'zbekistonda sut emizuvchilarda parazitlik qiluvchi filyariatlarning biologik va ekologik xususiyatlarini to'laqonli o'rganish hamda keng tarqalgan va qishloq xo'jalik hayvonlariga sezilarli darajada ziyon keltiruvchi turlariga qarshi biologik asosda kurash choralarini ishlab chiqish shu kunning dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi va bu yo'nalishda tadqiqot ishlarimizni davom ettirmoqdamiz. Xulosalar quyidagicha:

1. Olib borilgan tadqiqotlar natijasiga ko'ra va adabiyot ma'lumotlari asosida O'zbekiston sharoitida sut emizuvchilarda parazitlik qiluvchi gelmintlardan 23 ta turi filyariatlar kenja turkumiga mansubligi ma'lum bo'ldi. Jumladan 2 tadan turi qo'lqanotlilar va yirtqichlar turkumlari vakillarida, 3 ta turi qadoqoyoqlilar, 1 tadan turi tovushqonsimonlar va kemiruvchilar, 6 ta turi toq tuyoqlilar va 11 ta turi juft tuyoqlilar turkumi vakillarida parazitlik qilishi aniqlandi.

2. 23 ta tur filyariatlarning rivojlanish siklida asosan, ikki qanotlilar turkumiga kiruvchi 11 ta tur hasharotlar oraliq xo'jayinlar sifatida ishtirok etishi ma'lum bo'ldi.

3. Filyariatlarning qishloq xo'jaligi hayvonlariga sezilarli darajada ziyon keltiruvchi gelmintozlariga – arafilyarioz, setarioz, stefanofilyarioz, onxotserkoz va dipetalonemozlar kiradi. Ular hayvonlarning turli to'qima va organlarida parazitlik qilib, chorva mahsuldorligining keskin kamayib ketishiga va ba'zan chorva mollarining nobud bo'lishiga ham olib keladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Богданов О., Владимиров В. “О гельминтофауне рукокрылых Узбекистана”. Т.: “ДАН Уз ССР” - 1956, № 1, стр.47 -51.
2. Голованов В. Биология Onchocerca gutturoza Neumann, 1910 и эпизоотология онхоцеркозов крупного рогатого скота в Узбекистане. Автореф. дисс. канд. биол. наук, Душанбе-1973, стр. 33.
3. Давлатов Н. “Гельминтофауна грызунов, зайцеобразных и насекомоядных в условиях Узбекистана”. Автореф. дисс.канд.биол. наук, Ташкент-1970, стр.23.
4. Дадаев С., Сапаров К. “О роли двукрылых насакомых в церкуляции гельминтов сельскохозяйственных животных Узбекистана”. «Достижения и преспективы развития современной паразитологии», Материалы Vмеждун. научно-практ.конфер. Витебск- 2006, стр.112-115.
5. Дадаев С., Голованов В., Сапаров К. “О филяриатах млекопитающих Узбекистана”. Материалы научной конференции “Актуальные проблемы зоологической науки”. Т.: 2009, стр.52.
6. Катайцева Т. “Изучение биологии возбудителя и эпизоотологии депеталонематоза верблюдов”. Автореф. дисс.канд.биол. наук, Москва-1969, стр.20.
7. Султанов М., Азимов Д., Гехтин В., Муминов П. “Гельминты домашних млекопитающих Узбекистана”. Т.:”Фан”-1975, стр.188.
8. Шерназаров Э., Ващетка Э., Крейцберг Е. и др. “Позвоночные животные Узбекистана”. Справочник. Т.:”Фан”- 2006, стр.174.

O'SIMLIKLARNING HAYOTIY SHAKLLARI

Toshbibi NORBOBOYEVA – Biologiya fanlari nomzodi, dotsent

Shoxsanam YAKUBJONOVA – TDPU "Biologiya o'qitish metodikasi" kafedrasining katta o'qituvchisi

Barno SHERNAZAROVA – Qibray tumani Chingeldi maishiy xizmat KHK o'qituvchisi

Maqolada akademik litsey va umumiy o'rta ta'lim maktablarida botanikadan "O'simliklarning hayotiy shakllari" mavzusini hamkorlikda o'qitish texnologiyasi "arra" metodidan foydalanib o'tilgan dars ishlanmasi orqali bayon qilingan. Hamkorlikda o'qitish o'quvchilarni mustaqil fikrlashga, jamoa bo'lib ishlashga, kitob va undagi rasmlardan unumli foydalanishga o'rgatadi.

И статье создана разработка урока для воспользования обучению, в сотрудничестве, технологии методом «Пила» по предмету ботаника на тему «Жизненные формы растений» в академических лицеях и общеобразовательных школах. Обучение в сотрудничестве даёт возможность учащимся независимо мыслит, работает в группах свободно пользуются книгами и иллюстрациями в них, то есть создават, что-то новое.

The article describes the using "Arra" method of cooperative teaching course "Life forms of plants" in botany in the academic lyceums and general secondary schools. Cooperative teaching allows teachers to have independent thinking, to work in teams, to use books and pictures effectively, that is, creativity.

Kalit so'zlar: hayotiy shakllar, daraxt, buta, chala buta, ko'p yillik o'tlar, ikki yillik o'tlar, bir yillik o'tlar, efemerlar.

Ключевые слова: жизненные формы, дерево, кустарник, полукустарник, многолетние травы, двулетние травы, однолетние травы, эфемери.

Key words: life forms, tree, shrub, semi shrub, perennial herbs, two-year herbs, annual herbs, ephemeras.

Hamkorlikda o'qitish texnologiyasining "arra" metodidan botanika fanida "O'simliklarning hayotiy shakllari" mavzusini o'tishda foydalanish mumkin. Bunda sinf o'quvchilari ikki marta guruhlariga ajratiladi.

Birinchisi "mutaxassislar" tayyorlash guruhi. Bunda sinf o'quvchilari o'simliklarning hayotiy shakllari bo'yicha rangli kartochkalar yordamida 6 ta guruhga ajratiladi: daraxtlar, butalar, chala butalar, ko'p yillik o'tlar, ikki yillik o'tlar, bir yillik o'tlar. Qizil kartochkali o'quvchilar daraxt guruhiga to'planib, o'simliklarning daraxt hayotiy shakliga oid bilimlarni o'zlashtirib, daraxt hayotiy shakli bo'yicha mutaxassisga aylanadi. O'quvchilar darslik, o'quv qo'llanmalar, gerbariyalardan foydalanib, hamkorlikda birga o'qishadi.

Ikkinchi marta guruhga ajratilganda, ya'ni mutaxassislar uchrashuvida har xil shakldagi kartochkalardan foydalanish mumkin. Bunda har bir guruhga daraxt, buta, ko'p yillik o'tlar, ikki yillik, bir yillik o'tlar bo'yicha mutaxassislar yig'iladi va bir-birilariga o'rgatadi.

Dars mavzusi: O'simliklarning hayotiy shakllari.

Darsning ilmiy maqsadi: O'quvchilarni o'simliklarning hayotiy shakllari va uning o'ziga xos xususiyatlarini ekologik muhitga bog'liq holda tanishtirish.

Darsning tarbiyaviy maqsadi: O'simliklarning hayotiy shakllarini tushuntirish orqali o'quvchilarning

dunyoqarashini kengaytirish, ekologik, iqtisodiy, axloqiy tarbiya berish, o'simliklarni muhofaza qilishga o'rgatish.

Darsning rivojlantiruvchi maqsadi: O'simliklarning hayotiy shakllarini tanish, ajratish, darslik, ob'yektlari ustida mustaqil ishlash ko'nikma va malakalarini rivojlantirish.

Darsning jihozlash: Gerbariyalar, o'simliklarning hayotiy shakllarini aks ettiruvchi rasmlar, sxemalar.

Darsning borishi: Darsning tashkiliy qismidan so'ng yangi mavzuning hajmi katta va murakkab bo'lganligi uchun o'tgan mavzu takrorlanmasdan yangi mavzuni tushuntirish boshlanadi. Mavzu 5-sinf o'quvchilariga biroz murakkabroq bo'lganligi uchun o'qituvchi tomonidan quyidagi tushunchalar beriladi: o'simliklarning uzoq tarixiy taraqqiyot jarayonida ma'lum tashqi muhitga mos keladigan morfologik, biologik xususiyatlarni hosil qilganligi; bu moslanishlardagi xususiyatlar o'simliklarga aniq tashqi ko'rinish berganligi, o'simliklardagi bunday tashqi ko'rinishi - hayotiy shakllar deb atalishi va o'simliklarning hayotiy shakllari haqida qisqacha tushuncha.

O'qituvchi mavzuni o'quvchilar mustaqil bajarishi uchun, ya'ni birinchi "mutaxassislar" tayyorlash guruhlariga quyidagi o'quv topshiriqlarini bajarishni taklif etadi:

1-guruh (daraxtlar) uchun topshiriqlar:

1. O'simliklarning hayotiy shakllari deb nimaga aytiladi?
2. Qanday o'simliklar daraxtlar deyiladi?
3. Kuzda daraxtlarda qanday o'zgarishlar sodir bo'ladi?
4. Eng baland va yo'g'on daraxtlarni qaysi mamlakatlarda uchratish mumkin?
5. Tog'larning shimoliy va janubiy yonbag'irlarida o'sadigan daraxtlar bir-biridan qanday farq qiladi?

6. O'zbekistonda eng ko'p yashaydigan qanday daraxtlar o'sadi?
7. Madaniy holda o'stiriladigan, yovvoyi holda uchraydigan qanday daraxtlarni bilasiz?

2-guruh (butalar) uchun o'quv topshiriqlari:

1. Buta hayotiy shakli deb qanday o'simliklarga aytiladi?
2. Kuzda buta o'simligida qanday o'zgarishlar sodir bo'ladi?
3. Yovvoyi holda qaysi buta o'simliklari uchraydi?
4. Qaysi buta o'simliklari madaniy holda o'stiriladi?
5. Qaysi oila vakillarida buta o'simliklari ko'proq uchraydi?
6. Hovli, ko'cha va hiyobonlarda qanday manzarali buta o'simliklari o'stiriladi ?
7. Issiqxonalarda ko'paytiriladigan qanday buta o'simliklarini bilasiz?

3-guruh (chala butalar) uchun topshiriqlar:

1. Chala buta o'simligining xarakterli belgilarini, ya'ni nima uchun chala buta deyilishini izohlab bering.
2. Kuzda chala buta o'simliklarida qanday o'zgarishlar sodir bo'ladi?
3. Qaysi oila vakillarida chala buta o'simliklari ko'proq uchraydi?
4. Qaysi turkumga mansub chala buta o'simliklari qimmatli yem-xashak va shifobaxsh hisoblanadi?
5. Cho'llarda qaysi yem-xashak chalabuta o'simliklari keng tarqalgan?
6. Chalabuta va buta o'simliklarini bir-biriga taqqoslab farqli belgilarini aniqlang.

4-guruh (ko'p yillik o'tlar) uchun o'quv topshiriqlari:

1. O'tlarga xos qanday xususiyatlarni bilasiz?
2. Qanday o'simliklarga ko'p yillik o'tlar deyiladi?
3. Kuzda ko'p yillik o'tlarda qanday o'zgarishlar sodir bo'ladi?
4. O'tlar qanday guruhlariga bo'linadi?
5. Yovvoyi holda o'sadigan qanday ko'p yillik o'tlarni bilasiz va ular qayerlarda keng tarqalgan?
6. Qaysi oilaga mansub o'simliklarda ko'p yillik o'tlar ko'proq uchraydi?
7. Manzarali o'simliklar sifatida qanday ko'p yillik o'simliklar o'stiriladi?

5-guruh (ikki yillik o'tlar) uchun topshiriqlar:

1. Qanday o'simliklarga ikki yillik o'tlar deyiladi?
2. Kuzda ikki yillik o'simliklarda qanday o'zgarishlar sodir bo'ladi?
3. Ikki yillik qanday madaniy o'tlarni bilasiz? Ildizmevali o'simliklar misolida tushuntiring.
4. Ikki yillik o'simliklarning qaysi qismlarida oziq moddalar to'planadi?
5. Yovvoyi holda o'sadigan qanday ikki yillik o'simliklarni bilasiz ?

6-guruh (bir yillik o'tlar) uchun topshiriq:

1. Qanday o'simliklarni bir yillik o'tlar deyiladi?
2. Kuzda bir yillik o'simliklarda qanday o'zgarishlar ro'y beradi?
3. Yovvoyi holda qanday bir yillik o'simliklar o'sadi?
4. Qanday bir yillik madaniy o'simliklar ekiladi?
5. Qaysi oila vakillarida bir yillik o'simliklar ko'proq uchraydi?
6. Qanday o'simliklar efimerlar deyiladi?

Bu savollarni maktab o'quvchilari uchun biroz soddalashtirish, akademik litsey o'quvchilari uchun murakkablashtirish mumkin. O'simliklarning hayotiy shakllari qaysi oilada uchrashiga oid savollardan akademik litsey o'quvchilariga berilsa, maqsadga muvofiq bo'ladi.

Har bir guruhdagi o'quvchilar o'simliklarning hayotiy shakllari bo'yicha mutaxassisga aylanadi. Qaytadan guruhlariga ajratganda har bir guruhda o'simliklarning hayotiy shakllari bo'yicha mutaxassislar yig'iladi, ya'ni har bir guruhda daraxt, buta, chala buta, ko'p yillik o'tlar, ikki yillik o'tlar, bir

yillik o'tlar bo'yicha mutaxassislar to'planadi. Ular o'z mutaxassisligi bo'yicha o'rtoqlariga o'rgatishadi. Natijada, guruhdagilar o'simliklarning barcha hayotiy shakllari bo'yicha bilimga ega bo'ladilar. Topshiriqlar bo'yicha o'quvchilar o'rtasida savol-javob, o'quv bahsi o'tkaziladi. O'quv bahsida o'quvchilar bilimi mustahkamlanishi bilan birga ba'zi o'quvchilardagi kamchiliklar ham ko'zga tashlanadi.

Beshinchi sinf o'quvchilari uchun bitta topshiriq yetarli bo'ladi. Quyidagi jadvalni to'ldirib kelishni uyga vazifa qilib berish mumkin:

| No | O'simliklarning hayotiy shakllari | Yovvoyi o'simliklar | Madaniy o'simliklar |
|----|-----------------------------------|---------------------|---------------------|
| 1. | Daraxtlar | | |
| 2. | Butalar | | |
| 3. | Chalabutalar | | |
| 4. | Ko'p yillik o'tlar | | |
| 5. | Ikki yillik o'tlar | | |
| 6. | Bir yillik o'tlar | | |

Akademik litsey talabalari uchun bu mavzuga ikki soat ajratilgan. Shuning uchun ularga ikkinchi topshiriqni ham berish mumkin. Har bir guruhga o'simliklarning hayotiy shakllarining rasmini chizish topshiriladi.

Rasm chizilgan qog'ozlarda o'quvchilarning familiyalari yoziladi. Chizish uchun vaqt belgilanadi. Yig'ib olingan rasmlarni o'qituvchi o'zidagi rasmlarga solishtiradi, xatolarini aniqlab baholaydi.

Quyidagi jadvalni to'ldirishni uyga vazifa qilib berish mumkin.

| O'simliklarning nomi | Daraxt, buta, chala buta | Bir, ikki va ko'p yillik o'tlar | Hayoti davomida necha marta meva beradi | Qaerda o'sadi |
|----------------------|--------------------------|---------------------------------|---|---------------|
| | | | | |

Dars uchun tuzilgan savol, jadval, rasmlardan o'quv yili davomida foydalanish mumkin.

O'quvchilarni baholash haqida fikr bildirilmadi. Chunki o'qituvchi o'quvchilarni baholayotganda ulardagi savollar javobining ilmiyligi, nutqning

ravonligi, o'rtoqlarining javobidagi kamchiliklarini ko'rsata olishi, gerbariy va laboratoriya jihozlaridan foydalanishi, ilmiy tushunchalarni rasmda ifodalash, ko'nikma va malakalariga e'tibor beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Prator O. va boshqalar."Botanika". T.:O'qituvchi"-2010.
2. Eshmuxammedov R, Abduqodirov A, Pardaev A. " Ta'limda innovatsion texnologiyalar". T.: "O'qituvchi"-2008.
3. Tolipova J. "Biologiyani o'qitishda pedagogik texnologiyalardan foydalanish". T.: "O'qituvchi"- 2011.

ОБ ИННОВАЦИОННЫХ ОСНОВАХ ДЕЯТЕЛЬНОСТНОГО АСПЕКТА ОБУЧЕНИЯ ЯЗЫКУ

Давлатбек САЪДУЛЛАЕВ – доцент кафедры «Русского языка и методики преподавания» ТГПУ им. Низами, кандидат филологических наук

So'nggi yillarda amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida yuzaga kelayotgan yangiliklar barchani hushyorlikka da'vat etadi. Ayniqsa, o'qituvchining kundalik faoliyati bilan bog'liq va uning uchun odatiy bo'lmagan yangi atamalarining kirib kelishi pedagoglarni o'z ustida yanada ko'proq ishlashga chorlaydi.

Новое, полученное за последние годы бесконечными «перестройками» и реформами, всегдастораживает. Причемстораживает тем сильнее, чем непривычнее и необычнее для учительского слуха терминология, в которую облакается это новое.

In these day and age, result of new reforms challenge, call t everybody to be watchful. Especially for teachers new unusual terms which confronted in their daily life make educator to work more on themselves.

Kalit so'zlar: *lingvokulturologiya, etnolingvistika, o'qituvchi, o'qituvchi shaxsi, madaniyat.*

Ключевые слова: *лингвокультурология, этнолингвистика, учитель, личность учителя, культура.*

Key words: *lingvoculturology, ethnolingvistics, teacher, teacher person, culture.*

Новое, особенно когда оно касается такой в принципе консервативной системы, как обучение языку/речи, полученное к тому же за последние годы бесконечными «перестройками» и реформами, всегдастораживает. Причемстораживает тем сильнее, чем непривычнее и необычнее для учительского слуха терминология, в которую облакается это новое.

В самом деле: *лингвокультурология, этнолингвистика, синхралалия* (групповая речь, одновременное говорение участников устного семиозиса), *анаколуп* (экспрессивное начало превалирует над логическим, вследствие чего имеет место нарушение нормы, «речевой брак»), *инокультурное сознание* – вот далеко не полный перечень тех терминов, с которыми сталкивается современный словесник, беря в руки материалы, изданные за последние годы. Да если к тому же авторы-новаторы страстно обрушиваются на столь близкие и родные учительскому сердцу понятия, как *знания, умения, навыки*, выпускаемая очередной «убийственный залп» против пресловутых ЗУНов, - то становится понятной возможная реакция человека, раскрывшего для первого ознакомления «свежевыпеченные» книги по методике преподавания русского языка, лингвистике, теории языкознания, - опять эти «инновации»! Господи, да когда же это кончится?! Когда мы сможем спокойно работать?!

Отвечу откровенно: спокойно учителю работать не придется! И дело не в инновациях, которые все настойчивее стучатся в двери каждой школы (общеобразовательной, средней профессиональной, высшей). Более того, скажу, опираясь на свой научно-педагогический опыт, - спокойно настоящий учитель никогда не работал даже в самой застойной школе. Если, конечно, он – Учитель!

Да, ему было легче: единая программа, единый учебник, единая методика всё прочнее укладывались в его сознании. Казалось бы, всё ясно. Но чем «яснее», тем мучительнее билась

мысль учителя-новатора: а как же Личность? Всё ли я сделал дл того, чтобы раскрыть то, что дала ей Природа?

Настоящий учитель всегда стремился разбудить мысль, разум и чувство учащегося, он с интересом брался осваивать новые методики, если видел, что они могут помочь ему в этом. Он искал пути к душе каждого учащегося, студента – значит, никогда не был спокоен. Не будет он спокоен и сейчас, в новых условиях обрушившейся на него свободы, не будет – потому, что чем свободнее в своем выборе учитель, тем активней будет искать пути её реализации...

С середины 80-х годов XX столетия ученые и педагогическая общественность активно обсуждали вопрос об изменении целей, содержания школьного образования. Многие авторы отмечали, что усвоение ЗУНов не может служить главной целью в обучении школьника. То, что звучало в отдельных журнальных статьях, в отдельных обсуждениях на «круглых столах», ныне зафиксировано в государственных программах как идеология: не ЗУНЫ, а развитие личности – вот подлинная цель образования.

Мы как-то поднаторели в практическом обеспечении ЗУНов на своих уроках, но как мы будем практически обеспечивать процесс развития личности, свободно действующей, мыслящей, да еще и обладающей творческими способностями? На наш взгляд, однозначного ответа не может дать ни психолог, ни методист, ни сам учитель. Однако попытаться давать ответы на сложные вопросы всё же надо: и на уровне теории, и на уровне методики, и на уровне педагогической работы в классе, аудитории.

В данной публикации делается попытка дать ответ на вопрос не теоретически, а практически и методически: во-первых, предлагая примеры-образцы учебных ситуаций, направленных на формирование и развитие определенных, способных превратиться в реальные. Во-вторых,

показывая методику работы с учебной ситуацией (как строится замысел ситуации под различные содержание и цели) и в учебной ситуации (как реализуются замыслы в ходе живого взаимодействия с обучаемыми, учащимися).

И поскольку мы не будем специально касаться теорий развития личности, нужно объяснить хотя бы относительно того, что нам представляется ценностями современного языкового образования.

- Человеку в его профессиональной жизни придется неоднократно переучиваться – так стремительно меняются современные технологии. Школьника, студента необходимо научить самостоятельно учиться, ставить и решать собственные задания, проявлять личную активность.

- В условиях обрушившегося на постсоветского человека гигантского разнообразия учений, течений, представлений, в атмосфере тотального воздействия на национальное сознание образцов западной культуры и восточных антропотехник жизненно важной становится способность выработки собственного мнения и отношения на личных основаниях.

- Собственное понимание и мнение не должны отгораживать человека от мира людей, таких разных и не всегда удобных, иногда пугающе непонятных. Способность выражать свою точку зрения, слышать и понимать при этом чужую; способность раздвигать границы своего сознания в общении с «другим»; способность использовать ситуацию общения для продвижения мысли или обнаружения выхода из тупика – важнейшие коммуникативные способности в мире, где «разрешено» общаться.

- Крайне важно, чтобы личные основания не определялись сиюминутными, корыстными целями. А для этого человек должен видеть «дальше своего носа». Способность мышления открывает выход в Культуру, позволяет вступить в диалог с великими мыслителями прошлого и настоящего, позволяет понимать, ставить и пытаться решать задачи своего поколения.

- Особая способность «видеть себя», свое действие – способность рефлексии дает человеку надежду обрести себя, сделать свободный выбор в сложных ситуациях. А задача учителя – заронить в душе ученика жажду Правды.

Сегодня книжные прилавки пестрят многообразной методической литературой с заманчивыми уверениями: «самая эффективная педагогическая технология», «100 наиболее эффективных приемов», «как развить... за ...дней...». На наш взгляд, никаких «наиболее эффективных» приемов и методик (панацей) не существует, т.к. всякий прием и методика должны служить определенной цели, а их эффективность

и уместность всегда оцениваются с каких-то позиций.

Наши размышления возникли и развивались прежде всего на основе деятельностного подхода в современном образовании. Деятельностный подход противостоит информационному. В информационном подходе учащийся узнаёт «новое» из сообщения учителя, преподавателя как новую информацию, а затем усваивает это в разнообразных упражнениях.

В деятельностном же подходе новое содержание учащийся получает САМ как результат собственной деятельности, решения незнакомой задачи, исследования и моделирования некоего объекта, разрешения парадокса или противоречия, понимания оригинального текста. Деятельностный подход – нечто большее, чем просто опора на инициативу учащегося. Сама по себе инициатива не обязательно ведет к нужному результату. В ходе совместной работы (сотворчества) преподаватель и учащиеся раскрывают и осваивают общий способ деятельности.

Все перечисленные способности можно объединить одним термином – мыследеятельностные способности (1). Это способности, позволяющие человеку порождать такие мыслительные конструкции, которые выступают для него средством успешного действия в ситуации неопределенности. И, кроме того, отстаивать свое решение в коммуникации, понимать чужую точку зрения, адекватно оформлять в речи свои принципы и действия.

Жить, добываясь соответствия мысли, слова и дела, очень сложно. Нередко человек думает одно, говорит не то, что думает, а делает вовсе третье и не замечает этого. Единства мысли, слова и дела напряженно искали всю свою жизнь восточные отцы Церкви (2). Они полагали, что истинная вера и смысл земной жизни состоят в напряженном устремлении не допустить неправды ни в мысли, ни в слове, ни в деле перед Богом на протяжении всей своей жизни.

На наш взгляд, следует скоординировать всю образовательную цепочку в области обучения русскому языку (от школы до вуза); состыковать программы, убрать пробуксовывающие элементы, повторы, которые съедают огромные массивы учебного времени и на базе этой преемственности создать оптимальные учебные, учебно-методические, справочные комплексы, разработать методики, перестроить педагогическое мышление с учетом новейших технологий, IT и др.

Надо сказать, что деятельностные подходы в образовании – это уже реальность российской школы. Большая часть российского учительства сделала выбор в сторону развивающего обучения. Этот же процесс заметен и в Узбекистане. Какие дети в этих классах! Они живут на уроке, им хочется решать творческие

задачи, им нравится делать открытия, они рады высказать свою точку зрения, они учатся с удовольствием. Чем не база для дальнейшего воспитания Личности?! Теперь нужно только одно: чтобы в школе и вузе поддержали огонек, затепленный учителями-новаторами, чтобы захотели и смогли сохранить, развить благоприобретенное учащимися в школе начальной.

Однако и там, и здесь пока еще нет соответствующих разработанных программ, в частности, по русскому языку и литературе. Проблема «запуска»

высшей школы в этой области остается и как проблема разработки учебных курсов, и как проблема переподготовки учителей, особенно национальных школ. Причем последняя актуальна и для начальной школы, т.к.

деятельностные подходы в образовании требуют принципиальной перестройки педагогического профессионализма, требуют от словесника способности работать с деятельностью и мышлением учащихся, с принципиально новым предметом педагогической работы. А это означает, что педагог-словесник должен начать преобразовывать и изменять СВОЮ деятельность, ориентировать её на новые задачи, оснащать новыми средствами работы. То есть он фактически должен научиться «видеть» и организовывать и собственную деятельность тоже, а не только обращенные к учащимся тексты. Не забывать, что способность учащихся работать с деятельностью формируется особым образом, за счет упражнений, оснащаемых специальными средствами.

ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА:

1. Г.П.Щедровицкий. «Избранные труды». М.: «Прогресс»- 1995.
2. Г.В.Флоровский. «Восточные отцы IV века». М.: «Прогресс»- 1992.

O'ZBEK TILI DARSLARIDA TALABALARNING TARJIMA KO'NIKMLARINI RIVOJLANTIRISH

Alisher MIRAZIZOV – Nizomiy nomidagi TDPU Tillar va nutq madaniyati kafedrasida katta o'qituvchisi

Maqolada uzluksiz ta'lim tizimi muassasalarida davlat tili darslarida ta'lim oluvchilarning tarjima ko'nikmalarini rivojlantirishga oid muammolarni tahlil qilishga harakat qilingan, ularning ayrim yechimlari taklif qilingan.

В статье предпринята попытка анализа проблем развития навыков перевода обучаемых на занятиях по государственному языку в учреждениях системы непрерывного образования, предложены некоторые решения проблемы.

The article makes an attempt to analyze the problems of developing the skills of translating students in classes on the state language in the institutions of the continuing education system, and some solutions are proposed.

Tayanch so'zlar: tarjima, to'g'ri tarjima, aks tarjima, ko'nikma, o'zbek tili, ta'lim oluvchi, algoritm, ma'noli qism, so'z tartibi, imlo, tinish belgilari.

Ключевые слова: перевод, прямой перевод, обратный перевод, навык, узбекский язык, обучаемый, алгоритм, смысловая часть, порядок слов, правописание, знаки препинания.

Key words: translation, direct translation, reverse translation, skill, Uzbek language, learner, algorithm, semantic part, word order, spelling, punctuation.

Keyingi vaqtda o'zbek tilini o'rganishga qiziqishning ortib borayotgani, nafaqat o'zga millat vakillari bo'lgan yurtodoshlarimiz, xatto xorijiy hamkorlar ham tilimizni o'rganish uchun sa'y-harakatlar qilayotgani hammaga ma'lum.

Yana ma'lumki, istalgan ikkinchi (chet) tilni o'rganishni boshlagan har qanday inson to'g'ri (ona tilidan o'rganilayotgan tilga) va aks (ona tiliga) tarjima qilishi talab etiladi. Bu o'rganilayotgan tilda fikrlash, jumla qurishga o'rgatishning eng samarali yo'llaridan biridir.

Afsuski, keyingi vaqtda "tarjimani ikkita tilni biladigan har qanday kishi qila oladi" qabilidagi gaplarni eshitishga to'g'ri kelyapti. Yanada

achinarlisi, shu prinsip asosida, nazarimizda, tarjimonlar tanlanyapti ham.

Ayrim misollarga e'tibor qaratamiz. Ichimlik suvi reklamasida rus tilida "Dlya vsej semi" degan jumla o'zbek tilida "Hamma oila uchun" ko'rinishini olgan. Vaholanki, "Butun oila uchun" degan variant to'g'riroq bo'lardi.

"17 raqamli afsona" filmi rus va o'zbek tillarida ko'rgach, xulosa qilish mumkinki, tarjimani, tarjimonni ranjitmaslik uchun shunday deya qolamiz, boshlovchi tarjimon amalga oshirgan.

"U menya seychas batya boleet" jumlasida "Otam hozir kasalxonada" tarzida tarjima qilingan.

Vaholanki, gap muxlislik qilish, uning uchun qayg'urish haqida boryapti.

“Brilliant qo‘l” filmi o‘zbek tiliga yillar o‘tib dublyaj qilindi. Tarjimon uchun ancha murakkablik tug‘diradigan jargonlar faol qo‘llangan bu film tarjimonidan katta mahorat talab qiladi. Biroq “Chert poberi” degan jumla umuman tarjima qilmasdan qoldirilganini izohlash qiyin. Chunki “Jin ursin” degan muvofiq jumlaning topish katta qiyinchilik tug‘dirmaydi.

O‘zbek kinosining durdonalaridan biri “Shum bola” ning ruscha variantidagi “pechenochka moya” (“jigarim”ning aynan tarjimasi) o‘rnida ruslar “krovinushka” so‘zini qo‘llashini tarjimon bilishi zarur edi.

Ko‘rinadiki, tarjima, kimlardir o‘ylaganidek, oson ish emas. Demak, tarjimonlarni maxsus tayyorlash lozim.

Gaplarni ruscha qolipda tarjima qilish oqibatida o‘zbek adabiy tili normalariga zarar yetayotgani haqida boshqa maqolalarimizda to‘xtalgandik.

Ta‘lim muassasalari amaliyoti, darslik va qo‘llanmalar tahlilidan ko‘rinadiki, ta‘lim oluvchilarga ko‘pincha aks tarjima nazarda tutilgan mashqlar taklif qilinadi. Ya‘ni ta‘lim oluvchi ko‘proq ona tiliga tarjima qiladi. Oqibatda, o‘rta, o‘rta maxsus, kasb-hunar, hatto, oliy ta‘lim muassasasi bitiruvchilari o‘zbek tiliga tarjima qilishda katta qiyinchilikka duch kelmoqda. Ona tilida aytgani yoki o‘ylaganini o‘zbek tiliga tarjima qila olmagan kishi esa tilimizda chiroyli gapira olmaydi.

Ta‘lim muassasalari amaliyotini kuzatish va 25 yillik tajribamizdan kelib chiqib, aytish mumkinki, ta‘lim oluvchilarni o‘zbek tili darslarida o‘zbek tilidan va ayniqsa o‘zbek tiliga tarjima qilishga o‘rgatish alohida dolzarblilik kasb etmoqda.

Talabalardan tarjimani amalga oshirish algoritmi haqida so‘raganimizda, asosan, quyidagicha javob olamiz: “Avval hamma so‘zlarni o‘zbek tiliga tarjima qilib, keyin gap tuzishga urinaman”. “Gapdagi so‘zlarni tartibi bilan tarjima qilaman” va sh.k.

Ko‘rinadiki, ta‘lim oluvchilar tarjimada asosiy jihatlardan biri gapda so‘z tartibiga deyarli e‘tibor qilmaydi. Natijada, tarjima muvaffaqiyatsiz bo‘ladi.

Talabalarimizning tarjimalarida ayrim so‘zlarning tushirib qoldirilishi, so‘z tartibiga rioya qilmaslik, gap bo‘laklarining almashishi (masalan, ruscha gapdagi aniqlovchi to‘ldiruvchi tarzida tarjima qilinishi) kabi kamchiliklar ko‘proq kuzatiladi.

Talabalarimizning “Menga hozir 19 yosh” (Mne 19 let), “U yoqqa mumkin emas” (Tuda nelzya. O‘zbek tilida “u yoqqa kirish/borish/yurish mumkin emas” yoki “u yoqqa borib bo‘lmaydi” shakllari maqsadga muvofiq) kabi aynan tarjimalari esa ular o‘zbek tilining o‘ziga xosliklarini tushunmasligidan dalolat beradi.

Ta‘lim rus tilida olib boriladigan guruh talabalari nafaqat o‘zbek tiliga, balki ona tili hisoblangan rus tiliga ham g‘aliz tarjima qilishi ularning til bilimlari darajasi pastligidan dalolat, deb baholash mumkin.

“Bayram arafasida umumxalq hashari o‘tkazilib, obodonlashtirish ishlari amalga oshiriladi” degan gapni talabalarimiz quyidagicha tarjima qilishdi:

- Pered xasharom provodyatsya blagoustroitelnye raboty.

- Pered prazdnikom provodilis raboty po blagoustroystvu.

- Pered xasharom na prazdnik proveli blagoustroitelnye raboty.

Yuqorida gap rus tiliga “Pered prazdnikom provoditsya hashar, vypolnyayutsya raboty po blagoustroystvu” tarzida tarjima qilish maqsadga muvofiq.

Xo‘sh, to‘g‘ri tarjima qilayotganiga ishonch hosil qilish uchun rus tilidan o‘zbek tiliga qanday tarjima qilish kerak? Odatda, kim qanday tushunsa, shunday tarjima qiladi: kimningdir xotirasi yaxshi, kimdir aynan shunday tarjima qilish kerakligini intuitiv darajada tushunadi. To‘g‘ri tarjima algoritmlariga amal qilinsa, xatolarning oldi olinadi. Ko‘nikmalar shakllangach esa, tarjima avtomatizm darajasida amalga oshiriladi, algoritmlar faqat alohida murakkab vaziyatlarda kerak bo‘ladi. Biroq tarjima bilan tarjimaning farqi bor. Berilgan, ayni vaqtda o‘rganilayotgan, grammatik vaqt va qoida bo‘yicha mashqlar mavjudki, ular birgina ko‘nikmani shakllantiradi, ammo asta-sekinlik bilan yangi-yangi ko‘nikmalar o‘zlashtirilib, malaka ortib boradi.

O‘zbek tilidan rus tiliga tarjima qilishning umumiy algoritmini quyidagicha ko‘rsatish mumkin, deb topdik:

Birinchi bosqich:

1. Gapni tarjimaga tayyorlash, ya‘ni qat‘iy so‘z tartibini belgilash.

2. Gapni ma‘noli qismlarga bo‘lish, gap bo‘laklarini ajratish.

3. Gapning turini aniqlash (sodda, qo‘shma, murakkab).

4. Grammatik vaqt (fe‘l zamonini aniqlash).

5. Tarjima.

Ikkinchi bosqich:

Gapdagi ot turkumiga oid barcha so‘zlarni ajratish.

1. Ot turkumiga oid so‘zlarni kelishik qo‘shimchalari, ko‘makchilar bilan “rasmiylashtirish”.

Uchinchi bosqich:

Bu tekshirish bosqichi bo‘lib, avvalo, gapda so‘z tartibi tekshiriladi, xatolar izlanadi, agar tartib mos kelsa, hammasi joyida.

Albatta, til darslarida professional tarjimonni shakllantirish vazifasi qo‘yilmaydi. Biroq tarjimon bilishi kerak bo‘lgan ayrim holatlarga e‘tibor qaratish foydadan xoli bo‘lmaydi:

1. Asliyat va tarjima tilidagi faktik kontekst. Aynan bitta tushunchaning mazmuni va tag mazmuni (konteksti) juda katta farq qilishi mumkin.

2. Har ikki tilning grammatik xususiyatlari. Aglyutinativ sanalgan o‘zbek va flektiv rus tili grammatikasi o‘ziga xos qoidalarga ega.

3. O‘zbek tili imlo qoidalari. Lotin alifbosiga asoslangan yozuvga o‘tish bilan bu muammo yanada dolzarblilik kasb etmoqda.

4. O'zbek tilida tinish belgilari, bosh harfdan yozish, matnni xatboshilarga ajratish.

5. Idioma va turg'un birikmalar tarjimasini ko'p hollarda qiyinchilik tug'diradi. Aniqrog'i ular tarjima qilinmaydi, balki muvofiq'i topiladi.

Tarjimani yaxshi bilgan tilidan mukammal bilgan tiliga qilish kerak, degan fikr mavjud. Albatta, professional tarjimada buni sira inkor qilib bo'lmaydi.

Biroq tilni mukammal o'rganish uchun o'rganilayotgan tilga tarjima qilish ko'proq foyda keltiradi. Avvalo, til o'rganuvchi shu tilda fikrlashga o'rganadi. Qolaversa, lug'at bilan ishlashga "majbur" bo'ladi, bir so'zni izlash vaqtida beixtiyor boshqalarini ham tanib oladi va sh.k.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, uzluksiz ta'lim tizimining barcha bo'g'inlarida ta'lim oluvchilarning tarjima ko'nikmalarini rivojlantirishga ehtiyoj mavjud.

Bu holatni keyingi vaqtda tilni amaliy o'rganishga e'tibor qaratish hisobiga tilning grammatik qoidalari, boshqacha aytganda, til qonunlarini o'rganishga yetarlicha e'tibor qaratilmayotgani, ochig'i, matnni o'qish, matn mazmunini aytib berish kabi topshiriqlar bilan ta'lim oluvchini band qilish afzal ko'rilayotgani bilan izohlash mumkin.

Nazarimizda, o'zbek tili (milliy guruhlarda esa rus, ingliz va boshqa tillar) mashg'ulotlarida o'rganilayotgan tilning grammatik qoidalariga, ayniqsa, morfologik shakllarning yasalishi, gapda so'zlarning bog'lanishi, so'z tartibi kabilarga alohida e'tibor berish talab qilinadi.

Ta'lim oluvchilarning tarjima ko'nikmalarini rivojlantirish uchun, bizningcha, gapni grammatik

tahlil qilishga o'rgatish katta ahamiyat kasb etadi. Zero bunda yuqorida biz sanab o'tgan hodisalarga talaba bevosita e'tibor qaratadi.

Gapni ma'noli qismlarga ajratishga o'rgatish ham muhim. Bitta ma'noli qismni ajratib, undagi hokim va tobe so'zlarni aniqlash tarjima muvaffaqiyatini ta'minlovchi omillardan biri.

Demak, til darslarida til qonunlari, grammatik qoidalarni o'rganish, ularni ishlash hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Shu o'rinda o'zimiz rus tilini o'rgangan davr yodga tushadi. Rus tili va avvaliga o'qish, keyinroq (katta sinflarda) rus adabiyoti darslari alohida o'tkazilib, rus tili darsida aynan grammatik qoidalar o'rganilar, mashq qilinardi. Rus adabiyoti darslarida esa badiiy asarlarni o'rganish jarayonida nutqni rivojlantirish ustida ish olib borilardi.

Bugungi kunda esa birgina o'quv fani doirasida o'zbek (rus) tili, adabiyoti, tarixi, etnografiyasi, san'ati va madaniyati kabilarni o'rganishga harakat qilyapmiz. Natija esa mutaxassislarga yaxshi ma'lum.

Yuqoridagilarni inobatga oladigan bo'lsak, umumta'lim maktablarida o'zbek tili va adabiyot darslarini alohida o'tishni yo'lga qo'yish vaqti yetdi, nazarimizda.

Til darslarida faqat til qonunlari ustida ishlash, adabiyot darslarida esa nutqiy malakalarni rivojlantirish imkonini beradi. Tabiiyki, til darslarida tarjima ko'nikmalariga yo'naltirilgan mashqlarga ko'proq vaqt ajratish imkoni yaratiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Зимняя И. "Психологический анализ перевода как вида речевой деятельности". Вопросы теории перевода: сб. статей. –М.:Изд. МГПИИЯ им. М.Тореза"-1978, вып. 127.
2. Федоров А. "Основы общей теории перевода". Лингвистические проблемы. М.: "Высшая школа"-1983.
3. Циткина Ф. "Терминология и перевод". К основам сопоставительного терминоведения. Львов: "Издат. объединение «Вища школа» при Львовск. гос. ун-те"-1988.
4. Чебурашкин Н. "Технический перевод в школе". 4-е изд. М.: "Просвещение"- 1983.

O'TKIR HOSHIMOV VA UNING "BAHOR QAYTMAYDI" ASARINI O'RGANISHDA O'QUVCHILARNING MUSTAQIL ISHLARINI TASHKIL ETISH TEXNOLOGIYASI

Farhod XOLSAIDOV – Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti

O'rinboy BOBOYOROV – Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti univertseti

Zayniddin DOLIMOV – Filologiya fanlariga ixtisoslashtirilgan davlat umumta'lim maktabi o'qituvchisi

Ushbu maqolada yozuvchi O'tkir Hoshimov asarlaridagi mavzularning umuminsoniy qadriyatlariga yo'naltirilganligi hamda adibning "Bahor qaytmaydi" nomli asarini o'rganish jarayonida o'quvchilarning mustaqil ishlarini tashkil etish texnologiyalari to'g'risida so'z yuritiladi.

В данной статье говорится о общечеловеческих ценностях а также об технологиях организации самостоятельных работ в процессе изучения произведения Уткира Хошимова «Бахор кайтмайди».

This article about works which had written by Utkir Hoshimov and talk about humanism. Moreover "Irrevocable spring" for students to make indepent works and their technologies.

Kalit so'zlar: *umuminsoniy qadriyat, janr, hikoya uslubi, sharqona tarbiya, shuhrat, odamiylik.*

Ключевые слова: *общечеловеческие ценности, жанр, методика рассказа, восточное воспитание, слава, человечность.*

Key words: *Humanism, value, janre, story style, in oriental style, fame.*

Yozuvchi O'tkir Hoshimov o'zbek adabiyotida o'ziga xos janr va hikoya uslubini yaratgan adibdir. Uning asarlari tilining sodda va ravonligi, xalqchilligi, qahramonlarning xalq ichidan, oramizdan olinganligi bilan ham ajralib turadi. Adib qalamiga mansub asarlarda hamisha o'zimizga tanish, biz bilan birga yashagan va yashayotgan kishilarni ko'ramiz. Adibning bir nechta asarlarida prototipi bir xil bo'lgan insonlarga ro'baro' kelamiz, ular har bir asarda turlicha nomlar bilan keltirilgan bo'lsa-da, ularning xarakteri va o'z fe'l-atvorlaridan kelib chiqqan holda tanlagan(yoki bitilgan) taqdir qismati bir-birini takrorlaydi. Aynan mana shu jihatdan ham insonlarning ezgu amallari tufayli ularga hamisha to'kis va farovon hayot bag'ishlanishiga qilingan ishora kitobxonlarni ezgulikka, yaxshilikka, savobli ishlarni qilishga undaydi.

10-11-sinflarning adabiyot o'qituvchisi o'z o'quvchilarining adabiyot haqidagi va adabiyot bo'yicha bilim darajasini puxta o'rganib olgan bo'lishi lozim. O'quvchilarga 10-sinfga qadar adabiyot darslarida o'qigan va tahlil qilgan asarlarini takror o'rgatish maqsadga muvofiq emas. Buning uchun o'qituvchi mavzu bo'yicha dars va mashg'ulotni boshlashdan oldin o'quvchilarning ushbu mavzu bo'yicha bilimlarini aniqlashtiradi va umumiy xulosa beradi. Bu jarayonda o'quvchilarga quyidagi savol va topshiriqlar berilishi mumkin:

- "Bolaligimni eslasam, iliq yoz kechalari esimga keladi..." Parcha adibning qaysi asaridan olingan?

- Adibning qaysi asarini mustaqil o'qigansiz?

- "Dunyoning ishlari" asaridan o'qigan parchalar va ularning mavzusini eslang. Mazkur asarning bosh qahramoni kim?

- Adibning "Urushning so'nggi qurboni" hikoyasi qaysi davr voqealarini o'z ichiga oladi? Ushbu hikoyadagi qahramonlarni eslang.

Shundan so'ng o'qituvchi yuqorida nomlari tilga olingan asarlarning mavzusi va g'oyasi bo'yicha yakun yasab, o'quvchilarning qanday bo'lish kerak, qanday bo'lmaslik kerak ekanligi to'g'risida tarbiyaviy tushunchalarini mustahkamlaydi.

Adibning o'rganilgan asarlaridagi ijobiy insoniy faktorlarni mazkur darsda o'rganilishi ko'zda tutilayotgan «Bahor qaytmaydi» asarining mavzusi bilan bog'lab, hayotning, inson umrining va inson shuhratining boqiy emasligi haqida so'z yuritadi. Asar insonlarni odamiylikka, yutuqlardan esankiramaslikka chaqiruvchi, shuhrat cho'qqisining yuki naqadar og'ir ekanligini his etib yashashga undashi haqida ta'kidlaydi. O'quvchilarning lug'at daftariga *odamiylik, yutuqlardan esankiramaslik, shuhrat cho'qqisi* kabi so'zlarni yozdirib, uyda mazkur

so'zlarga o'quvchilarning o'z so'zlari bilan izoh yozib kelish vazifasini beradi. Asarning "Bo'ston qishlog'iga og'ir, vazmin qadamlar bilan kuz kirib keldi,"- deya boshlanishini va shu birgina gap asar ruhiyati, kayfiyati haqida ishora berishini ta'kidlab, dars boshidayoq o'quvchilarni ijodiy fikrlashga chaqiradi. Asar qismlari bo'yicha quyidagi tezis reja asosida hikoya qilinishi mumkin:

1. Kuz; Kuz tashvishlari; Qishloq chekkasidagi uy; Alimardonning qo'rqinchli tushi; Xayol.

2. Go'zal tabiat; Anvar; Anvarning birinchi ish kuni; Hasad; Muqaddam; Sodda va dilkash Anvar.

3. Qonqus. Anvar aytgan hikoya; Muqaddam va Alimardon: tanishuv; Muqaddamga tanish uy; Dilrabo kuy va sohir ovoz; Qaltis "hazil".

4. Muqaddam uyiga kira oladimi; Anzirat xola savollari; Lobar. Jahongir xayoli; Lobar sirdan ogoh bo'ldimi?

5. "Qizlar dadil yigitlarni yaxshi ko'radi;"mi? Xiyonat; Alimardon va Iqbol xola; Shifokor topshirig'i.

6. "Musiqqa redaksiyasi"da; To'y taraddudi; To'y; Baxtli lahzalar; Shuhrat cho'qqisi sari.

7. Biz bilgan va bilmagan Muqaddam; Darz ketgan muhabbat.

8. Iqbol xola Anvarni uylantirmoqchi; Nafrat; Sahna madaniyati; Adashgan muhabbat; Zufar Xodiyevich tanbehi; Adoqsiz olqishlar.

9. Xotiralar; Anvarning to'yi; O'zgaralar bilan; Shuhrat cho'qqisi; Chekinish; Mutal Qodirov; Shodiyona; Tojikiston safari.

10. Muqaddam; Orzular og'ushida; Oilaviy baxt; Zufar Xodiyevich maslahati; Baxtli oila; Lobarning to'yi; Oynatog'da to'y; Klara bilan uchrashuv.

11. Ota uyida; Yarashish uchun harakat; Muqaddam xiyonatni kechirmaydi; Vido; Sokin tabiat; Muqaddam va Lobar suhbat.

12. Qishloq sari yo'l; So'nggi manzil; Yana bahor. Shundan so'ng, asardagi Alimardon, Muqaddam, Anvar obrazlariga alohida to'xtalib o'tadi. Jumladan, Alimardon To'rayev asarning bosh qahramoni ekanligi, asarda katta yo'l boshida turgan, lekin, kelajagi hali mavhum bo'lsa-da, iqtidoriga ishonganidan dadil yigit sifatida ilk ko'rinish berishini ta'kidlaydi.

-Anvarning yordami uni shuhrat pillapoyalari sari ildam harakat qilishga undaydi, Anvar Alimardon uchun bir qancha imkoniyatlarning tug'ilishiga sababchi bo'ladi. Bora-bora uning ko'zlarini shuhrat mast qiladi, hofiz bora-bora hech kimni nazarga ilmay qo'yadi. Sadoqat, vafo, odamiylik kabi xislatlar u uchun begonaga aylanadi. Konsert rejissiyorining talablarini mensimaydigan insonga aylanadi, odamlardan o'zini yuqori tutadi, lekin shu bilan birga,

asar boshida juda shiddat bilan kelgan shuhrat o'zining noma'qul xislatlarimi yoki o'z-o'zini tez yo'qotishi natijasidami, xuddi shunday shiddat bilan sekin –asta so'na boradi.

Bizning xalqimiz hamisha oilani muqaddas sanab kelgan. Nikohdan tashqari ishqiy munosabat xalqimiz uchun hamma zamonlarda ham noma'qul ish sifatida baholanib kelingan. Ajdodlarimiz o'z oilalariga nisbatan hamisha poklikni, to'g'rilikni shior qilib olganlar. O'qituvchi bunday insonlarning hamisha halol, sadoqatli va pokiza insonlar deb hurmat qilinishi, doimo davralarning to'rida izzat-kromda bo'lishini ta'kidlaydi.

-O'lqish olish uchun siz yoshlar shu yo'sinda sof sharqona tafakkur va tarbiya egasi bo'lishingiz lozim, - deb uqtiradi.

Asarning yana bir bosh qahramonlaridan biri Muqaddam obrazidir. U o'zbek ayollaridagi ko'nikuvchanlik xislatiga ega, shu bilan birga, sabr, sadoqat timsoli. Oilasini pokiza saqlashga hamisha joni halak bo'lgan o'zbek kelinlarining badiiy ifodasini o'zida mujassamlashtirgan obraz. Yana xalqimizgagina xos bo'lgan, mo'min va musulmalargagina xos bo'lgan pokizalikka, sofligicha halollikka intilgan beozor, beg'ubor hayo timsoli. Muhabbatni o'zi izlagan qalbdan topadi-yu, lekin sevgining sarob bo'lish ehtimoli uni tahlikaga soladi. Bu o'n to'qqiz yoshli balog'at bekatida turgan qizlar uchun deyarli hech qaerda yozilmagan, lekin anchagina jo'n bo'lgan, agar shunday atash mumkin bo'lsa, mavjud haqiqat bo'lsa kerak. Muqaddam shunday o'ylar, hislar girdobida yashab bir qancha muddatdan buyon Anvarning sevgi haqidagi suhbatlari jarayonida nisbatan dadil, nisbatan qat'iyroq so'zlar, ehtirosli dil izhorlari kutayotgan pallada edi. "Men buni Anvar akamdan kutgan edim,"-deya o'ylarga to'lardi ba'zan. Yoshlikda yo'l qo'yilgan kamchilik uni Anvardan kechishga majbur qilgan bo'lishi mumkin.

Anvar esa o'zbekona tarbiya topgan, o'zi va o'zgarlar nomusini har narsadan ustun qo'yuvchi kuyunchak, kamtarin, yaxshigina soddadil, lekin sadoqatli, diyonatli yigit. Uni Alimardon aytganidek "...latta,"- deb ayta olmaymiz. To'g'ri, u haddan tashqari soddadilligi sabab, balki nihoyatda ishonuvchanligi sabab, o'z sevgisiga erisha olmadi, lekin u do'stidan, sevgilisidan vafo, sadoqat ko'rmagan paytda dunyoda inson yaxshi yashashi uchun, to'kis hayot kechirishi uchun sevgi eng muhim omil bo'la olmasligini o'z vaqtida va to'g'ri tushunib yetadi. U ba'zi asarlardagi kabi sobiq sevgilisiga ergashmaydi, sevgi-muhabbat deya o'zbekona g'ururiga gard yuqtirmaydi, o'zining xayolot olamidagi nihoyatda toza va ehtirosli sof muhabbatiga sodiq qoladi. Hatto xayolan ham o'zi muqaddas deb bilgan sevgisiga gard yuqtirishni xohlamaydi. Do'stining unga va o'z oilasiga xiyonat qilgan paytlarida ham unda do'stiga nisbatan ishonch va sadoqat saqlanib qolaveradi va u hamisha ezgu ishlarga shoshiladi. Agar asarda Anvar muhabbat uchun oshkora kurashuvchi isyonkor oshiq yigit etib tasvirlanganida,

asar yozilgan davrda ham, hozirgi davrda ham bu obraz hayot haqiqatidan yiroqda bo'lib qolar edi.

O'qituvchi shundan so'ng o'quvchilardan mazkur qahramonlar to'g'risidagi fikrlarini so'raydi. Asarning Zufar Xodiyevich, Mutal Qodirov, Iqbol xola, Lobar kabi obrazlari gavdalangan sahnalarni o'qib, o'quvchilardan ular haqidagi fikrlarini so'raydi, ijobiy xislatlarini ta'riflaydi. Uyda asar qahramonlarining to'g'ri va noto'g'ri deb o'ylangan qarorlarini daftarga yozib kelish vazifasi yuklatiladi.

Uyda asarni o'qib, quyidagi savol va topshiriqlarni bajarish topshiriladi:

-Anvarning Alimardonga munosabati haqida o'ylab ko'ring. Anvar o'z fe'li bilan shunday qismatga mahkum deb o'ylaysizmi?

-Alimardon bilan Mutalning odamlar haqidagi fikrlarini bir-biridan ajratib oling. Haq va nohaq o'rinlarga diqqat qiling va tahlil qilishga harakat qilib ko'ring.

-"Odamlarni yaxshi ko'rish" eng katta baxt deb o'ylaysizmi? Qalbingizga quloq solib ko'ringchi, siz ham odamlarni yaxshi ko'rasizmi?

-Alimardonning o'g'li Shavkat bilan to'qnashuvi sahnasini ko'z oldingizga keltiring.

-Insonga taqdim etilgan hayotni qanday o'tkazish ko'p jihatdan insonning o'ziga ham bog'liqligi haqida mulohaza yuritng.

-Muallif Alimardon fojiasini tabiat bilan bog'lashga uringanligining sabablari nimada deb o'ylaysiz?

-Asarda Alimardonning shuhrat pog'onalaridan ko'tarilib borish sabablari haqida gapiring.

-Alimardon bilan Muqaddam munosabatlarning darz ketish sabablarini o'ylang. Uning ildizi nimada deb o'ylaysiz?

-Muqaddam Alimardon xiyonatini kechirmasdan to'g'ri ish qildimi?

-Muqaddamning ota-onalari haqidagi tasavvurlaringiz va ularning ruhiy kechinmalari haqidagi o'ylaringizni gapiring.

-Anvarning do'sti uchun qilgan eng katta yaxshiligi nimada deb bilasiz?

Hadisi shariflarda go'zal xulq egalariga Oллоh tomonidan go'zal va farovon hayot baxsh etilishi zikr etilganliganidek, adib asarlarining bir qancha qahramonlari o'zlarining go'zal xulqlari tufayli shon-sharafga erishadilar va aksincha, salbiy qahramonlar esa o'z umrlari intihosiga yoshlikdagi kuch-g'ayrat bilan birgalikda inson uchun ayniqsa umr shomida o'zni juda bilinadigan bir qator ne'matlarsiz bo'lishi o'z ifodasini topgan. «Bahor qaytmaydi» asarida esa yoshlik shijoati va g'ayratini o'tkinchi hislarga sarf etmaslik lozimligi, narsaning qadriga borida yetish kerakligi to'g'risida so'z yuritiladi.

Shuning uchun ham O'tkir Hoshimovning samarali ijodi va boy adabiy merosi 10-11-sinflarda yanada mukammal o'qitilishi, sinfdan tashqari o'qish darklarida adib asarlariga keng o'rin berilishi maqsadga muvofiqdir.

Adibning hamisha mehr haqida, hamisha odamiylik haqida, hamisha go'zal insoniy fazilatlar haqida so'z yurituvchi "Po'lat chavandoz" , "Cho'l

havosi", "Odamlar nima derkin", "Shamol esaveradi", "Qalbingga quloq sol", "Birovning tashvishi", "Nur borki, soya bor", "Quyosh tarozusi", "Dunyoning ishlari", "Ikki eshik orasi", "Tushda kechgan umrlar" kabi bir qator asarlarini o'qish va o'rganish orqali kitobxonlar ommasini hayotga teran nazar bilan

boquvchi komil insonlar etib tarbiyalash jamiyatimizda ma'naviyatning yanada yuksalishiga, yoshlardagi ijobiy xulq-atvorlarning teranroq ildiz otish barobarida, oqillik daraxtining ko'klarga dadil bo'y cho'zishiga sababchi bo'lishi muqarrardir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'tkir Hoshimov. "Bahor qaytmaydi". T.: "O'qituvchi"-2005.
2. Boboyorov O', Xolsaidov F. "Adabiyot". T.: "Ilm-Ziyo"-2006.

НЕКОТОРЫЕ МЕТОДИЧЕСКИЕ ВОПРОСЫ РАЗВИТИЯ КУЛЬТУРЫ ЧТЕНИЯ У УЧАЩИХСЯ В ПРОЦЕССЕ ЛИТЕРАТУРНОГО ОБРАЗОВАНИЯ

Окила ТУРАКУЛОВА – инспектор учебного отдела Ташкентского государственного университета узбекского языка и литературы имени Алишера Навои

Mazkur maqolada adabiy ta'lim jarayonida o'quvchilarda mutolaa madaniyatini rivojlantirishning ayrim metodik masalalarini yoritib berilgan. Muallif adabiy ta'lim jarayonida o'quvchilarda mutolaa madaniyatini rivojlantirishning an'anaviy va innovatsion shakllari uyg'unligini ta'minlashga doir uslubiy tavsiyalarni ishlab chiqqan.

В этой статье изложены некоторые методологические вопросы развития культуры чтения для студентов в процессе литературного обучения. Автор разработал руководящие принципы гармонизации традиционных и инновационных форм культуры чтения в литературном образовании.

This article highlights the methodical issues how to improve pupils' reciting reading efficiency during the literature class. The author deals with the enhancing pupils' reciting reading efficiency through traditional form in harmony with innovative form during the literature course.

Kalit so'zlar: adabiyot, ta'lim, adabiy ta'lim, kitob, mutolaa, madaniyat, mutolaa madaniyatini, kitobxonlik, badiiy tahlil.

Ключевые слова: Литература, образование, литературное образование, книги, чтение, культура, культура чтения, чтение, художественный анализ.

Key words: Literature, education, literature course, book, reciting-reading efficiency, readership, literary analysis

В настоящее время в Узбекистане происходят большие преобразования в различных сферах и отраслях жизни на основе Стратегии действий по пяти приоритетным направлениям развития страны в 2017–2021 годах. В этой связи отдельное внимание уделяется глубокому формированию благородных традиций и обычаев в жизни общества, в частности, повышению культуры чтения, что имеет огромное значение в повышении духовно-интеллектуального потенциала подрастающего поколения, расширении его мышления и мировоззрения, воспитании гармонично развитой личности с чувством любви и преданности к своей Родине и народу. Особенно, большое значение приобретает развитие культуры чтения учащихся в процессе литературного образования.

Развитие культуры чтения, обладая комплексным характером, требует ускоренного осуществления пропагандистко-агитационных работ средств массовой информации. На уроках литературы у учащихся формируются интерес к

чтению книг и навыки литературного мышления. Следовательно, основа развития именно культуры чтения определяется эффективной организацией литературного образования.

Понятию «культура чтения» даются различные определения, в основе которых лежит формирование интереса к книге, потребности более широкого ознакомления учащихся с литературой, навыков овладения техникой работы с книгой, компетентности по потреблению информации.

В Узбекистане концептуальные основы по формированию культуры чтения на основе технологии, уровня и интенсивности чтения исследованы А. Умаровым. По мнению ученого, важные структурные компоненты культуры чтения связаны с ее добровольностью, осознанностью в получении образования, свободным выбором вида деятельности, принципами потребности в саморазвитии, что служит важным фактором в формировании личности учащегося.

Как отмечает А. Умаров, саморазвитие требует коммуникативной компетентности учащегося. При вступлении в активный межличностный диалог большое значение приобретает культура чтения художественной книги. В образовательной практике знакомство с художественными произведениями происходит на уроках литературы. Всем хорошо известно, что чтение художественной литературы обогащает творческие представления, побуждает сопереживать героям произведения, разделять его горе, развивает чувствительные и мыслительные способности, помогает прояснять жизненные цели, формирует их, обогащает словарный запас. Исходя из вышеприведенного мнения, можно сказать, что цель литературного образования, с одной стороны, понимание сущности художественного произведения в качестве вида искусства, с другой стороны, формирование культуры чтения.

В образовательной практике в настоящее время используются различные методы и приемы работы над художественными произведениями на уроках литературы. Многие из них имеют традиционный характер. Однако на современных уроках эффективность достигается их применением с сочетанием информационно-коммуникационных технологий. При работе с художественной литературой наряду с использованием информационно-коммуникационных технологий, для развития способности осмысления текста целесообразно использование таких произведений искусства, как прикладное искусство, музыка, драматизированная сценка.

Среди применяемых на уроках литературы форм работы над художественным текстом широко распространено внеклассное чтение. Когда говорят внеклассное чтение, понимается накопление учащимися за счет своего времени с художественными произведениями, которые они полюбили или нашли. В этом процессе задача учителя заключается в предоставлении конкретных рекомендаций и указаний учащимся, исходя из их возрастных и психологических особенностей, а также специфики литературного процесса. По мнению К. Йулдошева, в учебных программах по литературе некоторых классов отводится определенное время для проведения беседы по прочитанным на внеклассном чтении произведениям. Но эту работу учащихся лучше не оценивать, потому что они обязаны усвоить лишь только тот литературный материал и литературно-теоретические понятия, что указано в ГОСах. Начиная с 5-го класса обязательного образования, учителю следует предоставить учащимся список произведений, предназначенный для внеклассного чтения, и проводить с ними беседу по окончании полугодия или всего учебного года.

Наряду с внеклассным чтением широко используются литературные конференции, встречи, дебаты, выставки и вечера.

Литературная конференция — это научно-литературное мероприятие, проводимое со специальной подготовкой по одному или нескольким произведениям одного автора. На ней требуется выступление педагога и одного ученика с докладом. Данная литературная форма целесообразна для использования в старших классах общеобразовательных школ и средних специальных, профессиональных образовательных учреждениях, потому что данная форма работы требует проведения филологического анализа художественного произведения. При организации внеклассных работ на уроках литературы отдельного внимания заслуживают литературные встречи. Проведение литературных встреч требует от учителя большой подготовительной работы. Учителю необходимо спроектировать сценарий организации литературной встречи, разработать связанные с организацией и процессом задачи на основе конкретного алгоритма. Как отмечал К. Йулдошев, на литературных встречах есть два момента, которые учителя литературы должны учесть. Первое, творческую личность не следует приглашать просто так, участники должны быть ознакомлены с его творчеством. Второе, нельзя допустить траты много времени на выступления учащихся с целью показа их осведомленности с творчеством приглашенного автора, так как в этом случае сам писатель остается на втором плане. Некоторые учителя литературы заставляют учащихся заучивать несколько произведений приглашенного на встречу автора, готовят театральные инсценировки и стараются это все показать гостю. В результате отведенное время истекает, и приглашенный гость остается за кулисами.

Литературные дискуссии проводятся по художественным произведениям, посвященным актуальным вопросам. Разрабатывается технология проведения дебатов и заранее конкретизируются содержательные и организационно-процессные аспекты. В процессе дебата учитель выполняет роль модератора и разделяет учащихся на две группы: дебатчиков и рецензентов. В процессе проведения дебатов необходимо уделить большое внимание формированию у учащихся художественно-эстетического мышления и дискуссионной культуры.

Литературные встречи — это литературно-художественный вечер какого-либо писателя, организуемый по случаю его дня рождения или по выбранной теме, что требует специальной подготовки и проработанного плана. В ходе литературного вечера целесообразно организовать выставку картин по теме с учетом интересов и способностей учащихся, заучивать

стихи, исполнять песни и поставить театральную инсценировку.

Для воспитания учащегося-книголюбителя необходимо вооружиться техникой анализа художественных произведений на уроках литературы. На таких уроках целесообразно использовать устные и письменные формы анализа художественной литературы, а также дидактические (учебные) виды. Художественное произведение чаще всего анализируется в устной форме, что естественно. Но письменный анализ прочитанных художественных произведений в отдельной тетради, по конкретным критериям с базированием на установившуюся традицию в образовании способствует формированию творческого мышления и креативности учащегося. При дидактическом анализе художественного произведения эффективность данного процесса обеспечивается предоставлением учителем направляющих, проблемных и ситуативных (кейс) вопросов.

При развитии культуры чтения на уроках литературы важную роль играют ролевые игры. В частности, можно с эффективностью провести игры «Я — книголюб», «Я — критик», «Я — писатель», «Я — экскурсовод».

Ролевая игра «Я — критик» предусматривает анализ ролевой игры, в ходе которой можно взять у писателя или литературного героя интервью, создать алгоритм анализа текста, организовать дискуссию критиков по одному или нескольким произведениям.

Ролевая игра «Я — писатель» ориентирована на овладение навыками письма. Из сложных видов литературных письменных работ для проявления любви к чтению учащимся можно дать задание по небольшой творческой работе, например, презентации книги.

Ролевая игра «Я — экскурсовод» предусматривает использование информационно-коммуникационных технологий с целью повышения заинтересованности учащихся к чтению.

Кроме этого, с целью повышения заинтересованности учащихся к чтению художественной литературы хороший результат приносит презентация учителем аудио и андронидных вариантов книг посредством социальных сетей, проведение форумов по прочитанным произведениям с организацией виртуальной группы «Дневник читателя». С целью развития сотрудничества образовательного учреждения и семьи на уроках литературы целесообразно пригласить родителей, бабушек и дедушек учащихся, провести беседы по прочитанным вместе с ними художественным произведениям. В целом, в литературном образовании при повышении культуры чтения у учащихся необходимо уделить особое внимание художественному анализу, обеспечить сочетание традиционных и инновационных форм, методов и средств литературного образования, превратить процесс чтения книги в жизненную потребность.

ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА:

1. Постановление Президента Республики Узбекистан «О программе комплексных мер по развитию системы издания и распространения книжной продукции, повышению культуры чтения» от 13 сентября 2017 года № 3271.
2. Umarov A. "Mutolaa madaniyati". T.: «Hayot va qonun» gazetasi -2004, № 6.
3. Yo'ldoshev Q. "Adabiy ta'lim texnologiyasi" moduli bo'yicha o'quv-uslubiy majmua. T.: "ToshDO'TAU"-2017, B.34.

O'ZBEKISTON VA MARKAZIY OSIYO: HAMDO'STLIKNING YANGI QIRRALARI

O'tkir YUSUPOV – Nizomiy nomidagi TDPU “O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti” kafedrasida katta o'qituvchisi, falsafa fanlari nomzodi

Behzod TO'RAYEV – Nizomiy nomidagi TDPU talabasi

Maqolada bugungi kunda O'zbekistonning Markaziy Osiyo mintaqasining iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy hayotida tutayotgan o'rnini va mamlakatimizning mintaqamizda tinchlik, barqarorlik va yaxshi qo'shnihilikni ta'minlashda ortib borayotgan o'rnini yoritib berilgan.

В статье освещена роль современного Узбекистана в обеспечении стабильности и добрососедских отношений в политической, экономической и социальной сферах жизни и Центральноазиатского региона.

In the given article was described economical, and social place of Uzbekistan in Central Asia and increasing its providing good neighborhood neighborhood.

Kalit so'zlar: *Markaziy Osiyo, barqarorlik, yaqin qo'shnihilik, hamdo'stlik, yodgorlik majmuasi, strategik sherikchilik, Toshkent sammiti, mintaqaviy muammolar, konstruktiv muloqot.*

Ключевые слова: *Центральная Азия, стабильность, добрососедские отношения, дружественные отношения, памятный комплекс, стратегические партнёрство, ташкентский саммит, региональные проблемы, конструктивный диалог.*

Key words: *Central Asia, stability near neighborhood, friendship, monuments, strategic, cooperation, Tashkent summit local problems constructive communication.*

2017-yil O'zbekistonning Markaziy Osiyo mintaqasida yaqin qo'shnihilik va o'zaro ishonchga asoslangan hamkorlik sohasida so'nggi chorak asr mobaynida eng katta yutuqlarga erishgan yillardan biri bo'lib tarixda qoldi. Katta tarixiy ahamiyatga ega bo'lgan mana shu bir yil O'zbekistonning Markaziy Osiyo mintaqasida barqarorlikni ta'minlash, tinchlikni mustahkamlash, yaxshi qo'shnihilik munosabatlarini yanada yuqori bosqichlarga olib chiqish yo'lidagi faoliyatini yanada oshirib, uni xalqaro doirada e'tirof etilishga olib keldi.

So'nggi yillarda o'zaro hurmat va ishonchga asoslangan O'zbekiston Respublikasining tashqi siyosati, Markaziy Osiyo davlatlari bilan munosabatlari barcha sohalarda izchil rivojlanib bormoqda. Markaziy Osiyoda O'zbekiston, Tojikiston, Turkmaniston, Qirg'iziston, Qozog'iston singari davlatlar joylashgan bo'lib, mintaqamizning siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy hayotida O'zbekiston o'zining alohida o'rniga ega. So'nggi bir yil ichida O'zbekiston tashqi siyosatining Markaziy Osiyo yo'nalishida mamlakatimizning qo'shnilar bilan davlatlararo munosabatlarini sezilarli darajada o'zgartirdi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning harakatlari natijasida mintaqamizda butunlay yangicha siyosiy muhit qaror topib bormoqda. Bugungi kunda mamlakatimiz Prezidenti boshchiligidagi chegaradosh davlatlar bilan yaqin qo'shnihilikni kuchaytirish, mintaqaviy muammolarni birgalikda hal etish, tinchlik va barqarorlikni ta'minlash yo'lida hamkorlikni kuchaytirishga qaratilgan qat'iy siyosiy xohish namoyish etilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosati, Prezidentimiz faoliyatining mushtarak maqsadi O'zbekiston va qo'shni davlatlar hamda qardosh xalqlarning manfaatlarini ta'minlashga qaratilmoqda.

2017-yilning o'zida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoyevning Markaziy Osiyo

davlatlariga hamda ushbu davlat rahbarlarining O'zbekistonga tashrifi dunyo hamjamiyatining O'zbekiston tashqi siyosatiga, uning mintaqamizda kuchayib borayotgan mavqeyiga bo'lgan qiziqishning ortib borishiga sabab bo'lmoqda.

O'zbekiston tashqi siyosatining Markaziy Osiyo hamdo'stligini yangi qirralarga olib chiqish imkoniyatlari to'g'risida gapirib Prezidentimiz Sh.M. Mirziyoyev quyidagi fikrlarni ta'kidlab o'tgan edilar. “Biz o'zaro ishonch va manfaatlarni xisobga olish asosida xorijiy davlatlarning avvalo, qo'shni davlatlar, shu bilan birga, xalqaro institutlar bilan birga yaqindan hamkorlik qilishni bugungi talablari darajasida tashkil etamiz”. [1,27]

O'zbekistonning Markaziy Osiyo davlatlari bilan barcha sohalardagi aloqalari yaxshilanib borayotganligi jahon ommaviy axborot vositalarining asosiy mavzusiga aylanib bormoqda. O'zbekistonning qo'shni davlatlar bilan munosabatlari so'nggi 25 yil ichida birinchi marotaba qisqa muddatlar ichida butunlay yaxshi ijobiy bosqichlarga chiqdi. So'nggi yillarda Markaziy Osiyo mintaqasida joylashgan mamalakatlar hayotining barcha sohalarda amalga oshib borayotgan o'zgarishlarning sababi O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning mintaqamizdagi davlatlar bilan munosabatlarni rivojlantirishga qaratilgan siyosatdir.

Mamlakatimiz rahbarining mintaqamizda joylashgan qo'shni mamlakatlar bilan hamkorlik aloqalarini va yaxshi qo'shnihilikni mustahkamlashdagi rolini qo'shni mamlakatlarning rahbarlari ham e'tirof etib kelmoqdalar. Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining o'zaro uchrashuvlarida bo'lib o'tayotgan muloqotlarda Shavkat Mirziyoyev davlat rahbari sifatida faoliyat boshlaganidan buyon xalqimiz o'rtasida asrlar davomida shakllangan do'stlik va yaqin qo'shnihilik rishtalari yangi qirralarga ega bo'lib borayotganligi,

mintaqamiz davlatlari o'rtasidagi o'zaro mahoratli hamkorlik bundan buyon ham rivojlanib borishi muqarrar ekanligi keng ta'kidlab o'tilmoqda.

Birgina 2017-yilning o'zida qo'shni mamlakatlar rahbarlarining uchrashuvlari va telefon orqali suhbatlari mintaqamiz davlatlari o'rtasidagi munosabatlarni yangi bosqichlarga olib chiqish va mustahkamlashni sifat jihatdan yangi pog'onalarga ko'tarmoqda. So'nggi yillar Markaziy Osiyo davlatlari siyosiy hayotida eng samarali yillardan biri bo'lib bormoqda, chunki O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev qo'shni mamlakatlar Prezidentlarining taklifiga binoan bu mamlakatlarda davlat tashrifi bilan bo'ldi, o'z navbatida mamlakatimiz rahbarining taklifi bilan mazkur mamlakatlarning Prezidentlari ham O'zbekistonga rasmiy tashrif bilan keldilar.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning taklifi bilan Turkmaniston Prezidentining mamlakatimizga rasmiy tashrifi bunga misol bo'la oladi, bu tashrif O'zbekistonning tashqi siyosatida yaxshi qo'shnihilik munosabatlarida ijobiy o'zgarishlar bo'layotganligini yaqqol isbotlab berdi.

Mamlakatimiz rahbari Turkmaniston bilan yaxshi qo'shnihilik munosabatlari borasida katta o'zgarishlar bo'layotgani haqida gapirib quyidagi fikrlarni bildirib o'tdi: "Shuni alohida ta'kidlash joizki, bugungi kunda O'zbekiston va Turkmaniston hamkorligining sifat jihatidan yangi bosqichi boshlanmoqda" [1,371].

Katta tarixiy ahamiyatga ega bo'lgan mazkur tashrif arafasida mamlakatlar o'rtasidagi iqtisodiy, siyosiy aloqalarni yanada mustahkamlashga xizmat qiladigan Amudaryoda qurilgan Turkmaniston va O'zbekistonni bog'lovchi avtomobil va temir yo'l ko'prigining foydalanishga topshirilishi buning dalilidir. Turkmaniston Respublikasining Turkmanobod shahrida O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.A.Karimov yodgorlik majmuasining ochilishi ikki qardosh xalqlar o'rtasidagi munosabatlarning yanada rivojlanib borishiga asos bo'lib xizmat qiladi. Turkmaniston Respublikasi Prezidentining tashabbusi bilan ushbu mamlakatda O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Abdug'aniyevich Karimovga hurmat bajo keltirilib, Markaziy ko'chaga uning nomi berilib, yodgorlik o'rnatildi. Toshkent shahrida esa atoqli turkman shoiri va mutafakkiri Maxtumquli nomidagi ko'cha va me'moriy yodgorlik ochildi.

O'zbekiston Respublikasi o'zining eng yaqin qo'shnilaridan hisoblangan Qirg'iziston Respublikasi bilan ham barcha sohalarida hamkorlikni kuchaytirish tarafdori, davlat rahbarlari xalqaro doiralardagi uchrashuvlar bilan cheklanib qolmasdan yuzma-yuz uchrashib bugungi kunning dolzarb masalalari bo'yicha muzokaralar olib borishga imtilmoqdalar. Do'stlik va o'zaro ishonchga asoslangan hamkorlikni yanada kuchaytirish maqsadida O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Shavkat Mirmonovich Mirziyoyev 2017-yilning 5- sentabrda davlat tashrifi bilan Qirg'izistonda bo'ldi, bu so'nggi vaqtlarda ikki qo'shni davlatlar o'rtasidagi an'anaviy hamkorlik

yanada kengayib, o'zaro munosabatlarning jadal ravishda faollashib borayotganini ko'rsatadi.

Tashriflar natijasida mamlakatlarimiz o'rtasidagi munosabatlar barcha sohalarida yangi bosqichlarga ko'tarilib bormoqda. O'zbekiston Respublikasi so'nggi yillar mobaynida Markaziy Osiyoning muhim davlatlaridan biri bo'lgan Qozog'iston bilan ham yangi qo'shnihilik va o'zaro ishonchga asoslangan hamkorlikni kuchaytirib uni yangi bosqichlariga olib chiqishga harakat qilmoqda. 2017-yilda O'zbekiston va Qozog'iston mustaqil davlatlar sifatida siyosiy, iqtisodiy, madaniy aloqalarni o'rnatganligiga 25 yil bo'ldi. O'tgan 25 yil davomida davlatlarimiz hamkorligining mustahkam shartnomaviy –huquqiy asoslari yaratilib mustahkamlandi. Bugungi kunda hamkorlikning turli sohalar bo'yicha mamlakatlarimiz o'rtasida 200 dan ortiq shartnomaviy huquqiy hujjatlar mavjud. O'zbekiston va Qozog'iston o'rtasida 1998-yilda tuzilgan abadiy do'stlik haqidagi shartnoma bugungi kunga kelib o'zining mustahkam zaminiga ega bo'lib kelmoqda.

Bugungi kunda O'zbekiston hamda Qozog'iston xalqaro siyosat masalalarida ham bir-birlarini qo'llab-quvvatlab kelmoqda. Mamlakatimizda qo'shni davlatning ko'plab savdo uylari va zamonaviy ishlab chiqarish korxonalari tashkil etilmoqda. Davlatlarimiz poytaxtlari o'rtasida to'g'ridan to'g'ri aviya qatnov tiklandi.

Mamlakatimizda Tojikiston Respublikasi bilan ham barcha sohalaridagi aloqalar kuchaytirilmoqda. Asrlar mobaynida shakllanib kelgan o'zaro do'stona munosabatlar ikki xalq o'rtasidagi aloqalarning yanada mustahkamlanishining muhim poydevoridir. O'zbekiston Respublikasi tashabbusi bilan ilgari surilayotgan takliflar bugungi kunga kelib O'zbekiston va Tojikiston xalqlari o'rtasidagi munosabatlarning yanada mustahkamlanishiga xizmat qilmoqda. O'zbekiston Respublikasi yaxshi qo'shnihilik munosabatlarini mustahkamlab, mintaqamizda tinchlik va barqarorlikni ta'minlashga erishish maqsadida qo'shni Afg'oniston bilan xam aloqalarni kuchaytirishga katta diqqat-e'tibor qaratib kelmoqda.

O'zbekiston va Afg'oniston munosabatlarini tartibga soluvchi hujjat dastlab 1992-yilda Afg'oniston rahbari Burhoniddin Rabboniyning mamlakatimizga davlat tashrifi bilan kelgan paytda imzolagan edi. Shu yilning o'zida o'zaro aloqalar ikki mamlakatning manfaatlaridan kelib chiqqan holda konstruktiv ruhda rivojlanib kelmoqda.

So'nggi yillarda mamlakatimiz o'zaro ishonch, yaxshi qo'shnihilik va hamdo'stlikni yanada kuchaytirishga bo'lgan yondashuvning joriy etilganligi davlatlarimiz o'rtasida yaqinlikni yangi qirralarga olib chiqish istiqboli mavjudligini asoslab bermoqda. O'zbekiston Respublikasi Markaziy Osiyo mintaqasida, birinchi galda Afg'onistonda tinchlik va barqarorlikni taminlashga qaratilgan har qanday harakatlarni qo'llab-quvvatlab kelmoqda hamda xalqaro hamjamiyat tominidan ma'qullanayotgan takliflarni ilgari surmoqda.

Mamlakatimiz rahbarining 2017-yil 19-sentabr kuni Birlashgan Millatlar tashkiloti Bosh

Assambleyasining 72-sessiyasida qilgan tarixiy ma'ruzasida Afg'onistonda tinchlikka erishishning yagona yo'li hukumat va mamlakat ichidagi asosiy siyosiy kuchlar o'rtasida oldindan hech qanday shart qo'yilmasdan to'g'ridan to'g'ri muloqot olib borish ekanligini ta'kidladi.

O'zbekiston Respublikasi Afg'onistonning Xayraton va Mozori Sharif shaharlarini tutashtiruvchi temir yo'lni qurib foydalanishga topshirdi. Mazkur yo'lining qurilish jarayonida 11 ta ko'priq va boshqa inshootlar qurildi, O'zbekistondan Afg'oniston poytaxtiga elektr energiya yetkazib berila boshlandi.

O'zbekiston va Afg'oniston davlatlari o'rtasida madaniy gumanitar sohalarida ham hamkorlik yo'lga qo'yilgan. O'zbekiston Respublikasining oliy o'quv

yurtlarida afg'onistonlik mutaxassislarni o'qitish va malakasini oshirish ishlari olib borilmoqda.

Buyuk ajdodlarimiz Abu Rayhon Beruniy, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Boburning qabrlari obodonlashtirildi, Kamoliddin Behzodning Afg'onistondagi qabri ta'mirdan chiqarildi.

Mamlakatimiz bundan buyon ham Markaziy Osiyo davlatlari bilan o'zaro manfaatli hamkorlikka asoslangan munosabatlarni mustahkamlab boradi va mintaqamiz davlatlari o'rtasida tobora kengayib borayotgan muloqotlar va barcha sohalaridagi aloqalar nafaqat O'zbekiston, shu bilan birga, mintaqamiz davlatlarining siyosiy, iqtisodiy va madaniy taraqqiyotiga munosib hissa qo'shadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoyev Sh. "Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz". T.: "O'zbekiston" -2016.
2. Mirziyoyev Sh. "Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi". T.: "O'zbekiston" - 2017.
3. Mirziyoyev Sh. "Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz". T.: "O'zbekiston" - 2017.

"SIYOSATNOMA" ASARIDA RAHBAR MA'NAVIYATIGA DOIR QARASHLAR

O'ktam SHAKAROV – Toshkent arxitektura va qurilish instituti o'qituvchisi

Maqolada Nizomulmulkning "Siyosatnoma" asarida davlat boshqaruvi muammolari, boshqaruvda rahbarning o'rni va ma'naviy olami qanday bo'lmog'i zarurligi masalasining yoritilishi ilmiy tahlil qilingan.

В статье раскрывается вопрос государственного управлению, а также рол и нравственности руководителя в управление на основе произведениями Низамулмулка "Сиекатнаме"

This article is written based on the works Nizamulmulk "Siyasetname", where scientifically analysed governance issues, and the role and morality of the head in.

Kalit so'zlar: davlat, jamiyat, huquq, ma'naviyat, axloq, fazilat, norma, ma'naviy fazilatlar, axloqiy normalar, boshqaruv, davlat boshqaruvi, rahbar, rahbar ma'naviyati.

Ключевые слова: государство, общество, право, духовность, нравственность, достоинство, норма, духовные достоинства, нравственные нормы, управление, государственное управление, руководитель, духовность руководителя.

Key words: state, society, law, spirituality, morality, dignity, Norma, spiritual virtues, ethical norms, management, public administration, head, spiritual leader.

Ajdodlarimiz tomonidan davlatchilik boshqaruvi asoslari, rahbar axloqi mezonlari, jamiyat boshqaruvi borasida noyob tarixiy va ilmiy, adabiy manbalar yaratilgan. Mazkur manbalar milliy davlatchiligimizning poydevori bo'lib, uni o'rganish va hayotga tatbiq qilish, zamonaviy davlatchilik talablari bilan uyg'unlashtirish millatimizning o'ziga xos an'alarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A.Karimov: "Hozir O'zbekiston deb ataluvchi hudud, ya'ni bizning Vatanimiz nafaqat Sharq, balki umumjahon sivilizatsiyasi beshiklaridan biri bo'lganini butun jahon tan olmoqda. Bu qadimiy va tabarruk tuproqdan buyuk allomalar, fozil-u fuzalolar, olim-u ulamolar, siyosatchilar, sarkardalar yetishib chiqqan. Diniy va dunyoviy ilmlarning asoslari mana shu

zaminda yaratilgan, sayqal topgan" [1.132], -deb ta'kidlagan edi.

Nizomulmulkning "Siyosatnoma" asari ham Markaziy Osiyo mintaqasi xalqlari uchun muhim manbalardan biri bo'lib, unda Saljuqiylar, Somoniylar, G'aznaviylar va Sosoniylar davlati hududidagi voqealardan misol olingani, ko'proq islom davlatchilik an'analari o'z ifodasini topganligi bilan ajralib turadi.

"Siyosatnoma"ning mustaqillik yillarida fors tilidan o'zbek tiliga tarjima etilib, nashr etilishi siyosatshunoslik mutaxassislari uchun alohida ahamiyatli manba bo'lib xizmat qila boshladi. F.Ravshanovning ta'kidlashicha: "Bu kitob hayotiy misollar asosida siyosatni tushuntirish uslubida yaratilgan bo'lib, davlat va jamiyat boshqaruviga rahbarlar tanlash masalalarida ilgari yaratilgan asarlar va boshqa manbalarga nisbatan mukammal,

ayni vaqtda ixchamroq nazariy va amaliy qoidalar hamda tamoyillarning tadqiq etganligi bilan diqqatga sazovordir"[2.26]. Mazkur asar hozirgi davr zamonaviy rahbar kadrlarni tayyorlash, tanlash va joy-joyiga qo'yish nuqtai nazaridan tengi yo'q, noyob ilmiy manba sanaladi.

Davlat va jamiyatni boshqarishda mansabdorlarning o'zni benihoya katta ekanligini chuqur anglagan, o'zi ham vazir bo'lgan Nizomulmulk rahbarlarni adolatli tarzda tanlab, ularni joy-joyiga qo'yishni, har bir rahbarlikka nomzodga o'ziga loyiq mansab berish asosida kasbiy mahoratini oshirib borishni bu sohadagi muhim talablardan biri sifatida e'tirof etadi. Shu bilan birga, mutafakkir mansabdorni tarbiyalashga ko'p vaqt ketishi va bu jarayonning mushkulligini tushuntirib, hokim va boshqa rahbarlarga o'z qo'l ostidagi rahbarlarni ehtiyot qilishni maslahat beradi. Shu o'rinda I.A.Karimovning: "Rahbarlik qobiliyati ham odamning peshonasiga bitilgan bo'ladi",- degan fikrlari yodimizga keladi[3.300].

Nizomulmulk o'z davridagi davlat boshqaruvida faol ishtirok etgan, davlat va jamiyat uchun barcha turdagi rahbarlarni tanlash va tayyorlash tizimiga asos solgan davlat arboblardan biridir. Mutafakkir tomonidan rahbarlar tanlash qobiliyatini davlat arbobiga Alloh in'om etishining tilga olinishi ham bejiz emas edi[4.12]. Shuningdek, Nizomulmulk davlat va jamiyat boshqaruvi uchun rahbar tanlashda jamiyatning, xususan, xalqning ham o'zni beqiyos ekanligini ta'kidlagan [5.13]. Uning nazarida xalq shunday katta kuchga egaki, "uning o'ziga ma'qul kelmagan hukmdorni va boshqa amaldorlarni mansablaridan olib tashlash va yoki ularni mansablarga qo'yishga imkoni yetarlidir"[6.15].

Nizomulmulkning fikrlariga ko'ra, hukmdorning birinchi xususiyati adolatli va saxovatli bo'lishdir. Hukmdor o'zicha adolatli bo'lishi mumkin, lekin saxovatli, el-xalqini rag'batlantira olish xususiyatiga ega bo'lmasa, uning adolatida hech qanday ma'no qolmaydi va agar saxovatli bo'lib adolatli bo'lmasa ham, xuddi shunday. Hukmdor davlat siyosatiga doir muhim sanalgan ishlarni, jumladan, fuqaro ishini ham, o'z bo'ynidan butunlay soqit qilgan holda qaysidir rahbar yoki mansabdorga ishonib topshirib qo'yishi kerak emas. Garchi bu ishlarni unga bo'ssunuvchi rahbariyat ijro etsa ham, u rahbariyatning qilayotgan ishlaridan oshkora yoki yashirin tarzda xabardor bo'lib turmog'i lozim. Hukmdorning mavjudlik xususiyati ana shundadir. Demak, hukmdorga nisbatan navbatdagi talab uning boshqaruv tizimi miqyosida rejalashtirilgan yoki ijro etilayotgan ishlar doirasini puxta bilishidir.

Nizomulmulkning ta'kidlashicha, hukmdorning ish yuritish tamoyilida tabaqa tanlamaslik muhim o'rin tutadi. Hukmdor faoliyatining ijobiy baholanishi, lavozimining davomiyligi, barqarorligi va ayniqsa, adolat tamoyillariga amal qilishining ahamiyati beqiyosdir. Agar hukmdorda tabaqaga ajratish xususiyati mavjud bo'lsa yoki shunga majbur bo'lsa, tez orada hukmdor va fuqaro, boshliq va xodim orasida dahliz, eshik, parda paydo bo'ladi. Bu

boshliqni xodimdan, rahbarni fuqarodan, ba'zan rahbariyatning tizimidan ajralib qolishiga olib keladi. Bu fikrni oradan IX asr o'tib, I.A. Karimov: "Rahbar shaxs uchun esa el-yurt nazaridan qolish, jamoatchilik ishonchidan mahrum bo'lishdan ko'ra og'irroq jazo yo'q", -deb qayd etgan edi [8.358].

Mutafakkir hukmdorning davlat boshqaruvi masalasida bilimdon bo'lishiga muhim e'tibor beradi. Davlat yoki jamiyatni boshqarish ilm-u olimlik bilan teng turib, bu ishni qilayotgan kishi ma'lum bir xorijiy tilni yoki boshqa bir kasbiy sohalarni bilmasligi mumkin, lekin u olim sanaladi. Negaki, bir necha tillarni puxta bilib, o'sha tillarda so'zlashish, yozish va asar yaratishga qobil bo'lgan odam, agar arab tilini bilmasa uni olim emas, deb bo'lmaganidek, davlat yoki jamiyatni boshqara turib ham ma'lum bir sohani yaxshi bilmaslik mumkin." Lekin, davlat boshqaruvi shunday amaliy faoliyatki, u mansabdor shaxsni hamma ishga o'rgatadi. Faqat hukmdorda uquv, ya'ni tahlil qila olishga qobil bo'lgan aql-zakovat bo'lishi kerak. Ayniqsa, ijtimoiy-iqtisodiy masalalarni hal etish va tartibga solishda hukmdordan ana shunday tez ilg'ash qobiliyati talab etiladi. Bunda hukmdorda bilim, idrok kabilarning bo'lishi yoki bo'lmasligi davlat siyosati masalalarining ijobiy yoki salbiy hal bo'lishiga uzviy ravishda bog'liqdir.

Nizomulmulkning fikricha, ma'lum soha bo'yicha "birovni tarbiya qilib, ulug' kishi bo'lib yetishishi uchun ko'p azob chekib, umr sarflash kerak, agarda ulardan biror xato o'tsa, uni odamlar o'rtasida urishsalar, qilgan kamchiligi hammaga ma'lum bo'lib, o'zi ranjyidi va bu malomatni ko'nglidan ko'tarish uchun ancha siylash va mehribonliklar kerakdir. Yaxshisi, birov xato qilsa boshqalarga bildirmay chetga chaqirib: "Xato qilding, bunday qilma! Biz o'z kishilarimiz xato qilsa aytamiz, uni darrov ishi va amaldan olmaymiz. Sen ham shunday xatolar qilma, hozir seni kechirdik. Yana xato qilsang, seni vazifangdan olamiz, unda ayb o'zingda bo'ladi", - deb ogohlantirishi lozim.[9.125].

Shu xildagi ikkinchi bir uslub – davlat boshqaruvi mansabdorlariga fuqaroga so'zi, buyruq-farmoni, hukmi o'tadigan darajada ixtiyor va imkon bermoqlikdir. Ya'ni, davlat mansabdorlari o'z qo'l ostidagi rahbarlarni jamiyat va fuqaro orasida tutgan obro'-e'tiborini shakllantirishi va himoya qilishi lozim. Shakllantirish deganda dastlabki vaqt davlat rahbar o'z xodimiga ish yuzasidan qaratilgan har qanday qarshilikni sindirmog'i va bundan keyin shu xodimning shu soha bo'yicha o'z noibi ekanligini bildirib qo'yimg'i kerak. Shunda fuqaro noib so'zini rahbar hukmi sifatida qabul qilishga o'rganadi. Ma'lum hudud yoki sohani boshqarish topshirilgan shaxs o'sha hudud yoki soha bo'yicha rahbar bo'lib, Nizomulmulk fikricha, unga shu mansabga yarasha manfaatlar va erk berib qo'yish eng ma'qul ishdir, "toki bu odam moddiy qiyinchiliklar yoki erksizlik oqibatida e'tiborini yo'qotmasin", xato, kamchiliklarga yo'l qo'ymasini [10.52].

Nizomulmulk davlat boshqaruvi tizimlarining tanazzulga yuz tutishida asosan davlat mansabdorlarini va unga e'tiborsiz bo'lgan

hukmdorni ayblaydi. Davlat boshqaruvi rahbariyati tizimi shunday tuzilganki, u zulmga, haddan ortiq qattiqqo'llikka doir bera olmaydi, ko'ngilchanlikdan esa chegaradan chiqib ketadi. Shuning uchun uning tartib-intizomini, qonun-qoida, rasm-rusum, urf-odatga rioya etishini doim kuzatib borish talab etiladi. Hukmdor o'z qo'l ostidagi mansabdorlarning xatti-harakati, fe'l-atvorini nazorat qilishda turli usullardan foydalanishi mumkin. Hukmdor davlat tizimini to'g'ri shakllantira olsa, jamiyat rivoji tezda ko'zga tashlanadi. Nazorat tizimi ikki tarkibdan iborat bo'lishi kerak. Biri bevosita, oshkora tarzda huquqiy masalalarni boshqaruvchi tizim (bunga qozilar, muftiyalar, mutavallilar, raislar, soliqchilar, mulklarni nazorat qilish, ichki tartibni saqlash bilan bog'liq boshqa sohalarini kiritish mumkin), ikkinchisi xabarchilar, xufiyalar, maxfiy xizmat xodimlari va ularga shart-sharoit hozirlovchilardir [11.94].

“Siyosatnoma” asarining davlat va jamiyat boshqaruvi uchun rahbarlar tanlashga doir muhim nazariy manbalardan biri sifatidagi ahamiyati shundaki, unda hukmdorlik va rahbarlik sifatleri va xususiyatlari faqat Nizomulmulkning shaxsiy nazariy qarashlari asosida emas, balki bir necha asrlar davomida va turli davlatlar boshqaruvida amalda qo'llangan tajribalar asosida boyitib beriladi. Nizomulmulkning hukmdor va davlat boshqaruvi rahbarlariga tavsiya etgan qoidalari va tuzuklari boshqaruv uchun rahbarlar tanlashda talab qilinadigan tamoyillarning aynan o'zidir. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlab o'tganidek, “Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik har bir rahbarning – bu Bosh vazir yoki uning o'rinbosarlari bo'ladimi, hukumat a'zosimi yoki hududlar hokimlari bo'ladimi, ular faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak”. [12.6]

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR :

1. Karimov I. “Asarlar to'plami”. 7- jild. T.: O'zbekiston-1999, 132-b.
2. Ravshanov F. “O'zbekiston Respublikasida rahbar kadrlar tanlash asoslari”. Siyosiy fanlar doktori diss. T.: “O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi DJQA”-2009,26-b.
3. Karimov I. “Bizdan ozod va obod Vatan qolsin”. T.:” O'zbekiston”-1996, 300-b.
4. Nizomulmulk. “Siyosatnoma”. T.:” Adolat”-1997.
5. Mirziyoyev Sh. “Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak”. T.:”O'zbekiston”-2017.

ZAMONAVIY SIVILIZATSIYA RIVOJI VA UNING AXLOQIY MEZONLARI

Baxtiyor ABSATTOROV – Nizomiy nomidagi TDPU mustaqil tadqiqotchisi

Mazkur maqolada sivilizatsiyaning axloqiy mezonlari, sivilizatsion taraqqiyot tendensiyalari hamda sivilizatsiyaning tushunishda G'arb va Sharq olimlarining qarashlari tadqiq etilgan.

В данной статье исследованы этические критерии цивилизации, тенденции развития и понимания цивилизации и мнений ученых Запада и Востока.

This article explores the moral and ethical criteria of civilisation, the development tendencies and views of scholars of the West and the East in relation to the understanding of the essence of civilization.

Kalit so'zlar: *Insoniyat, ruhiy dunyo, ma'naviy evolyutsiya, axloq, his-tuyg'u, ijtimoiy tuzum, axloqiy mezon, sivilizatsiya, G'arb, Sharq.*

Ключевые слова: *человечество, духовный мир, духовная эволюция, нравственность, чувство, социальный строй, нравственная мера, цивилизация, Восток, Запад.*

Key words: *Humanity, mental world, spiritual evolution, moral, emotion, social system, ethical criteria, civilization, West, East.*

Sivilizatsiyaning axloqiy mezonlari tegishli ijtimoiy munosabatlar bilan bog'liq. Ijtimoiy munosabatlarning o'zgarishi dunyoqarash prinsiplari ham, u bilan bog'liq axloqiy mezonlarning o'zgarishiga olib keladi. Masalan, sivilizatsiya shakllanishining ilk davrlarida ruhoniylardan tashkil topgan ierarxiya qatlamidan, ehromlar, muqaddas davlatchilik urflari, jamiyatni bu dunyodan, tabiatdan yuqori turuvchi olam tomonidan boshqarilishi haqidagi tasavvurlardan kelib chiqadigan tashkillanish strukturalari intizomi kabilarda shular jumlasidandir. Sivilizatsiyaning keyingi yuqoriroq bosqichlarida esa ma'lumotli yuqori qatlam tomonidan maxsus tartibga solingan axloqiy me'yorlar ishlab chiqilgan. Jamiyat strukturasida

sodir bo'lgan yangi o'zgarishlar natijasida yangi axloqiy qadriyatlar yaratilgan.

Sivilizatsiyaning axloqiy mezonlarini aniqlashda uning ta'rifiga alohida e'tibor berish maqsadga muvofiqdir. G'arbda keng tarqalgan va foydalaniladigan Vebsterning ingliz tili lug'atida “sivilizatsiya” tushunchasi “madaniyat” tushunchasi bilan aynanlashtirilib, insonda varvarlik va nooqilonalik mutlaqo yo'q bo'lgan xatti-harakatlarni, uning jismoniy, madaniy, ma'naviy, axloqiy, insoniy resurslardan optimal foydalanishini, shuningdek, individning jamiyatda to'laqonli o'rin egallashini xarakterlaydigan ideal holat sifatida ta'riflanadi. Yaqinroqda chiqqan “Xalqaro ijtimoiy fanlar

ensiklopediyasi” da esa “Sivilizatsiya – antropologlar tomonidan foydalaniladigan tushuncha bo‘lib, u primitiv yoki xalq madaniyatiga qarama-qarshi turadigan kategoriya” sifatida izohlanadi. Keltirilgan bu ta’riflarda sivilizatsiya bo‘lishning oliy va poydevoriy xususiyati sifatida intellektual va iqtisodiy parametrlar olinadi. Axloqiy jihatlari ikkilamchi bo‘lib qatnashadi. Bizning nazarimizda esa sivilizatsiya deganda G‘arb mafkurachilari oldinga surgan mezonlar emas (masalan, ilmiy-texnikaviy yoki moliyaviy taraqqiyot o‘lchamlari emas), balki har bir jamiyat o‘z individual madaniyati, ma’naviy-axloqiy mezonlari asosida rivojlanadigan ijtimoiy tizimning o‘z taraqqiyot yo‘li, ya’ni sivilizatsion ideal tushunilsa maqsadga muvofiq bo‘ladi. Axloqiy nuqtayi nazardan qaraganda, yuksak taraqqiy etgan sivilizatsiya deyilganda inson va jamiyatni tabiat, his-tuyg‘ular, tafakkur faoliyati bilan amaliy faoliyat bilan uyg‘unlashtiruvchi voqelik tushuniladi. Shu ma’noda bunday sivilizatsiya insonning maqbul turmush kechirish usullarini shakllantiradigan axloqiy irodaning amaliy ifodasi bo‘lib maydonga chiqadi.

Sivilizatsiyani tushunishga ijtimoiy tuzumning poydevoriy maqsadlarini ifodalovchi ijtimoiy va axloqiy qadriyatlar nuqtayi nazaridan yondashish e’tiborga molikdir. Bu qadriyatlar jamiyat yangi dunyoqarashi yo‘nalishi negizini ishlab chiqadigan fan, falsafa, din, madaniyat kabi sohalar tomonidan shakllantiriladi va asoslab beriladi. Sivilizatsion taraqqiyot tendensiyalarini tahlil etarkan, falsafa hozirgi davr sivilizatsiyasining ma’naviy-axloqiy qadriyatlari tizimi nimalardan tashkil topgan edi va unda nimalarni o‘zgartirish mumkin, degan savollarga javob berishi kerak. Chunki har qanday rivojlanuvchi murakkab organizm muayyan kodlarda ifodalangan va uning barqarorligini ta’minlaydigan o‘z ma’naviy-axloqiy mezonlariga ega bo‘ladi va har qanday tizimda tashqi dunyo bilan shu mezonga muvofiq munosabatlar sodir bo‘ladi.

Hozirgi kunda ba’zi olimlar qarashlarida sivilizatsiya masalasida AQShning hozirgi neoliberalcha fundamentalizm konsepsiyasiga muvofiq keladigan g‘oyalar ham ilgari surilmoqda. Unga ko‘ra inson va insoniyat ruhiy dunyosi, ma’naviy evolyutsiyasi, axloqi, his-tuyg‘ulariga mutlaqo o‘rin yo‘q. Balki bu tushunchalar endilikda qoloq traditsionalistik sivilizatsiya bosqichdagi Sharqqagina xos bo‘lib, hozirgi ilg‘or postindustrial G‘arb madaniyati iste’molidan chiqqan. Vaholanki, masalaga bunday yondoshish insoniylikka to‘g‘ri kelmaydi. Sivilizatsiya qadriyati uning axloqiylikka yo‘nalgani bilan belgilanishi kerak. Shu ma’noda, o‘tmishdagi ajdodlarimiz fan yuksak rivojlangan hozirgi davr olimlardan ancha kuchli bo‘lganlarini tabiiy deb o‘ylaymiz. Bu o‘rinda biz, birinchi Prezidentimiz I.A Karimov ko‘rsatganiday, nafaqat islom olamiga, balki butun G‘arb olamiga tanilgan qomusiy faylasuf, olim va shoirlarimiz bilan, xususan, butun musulmon olamida “«muhaddislar sultoni» degan ulkan unvonni qozongan Imom Buxoriy bilan..., asrlar davomida olim-u fuzalolarga dastur bo‘lib kelgan, insof va adolat, insonparvarlikni targ‘ib

etuvchi g‘oyalari hozirgi murakkab davrimizda ham axloqiy-ma’naviy masalalarni hal etishda muhim ahamiyatini saqlab turgan «Sunani Termiziy» asari bilan tanilgan Abu Iso Muhammad ibn Iso Termiziy bilan..., «Musulmonlarning e’tiqodini tuzatuvchi» degan yuksak sharafga sazovor bo‘lgan Imom Moturidiy... bilan, Sharq olamida «Din va millatning hujjati» degan yuksak unvonga sazovor bo‘lgan, ellik yetti kitobdan iborat «Hidoya» — «To‘g‘ri yo‘l» deb atalgan asari, mana, sakkiz asrdiki, musulmon mamlakatlarida eng nufuzli va mukammal huquqiy manba sifatida e’tirof etib kelinayotgan Burhoniddin Marg‘inoniy bilan bog‘liq ekanligini eslasak to‘g‘ri bo‘ladi.

Sharq sivilizatsiyasi taraqqiyotida azaldan inson axloqi uning bilimidan ham yuqori qo‘yilgan. Ushbu g‘oya Alisher Navoiyning

Menga na ilm-u va na oshiqlik havasdir,

Agar men odam ersam ushbu basdir, -

degan misralarida ayniqsa yorqin ifodalangan.

Yurtimizning eng yuksak ma’naviy qadriyati bo‘lgan tasavvuf ta’limotida esa haqiqatni bilishga kirishishdan oldin shariatga bo‘ysunish juda qat’iy talab qilingan. “Avval shariat, keyin tariqat”, “Shariatsiz tariqat yo‘q” kabi g‘oyalarning keng oldinga surilgani va uning amaliyoti juda jiddiy nazorat ostida bo‘lgani shuni ifodalaydi. Ushbu talabning naqadar keskinligi So‘fi Olloyor tomonidan alohida ta’kidlangan:

Shariat hukmidan tashqi riyozat

Emas toat, qabohatdir, qabohat...

Chindan ham axloqiylik bilan uzviy bo‘lmagan bilim qancha kuchli bo‘lsa, shuncha zararlidir. Chunki axloqsiz inson o‘z bilimidan boshqalar va jamiyat zarariga foydalanishi mumkin va bu zarar bilimsiz kishinikidan ko‘p marta ortiq bo‘ladi. Buni eng kamida oddiy kissavur o‘g‘ri bilan kompyuterni yaxshi bilish orqali bankni o‘maradigan odamning jinoyatlari darajalari orasidagi farq misolida ko‘rish mumkin. Mashhur yunon donishmandi Arastu aytganiday, “Kimki bilimda ilgarilab, axloqda oqsaydigan bo‘lsa, bilingki u oldinga emas katta tezlik bilan tubanlik sari ketibti”. Axloqning bu yuksak vazifasi nemis klassik falsafasining taniqli namoyondasi I.Kant oldinga surgan “kategorial imperativ” g‘oyasida ham o‘z ifodasini topgan edi.

Ayni zamonda bilimsiz yolg‘iz axloqning o‘zi ham yetarli emas. Axloqli bo‘lish ham muayyan oqillikni taqozo etadi. Bu g‘oya buyuk so‘fiy mutafakkir Xoja Ahmad Yassaviyning

Ma’rifatni minbariga minmaguncha,

Shariatni ishlarini bilsa bo‘lmas.

Shariatni ishlarini ado qilmay,

Tariqatni maydonig‘a kirs bo‘lmas. –

degan hikmatli misralarida juda yaxshi ifodalangan. Platon ushbu misralarni bilim va axloq masalasiga dialektik yondoshuv deb baholagan bo‘lardi. Buyuk mutafakkirlar ko‘p asrlardan buyon ushbu g‘oyani bejiz oldinga surmaganlar. Ular shaxs xudbinona “men”ining boshqa shaxslarga va butun atrof tabiatga nisbatan sodir etishi mumkin bo‘lgan agressivligi va boshqa zararlarning (agressiyasining)

oldini olish va ayni paytda inson o'z evolyutsiyasining quyi (hayvoniy instinktlar, tuban nafs) bosqichida to'xtab qolishiga yo'l qo'ymaslik uchun juda oqilona yo'lni ko'rsatganlar.

Buyuk mutafakkir olim Abu Rayxon Beruniyning tushuntirishicha, ko'p hollarda chuqur bilim orqali tushunib yetilmagan masalalar his-tuyg'ular vositasida tez va yaxshi oydinlashadi va kishi xotirasida, qalbida, dunyoqarashida o'chmas iz qoldiradi. Shuningdek, qalbi musaffo tuyg'ularga boy inson axloqsizlik ham qila olmaydi. Qadimgi yunon donishmandi Suqrot esa yaxshi xulqning chuqur bilim bilan uzviyligini ham uqtirgan edi. Demak, inson hayotida bilim, his-tuyg'ular va axloq o'zaro ajralmas, uyg'un birlik tashkil etgan hollardagina madaniyat gullab yashnaydi. Chindan ham, his-tuyg'ular oqilonalikka nisbatan kuchli rivojlansa, bu tuyg'ularni jilovlash qiyin kechadi. Garchi bu tuyg'ular juda ezgu, sof bo'lsa ham, kishi voqelikni noto'g'ri, biryoqlama, cheklangan qabul qilgani tufayli ular amalda kishining o'ziga ham, atrofida qilargalarga ham katta zarar keltirishi mumkin. Ezgu tuyg'ularsiz va axloqiy mezonlarsiz quruq mantiqqa asoslangan tafakkur nafaqat kishi ichki qiyofasining to'kisligiga, insoniyligiga, balki uning bilim saviyasiga ham salbiy ta'sir etib, uni agressiv zombiga, manyakka aylantirib qo'yishi mumkin.

Biroq hozirgi davrda G'arbning ba'zi olimlari tomonidan axloq masalasiga hanuzgacha jiddiy e'tibor qaratilmayapti. Masalan, Freyding hozirgi davrdagi izdoshlari kishilarni ruhiy tajribaga hech qanday axloqiy talablarni qo'ymagan holda, to'g'ridan to'g'ri olib kirishda davom etmoqda. Buni, M. Dmitrukning 1990-yilda Moskva psixiatriya ilmiy tekshirish instituti qoshidagi psixiatriya-endokrinologiya markazida S.Grof tomonidan o'tkazilgan seanslar haqidagi axborotidan ko'rishimiz mumkin. Xabarga ko'ra, shu institutda ishlaydiganlardan o'nga yaqin talabgor seansda qatnashgan. Seans qatnashchilaridan faqat ko'zlarini yumgan holda ohista chalinayotgan ritmik musiqani tinglab, u bilan uyg'unlashib ketish va nafasini ham shunga moslashtirish talab qilinadi. Seans mobaynida qatnashuvchilar nafasi asta-sekin ritmga moslashadi va ularning ongi g'ayrioddiy holatga tushadi. Ya'ni ularning ongi aql doirasidan tashqariga chiqadi va ular turli ruhiy kechinmalarni boshdan kechiradilar. Xabarda ma'lum qilinishicha, bu kechinmalar qatnashchilardagi turli kasalliklarning davolanishiga olib kelgan. Seansdagi uyg'un ritmik

musiqasi inson borlig'ining birlamchi asosi bo'lgan ruhiyatdagi kamchiliklarni bartaraf etilishi orqali jismoniy xastalikning ham yo'qolishiga olib keladi.

Yuqoridagi axborot G'arb ruhshunosligida inson ruhiyatini o'rganish va davolash amaliyotida ko'p asrlik tajribaga ega bo'lgan Sharq olimlari orttirgan yutuqlar nuqtayi nazaridan yondashuv yo'qligini ko'rsatib turibdi. Vaholanki, ayni shu yutuqlar shaxs "men"ning boshqa shaxslarga va butun atrof-tabiatga keltirishi mumkin bo'lgan zararlarning (agressiyasini) oldini olish va inson o'z evolyutsiyasining quyi (hayvoniy instinktlar, tuban nafs) bosqichida to'xtab qolishiga yo'l qo'ymaslik uchun yaxshi dastur bo'lishi mumkin edi. Lekin G'arb ma'naviy madaniyati bu yo'ldan bormayapti.

Umuman olganda, sharqning buyuk mutafakkirlari va shoirlari barkamol inson obrazini yaratar ekanlar, unda bilim, ezgu tuyg'ular va yuksak xulq bir-birini to'ldiradigan tarzda o'zaro uzviy, uyg'un birlikda rivojlanganligiga alohida e'tibor qaratilgan. Sharq ma'naviy madaniyati, yuqorida ko'rganimizday, uzoq vaqtlar G'arbnikidan asosan his-tuyg'ularning serjiloligi, beqiyos jozibadorligi bilan ajralib turgan. Zero, G'arb madaniyati tafakkur zaminida tug'ilib, tafakkur taraqqiyotiga xizmat qilib kelgan bo'lsa, Sharq madaniyati qalb bilan bog'liq va qalb taraqqiyotiga xizmat qilib kelgan. Lekin o'tmishimizda bu jozibadorlik sharqona hikmatlarning buyukligini aslo pasaytira olmaydi, aksincha, uning mazmunida shu jozibadorlikka munosib juda teran ma'nolar jo bo'lgan.

Xullas, yuqoridagi tahlil "...bizning ulug' ajdodlarimiz o'z davrida komil inson haqida butun bir axloqiy mezonlar majmuini, zamonaviy tilda aytganda, sharqona axloq kodeksini ishlab chiqqanliklarini" va "Ota-bobolarimizning ong-u tafakkurida asrlar, ming yillar davomida shakllanib, sayqal topgan or-nomus, uyat va andisha, sharm-u hayo, ibo va iffat kabi yuksak axloqiy tuyg'u va tushunchalar bu kodeksning asosiy ma'nomazmunini tashkil..." etganini va ushbu kodeks xalqimiz ma'naviyatining mezonini bo'lib kelganini va u milliy urf-odatlarimizga aylanib ketganini va endigi hayotimizda ham "...xalqimiz ma'naviyatini yuksaltirishda milliy urf-odatlarimiz va ularning zamirida mujassam bo'lgan mehr-oqibat, insonni ulug'lash, tinch va osoyishta hayot, do'stlik va totuvlikni qadrlash, turli muammolarni birgalashib hal qilish kabi ibratli qadriyatlar tobora muhim ahamiyat kasb..." etib borishi zarurligini ko'rsatadi.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR:

1. Karimov I. "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch". T.: "Ma'naviyat"-2008.
2. Ahmad Yassaviy. "Devoni hikmat". T.: "O'qituvchi"-1992.
3. Дмитрук М. "Миры внутри нас". М.: "Знание"-1990.
4. Черницкий А. "История исчезнувших цивилизаций". Ростов н/Д.: "Феникс"- 2007.
5. Ерасов Б. «Сравнительное изучение цивилизаций». М.: «Аспект-Пресс»-1999.

UMUMTA'LIM MAKTABLARNING TASVIRIY SAN'AT DARSLARIDA KOMPETENSIYAVIY YONDASHUV

Sunatulla ABDIRASILOV – Nizomiy nomidagi TDPU “Tasviriy san’at va uni o’qitish metodikasi” kafedrası professorı v.b., pedagogika fanlari nomzodi

Mirolim XUDOYBERDIYEV – Nizomiy nomidagi TDPU “Tasviriy san’at va uni o’qitish metodikasi” kafedrası magistrı

Ushbu maqolada umumta’lim maktablarida tasviriy san’at darslarida pedagogik texnologiyalarnı amaliyotga tatbiq etish masalasi ko’rilgan, shuningdek, maktab dasturidagi dars mavzusining kompetensiyasiga oid ishlanma tavsiya etilmoqda.

В статье рассматриваются вопросы внедрения в практику педагогической технологии обучения на уроках изобразительного искусства в общеобразовательной школе, а также компетентность разработки уроков одной темы по школьной программе.

In this article the competence of working out of lessons of one theme under the school program is considered introduction questions in practice of pedagogical technology of training at fine arts lessons in a comprehensive school.

Kalit so’zlar: tasviriy san’at, pedagogik texnologiya, portret, tarixiy portret, afsonaviy portret, tarixiy shaxslar, kompetensiya.

Ключевые слова: изобразительное искусство, педагогическая технология, портрет, исторический портрет, мифологический портрет, исторические личности, компетенция.

Key words: the fine arts, pedagogical technology, a portrait, a historical portrait, a mythological portrait, historic figures, the competence.

Variant № 1

Mavzu: «Tasviriy san’atda portret janrida ishlangan asarlarnı badiiy idrok etish»

Darsning ta’limiy maqsadi:

O’quvchilarga portret janri tasviriy san’atning bir turi ekanligi haqida ma’lumot berish, eskiz chizish va hajmi his etish, qalamtasvirda bajarilgan suratlardan foydalana bilish hamda hajmli kompozitsiya yaratish borasidagi bilim, ko’nikma va malakalarini shakllantirish.

O’quvchilarda shakllangan fanga oid kompetensiyalar:

Naturaning xarakterli jihatlarnı kuzatish, tahlil qilish va ifodalay olish kompetensiyasi: naturaning xarakterli jihatlarnı badiiy idrok etadi va ifodalay oladi; tasvirlashda perspektivani asosiy qonuniyatlarini qo’llay oladi; naturani tasvirlashda kompozitsiya qoidalariga amal qilgan holda tasvir ishlay oladi; tasviriy san’at janrlarnı farqlaydi; tahlil qila oladi va eskizini ishlay oladi;

O’zbekiston hamda jahon tasviriy san’at asarlarini tahlil qila oladi.

Darsning tarbiyaviy maqsadi:

O’quvchilarning san’at asarlariga oid estetik didini, milliy san’atimizni va qadriyatlarimizni badiiy idrok etish qobiliyatini o’stirish.

Portret janrida inson qiyofasini tasvirlashga oid bilim, ko’nikma va malakalarnı shakllantirish.

Adabiy asarlar syujeti asosida portret ishlaganda tasviriy va mazmun mutanosibligiga erishish qobiliyatlarini rivojlantirish.

O’quvchilarnı Vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, tug’ilib o’sgan yurtiga mehr uyg’otish, sevishtga o’rgatish, munosib farzand bo’lishga undash.

Milliy va umummadaniy kompetensiya: odob-xalq qoidalariga rioya qilish; o’zgalarning milliy va

etnik xususiyatlari, an’ana va marosimlarini hurmat qilish.

Darsning rivojlantiruvchi maqsadi:

O’rganilgan mavzu asosida badiiy asarnı idrok etish, o’zaro muloqotga kirishish. O’rganilgan tasviriy san’at asarlari bo’yicha bilimlarnı yozma va og’zaki nutqda to’g’ri qo’llash, izohli lug’at boyligini oshirish. Mavzuning ta’limiy va tarbiyaviy ahamiyatini o’quvchilarning ongiga singdirish. Yurtimizning portret janri haqidagi bilimlarini rivojlantirish.

O’zini-o’zi rivojlantirish kompetensiyasi:

Bilimini mustaqil ravishda oshirib borish, o’qib o’rganganlarini o’rtoqlari bilan muhokama qilish;

Darsning jihozlanishi:

O’qituvchi uchun: kitoblar, illyustratsiyalar, foto, slaydlar, multimedia, tarqatma materiallar.

O’quvchi uchun: sinf taxtasi, bo’r, rasm daftari, suv, bo’yoq, qalamlar, oddiy daftar, suv idish, o’chirg’ich.

Tayanch so’zlar: inson, qiyofa, rassom, ko’rinish, xarakter, ranglar, kiyim bosh, kasb va h.k.

Mashg’ulot turi:

Noan’anaviy interfaol usul, ko’rgazmalarnı namoyish qilish, mavzuni og’zaki bayon qilish.

Dars o’tish usuli: suhbat, klaster metodi, didaktik o’yinlar. Amaliy ish.

Fanlararo aloqa: tarix, adabiyot, milliy istiqloq g’oyasi, Vatan tuyg’usi.

Dars jarayoni:

- o’quvchilarnı guruhlarga bo’lish, nomlash, ular bilan ishlash;

- o’tilgan mavzuni mustahkamlash;

- aqliy hujum, klaster metodi;

- slaydlardan foydalanish;

- qiziqarli o’yinlar «xotirani mustahkamlash»;

- tarqatma didaktik materiallar bilan ishlash;

- krossvord yechish;
- amaliy ish.

Darsning borishi:


- Tashkiliy qism - 2 daqiqa
- Didaktik o'yinlar - 10 daqiqa
- Ko'rgazmalar namoyishi - 10 daqiqa
- Asosiy qism - 20 daqiqa
- Yakuniy qism - 3 daqiqa

Tasviriy san'atning tur va janrlari xilma-xil bo'lib, bu borada portret janri alohida o'ringa egadir. Rassom inson qiyofasi orqali o'zi tasvirlayotgan shaxsning ichki kechinmalarini, his-tuyg'ularini, uning kimligini, qanday kasb egasi ekanligini chiziqlar va

ranglar oqali ochib beradi. Portretlar ma'lum syujet asosida maishiy, tarixiy, afsonaviy yoki adabiy asar qahramoni obrazida bo'lishi mumkin. Portretlar shohona, psixologik, o'ta keskin xarakterli, avtoportret kabi turlarga bo'linadi.

Portret deganda nimani tushunasiz? O'quvchilar portret haqida o'z fikrini «Klaster» metodi orqali ifodalab beradilar.

O'quvchilar sinf taxtasida «Portret» so'zini yozadi va o'quvchilar aytgan so'zlarni navbatma – navbat uning atrofiga yozib chiqadilar.



So'ng multimedia usulida slaydlar namoyish qilinadi:

-Leonardo da Vinchi. «Jakonda», «Djenari de Vinchi»;

- Rafael: «Sikstin madonnasi»;
- Albrext Dyurer: «Avtoportret»;
- Rembrand: «Avtoportret Saskiya bilan».

Rus tasviriy sa'nati:

- O.A.Kiprenskiy: «A.S.Pushkin» portreti;
 - I.Kramskoy: «L.N.Tolstoy» portreti;
 - I.Repin: «Avtoportret», «Kuzgi gullar»;
- Qadimiy va zamonaviy o'zbek tasviriy san'ati:

-Kamoliddin Behzod: «Shayboniyxon», «Sulton Husayn Mirzo»;

- Malik Nabiye: «Amir Temur», «Beruniy»;
- Abdulhaq Abdullayev: «A.Xidoyatov », «Oybek», «Navoiy »;

-R.Axmedov: «Ona o'ylari », «Y.Tursunnazarov »;

-A.Ikromjonov: «Ulug'bek », «Ch.Ahmarov ». Xotira mashqi:

- G'isht, chelak, ruboiy, raqam, portret, osmon, naqsh.
- Ruchka, boks, xujayra, natyurmort, ko'chat.
- Atirgul, qiyofa, rangtasvir, samolyot, haykal.
- Shamol, manzara, asar, traktor, animal.

Krossvord yechish.

Tasviriy san'atga oid krossvord

a.

| | | | | | | | | | | | | | |
|---|---|---|----|---|---|---|----|----|---|----|---|---|---|
| | | | | | N | a | t | yu | r | m | o | r | t |
| | | | | t | A | s | v | i | r | | | | |
| i | l | l | yu | s | T | r | a | s | i | ya | | | |
| | | | | k | U | l | o | l | | | | | |
| m | a | n | z | a | R | a | | | | | | | |
| | | | | n | A | q | sh | | | | | | |

bugungi kunga kelib, o'z ravnaqiga erishdi. Zamonamizning mashhur portretchi rassomlari A.Abdullayev, R.Axmedov, M.Nabiyev, R.Choriyev, Ch.Ahmarov, keyingi avlod vakillari J.Umarbekov, B.Jalolov, A.Ikromjonov, O.Qozoqov, A.Aliqulovlar asarlarida zamon ruhi, o'zbekona bag'rikenglik, odamohunlik, samimiylik real aks ettirilgan. Biz bu rassomlarning yaratgan asarlarini qiyosan tahlil qilib chiqsak, juda ko'p yangiliklarni kashf etamiz. Avvalo, yuqorida zikr etilgan rassomlarning har biri o'z ishlash yo'nalishiga, o'z metodik asar yaratish uslubiga ega bo'lib o'zaro bir-biridan farq qiladi. Masalan, O'zbekiston xalq rassomi M.Nabiyev ijodida – Amir Temur, Beruniy, Ulug'bek kabi buyuk ajdodlarimiz tasviri - tarixiy janr birinchi o'rinda tursa, R.Ahmedov ijodida «Onalik», «Ona o'ylari», «Bahor» mavzulari oddiy o'zbek ayoli obrazi orqali yetakchi o'rinni tutadi. Ch.Ahmarov, T.Sa'dullayev, T.Muhamedov, A.G'ulomov esa qadimiy Sharq miniatyurasini zamonaviy realistik rangtasvir bilan uyg'unlashtirib, yangi bir yo'nalish yaratdi.

Tasviriy san'atning rangtasvir, grafika, haykaltaroshlik kabi turlarida portret janrida asar yaratish bosib o'tilayotgan tarix uchun turli zamon va davr kishilari, ularning yashash tarzi, hayotiy

voqe'lardan ma'lumot beruvchi yodgorlik bo'lib qoladi. O'qituvchi portret janrida o'quvchilarga ma'lumot berar ekan, inson qiyofasini tasvirlashda o'ziga xos tasvirlash qoidalariga e'tiborini qaratadi. Proporsiya, simmetriya, gavda – tana, qo'l, bosh, oyoq nisbatlariga diqqatni jalb qiladi. Sinf taxtasida bosh, gavdaga oid xomaki, qoralama rasmlar chizib ko'rsatilsa, maqsadga muvofiq bo'ladi.

Taqdimot va baholash. O'tilgan mavzuni mustahkamlash:

Har bir guruh ixtiyoriy biror qiyofani tanlaydi. Tanlangan ko'rinish eskizini chizadi. Topshiriq asosida o'quvchi eskiz tayyorlaydi. Tayyor bo'lgan ishni sinf taxtasiga ilib, uni tayyorlash bosqichlarini gapirib beradi. O'qituvchi bajarilgan ishlarni va guruh sardorining ta'rifi asosida guruh ishini baholaydi va guruhlarning faolligiga o'rin belgilaydi. O'qituvchi guruh a'zolarini baholashda quyidagi mezonga asoslanishi mumkin:

- ishning toza va ozoda bajarilganligi;
- tanlangan tasvir eskizining to'g'ri va aniq chizilganligi.

Mustahkamlash:

test savollari orqali o'quvchilar bilimi mustahkamlanadi.

Tasviriy san'atdan testlar bajarilishi mumkin.

1. Asosiy rangni toping.

- | | | | |
|-------------|----------|-----------|-------------|
| A. Moshrang | B. Qizil | C. Yashil | D. Binafsha |
|-------------|----------|-----------|-------------|

2. Hosila rangni toping.

- | | | | |
|----------|----------|-------------|---------|
| A. Qizil | B. Sariq | C. Binafsha | D. Ko'k |
|----------|----------|-------------|---------|

3. Tasviriy san'at janrini aniqlang.

- | | | | |
|--------------------|------------|----------------|------------|
| A. Haykaltaroshlik | B. Manzara | C. Kulolchilik | D. Grafika |
|--------------------|------------|----------------|------------|

4. Tasviriy san'at janrini toping

- | | | | |
|------------|---------------|------------|---------------|
| A. Portret | B. Rangtasvir | C. Grafika | D. Naqqoshlik |
|------------|---------------|------------|---------------|

5. Issiq rangni toping.

- | | | | |
|-----------|-------------|---------|---------------|
| A. Yashil | B. Binafsha | C. Ko'k | D. Zarg'aldoq |
|-----------|-------------|---------|---------------|

6. Samarqanddagi tarixiy obidani toping.

- | | | | |
|------------------|---------------|----------------|---------------|
| A. Minorai kalon | B. Shohizinda | C. Kalta minor | D. Ko'k saroy |
|------------------|---------------|----------------|---------------|

7. Manzarachi o'zbek rassomini aniqlang.

- | | | | |
|---------------|-----------------|-------------------|--------------|
| A. N.Basharov | B. D.Ro'ziboyev | C. O'.Tansiqboyev | D. J.Xakimov |
|---------------|-----------------|-------------------|--------------|

8. Amir Temur haykali muallifini toping.

- | | | | |
|---------------|----------------|---------------|----------------|
| A. R. Ahmedov | B. R. Choriyev | C. M. Kagarov | D. I. Jabborov |
|---------------|----------------|---------------|----------------|

9. Pushkin portretining muallifi kim?

- | | | | |
|---------------|--------------|-----------------|--------------|
| A. I. Levitan | B. V. Muxina | C. O.Kiprenskiy | D. V.Surikov |
|---------------|--------------|-----------------|--------------|

10. «Shayboniyxon» asarining muallifi kim?

- | | | | |
|---------------|---------------|--------------|-----------|
| A. M. Nabiyev | B. Ch.Axmarov | C. R.Axmedov | D. Behzod |
|---------------|---------------|--------------|-----------|

11. «Mona Liza» asari muallifi kim?

- | | | | |
|-------------|-----------------------|-----------|-----------------|
| A. Rembrand | B. Leonardo da Vinchi | C. Rubens | D. Rafael Santi |
|-------------|-----------------------|-----------|-----------------|

Eng faol o'quvchilar e'lon qilinadi.

Dars jarayonida faol bo'lgan o'quvchilarni ballar, yaxshi so'z va qarsaklar bilan rag'batlantiriladi.

Dars yakuni va uyga vazifa: erkin mavzuda tanlangan ixtiyoriy kompozitsion portret ishlab kelish topshiriladi.

Variant № 2

Tasviriy san'atda portret. Portret janrida ishlangan asarlarni badiiy idrok etish

Topshiriq. Portret janrining yaratilish xususiyati to'g'risida suhbat.

Darsning ta'limiy maqsadi:

O'quvchilarga portret janri orqali axloqiy va estetik ruhda tarbiya berish va insoniylik munosabatlarini shakllantirish. O'quvchilarni inson xarakterini, qiyofasini, tuzilishini kuzatishga, anglash, tushunishga va chizishga o'rgatish. O'quvchilarga portret janri haqida ma'lumot berish bilan inson haqidagi bilimlarini, mustaqil rasm chiza olish qobiliyatlarini rivojlantirish.

O'quvchilarda shakllangan fanga oid kompetensiyalar:

Naturaning xarakterli jihatlarini kuzatish, tahlil qilish va ifodalay olish kompetensiyasi: naturaning xarakterli jihatlarini badiiy idrok etadi va ifodalay oladi; tasvirlashda perspektivani asosiy qonuniyatlarini qo'llay oladi; naturani tasvirlashda kompozitsiya qoidalariga amal qilgan holda tasvir ishlay oladi; tasviriy san'at janrlarini farqlaydi; tahlil qila oladi va eskizini ishlay oladi;

O'zbekiston hamda jahon tasviriy san'at asarlarini tahlil qila oladi.

Darsning tarbiyaviy maqsadi:

O'quvchilarning san'at asarlariga oid estetik didini, milliy san'atimizni va qadriyatlarimizni badiiy idrok etish qobiliyatini o'stirish.

Portret janrida inson qiyofasini tasvirlashga oid bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish.

Adabiy asarlar syujeti asosida portret ishlaganda tasviriy va mazmun mutanosibligiga erishish qobiliyatlarini rivojlantirish.

O'quvchilarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, tug'ilib o'sgan yurtiga mehr uyg'otish, sevishtga o'rgatish, munosib farzand bo'lishga undash.

Milliy va umummadaniy kompetensiya: odob-axloq qoidalariga rioya qilish; o'zgalarning milliy va etnik xususiyatlari, an'ana va marosimlarini hurmat qilish.

Darsning rivojlantiruvchi maqsadi:

O'rganilgan mavzu asosida badiiy asarni idrok etish, o'zaro muloqotga kirishish. O'rganilgan tasviriy san'at asarlaribo'yicha bilimlarni yozma va og'zaki nutqda to'g'ri qo'llash, izohli lug'at boyligini oshirish. Mavzuning ta'limiy va tarbiyaviy ahamiyatini o'quvchilarning ongiga singdirish. Yurtimizning portret janri haqidagi bilimlarini rivojlantirish.

O'zini-o'zi rivojlantirish kompetensiyasi:

Bilimni mustaqil ravishda oshirib borish, o'qib o'rganganlarini o'rtoqlari bilan muhokama qilish;

Darsning jihozlanishi:

O'qituvchi uchun: Abdulhaq Abdullayev "Alisher Navoiy", Rahim Axmedov "Ona o'ylari", Malik Nabiyev "Amir Temur" va h.k.

O'quvchilar uchun: rasm daftari, qalam, akvarel, yozuv daftari va boshq.

Darsning mazmuni: Dars suhbat tarzda olib boriladi.



Bunda: rassom atrof-muhitni, buyumlar dunyosini, tabiat va inson qiyofasi tasvirini, xarakter xislatlarini anglashni o'rganadi.

Darsning borishi:

Tashkiliy qism - 2-3 daqiqa.

O'tilgan mavzu bo'yicha o'quvchilar bilimini baholash - 5-7 daqiqa.

O'quvchilarni yangi dars mavzusi, maqsadi, darsning olib borilishi bilan tanishtirish. Tasviriy san'atning portret janrida bajarilgan asarlarini o'rganishga yo'llash - 20-25 daqiqa.

O'tilgan mavzuni baholash va mustahkamlash.

"O'tgan darsimizda "Navro'z" bayramiga bag'ishlangan kompozitsiya edi. Qani uyga vazifani partalar ustiga quyib chiqinglar. Ko'rib baholaymiz va uni tahlil qilamiz"- deb, o'qituvchi o'quvchilarning ishlarini ko'rib chiqadi.

Yangi mavzu bayoni:

Inson obrazining yaratilishi portret san'ati deb yuritiladi. Portret janrida ayrim shaxs yoki kishilar guruhi tasvirga olinadi. Tasvirning o'ziga xosligiga ko'ra, portret dastgohli (kartinalar, byustlar, grafik asarlar) va mahobatli (naqsh, koshin, haykal),

tantanali va intim, ko'krakdan va butun bo'y-basti, yon tomondan, anfas va boshqa ko'rinishda bo'ladi. Portret medallarda, miniatyura usulida ham bajariladi. Portret yakka, ikkilik va guruhli turlarga bo'linadi. Portretning o'ziga xos janri - avtoportret. Portret yaratishda insonning anatomik tuzilishidan tortib, ichki ruhiy, ma'naviy holati, shuningdek, tashqi ko'rinishidagi barcha jihatlar aks ettiriladi.

Portretlarni o'rganish bilan ular haqida ko'p ma'lumot olamiz. U insonning yashash tarixidan va imkoniyatlaridan so'zlaydi. Ko'pgina portretlar yillar mobaynida yig'ilgan bebaho asarlar qatoriga kiritilib kelinmoqda. Muqaddas portretlar ham bor bo'lib u ikonalar. Ikonalar chizilgan diniy cherkovlarda, ularning devorlarida saqlanadi. Ikonalarda iloxiylik mavj urib turush uchun ko'proq iliq ranglardan, orqa foni, rejasi samoviy ranglardan foydalaniladi. Lekin ko'proq portret asarlari realistik, mifologik ko'rinishda aks etgan bo'ladi. O'zbekiston xalq rassomi, akademik M.Nabiyev buyuk siymolar obrazini o'ziga xos talqin eta olgan iste'dodli mo'yqalam sohibidir. U ishlagan Amir Temur, Beruniy, Bobur portretlari fikrimiz dalilidir. Amir Temur portreti buyuk

sarkardaning taxtda o'ychan, qilich bandiga qo'llarini qo'yib o'tirgan holati mohirona tasvirlangan. Uning yurt tinchligi, xalq farovonligini o'ta ziyalik bilan mushohada etayotganligi ishonarli ko'rsatilgan. Boshidagi shohlik toji barvasta qomatiga juda mos tushgan. Uning nihoyatda qattiqqo'lligi, dovyurak va abjirligi, o'ta zakovatligi yuz qiyofasida o'z ifodasini topgan.

Inson obrazini yaratish tasviriy san'atda eng murakkab jarayon hisoblanadi. Tasviriy san'atning portret janri insonning ma'naviy qiyofasini o'zida ifodalaydi. Portret orqali inson obrazini mohirona ko'rsata olish buyuk rassomlar qatorida Kamoliddin Behzod, Leonardo da Vinchi, Rembrandt, shuningdek, o'zbek rassomlaridan Rahim Axmedov, Abdulhaq Abdullayev, Chingiz Axmarov kabi bir qancha rassomlarni kiritish mumkin.



M.Nabiyev Abu Rayhon Beruniyning tavalludi munosabati bilan ulug' mutafakkir olim portretini yaratdi. Abu Rayhon Beruniy buyuk qomusiy olim sifatida astranomiya, fizika, matematika, geodeziya, geologiya, mineralogiya asoslari kabi fanlarni puxta egallagan. M.Nabiyev ko'p izlandi, sharqshunos olimlarning fikr-mulohazalariga tayanib, fakt va ko'rsatmalar asosida, Beruniy yashagan tarixiy davrni chuqur o'rgandi, X-XI asr Xorazm tangalaridagi shohlar rasmi bilan tanishdi va Beruniy obrazi suratda aks ettirildi. Rassom Abu Rayhon Beruniyning kamtar va sodda kishi sifatida

tasvirlaydi. Uning ko'zlarida donolik, idrok va ijodiy g'ayrat tuyg'ulari ko'rinib turibdi. Bu portret ikkinchi marotaba ham ko'rik g'olibi bo'ldi va YuNESKoning "Kur'er" jurnali muqovasida va xorijiy mamlakatlarning ko'pgina jurnal va gazetalari hamda otkritka, marka, plakat tarzida bir necha bor nashrdan chiqarildi.

Rahim Axmedovning "Ona o'ylari", "Tong", Abdulhaq Abdullayevning "Avtoportret", "Kolxozchi Mirg'anov" asarlari o'zbek xalqiga xos bo'lgan rang-baranglik ko'rinishida bo'lib, ular o'zbek xalqining xarakteri to'g'risida ajoyib ma'lumotlar beradi.



Portret janrida rasm ishlashga xarakterli naturalarni tanlash kerak. Buning uchun xiyobonlarda o'tirib, ko'cha yoki bozorlarni kezib obrazli ko'rinishlar qidiriladi. Shundagina nazarda tutilgan natijaga erishish mumkin. Xarakterli kayfiyatdagi natura ko'zlangan joyga moslab qo'yiladi.

Bosqichlar asosida portret ishlashda qog'oz varag'iga joylashtirib olinadi. Oldiniga qalamni bosmasdan yordamchi chiziqchalar chiziladi va ko'z, burun, qosh, lab, soch o'z o'rniga chiziladi. Dastavval, bosh suyagi to'g'ri tasvirlanishi lozim. Shundagina portret to'g'ri va savodli chiziladi.

Odam boshining tasvirini ishlashda umumiylikdan xususiylikka va xususiylikdan yana umumiylikka o'tish prinsipiga asoslanadi. Boshqacha aytganda, naturaning qismlarini tahlil qilish orqali umumiy shakl obrazini ifoda etish qoidasiga rioya etish kerak. Yuzdagi va bo'yin, yelka qismlari ham tasvirlanadi, ishlov beriladi. Yuzdagi xarakterni topishga o'ta sinchkovlik talab etiladi. Har bir chiziq yorug'–soyada xarakterni beruvchi chiziq'larga katta e'tibor berish kerak. Sochga, yuzga, yelka qismiga ham ishlov beriladi. Ishni uzoqdan tez-tez kuzatib turish portret ishlashni ta'minlaydi.

O'quvchilar "Rasm chizishda chiziq'lardan qanday foydalanishi kerak, bosh shaklini birdaniga aniq

chizish bilan ifodalash kerakmi yoki faqat yengilgina chizish lozimmi?" - deb so'raydilar. Bu o'rinda qalam bilan ma'lum vaqt tahlil qilib, so'ng shaklini tasvirlash, qog'oz ustida tez-tez yurgizish va belgilar chizish kerak bo'ladi. Eng asosiysi, bosib chizmaslik. Chunki qora chiziq'lar xatolarni ko'ra bilishni qiyinlashtiradi. Bu xatolarni tuzatish esa undan-da qiyin.

Portret janrida rasm ishlashni mukammol o'rganmoqchi bo'lgan har bir o'quvchi rasm texnologiyasini o'rganib, uni o'z tajribasida qo'llay olishga harakat qilishi kerak. Bir kunda kamida 5-10 ta xomaki rasm ishlab turgan kishi rassom bo'lib yetishishi mumkin.



Darsni yakunlash: bu vaqt ichida yangi mavzu bo'yicha savol-javob orqali dars mustahkamlanadi:

-Suratda qanday voqea va kimlar tasvirlangan?

-“Bobur” portretining muallifi kim?

Hozirgi sharoitda ta'lim inson faoliyatining barcha sohalariga yangi texnologiyalarni joriy etish, raqobatbardoshlikni oshirish, turmush darajasini ko'tarishning muhim shartiga aylanib bormoqda. Ta'limning ijtimoiy mas'uliyati ko'p jihatdan har bir insonning tez o'zgaruvchan mehnat bozorida xaridorgir bo'lib qolishi, rivojlanib borayotgan innovatsion iqtisodiyotda to'laqonli ishtirok etishi va shu yo'l bilan o'z farovonligini hamda umuman jamiyat farovonligini ta'minlash imkonini beradigan malakaviy va ijtimoiy ko'nikmalar olishidan iboratdir. Ko'pgina mamlakatlarda ta'limning oshib borayotgan rolini hisobga olgan holda uni rivojlantirish strategiyasi milliy strategiya ustuvorliklari bilan belgilanadi va u ta'lim sifatini oshirish hamda uni olish imkoniyatini kengaytirishga yo'naltirilgandir.

Respublikamiz oliy ta'lim muassasalarida innovatsion texnologiyalardan foydalanish o'quv, ijodiy, amaliy va tadqiqot xarakteridagi loyihalarni yaratishga talabalarni jalb qilish, ularning loyihalash madaniyatini oshirishga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, talabalarda loyihalash madaniyatining talab darajasida rivojlanmaganligi, innovatsion madaniyatni rivojlantirishning nazariy tavsifini asoslash mexanizmini yaratish zaruriyatini yuzaga keltirmoqda. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar Strategiyasida "Sifatli ta'lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash, ta'lim va o'qitish sifatini baholashning xalqaro standartini joriy etish asosida oliy ta'lim muassasalari faoliyatining sifati hamda samaradorligini oshirish" masalalari yoritilgan. Bu oliy o'quv yurti talabalari loyihalash madaniyatining sifatleri, innovatsion hamda interfaol usullar asosida loyiha ishlarini tayyorlash malakalariga ega yetuk mutaxassislar tayyorlashga xizmat qiladi.

Pedagogik faoliyat – bu inson shaxsini, uning dunyoqarashini, ishonchini, ongini, xulqini shakllantirishga bo'ysundirilgan cheksiz masalalarni yechish jarayonidir. Psixologik-pedagogik adabiyotlarda pedagogik faoliyat turlari (ta'lim beruvchi, tarbiyalovchi, rivojlantiruvchi, safarbarlik, tadqiqotchilik, tashkilotchilik va boshqalar) qator olimlar tomonidan tadqiq qilingan. Shu bilan birgalikda, pedagogik faoliyat muntazam o'zgaruvchan, yangilanuvchan, rivojlanuvchanligi bilan ajralib turadi, unga ijtimoiy buyurtma uzluksiz ravishda ta'sir ko'rsatadi.

Agar, ta'lim texnologiyasiga pedagogik tizimning komponenti sifatida qaralsa, uni tarkibiy tuzilishi jihatdan ikki xil, ya'ni elementlari bo'yicha va funksiyaning variantida tasavvur qilish mumkin.

Hozirgi sharoitda ilg'or pedagogik texnologiya elementlarini o'quv jarayoniga tatbiq etish to'g'risida fikr yuritar ekanmiz, yana bir muhim holatni e'tibordan chetda qoldirmaslik kerak. Bu ham bo'lsa, texnologiyani ta'lim jarayoniga tatbiq qiluvchi o'qituvchi shaxsini, ya'ni har qanday texnologiya o'qituvchi aql zakovati, shaxsiy va kasbiy mahorati

orqali ta'lim-tarbiya jarayoniga tatbiq qilinib, o'quv jarayonini interfaol metod asosida tashkil etishda yuksak mahorat va malakani talab etadi. Interfaol metodlarning qanday jihatlarini tahlil qilmaylik, uning asosi ta'lim samaradorligini oshirishga, ya'ni kam vaqt, kam kuch sarflab, ko'proq sifatli, yuqori natijaga erishishga qaratilgan. Qo'llaniladigan interfaol metodlar natijasi esa, birinchi navbatda pedagogning mahoratiga, texnologiyalarni to'g'ri tanlashiga va ulardan mohirona foydalanishiga bog'liqdir.

Ta'lim sohasi uchun oliy o'quv yurtlarida olgan bilim, ko'nikmalarini va tajribani inson munosabatlari hamda jamiyat tuzilishining oqilona modelida foydalana oladigan, o'zgarib borayotgan bozor muhitida tez moslasha oladigan, tavakkalchilik sharoitida mustaqil qarorlar qabul qila oladigan, bir xil bo'lmagan yechimlarni topa oladigan, kirishimli va ijtimoiy-moslanuvchan mutaxassislarni tayyorlash davr talabidir.

Shundan kelib chiqqan holda, iqtisodiy fanlarni o'qitish jarayoni yangicha yondashuvni talab etadi, bu esa kasbiy fanlarni o'qitish jarayonida innovatsion texnologiyalardan foydalanish texnologiyasini loyihalash va ishlab chiqish demakdir.

Globalashuv sharoitida oliy o'quv yurtlarida ta'lim tizimining samarali bo'lishi pedagog kadrlarning tayyorgarlik darajasiga ham bog'liq. Pedagog birinchi galda o'z kasbini sevishi, hurmat qilishi, talabaga katta qiziqish va mehr bilan qarashi, jamiyat oldidagi o'zining katta mas'uliyatini his qila olishi shart. Pedagog har bir talabaning bilimi va tarbiyalanganlik darajasini aniqlay olishi va hisobga olishi, o'quv materiallarini to'g'ri tanlay bilishi, tahlil qila olishi va umumlashtira bilishi pedagogik mahorat uchun zarur bo'lgan ta'lim usullari, vositalari va shakllarini

mukammal bilishi, talabaga nisbatan talabchan bo'lishi pedagogik vaziyatga qarab ulardan o'rinli foydalana olishi, o'z faoliyatini tahlil qila olishi va xulosalar chiqara olishi kerak.

Oliy ta'lim muassasalarida ma'ruza va amaliy mashg'ulotlarni tashkil qilishda, o'qitish texnologiyalarini rivojlantirishda eng samarali faol o'qitish metodlari quyidagilar hisoblanadi: o'yinli loyihalashtirish, muayyan vaziyatlarni tahlil qilish, muayyan ishlab chiqarish masalalari va muammolarini yechish, kurs va diplom ishlarini bajarishdir. Talabalarning bilim olish va tadqiqot faoliyatlari o'rganilayotgan ob'ektning bevosita jamoatchilik loyihalash xarakteriga ega bo'ladi. Uning funksional roli va ob'ektning yaratilishi, takomillashtirishning tiklanadigan mexanizmlari nuqtayi nazaridan amalga oshiriladi. Bunday holat, odatda muayyan ob'ektni o'rganishda, kurs yoki diplom ishlarini bajarishda ishtirok etadigan talabalarning maqsad va qiziqishlariga asoslangan bo'ladi.

Umuman olganda, bugungi kunda jahon miqyosida talabalarning iqtidori, qobiliyati, qiziqishlari va akademik o'zlashtirish darajalarini hisobga olgan holda chuqurlashtirilgan va ixtisoslashtirilgan ta'lim jarayonini tashkil etish tizimini takomillashtirish, ularda mustaqillik, ijodiy tashabbuskorlik va ijtimoiy mas'uliyatni rivojlantirishning pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish, ijodiy salohiyatni rivojlantirishning talaba shaxsiga yo'naltirilgan tarbiya texnologiyalarini ishlab chiqish, talabalarning iqtidorini tashxis etish va ma'naviy-ruhiy qo'llab-quvvatlashning innovatsion modelini yaratish muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori. "Xalq so'zi" gazetasi, 2017- yil, 21- aprel, № 79 (6773)
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 17-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi faoliyatini takomillashtirish va rag'batlantirish to'g'risida" gi Farmoni. "Xalq so'zi" gazetasi, 2017-yil, 18- fevral.
3. 2017-2021- yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini "Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili"da amalga oshirishga oid Davlat dasturini o'rganish bo'yicha ilmiy-ommabop risola. T.: "Ma'naviyat"- 2017.
4. Mahkamova M.A. "Innovatsion texnologiyalar boshqaruvi". Monografiya. T.: "Aloqa"- 2011.

TALABALAR KUYLASH MAHORATINI SHAKLLANTIRISHDA SO'Z VA TALAFFUZNING TUTGAN O'RNI

Davron QODIROV – Nizomiy nomidagi TDPU "Musiqiy ta'lim" kafedrasida dotsenti

Mazkur maqolada o'zbek an'anaviy qo'shiqlarini kuylashda so'z, bo'g'in, talaffuz, unli va undosh harflarni qo'llash uslubiyoti bilan tanishasiz.

Данная статья посвящена значению дикции узбекских народных песен, повышению эффективности певческого мастерство студентов.

In this annotation you get acquainted with singing tradition and public song words, joint, pronunciation, and use vocalic and consonant words style.

Kalit soʻzlar: *Takt, unli, undosh, tovush, talaffuz, adabiy, talqin, aruz, boʻgʻin.*

Ключевые слова: *Такт, гласный согласный голос выговор литературный, представления, аруз, сусмае.*

Key words: *Takt, pronunciation, consonant, joint, tradition, acquainted, aruz, style.*

Yosh avlodni har tomonlama komil inson qilib tarbiyalash taʼlim muassasalari oldida turgan asosiy vazifalardan biri hisoblanadi. Bugungi farovon hayotimiz oʻsib kelayotgan yosh avlodni chuqur bilimli, yuksak madaniyatli, har tomonlama kamol topgan kishilar boʻlib yetishishini taqozo etadi. Bunda yosh avlodning barkamol boʻlib yetishishlarida estetik tarbiya muhim oʻrin egallaydi. Jahon talablariga javob bera oladigan raqobatbardosh mukammal kadrlarni maktabgacha taʼlim muassasalari, umumtaʼlim maktablari, bolalar musiqa va sanʼat maktablari, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun tayyorlab berish – bugungi kunda oliy taʼlim muassasalarining oldiga turgan eng dolzarb vazifalaridan biridir.

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti “Musiqiy taʼlim” kafedrasida “5111100-Musiqa taʼlimi” yoʻnalishi va “5A111101-Musiqa taʼlimi va sanʼat” mutaxassisligi boʻyicha respublikada tayanch kafedra hisoblanib, yuqorida tilga olingan taʼlim yoʻnalishi va mutaxassisligida samarali ishlar amalga oshirib kelinmoqda. Mazkur yoʻnalishda oʻqitiladigan fanlar boʻyicha kafedra professor-oʻqituvchilari tomonidan koʻplab darsliklar, oʻquv qoʻllanmalar, uslubiy qoʻllanma va uslubiy tavsiyalar chop ettirilmoqda.

Xalq qoʻshiqchiligi namunalarini yoshlarga singdirishda milliy ijrochilik, soʻz va talaffuzning oʻrni beqiyos. Musiqa sanʼatining bu jabhasi xalq qoʻshiqchiligi shakllana borgan koʻhna davrlar bilan uzviy bogʻlangan holda, koʻp asrlar osha muntazam rivoj topgan va takomillashgan. Oʻz navbatida mazkur tarixiy jarayonni necha-necha avlodlarga mansub mashhur xonanda-yu, sozandalarning ijroviy mohirligi va yillar mobaynida toʻplagan tajribalar sinovi deyish mumkin.

Ijrochilikni shakllantirishda soʻz va talaffuz mahorati asosiy muammolardan biridir. Maʼlumki sheʼriyat va musiqa azal-azaldan bir-biriga yoʻldosh sanʼat turlari sifatida, shakllanib, rivojlanib, ardoqlanib kelingan. Ohanglar bagʻrida sheʼrning, yaʼni soʻzlarning taʼsiri yanada jonli, taʼsirchan va yoqimliroq boʻladi. Shunday ekan, ijrochilik bilan shugʻullanayotgan har bir yosh sheʼriyatdan boxabar boʻlish lozimdir. Hozirgi davrda ijrochilar tomonidan ijro etilayotgan sheʼr va gʻazallarning toʻgʻri talaffuz etilishiga eʼtibor kam. Bu esa azal-azaldan ongli ravishda mukammal oʻrganilib, toʻgʻri ijro etib kelingan anʼanaviy jarayonga putur yetkazishi mumkinligini eʼtirof etish joizdir. Aks holda, ijro namunalarini chala holda va noaniq ijro etilish hollariga olib keladi. Oʻzbekiston xalq artisti Zamira Suyunova ijrochilar talqinida soʻz va talaffuz muammolariga toʻxtalib: “Odatda amaliyotda ustozlarimiz tomonidan ushbu amalga katta eʼtibor bilan qaralgan. Hozirgi paytda bunday nuqsonlarni koʻpayish sabablarini avvalam bor biz oʻzimizdan qidirishimiz lozim”,- deydi[2,22-24]. Darhaqiqat, tiniq ijro, toʻliq talaffuz, nafasni boshqarish, ijroni aniq va ravon diksiyada kuylash xonandadan talab etiladigan asosiy vazifalardan hisoblanadi. Shunday ekan, xonanda tomonidan yoʻl qoʻyiladigan nuqsonlarni quyidagi holatlar boʻyicha izohlash mumkin. Jumladan,

- soʻz boʻgʻinlarining ohanglarga, taktlarga notoʻgʻri boʻlinganligi;
- unli va undosh tovushlarning notoʻgʻri talaffuzi;
- soʻzlarning urgʻusini almashtirib noaniq sheʼvada ijro etish.

Ijro amaliyotidagi tajribalar shuni koʻrsatadiki, qoʻshiqchilikda soʻzlarni boʻgʻin boʻlinishlariga eʼtibor berib, ohangga mos tarzda ijro etilishini koʻplab kuzatib kelmoqdamiz. Masalan:

| No | Adabiy talqin | Toʻgʻri musiqiy talaffuz | Notoʻgʻri talaffuz |
|----|---|--|---|
| 1. | “Sharob-1” ashulasida Kim koʻrar xurshidni ul mohisiymo boʻlmasa?! Kim soʻrar shakkarni ul laʼli shakarxo boʻlmasa?! | Kim koʻrar xurshidni ** ul mohisiymo boʻlmasa?! Kim soʻrar shakkarni ul** laʼli shakarxo boʻlmasa?! Matndagi “I” harfi “UY”, “A” harflar “O” lashgan holda talaffuz qilinadi | Kim koʻrar xurshidni ul**mohisiymo boʻlmasa?! Kim soʻrar shakkarni** ul laʼli shakarxo boʻlmasa?! Matndagi “I”, “A” harflariga ortiqcha urgʻu berib kuylash |
| 2. | “Koʻrmadim” ashulasida Kimga qildim bir vafokim, yuz jafosin koʻrmadim?! Koʻrguzub yuz mehr, ming dardu balosin koʻrmadim?! | Kimga qildim bir vafokim, ** yuz jafosin koʻrmadim?! Koʻrguzub yuz mehr, ming** dardu balosin koʻrmadim?! | Kimga qil-**dim bir vafo-**kim, yuz jafosin koʻr-**madim?! Koʻrguzub yuz mehr, ming dar-**du balo-**sin koʻr-**madim?! |

Izoh: Yulduzchalar(**)- boʻgʻinlarni talaffuz qilishdagi holatni anglatadi.

O'zbek qo'shiqchiligining ushbu muammolariga bir necha bor qaytib, mushohada qilinishidan maqsad, kuylarni to'g'ri, o'z yo'liga xos qolipidan chiqaradi" degan fikrlarni ko'plab uchrab turishidir. Aslida esa so'zlarning yaxlit qilib talaffuz etish matnlar kuychanligini oshirib mazmunini oson tushinishga juda katta yordam beradi [3-46].

Talabalar bilan xalq qo'shiq va maqomlarimizni kuylash chog'ida so'zlarda nokerak harflarga urg'u berib kuylash ko'plab kuzatib kelinmoqda. Masalan, qo'shiqda kelayotgan barcha "I" harflarni bo'rttirib "III" tarzida ortiqcha urg'u bilan kuylaydilar, yoki "A" harflarni nihoyatda "ochiq, yalang'och" holda kuylaydilar. Natijada ijro darajasi tinglovchiga "ijro yoqimsiz, malol kelib" g'ashini keltiradi. Bu o'rinda biz namunaviy ijro orqali bu holatda harflar qanday kuylanish kerakligini ko'rsatib beramiz. "I" harflari "UUUY" tarzida, "A" harflar esa "OO'O'O" tarzida qo'shiq ohangi bilan kuylab beriladi. Talaba doim qo'shiq matnida "O" harfini talaffuz qilib kuylaydi. Lekin ashulachilikda barcha "O" lar "OOOOO" deb talaffuz qilinish kerakligini kuylash chog'ida ko'rsatib o'tamiz. Masalan:

Kimga qildim bir vafokim, yuz jafosin ko'rmadim?!, matni

Kimga qildim bir vaf(oov)kim, yuz jaf(oov)sin ko'rmadim?! deb

kuylanishi zarur. Chunki misraning birinchi satrida "o" oxirini "ov" deb kuylamasa o yutinib ketiladi. Ikkinchi misradagidek, (oov) deb kuylansa, u holda undosh "v" harfi aniq va "o" unlini aniq va ravon eshutilishiga xizmat qiladi.

O'zbekiston xalq artisti Tilash Ho'jamberdiyev bilan bo'lgan bir suhbatimizda ustoz san'atkor, O'zbekiston xalq artisti Orif Alimahsumov haqida

qo'shiqchilikda talaffuzga katta etibor berib, so'zlarni bo'g'inga bo'lib, ishlatishda ehtiyotkorlik bilan yondoshish kerak, so'zlarni keragidan ortiq bo'g'inlarga bo'lish qo'shiqning ijro bahosini (narhini) tushirib yuboradi, so'zlarni pala-partish, chala aytilish ham ijro sifatiga putur yetkazadi, degan edilar,- deb ustozning so'z talaffuziga nihoyatda katta mas'uliyat bilan yondoshadigan xonanda ekanliklarini gapirib bergan edilar [2, 4]. Ushbu qoida juda to'g'ri. Bizga o'rta maktab ta'limidan ma'lumki, unli va undosh tovushlarning talaffuzi, yoki so'zlarning urg'uli, urg'usiz bo'lishi muqarrar. Ularning tarannumida to'g'ri talaffuz etish lozim. Jumladan: - "bilmadim" so'zida urg'u yo'q, lekin ijrochilar doim "I" harfiga urg'u berib "biilmadim" deb noto'g'ri talaffuz qiladilar. Bu so'zni ohangga tushirilgani, albatta, urg'u joyida bo'ladi, faqat u qo'shiqning usuli yoki o'lchoviga hamohang bo'lgan holda "L" yoki ikkinchi "I" harfiga tushishi mumkin. Jonim so'zining urg'usi "O" harfiga to'g'ri keladi. Shunda bu so'zning go'zalligi, jozibasidan yanada bilinadi. Lekin, ko'p hollarda "O" ga emas, "I" harfiga urg'u berib kuylanishini kuzatamiz.

Yuqoridagi aytilgan fikrlarga amal qilib so'zlarni kuy yo'liga ravon tushirib, tovushlarni aniq talaffuz qilib ijro etish, musiqiy merosimizga to'g'ri munosabatda bo'lishimizning isbotidir. Har qanday meros an'anaga xos tarzda to'g'ri talqin etilishi lozim. Shunga ko'ra, adabiyotimizning, musiqa san'atimizning ijrochiligi masalasida qonun-qoidalar shakllangan. Bu qoidalarni o'rganib, ijro etish maqsadga muvofiqdir. O'rganishning zamini esa saboqdir, ilm o'rganish g'amida unga to'g'ri munosabatda bo'lish demakdir. Bu esa xalq qo'shiqchiligini yoshlarga singdirishdagi rivojlantiruvchi omillardan biridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Qodirov D. "An'anaviy qo'shiqchilik". T.: "Iqtisod-moliya"- 2007.
2. Suyunova M. "Yosh xonandalar talqinida so'z talaffuzi muammolari". Ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. Toshkent-2006.
3. Oyxo'jayeva Sh. "Maqom ijrochilik an'analari". Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. Toshkent-2010.
4. Ochilov E. "Umrboqiy qo'shiqlar". T.: "Sharq"- 2013.

AKADEMIK LITSEY O'QUVCHILARINING MASALALAR YECHISH YORDAMIDA MATEMATIK TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISH

Qudrat JUMANIYOZOV – Nizomiy nomidagi TDPU "Matematika o'qitish metodikasi" kafedrasida dotsenti
Sanobar YUSUPOVA – Nizomiy nomidagi TDPU magistranti

Ushbu maqola akademik litsey o'quvchilarining matematik tafakkurini masalalar yechish yordamida rivojlantirishga bag'ishlangan.

Эта статья посвящена развитию математического мышления у учащихся академических лицеев посредством решения примеров.

This article is devoted to the development of mathematical thinking of pupils of academic lyceums by solving problems.

Kalit so'zlar: akademik litsey, o'quvchilarining matematik tafakkuri, masalalar yechish.

Ключевые слова: инновация, педагогика, педагог, образования, интенсив, экстенсив, учебное заведение, стандарт образования.

Key words: innovation, pedagogy, pedagogic, education, intensive, exten

Insonning bilish faoliyati, voqelikni, narsa va hodisalarni sezish va idrok qilishdan boshlanadi. So'ngra asta-sekin tafakkurga, fikr yuritishni aqliy yo'l bilan aks ettirishga o'tadi. Tafakkur - inson aqliy faoliyatining, aql-zakovatining, ongli xatti-harakatlarining yuksak shakli hisoblanadi. Tafakkur jarayonida insonda fikr, mulohaza, g'oya, faraz kabilar vujudga keladi va ular ongda tushunchalar, hukmlar, xulosalar shaklida ifodalanadi. Tafakkur til va nutq bilan chambarchas bog'liq ravishda namoyon bo'ladi. Inson fikr yuritish faoliyatida o'zi aks ettirgan, sezgan, idrok qilgan, tasavvur etgan narsa va hodisalarning to'g'riligi, aniqligi, haqiqiyliigi yoki ularning voqelikka mos tushishini aniqlaydi. Bilish prosessida hosil qilingan hukmlar, tushunchalar, farazlar, xulosalar chin yoki chin emasligini belgilab oladi. Tafakkur sezgi, idrok, tasavvurlarga qaraganda voqelikni to'la, aniq va haqqoniy aks ettiruvchi bilish jarayonidir. Ma'lumki, har qanday tafakkur jarayon muayyan biron-bir nazariy yoki amaliy muammoni hal etishga qaratilgan bo'lib, inson ongida paydo bo'lgan savolga javob qidirishda o'z ifodasini topadi. Tafakkurni o'rganishda kuzatish, suhbat, eksperiment, analiz qilish, test kabi metodlar keng ko'lamda qo'llaniladi.

Matematika moddiy dunyoning obyektlarini o'rganadi, lekin boshqa fanlardan farqli o'laroq, uning miqdoriy munosabatlari va fazoviy shakllari asosiy ob'yekt sifatida qaraladi. Matematika o'sib kelayotgan yosh avlodni kamol toptirishda o'quv fan sifatida keng imkoniyatlarga ega. U o'quvchilar tafakkurini rivojlantirib, ularning aqlini peshlaydi, uni tartibga soladi. O'quvchilarda maqsadga yo'nalganlik, mantiqiy fikrlash, topqirlik xislatlarini shakllantiradi. Shu bilan bir qatorda, teoremlarni isbotlash jarayoni va mulohazalarning to'g'ri tuzilganligi, matematik tushunchalarning shakllanishi bilan o'quvchilarni didli, go'zalikka oshno qilib tarbiyalaydi.

Matematik tafakkur uchun fikrning sistematikligi va ketma-ketligi, matematik abstraktlashga va Misollarga murojaat qilaylik:

I. Ifodani ko'paytuvchilarga ajratib:

$$xy(x - y) + yz(y - z) + xz(z - x)$$

Yechish. «A»-usulda ifodani ko'paytuvchiga ajratishda hosiladan foydalanib hisoblaymiz, «B»-usulda esa ifodani elementar usuldan foydalanib ko'paytuvchiga ajratamiz.

«A»- usul

x ni o'zgaruvchi miqdor deb hisoblab $f(x) = xy(x - y) + yz(y - z) + xz(z - x)$ funksiyani qaraymiz.

$$f'(x) = 2xy - y^2 + z^2 - 2xz = 2x(y - z) - (y - z)(y + z) = (y - z)(2x - y - z)$$

$$(x^2 - (y + z)x)' = 2x - y - z$$

$$(y - z)(x^2 - (y + z)x)' = (y - z)(2x - y - z) = f'(x)$$

$$f(x) = (y - z)(x^2 - (y + z)x) + C$$

matematik materialni keng umumlashtirishga bo'lgan qobiliyat, to'g'ri fikrlashdan teskarisini fikrlashga oson va erkin o'ta bilishning ahamiyati juda kattadir. Eng yaxshisi matematik tafakkur o'qituvchi tomonidan o'quvchilarning mustaqil faoliyatini to'g'ri tashkil qilish jarayonida rivojlanadi. Bu ish kuzatish natijalarini mustaqil ravishda ifodalashga urinishdan ta'riflar, xossalar, teoremlarni ifodalashning o'z variantlarini berishdan tortib, darslarda mustaqil ravishda ma'lumotlarni bayon etib borishdan iborat bo'lishi mumkin.

Matematika haqli ravishda mantiqiy tafakkurning rivojlanishiga yuksak darajada yordam beruvchi fan hisoblanadi.

Agar o'qituvchi o'quvchilarga faqat masala yechtiradigan bo'lsa, o'quvchilar mantiqiy tafakkurining rivojlanishi yuz bermasligi mumkin. Tajriba ko'rsatadiki, ma'lum turdagi masalalarni rasman o'zlashtirib olgan o'quvchilar masalaning sharti biroz o'zgartirilganda uning yechilishini asoslab bera olmasdan shoshib qolish hollari ko'p bo'ladi.

Ko'p hollarda biz o'zimiz o'quvchilar aqlini rivojlantirishning eng ajoyib imkoniyatlaridan ko'z yumib o'tib ketamiz. Kichik yoshdagi o'quvchilarni o'qitish bo'yicha Novosibirsk shahrida o'tkazilgan eksperimentning rahbari professor A. A. Zikov ushbu masalani misol qilib keltirdi: "Bitta qalam 5 tanga, bitta daftar 2 tanga turadi. Ikkita qalam bilan bitta daftar sotib olish uchun qancha pul kerak bo'ladi?" O'quvchilar tezda hisoblab "12 tanga" deydi. Shunda o'qituvchi "Nahotki, Po'latning 15 tangasi bo'lsa, u kerak narsasini sotib ololmasa". O'quvchilar so'zini tuzatib: "Kamida 12 tanga puli bo'lishi kerak" deydi. Shu bilan ularning matematik tafakkurida yana bitta qirra o'tkirlangan bo'ladi.

Mantiqiy tafakkurning shakllanishida matematika so'zsiz birinchi darajali ahamiyatga egadir. Chunki u soxta da'volar bilan uzviy kelisha olmaydi u soxta fikrlarni haqiqatga o'xshatib ko'rsatishdan ko'ra rad qilishni afzal ko'radigan fanlardan biridir.

C x ga bog'liq emas, lekin y va z ga bog'liq.

$$x=0 \text{ da } C=f(0)=yz(y-z)$$

$$f(x)=(y-z)(x^2-(y+z)x)+yz(y-z)=(y-z)(x(x-y)-z(x-y))=(y-z)(x-z)(x-y)$$

$$\text{Demak, } xy(x-y)+yz(y-z)+xz(z-x)=(x-y)\cdot(x-z)\cdot(y-z).$$

«B» - usul

$$\begin{aligned} xy(x-y)+yz(y-z)+xz(z-x) &= x^2y-xy^2+y^2z-yz^2+xz^2-x^2z=x^2(y-z)+yz(y-z)- \\ -x(y^2-z^2) &= x^2(y-z)+yz(y-z)(y+z)=(y-z)(x^2+yz-xy-xz)=(y-z)(x(x-z)-y(x-z))= \\ &= (y-z)(x-z)(x-y); \end{aligned}$$

Hosiladan ayniyatlarni isbotlashda foydalanish bosqichlarini ko'rib o'taylik:

1. $f(x)=g(x)$ deb faraz qilamiz
2. $f(x)$ funksiyaning hosilasi topiladi.
3. $g(x)$ funksiyaning hosilasi topiladi.
4. Hosilalar tenglashtirilib ko'riladi.
5. Agar hosilalar teng bo'lib chiqsa biror tanlangan $x=x_0$ nuqtada $f(x)=g(x)=C$ hisoblanadi.
6. Agar $C=0$ bo'lsa ayniyat to'g'ri, $C\neq 0$ bo'lsa ayniyat noto'g'ri.

Bu ko'rib o'tilgan bosqichlarni konkret ayniyatlarga tatbiq qilaylik. Ayniqsa, trigonometrik ayniyatlarni isbotlashlarda bu usul qulay, chunki ko'pincha o'quvchilar trigonometrik ayniyatlarni isbotlashga kerakli formulalarni topishga qiynaladilar va ayniyatni uzun, aylanma yo'llardan foydalanib isbot qilishadi.

Masalalar.

1. «A»

$$3(\sin^4 x + \cos^4 x) - 2(\sin^6 x + \cos^6 x) = 1.$$

Yechish: «A»-usulda trigonometrik ayniyatlarni isbotlashda hosiladan foydalanamiz, «B»-usulda esa asosiy trigonometrik ayniyatlardan foydalanib isbotlaymiz

$$1. 3(\sin^4 x + \cos^4 x) - 2(\sin^6 x + \cos^6 x) = 1.$$

$$f'(x) = 12 \sin^3 x \cos x - 12 \cos^3 x \sin x - 12 \sin^5 x \cos x + 12 \cos^5 x \sin x =$$

$$= 12 \sin x \cos x (\sin^2 x - \cos^2 x - \sin^4 x + \cos^4 x) =$$

$$2. = 12 \sin x \cos x [\sin^2 x (1 - \sin^2 x) - \cos^2 x (1 - \cos^2 x)] =$$

$$= 12 \sin x \cos x (\sin^2 x \cos^2 x - \cos^2 x \sin^2 x) = 0$$

$$3. g'(x) = 0$$

$$4. f'(x) = g'(x) \Rightarrow 0 = 0$$

$$5. x_0 = \frac{\pi}{2} \text{ bo'lsin.}$$

$$f\left(\frac{\pi}{2}\right) = 3(1+0) - 2(1+0) = 1; \quad g\left(\frac{\pi}{2}\right) = 1$$

$$6. C = f(x_0) - g(x_0) = 1 - 1 = 0; \quad C = 0$$

Demak, ayniyat to'g'ri.

«B».

$$3(\sin^4 x + \cos^4 x) - 2(\sin^6 x + \cos^6 x) = 1.$$

Bu ayniyatni isbotlash uchun, $\sin^6 x + \cos^6 x$ ga $a^3 + b^3$ formuladan foydalanish zarurligini o'quvchilar bir qarashda anglab yetishmaydilar.

$$3(\sin^4 x + \cos^4 x) - 2((\sin^2 x)^3 + (\cos^2 x)^3) = 3 \sin^4 x + 3 \cos^4 x -$$

$$- 2(\sin^2 x + \cos^2 x)(\sin^4 x - \sin^2 x \cdot \cos^2 x + \cos^4 x) = \sin^4 x + 2 \sin^2 x \cdot \cos^2 x + \cos^4 x =$$

$$= (\sin^2 x + \cos^2 x)^2 = 1^2 = 1$$

Demak, ayniyat to'g'ri.

$$\text{II. } 2 \cos^4 x - \frac{4}{3} = \cos 2x + \frac{1}{4} \cos 4x \text{ ayniyatni isbotlang.}$$

Yechish. «A».

$$1. 2 \cos^4 x - \frac{4}{3} = \cos 2x + \frac{1}{4} \cos 4x$$

$$2. f'(x) = -2 \cdot 4 \cos^3 x \sin x - 0 = -4 \cos^2 x \sin 2x$$

$$3. g'(x) = -2 \sin 2x - \sin 4x = -2 \sin 2x - 2 \sin 2x \cdot \cos 2x =$$

$$= -2 \sin 2x(1 + \cos 2x) = -4 \cos^2 x \sin 2x$$

$$4. -4 \sin 2x \cos^2 x = -4 \sin 2x \cos^2 x$$

$$5. x_0 = \frac{\pi}{2} \text{ bo'lsin.}$$

$$f\left(\frac{\pi}{2}\right) = 2 \cdot \cos^4 \frac{\pi}{2} - \frac{3}{4} = -\frac{3}{4}$$

$$g\left(\frac{\pi}{2}\right) = \cos \pi + \frac{1}{4} \cos 2\pi = -1 + \frac{1}{4} = -\frac{3}{4}$$

$$6. f(x_0) - g(x_0) = 0 \quad C = 0$$

Demak, ayniyat to'g'ri.

«B».

$$2 \cos^4 x - \frac{3}{4} = \cos 2x + \frac{1}{4} \cos 4x$$

$$\cos 2x + \frac{1}{4} \cos 4x = \cos 2x + \frac{1}{4} \cos^2 2x - \frac{1}{4} \sin^2 2x =$$

$$= 2 \cos^2 x - 1 + \frac{1}{4} (2 \cos^2 2x - 1) = 2 \cos^2 x - 1 - \frac{1}{4} + \frac{1}{2} (2 \cos^2 x - 1)^2 =$$

$$= 2 \cos^2 x - \frac{5}{4} + \frac{1}{2} (4 \cos^4 x - 4 \cos^2 x + 1) =$$

$$= 2 \cos^2 x - \frac{5}{4} + \frac{1}{2} + 2 \cos^4 x - 2 \cos^2 x =$$

$$= 2 \cos^4 x - \frac{3}{4};$$

Ammo bu bilan «B» usulni inkor etib bo'lmaydi. Ma'lum masalalarni hal qilishda, ayniyatlarni isbot qilishda «A» usulga nisbatan «B» usul ko'pgina afzalliklarga ega.

Matematik analiz elementlarining akademik litseyning algebra va analiz asoslari kursida o'qitilishi o'quvchilarning bilimini rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi yuqorida keltirilgan ma'lumotlardan ma'lumligi sezilarli darajada ko'rinib turibdi. Shuning uchun ham:

- Matematik analiz elementlarining akademik litsey matematika kursiga kiritilishi matematikaning ayrim tushunchalari bilan birga boshqa fan o'qitilishi o'quvchilarning tushunchalari (tezlik, tezlanish va hokazo)ni o'rganishga imkoniyat yaratadi.

- akademik litsey matematikasiga hosila, integral tushunchalarining kiritilishi bevosita tenglama, tengsizlik, funksiya tushunchalarining bog'lanish mexanizmini takomillashuvi yuzaga keldi. Bu esa o'z navbatida tenglama, tengsizliklarning yechimini aniqlashda, yechish uslubini topishda, isbotlashda bevosita o'zining natijasini ko'rsatganini ko'rish mumkin. Buning uchun yuqorida keltirilgan misollarning yechimlari hosilaning tatbiqi bilan ko'rsatilishi fikrimizning dalilidir.

Umuman, matematik analiz elementlarining akademik litsey matematika kursida o'qitilishi o'quvchilarning matematik bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirishda muhim omil hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Aslihonov S. "Matematika o'qitish metodikasi". T.: "O'qituvchi" - 2011.
2. Черкасов Р. "Методика преподавания математики в средней школе". Общая методика. М.: «Просвещение»-1985.
3. Habib R. "O'quvchilarning matematik tafakkurini shakllantirish." T.: -1971 .
4. So'fiev T. "Maktab matematika kursida matematik analiz elementlari". T.: "O'qituvchi" -, 1983.

SPORT TIBBIYOTI FANINI O'QITISHDA TA'LIM TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI

Ra'no UMURZAQOVA – Jismoniy tarbiya instituti huzuridagi JTSBMIMTQTUMOM “Sport boshqaruvi” kafedrasida dotsent

Fatxulla MIRAXMEDOV – Nizomiy nomidagi TDPU “Jismoniy tarbiya” kafedrasida o'qituvchisi

Maqolada sport tibbiyoti fani, jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanuvchilarning tibbiy nazoratini o'rgatish vazifalari hamda sport tibbiyotining asosiy ish turlarini o'qitishda ta'lim texnologiyasidan foydalanishning ahamiyati yoritilgan.

В данной статье раскрыта использование образовательных технологий обучения по предмету спортивная медицина, определены основные задачи при наблюдении лиц занимающихся физическом воспитанием и спорту.

In this scientific article enlightened using educational technologies in teaching sporting medicine, determined basic tasks in supervising who trains with physical education and sport.

Kalit so'zlar: sport tibbiyoti, tibbiy nazorat, tibbiy tekshirish, pedagogik texnologiya, tibbiy pedagogik nazorat, differentsiya, “Muammoli ta'lim”.

Ключевые слова: спортивная медицина, педагогика, педагог, образования, дифференция, интенсив, экстенсив, учебное заведения, стандарт образования.

Key words: sport medicine, medical observing, medical control, pedagogical technology, medic-pedagogical control, differences, “Keys study”

Sport tibbiyoti fani jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanuvchilarning tibbiy nazoratini o'rgatish vazifalarini o'z zimmasiga olib, jismoniy tarbiya pedagoglarini hamda sportchilarni qayta tayyorlovchi sport mutaxassislarini tayyorlash va ularni malaka oshirish kurslarida o'qitishda dolzarbdir. Sportchilarning salomatligi va funksional holatini kuzatish, ularning tayyorgarlik darajasini aniqlashda yangi zamonaviy tibbiy tekshirish usullari joriy qilinib, jismoniy tarbiya pedagoglariga, murrabbiylariga sport va tibbiyotga oid bilimlarni samarali o'qitish, amalda joriy etish, zamonaviy sportning har xil turdagi mashg'ulotlarning tibbiy nazoratini olib borish jarayonida, malaka va ko'nikmalarga ega qilishda pedagogik texnologiyadan samarali foydalanish katta ahamiyatga ega.

Pedagogik texnologiyaning tamoyillariga asoslangan holda jismoniy tarbiya pedagoglariga, murrabbiylarga sport va tibbiyotga oid bilimlarni shakllantirishda: ilmiylik, loyihalash, tizimlilik, yo'naltirilganlik, faoliyatli yondashuvlik, boshqariluvchanlik, kuzatuvchanlik, natijaviylik, qayta takrorlanuvchanlik, tejamlilik hamda ushbu barcha tamoyillar o'zaro bog'liqligi, bir-birini to'ldirishi amalda ko'rsatilib va o'qitish jarayonida o'zlari ishtirokida amalga oshiriladi.

Sport tibbiyotining asosiy ish turlari quyidagilardan iboratdir:

Jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanuvchi kishilarni tibbiy ko'rikdan o'tkazish;

Yetakchi sportchilarni dispanser kuzatuviga olish;

Tibbiy pedagogik nazoratni (TPN) olib borish: sport bilan shug'ullanish nazoratida sportchilarning salomatligini mustahkamlashda sog'lomlashtirish, davolash va oldini olish (profilaktika) chora-tadbirlarini tashkil qilish;

Jismoniy tarbiya va sport mashqlar uchun ajratilgan joylari, musobaqa o'tkaziladigan joylar

sharoiti ustidan, shu jumladan, sport inshootlari ustidan sanitariya- gigiyena jihatdan nazorat qilish;

Sport musobaqalarini o'tkazishda tibbiy xizmatni ko'rsatish;

Jismoniy tarbiya – sog'lomlashtirish ishlarining ommaviy turlarini o'tkazishda tibbiy xizmat ko'rsatish;

Sport shikastlanishini (travmatizmini, jarohatlanishini) oldini olish;

Ilmiy tekshirish va uslubiy (metodik) ishlarni olib borish;

Tibbiy va sportga oid masalalar bo'yicha maslahatlar (konsultatsiyalar) berish;

Sportchilar o'rtasida sanitariya ishlarini olib borish va keng omma orasida jismoniy tarbiya umumiy g'oyalarini targ'ibot (propoganda) qilishga doir agitatsiya amalga oshirish.

Yuqoridagi usullar orqali sportchilar nazorati kuzatuvini bir biridan farqlash hamda har bir tibbiy nazoratning maqsadini differentsiyasi (taqqoslash, farqlash) va jismoniy yuklamani organizmga individual ta'sirini baholashiga e'tibor qaratildi.

Bilimlarni to'liq o'zlashtirish texnologiyasidan foydalanib - jismoniy madaniyat o'qituvchilari, murrabbiylar sport tibbiyoti fanidan aniq biror o'quv materialini olib shu mavzuni to'liq o'zlashtirish mezonini ishlab chiqadi.

Butun o'quv materialini belgilangan mazmun asosida birlamchi nazoratda jismoniy mashq va sport bilan shug'ullanuvchining rivojlanishi baholansa, qayta nazoratda jismoniy yuklamaning sport bilan shug'ullanuvchi organizmiga ijobiy yoki salbiy ta'sirini pulsomertriya (yurak qisqarish soni) hamda qon bosimini dinamik nazorat qilgan holda javob reaksiyasi orqali differensial va individual yondashgan holda videoroliklar orqali olgan bilimlarini jismoniy tarbiya o'qituvchilari, murrabbiy va trenerlar aqliy faoliyatni yuqori darajada shakllantirishga to'liq yordam beradi.

Ta'lim texnologiyasining asosiy bosqichlaridan bo'lgan "Muammoli ta'lim" texnologiyasiga e'tibor qaratilib, jismoniy madaniyat bilimlarini jismoniy tarbiya o'qituvchilari, murabbiy va trenerlar, sport tibbiyoti fanidan olgan o'z bilimlarini to'liq o'zlashtirishda "Pedagogik texnologiya" texnikaviy va insoniy manbalarni, ularning o'zaro bog'liqligini inobatga olgan holda, o'z oldiga ta'lim shakllarini maqbullashtirish vazifasini qo'yishadi, butun o'qitish va bilim olish jarayonini yaratish, qo'llash va aniqlash bo'yicha tizimli qarash ekanligiga amaliy isbotini ko'radilar va uni amalda tatbiq qilish ko'nikma va malakaga ega bo'ladi.

Jismoniy madaniyat pedagoglari va sportchilarni qayta tayyorlovchi sport mutaxassislarini tayyorlash va ularni malakasini oshirish kursida kelajakda yuqori darajali sportchilar salomatligi va funksional holatini kuzatishda, ularning tayyorgarlik darajasini nazorat qilish orqali aniqlashda yangi zamonaviy tibbiy tekshirish usullari joriy qilinib, jismoniy tarbiyada tibbiyotga oid bilimlarni samarali qo'llagan holda o'qitish, amalda joriy etish, amaliyotga samarali tatbiq etiladigan, tegishli tamoyillar asosida ishlab chiqilgan o'quv jarayonining loyihasidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1."Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida O'zbekiston Respublikasining Qonuni".
- 2.Дубровский В. "Спортивная медицина". М.: "Владос"-2002.
- 3.Граевский Н., Долматова Т. "Спортивная медицина". Курс лекций практических занятий. Част 1. Москва- 2005.
- 4.Tolipov O. "Pedagogik texnologiya va uni loyihalash bosqichlari". DTSlarini ishlab chiqish va tatbiq etish hamda kasbiy ta'limda uzviylikni ta'minlash muammolari. Respublika ilmiy amaliy konf.mat. T.: "OzPFIT"-2000.
- 5.Tolipov O., Usmanboeva M. "Pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyot". Monografiya. T.: "Fan"-2005.
- 6.Sayidahmedov N. "Pedagogika fani metodologiyasi yohud unig zamonaviy mazmini haqida: Amaliyot va nazariya". "Ma'rifat" gazetasi – 2004-yil 21-fevral.
- 7.Faberman B., Musina T., Jumaboeva F. "Oliy oquv yrtlarida oqitishnig zamonaviy usullari". T.: "O'qituvchi"-2002.

YOSHLARNI KASB TANLASHGA YO'NALTIRISHDA SAN'AT MAKTABLARIDA TASVIRIY SAN'ATINI O'QITISHNING PEDAGOGIK MUAMMOLARI

Saodat MAHKAMOVA – Nizomiy nomidagi TDPU "Tasviriy san'at va uni o'qitish metodikasi" kafedrasida katta o'qituvchisi.

Ushbu maqola O'zbekiston tasviriy san'atiga asos solgan rassom ustozlar va ularning ijodlari haqida ma'lumot berib, mustaqillik davridagi rivojlanish jarayoni yoritib beriladi. Maqola hozirgi davrda san'at maktablariga qo'yilgan talablar, o'quvchilarning tasviriy san'at sohasidagi mahoratlarini o'stirishdagi muammolarini hal etish yo'llari, kasbga yo'naltirish ishlari haqidagi tushunchalar va yo'riqnomalarni tavsiya etib, tasviriy san'at darslarini tashkillashtirish masalalarini yoritgan.

Данная статья посвящена условием и причинам возникновения изобразительного искусства Узбекистана, творчеству художников мастеров заложившие основу данному направлению и процесс развитие в период независимости республики. В данной статье освещается требование поставленные перед школы искусств проблемы развитие изобразительного искусства у учеников. вопросы трудоустройство и рекомендации по данному направлению, вопросы организационных уроков искусств.

Given article condition and reason to origin graphic arts Uzbekistan, creative activity artist master pawned base given direction and process development at period of independence respublik. In given article the requirement before schools problems development beside. Questions job placement and recommendations on given to direction, questions to organizations lesson arts

Kalit so'zlar: qalamtasvir, rangtasvir, kompozitsiya, dizayn, san'at, tasvir

Ключевые слова: графика, живопись, композиция, дизайн, искусство, изображение

Key words: painting, graphic art, picture, art, color, disgn, creative, color graphic

Respublikamizning yetakchi pedagog-olimlari tomonidan o'zbek milliy tasviriy san'atining tarixiy rivojlanish bosqichlari, maktablari, unda ijod etgan yetuk rassomlarning ijodiy yo'llari haqida ko'plab

ilmiy tadqiqot ishlari olib borilgan. Tasviriy san'atni yoshlarga o'rgatish borasida O'zbekiston mustaqillikka erishgunga qadar ham bir qancha ilmiy ishlar olib borilgan. Shu munosabat bilan yoshlarga

tasviriy san'atning tasviriy turini o'rgatish masalasi hozirgi kunda umuman o'rganilmagan deb bo'lmaydi.

San'at maktablarida tasviriy san'at darslariga ajratilgan soat o'quvchilarning ijodiy faoliyatlarini yana ham rivojlantirishga to'liq imkoniyat bermaydi. Aksariyat o'quvchilar maktabdan tashqari muassasalarda tasviriy san'atning sir-asrorlarini o'rganadilar. Ijodiyot markazida o'quvchilarga saboq berayotgan rassom-murabbiylar asosan tasviriy san'at bo'yicha yuqori malakaga ega bo'lgan yetuk mutaxassislar hisoblanadi. Shuningdek, ijodiyot markazlaridagi o'quvchilar o'zlarining layoqatlariga qarab guruhlarga bo'linadilar. Rahbar har bir guruh uchun reja asosida mashg'ulotlarni olib boradi. O'quvchilarning berilgan vazifalarni o'zlashtirishiga qarab topshiriqlar murakkablashib boradi. Ma'lum muddat o'tgach, o'quvchilar vazifalarni mustaqil bajarib, ijodiy qobiliyatlarini oshiradilar. Ular tasviriy san'at bo'yicha mustaqil kompozitsiyalar tuzib, o'ziga xos ranglarda jilo beradilar.

O'quvchilar shu soha bo'yicha o'tkaziladigan turli ko'rgazmalarda o'zlari yaratgan turli mavzudagi ijodiy ishlari bilan muntazam qatnashib turadilar. Bu ko'rgazmalar natijasida o'quvchilarning qanday malakaga ega bo'lganliklari sarhisob qilib boriladi va ular turli ko'rgazma va tanlovlarda qatnashishlari tufayli ma'naviy ozuqa oladilar hamda bilimlarini yanada ham chuqurlashtirishlari uchun shu soha bo'yicha respublikamizdagi kasb- hunar kollejlaridan biriga kirib o'qishni davom ettirishga harakat qiladilar.

Yuqorida ta'kidlanganidek, o'zbek tasviriy san'atining asosini qalamtasvir tashkil etadi. Kuzatishlarimiz yoshlarni o'zbek tasviriy san'ati namunalari asosida o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limida kasbiy tayyorlashni va uning keyingi jarayoni bakalavriatura, magistraturada ta'limni davom ettirishda bir qancha muammolar borligidan dalolat bermoqda. Ma'lumki, ta'lim jarayonida o'quvchini u yoki bu kasbga yo'naltirish pedagogika fanining dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

Yoshlarni ma'lum bir hunarga, kasbga yo'naltirish murakkab jarayon bo'lib, u insonda birdaniga vujudga kelmaydi. Tadqiqotlarimiz shuni ko'rsatadiki, o'quvchini tasviriy san'atga qiziqtirish bir necha omillarga bog'liq. Ulardan biri, o'quvchida go'zallikni sezish, undan lazzatlana olish, o'zi yaratgan ijodiy ishdan mamnun bo'lish va uni atrofdagilar o'rtasida namoyish etib, ma'naviy ozuqa olish hissini tarbiyalashdir.

Izlanishimiz asosida o'quvchi maktabgacha yoki o'rta umumta'lim maktab davridan boshlab tasviriy san'atga, badiiy loyihalash, musiqa va boshqa kasblarga qiziqishi atrof muhitga ko'p jihatdan bog'liqligi aniqlandi. Shaxsning o'zi tanlagan kasbiga bo'lgan mas'uliyatni, sharafiligini va uni egallash jarayonidagi qiyinchiliklari, tanlagan kasbining Vatan va millat rivojiga hissa qo'shishdek buyuk mas'uliyat ekanini qanchalik erta anglab etsa, unda mazkur kasbni egallash jarayoni tez shakllanadi.[3.8]

Aksariyat holda bolaning kasbga bo'lgan qiziqishlari o'z oilasida ota-bobolari, aka-opalari,

qarindosh urug'lari, ya'ni, o'zidan kattalarga taqlid qilish asosida rivojlanadi.

Ayniqsa, o'zbek tasviriy san'at namunalari o'rganishga bo'lgan qiziqish yoshlarga oila muhitida paydo bo'ladi. Maxsus san'at maktablarining yuqori sinflarida o'tkazilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, deyarli 80 foiz talabalarning ota-onalari yoki o'zidan kattalar (akalari, opalari yoki yaqin qarindoshlari) san'atning u yoki bu turi bilan shug'ullanadilar. Boshqacha qilib aytganda, iste'dod yosh qalbdan kattalarga taqlid qilish orqali, o'zidan katta shaxsning ma'lum san'at asari ustida ishlash jarayonini kuzatish va undan ilhomlanish natijasida paydo bo'lgan. Shuningdek, tasviriy san'atga bo'lgan qiziqish maktab yoki mahallada tashkil etilgan to'garaklarda ham rivojlanishi mumkin. O'quvchilarning tasviriy san'atga bo'lgan qiziqishlarini aniqlash maqsadida biz maxsus san'at maktablari o'quvchilari bilan so'rov o'tkazdik, olib borilgan tadqiqot so'rov-anketalar shuni ko'rsatadiki, maxsus san'at maktablariga qabul qilingan o'quvchilarning aksariyati tasviriy san'atga o'rta maktabning tasviriy san'at darslarida, bevosita o'qituvchining mahorat bilan dars berishi, o'z darsiga yoshlarni qiziqitira olishi natijasida (35%), ota-onasi yoki o'zidan kattalarga taqlid qilib (23%), darsdan bo'sh vaqtlarda olib boriladigan to'garak mashg'ulotlarda (18%), bo'sh vaqtlarda (11%), vaqtni bo'sh o'tkazmaslik uchun (5 %), ota-onasining tavsiyasiga asosan (6%) qiziqishgan.

Yana shu narsani o'rgandikki, o'rta umumta'lim maktablarining 1-7- sinflarida tasviriy san'at darslari samaradorligini oshirish, o'quvchilarga tasviriy san'atning yoshlar tarbiyasidagi o'rni va maktab davridanoq kasbga yo'naltirishning mazmun mohiyati, uning bugungi kunda tutgan o'rni davr ehtiyoji ekanligini aniqlandi.

Ekspiriment ishlariga 2015-2017-yillarda Toshkent shahridagi Nafis san'at maktabi, musiqa va san'at maktabi, Zomin musiqa va tasviriy san'at maktabi hamda Toshkent shahridagi Respublika rassomlik kolleji o'quvchilari jalb etildi.


Ma'lumki, ta'lim samaradorligiga erishish uchun maktablarda o'qitiladigan fanlarning o'qituvchilar tomonidan yuksak mahorat va o'quvchilarning qiziqishlarini hisobga olgan holda bo'lishi muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki, bilim olishga bo'lgan qiziqish o'quvchining tanlagan kasbiga bo'lgan qiziqishi bilan uyg'unlashib ketadi. Biz o'quvchilarning kelajakda tasviriy san'at, rassomchilik kasbiga bo'lgan qiziqishlariga asosiy e'tiborni qaratdik.

Ekspiriment jarayonida san'at maktablarida 9-sinf o'quvchilarining «Rassom bo'lishni istaysizmi?» mazmunidagi savol bilan murojaat etib, quyidagi javoblarni oldik (jami 123 nafar o'quvchi):

-tasviriy san'atning boshqa kasblardan farqi, uning davlat va jamiyat qurilishidagi tutgan o'rni anglagan holda tanlashi;

-rassom bo'lish, asarlar yaratish va ko'rgazmalarda qatnashish, o'z ustaxonasini tashkil etish, mashhur bo'lish;
 -kelajakda oliy o'quv yurtlarida ta'limni davom ettirish maqsadida;

-ushbu kasbni puxta egallab, bozor iqtisodiyoti jarayonida o'zining shaxsiy tijorat ishini yo'lga qo'yish va uni rivojlantirish;
 -boshqa hunar egasi bo'lish.



Jadvaldan ko'rinib turibdiki, 123 nafar o'quvchining eng ko'p 30% ushbu kasbni puxta egallab, kelajakda oliy o'quv yurtlarida ta'limni davom ettirish maqsadida, 28% esa tasviriy san'atining boshqa kasblardan farqi, uning davlat va jamiyat qurilishida tutgan o'rnini anglagan holda davom ettirish, 17% rassom bo'lish, asarlar yaratish va ko'rgazmalarda qatnashish, o'z ustaxonasini tashkil etish, mashhur bo'lish, 13% o'quvchi ushbu kasbni puxta egallab, bozor iqtisodiyoti jarayonida o'zining shaxsiy tijorat ishini yo'lga qo'yish va uni rivojlantirish maqsadida ekanligi ayon bo'ldi. 10% yoshlar ushbu kasbni puxta egallab, maktabda olgan bilim, malaka va ko'nikmalarining u yoki bu akademik litseyda o'qishni davom ettirish uchun yetarli emasligi va shunchaki KHKda o'qishni davom ettirish, kelajakda hali o'zi aniq tanlab ulgurmagan biror oliy o'quv yurtiga o'qishga kirib boshqa kasb egasi bo'lish maqsadida ekanligi ma'lum bo'ldi.

San'at maktablaridan KHKga qabul qilingan o'quvchining tasviriy san'at sirlarining puxta egallashi ko'plab omillarga bog'liq. Ulardan eng asosiysi, ta'limda ko'rgazmalilik prinsipidir. Barcha sohalarida bo'lgani kabi hozirgi kunda axborot texnologiyalari ta'limga jadallik bilan kirib bormoqda. Bir qarashda, yoshlarni tasviriy san'at sirlariga o'rgatish kompyuter texnologiyalari asosida bo'lishi g'ayritabiiy bo'lsa-da, tasviriy, arxitektura, texnik dizaynerlik kabi kasblarga uning bevosita aloqasi bor. Chunki, san'at maktabining tasviriy san'at darslarida va darsdan tashqari to'garak mashg'ulotlarida tasviriy san'atdan boshlang'ich ma'lumotni olgan o'quvchi o'zining amaliy malakalarini yangi axborot texnologiyalari asosida davom ettirishi muhimdir.

Tasviriy san'atdan o'quv-tarbiyaviy ishlarni tashkil etish va samaradorligini oshirishda kompyuter texnologiyalarini qo'llash maqsadga muvofiq bo'lib,

o'quvchilarga zamon talablari asosida bilimlar berish va olgan bilimlarini amalda tatbiq etishlariga yordam beradi.

Ekspiriment jarayonida biz san'at maktablari o'qituvchilarining yangi axborot texnologiyalari borasidagi bilimlarini sinash maqsadida anketa savollari bilan murojaat etdik. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, bu erda ham hali hal etilmagan vazifalar o'z yechimini kutmoqda. Demak, o'qituvchining o'z o'quvchisini ma'lum fanga qiziqtirishi o'z navbatida ko'plab faktorlarga bog'liq.

San'at maktablari o'qituvchilari nafaqat fan asoslarini, balki eng zamonaviy ilg'or pedagogik texnologiyalarni ham egallagan bo'lishlari, o'zlarining pedagogik mahoratlarini to'xtovsiz oshirib borishlari talab etiladi. O'qituvchi tasviriy san'atdan saboq berishda quyidagi bilimlarga ega bo'lishlari lozim:

- Tasviriy san'atdan nazariy va amaliy mashg'ulotlarni o'tishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarning ta'lim taraqqiyotida harakatlanuvchi kuch ekanligini;
- zamonaviy pedagogik texnologiyalarning tarixiy taraqqiyot bosqichlarini;
- xorijiy mamlakatlar ta'lim tizimida qo'llanib kelinayotgan interfaol metodlarni;
- zamonaviy pedagogik texnologiyalarning tasviriy san'at mashg'ulotlarida qo'llanish imkoniyatlarini;
- tasviriy san'at mashg'ulotlarida kompyuter texnologiyalarining qonuniyatlaridan samarali foydalanish, uni amaliyotda qo'llash yo'llarini;
- o'quvchilarning bilim, malaka va ko'nikmalari hamda ijodiy ish natijalarini nazorat qilish va baholashni.

Tasviriy san'at darslarida axborot texnologiyalaridan, masalan Avto CAD, Corel DRAW, Adobe Potoshop, Illyustrayor kabi grafik dasturlaridan foydalanib, tasviriy san'at tarixi,

qalamtasvir, rangtasvir, kompozitsiya va tasviriy san'at texnologiyasi kabi sohalar bo'yicha turli ma'lumotlar olib talabalarga yetkazish mumkin. Shuningdek, suhbat darslarida uning mazmuniga mos keladigan suratlar tushirilgan disk orqali kompyuterdan foydalanib, namoyish etish imkoniyatlari orqali, talabalarda axborotni eshitibgina qolmasdan, balki uni ko'rish imkoniyatini beradi. Bunda o'qituvchi mavzuni ketma-ketlik tarzida ko'rish, tushunish va idrok qilishni, illyustratsiyalarni hamma talabalarga yetkazish, ekrandagi tasvirning mayda detallarigacha ko'rish imkoniyatini, badiiy asarning qiymatini to'liq ochib berishni ta'minlaydi. Bundan tashqari, Internet tizimi keng imkoniyatlar yaratib beradi. O'qituvchilar pedagogik faoliyatini ijodiy va ilmiy izlanishlar bilan boyitib borsa, yaxshi shogirdlar, haqiqiy rassomlarni shakllantirish imkoniyati paydo bo'ladi. Shuning uchun, har bir pedagog axborot texnologiyalaridan foydalanib, Internet saytlaridan o'z mavzusiga doir materiallar to'plab, multimediyadan foydalanib dars o'tsa maqsadga muvofiq bo'ladi.

Ta'lim tizimida axborot texnologiyalaridan foydalanib o'qitishning quyidagi afzalliklarini ko'rish mumkin :

-dars o'tishda ma'ruzaning tushunish darajasining yengillashishi;
 -materiallarni takroriy holda o'rganish, tushunish, tahlil qilish imkonini berishi;
 -dars o'zlashtirish darajasining yuqoriligiga erishish;
 -illyustratsiyalar bilan ishlashning yengillashishi;
 -talabalarining dars jarayoniga qiziqishining kuchayishi;
 -ham amaliy, ham laboratoriya mashg'ulotlarini o'tish imkoniyatlarining yaratilishi;
 -masofadan o'qitish uchun asosiy vositalardan biri sifatida foydalanish mumkinligi;
 -talabalarining yakka tartibdagi bilimni nazorat qilish imkoniyatining vujudga kelishi.

Ko'p yillik ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ustozning pedagogik mahoratga erishishi muayyan shaxsiy-ijtimoiy sifatlar bilan uyg'un holda amalga oshiriladi. Bugungi kunda Vatanimiz yoshlarini barkamol shaxs qilib tarbiyalash ustuvor vazifa ekan, shaxsning ijtimoiy yetukligi tarbiyachining kasbiy mahorati bilan chambarchas bog'liqligini alohida e'tirof etishimiz joizdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoyev Sh. "Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz". T.: "O'zbekiston"-2016.
2. Gulyamov K. "Kasb-hunar kollejlarda xalq amaliy san'atini o'qitish metodikasi". Avtoreferat. T.: "TDPU"-2010.
3. Xasanov R. "Maktabda tasviriy san'at mashg'ulotlarini takomillashtirish yo'llari". T.: "O'qituvchi"- 1986.
4. Oripov B. "Tasviriy san'at darslari samaradorligini oshirish omillari". T.: "O'qituvchi"-1978.
5. Abdukarimov H. "Tarbiyachi va tarbiyachilik kasbining ijtimoiy mohiyati". "Xalq ta'limi" jurnali. T.: 1996, № 6.
6. Nazarov M. "Shaxs faolligida o'qituvchi mahorati". "Xalq ta'limi" jurnali. T.: 2004, № 4.

"MUSIQA TA'LIMI" YO'NALISHI TALABALARIGA "TOVUSH VA UNING NAZARIY XOSSALARI" MAVZUSINI O'QITISH YUZASIDAN NAZARIY TAVSIYALAR

Gavhar IBROXIMJONOVA – Nizomiy nomidagi TDPU "Musiqiy ta'lim" kafedrasida katta o'qituvchisi

Mazkur maqolada musiqa ta'limi yo'nalishi talabalariga "Musiq nazariyasi" fani bo'yicha dastur asosida "Tovush va uning xossalari" mavzusini o'qitish bo'yicha nazariy tavsiyalar berilgan.

В данной статье даны теоретические рекомендации по обучению темы "Звук и его свойства" на основе программы предмета "Теория музыки" студентам "Музыкального образования"

This article is about theoretical recommendations of teaching the theme "The sound and its characters" with the program of the subject "Musical theory" to the students of musical education.

Kalit so'zlar: musiqa, tovush, nota, tembr, metr, ritm, lad, garmoniya, interval, akkord, dinamik belgilar, fortepiano, cho'zim.

Ключевые слова: музыка, звук, нота, тембр, метр, ритм, лад, гармония, интервал, аккорд, динамические оттенки, форте, пиано, длительность.

Key words: music, sound, note, tembre, metre, ritm, lad, harmony, interval, achchord, dynamic signs, forte, piano, length.

Musiqa - atrofimizdagi voqelik, inson va uning ichki dunyosi – o'y-fikrlari, his-tuyg'ularini musiqiy ohanglarda bayon etish ifoda vositasidir. U inson faoliyatining boshqa turlaridan ko'ra, badiiy obrazlarni

ohanglarda yaratish orqali voqelikni o'zlashtiradi va odamlarning his-tuyg'ularida ta'sir ko'rsatadi. U kishining hissiyoti va ongiga bevosita ta'sir qilib, uning tafakkurida olamni go'yoki yangidan yaratadi.

Bunda san'atkor, xonanda va sozandaning o'zni benihoya katta. U hayotni, hodisalar va narsalarni biror obrazga xos bo'lgan eng umumiy, tipik xususiyatlarni saralab olib, tushunib, obraz qiyofasini yaratishga harakat qiladi. Albatta, har qanday san'atkorning tashqi dunyoning ob'yektiv materiali uning ongida alohida qayta ishlab chiqilib, original, o'ziga xos ijod bo'lib qayta vujudga keladi. Biroq, shu bilan birga har bir ijodiy asar jamoat ongining mahsuloti deb ham hisoblanadi. Negaki, u muayyan bir ijtimoiy psixologik, tarixiy hodisa sifatida namoyon bo'ladi. Badiiy ijodiyotning ijtimoiy tomoni shundan iboratki, inson o'z zamondoshlari hamda xalqi o'tmishini tabiat va jamiyat bilan aloqadorligini musiqiy obrazlar orqali his etadi. Musiqiy san'at asarlari ham hayot, ham ijodning tovushlar orqali bayon etiladigan ramzidir.

Musiqani o'rganish, uni chuqquroq his qilish, kuyohang, she'r matni va uni nota yozuvida aks ettirilishi musiqaning nazariyasi, solfedjio, garmoniya va musiqa asarlar tahlili to'g'risidagi bilimlarni chuqur o'zlashtirilishiga bog'liq. U musiqaning asosiy unsurlarini o'rganishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi. Musiqa nazariyasi fan sifatida maktabgacha ta'lim muassasalari, umumta'lim maktablari, bolalar musiqa va san'at, maxsus musiqa akademik litsey, pedagogika kasb-hunar kollejlari keng o'qitiladi. Ushbu fan doirasida musiqiy tovush xususiyatlari, uning nota matnida ifodalanish texnologiyasi, musiqaning asosiy ifoda vositalari - metr-ritm, lad, garmoniya, ikki tovushning nisbati (interval), uch va undan ortiq tovushlar nisbati (akkord) va ular orqali ifodalanadigan musiqiy mazmun, lad, tonalliklarning musiqiy mazmunni ifodalash imkoniyatlari tahliliy o'rganiladi. Badiiy obraz musiqa asarlarida o'ziga xos tarzda, ya'ni, ma'lum tovushlar va ohanglar sintezi sifatida aks ettiriladi. Musiqa asarlarida shakl va mazmun bir-birini to'ldiruvchi unsurlar sifatida muhim ahamiyatga egadir. Xuddi shunday unsurlardan biri tovushdir. Tovush fizik hodisadir. U o'z navbatida bir necha uzviy bog'langan turli hodisalar zanjirini o'z ichiga oladi. Tovush manbai birorta jism (masalan, simli tor)ning tebranish harakatlaridir. Bunday harakatlar natijasida, havoda to'lqinsimon tebranishlar, ya'ni tovush to'lqinlari yuzaga keladi. Ular esa eshitish organga ta'sir qilib, eshitish asab tizimi orqali bosh miyaga o'tadi va tovush sezgisini vujudga keltiradi.

Musiqaning elementar nazariyasi o'quv kursida tovush - ikki xil ma'noda tushuniladi. Birinchisi – fizik holatdagi tovush, ikkinchisi – sezgi orqali ijro etiladigan tovushdir. Masalan, biror egiluvchan jism, cholg'u asbobi torining tebranishi natijasida havoda uzunasiga taralgan to'lqinli tebranishlar hosil bo'ladi. Bu tebranishlar tovush to'lqinini hosil qiladi. Ular tovush manбайдan turli tomonlarga aylanasimon tarqaladi. Ushbu hodisaning umumiy zanjiri quyidagicha amalga oshadi: tovush to'lqini manbai bu – tovush to'lqinlari, eshitish organiga tovush to'lqinlarining ta'sir etishi, eshitish analizatorlari orqali

qabul qilingan qo'zg'atuvchi ta'sirining bosh miyaga uzatilishi.

Mutaxassislarning ilmiy tadqiqot natijalarida fizik nuqtayi nazardan tebranishlar o'lchovi sifatida tebranadigan jismning bir sekunddagi tebranishlari soni gerts (gts) qabul qilingan. Yangragan tovush to'lqinlari eshitish organi tomonidan qabul qilingach, unga ta'sir etadi va asab tuzilmasi (analizator) orqali bosh miyaga o'tib, tovush sezgisini qo'zg'atadi. Tabiatda odam qulog'iga chalinadigan tovushlar cheksizdir. Ular shovqinli - taqillagan, shitirlagan, g'ichirlagan kabi tabiiy tovushlar, musiqiy – kuylayotgan odam ovozi, yangrayotgan cholg'u asbobning sadolari kabi sun'iy tovushlarga ajratiladi. Musiqiy tovushlar musiqa san'atining asosiy vositasi bo'lib, atrofdagi voqelikni aks ettirishda xizmat qiladi. Ular musiqa madaniyatining ko'p asrli taraqqiyot jarayonida saralab olinib, muayyan tizimga uyushtiriladi [1, 2].

Musiqiy ifodalilik elementlarining negizi musiqiy tovushning o'ziga xos xususiyatlarini namoyon etadi. Ushbu xususiyatlar tebranilayotgan jismning tebranish tezligi, tebranish kengligi, tebranish davomiyligi va tarkibiy qismlari son va sifatidan kelib chiqadi. Biz kundalik hayotda juda ko'p, xilma-xil tovushlarni eshitamiz. Biroq, bu tovushlarning hammasi ham musiqada qo'llanilmaydi. Eshitish organlarimiz musiqaviy tovushlar bilan shovqinli tovushlarni bir-biridan ajratish qobiliyatiga ega. Shovqinli tovushlar, masalan, qarsillash, gumburlash, g'ijirlash, baqiriq, taqillash, dukillash va hokazolar aniq tovush to'lqini ma'lum bir balandligiga ega emas, shuning uchun ham bu tovushlar musiqada qo'llanilmaydi.

Musiqaviy tovushning nazariy jihatdan tahlil etar ekanmiz, uning mavjud to'rt xil fizik xususiyati mavjudligini ta'kidlab o'tish joiz. Ular balandlik, uzunlik (cho'zim), qattqlik (tovush kuchi) va tembr (tovush tusi)dan iborat. Ilg'or xorijiy adabiyotlarda ham tovush xususiyatlari haqida gap borganda tovush balandlik, uzunlik, tembr va dinamik belgilari hamda tovush qattqligi haqida gap boradi. Ba'zi mualliflar tezlik (ovozdan hosil bo'lgan fizik tebranishning jadalligi) va tuzilishini ham e'tirof etib o'tadilar [5, 6, 7].


Yangrayotgan tovushning balandligi tebranayotgan egiluvchan jismning tebranish tezligi, ya'ni chastotasiga bog'liqdir. Tebranish qanchalik tez bo'lsa, tovush shunchalik baland bo'ladi va aksincha, tebranish qanchalik sust bo'lsa, tovush shunchalik past bo'ladi.

Yangrayotgan tovushning cho'zimi tebranayotgan jismning to'lqin amplitudasiga bog'liqdir. Tovushning uzun yoki qisqaligidan uning fizik xarakteri o'zgarmaydi, lekin musiqa nuqtayi nazaridan tovushning cho'zimi uning yana bir xususiyati bo'lib, muhim ahamiyatga egadir. Tovush cho'zimi tovush manbayi tebranishining davom etishiga bog'liq bo'ladi. Masalan, tovush chiqa boshlaganda tovush manbayining tebranishi qanchalik keng bo'lsa, tovushning pasayib borishi ham shuncha uzoq

davom etadi. Bunda albatta, tovush manbai bo'lgan jism erkin tebranishi shart.

Yangrayotgan tovushning qattiqligi tebranish harakatining kuchiga, ya'ni, tovush manbai bo'lgan

jismning tebranish kengligiga bog'liqdir. Tebranish harakatlari amalga oshiriladigan fazo doirasi tebranish amplitudasi (kengligi) deyiladi.




Tebranish amplitudasi qanchalik katta bo'lsa, tovush shunchalik qattiq eshitaladi va aksincha.

Musiqada tovush tembr asosiy ahamiyatga ega. Tembr - tovushning sifat xususiyati, uning rang-barangligiga aytiladi. Tembr xususiyatlarini ifodalashda his-tuyg'ularga taalluqli turli iboralar qo'llaniladi, masalan mayin, keskin, yo'g'on, jarangdor, kuychan. Har bir cholg'u asbobi yoki inson ovozi o'ziga xos tembrga egadir. Xilma-xil cholg'u asboblarda eshitaladigan ma'lum balandlikdagi tovushlar o'zlarining rang-barangliklari bilan bir-biridan farq qiladi. Tembrning farqlanishi har bir tovushga xos bo'lgan yuqori tonlarning tarkibi (tabiiy aks-sadolar)ga bog'liqdir.


Musiqiy tizim balandlik bo'yicha muayan o'zaro munosabatlarda bo'lgan tovushlar qatoridan iborat. Tovushlarning past-balandligi bo'yicha yuqorilama

yoki pastlama tartibda ketma-ket joylashuvi musiqiy tizim tovushqatori deyiladi. Tovushqatorning har bir tovushiga esa uning pog'onasi deyiladi. Turli qalinlikdagi tebranuvchi jism, masalan tor tebranayotib, teng bo'laklarga bo'linishi natijasida tovush to'lqinlarining murakkab shakli vujudga keladi. Jismning umumiy tebranishi jarayonida bu teng bo'lakchalar alohida tebranib, o'zining uzunligiga muvofiq keladigan qo'shimcha to'lqinlar hosil qiladi. Yuqori tonlar qo'shimcha oddiy tebranish natijasida hosil bo'ladi. Yuqori tonlarning balandligi har xil bo'ladi, chunki ularni hosil qiladigan tebranish tezligi turlichadir. Masalan, biror bir chertib chalinadigan musiqiy cholg'u asbobi torida birgina asosiy ton eshutilganda, uning to'lqinlanish shakli quyidagi grafik tasvirga muvofiq bo'ldi:




Torning teng yarmidan hosil bo'lgan ikkinchi yuqori ton to'lqinining uzunligi asosiy ton to'lqinidan ikki marta qisqa, tebranish chastotasi (tezligi) esa ikki marta tezroq bo'ladi va hokazo.


Yarmidan hosil bo'lgan to'lqin (ikki marta tez):



Uchdan bir qismidan hosil bo'lgan to'lqin (uch marta tez):



To'rttdan bir qismidan hosil bo'lgan to'lqin (4 marta tez)



Muayyan balandlikdagi munosabatda bo'lgan tovushlar qatoriga musiqaviy tuzilma deyiladi. Tuzilma tovushlarining o'z balandligiga qarab joylashishi tovushqator, tovush esa uning pog'onasi deyiladi. Musiqaviy tuzilmaning to'liq tovushqatori 88 ta xilma-xil tovushlarni o'z ichiga oladi. Bu tovushlar eng past tovushlardan eng yuqori tovushlargacha 16 gts dan 4176gts tebranishga egadir. Ana shu tovushlar balandligi inson qulog'i qulay eshita oladigan tovushlardir. Insonning vokal ovozi taxminan 60 dan 1000 gts gacha bo'lgan diapazonda yangrashi bois, ko'pgina cholg'u sozlar aynan ushbu diapazon doirasida tovush hosil qiladi. Yuqori tonlar (oberton) tovush to'liqlarining murakkab shakli natijasida yuzaga keladi. Musiqaning elementar nazariyasi fani musiqaning tembr xususiyatlarini keng o'rganmaydi, bu borada cholg'ushunoslik va orkestrrovka fanlari doirasida bahs yuritiladi.

Tebranish tezligiga tovushning balandligi bo'g'liq. Tebranish tezligi qancha katta bo'lsa, shuncha tovush balandligi yuqoriroq va aksincha, tebranish tezligi qancha kichik bo'lsa, shuncha tovush balandligi pastroq bo'ladi. Shuning uchun, tovushlar ikki xil guruhga ajratiladi:

- 1) balandligi aniq belgilangan tovushlar - musiqiy tovushlar;
- 2) noaniq balandlikdagi tovushlar - shovqinli tovushlar.

Tebranish harakatining kuch-quvvati tebranish kengligi (amplituda)da ifodalanadi va tovush

qattiqligini (forte–piano jarangini) ta'minlaydi. Tebranishlar amplitudasi qancha keng bo'lsa, shuncha tovush qattiq bo'ladi. Tebranishning davom etish muddati tovushning cho'zimi bilan bogliqdir. Tebranishlar amplitudasi qancha keng bo'lsa, shuncha tovush yangrashi uzoq vaqt davom etadi.

Tovush manbai bir vaqtning o'zida nafaqat butunligicha, balki bo'limlari bo'yicha ham tebranadi. Uning butunligicha tebranishi asosiy tebranish hisoblanib, eng yaxshi eshitaladigan tovushni hosil qiladi. Bu tovush asosiy ton deb ataladi. Har bir bo'lim (jismning umumiy uzunligidan teng yarmi, uch qismidan biri, to'rtidan biri, beshdan biri va h.k)ning tebranish tezligi o'z uzunligiga mos tovushni yaratadi. Bunday qo'shimcha tovushlar asosiy tondan ko'ra ikki, uch marta balandroq eshitaladi. Chunki, tovush manbaining uzunligi qancha qisqa bo'lsa, uning tebranish tezligi shuncha oshadi va undan hosil bo'lgan tovush balandligi shuncha yuqorilashadi. Ushbu qo'shimcha, tarkibiy tonlar oberton yoki garmoniklar deb ataladi. Tovush tarkibiga kirgan obertonlar tovushning rang-barangligini, ya'ni, tembr xususiyatini vujudga keltiradi. Tembr tovushning individual sifatini, boshqa tovushlarga o'xshamasligini ta'kidlaydi. Mazkur to'rtta xususiyat har bir musiqiy tovushda albatta namoyon bo'ladi.

Tovushlar bo'g'inli va harfiy nomlar bilan ataladi. Musiqaviy tuzilma tovushqatorining asosiy pog'onalariga yettita mustaqil nom berilgan:

| | | | | | | | |
|---------------|----|----|----|----|-----|----|----|
| Bo'g'in bilan | Do | Re | Mi | Fa | Sol | La | Si |
| Harfli | C | D | E | F | G | A | H |

Asosiy bosqichlarga berilgan ushbu nomlar o'rta asrlarda shakllangan. Asosiy pog'onalar fortepianoning oq klavishlarda joylashtirilgan bo'lib, ular 52 tani tashkil etadi.



Harfiy tuzilma tonalliklarni ko'rsatish uchun o'zining soddaligi va qisqaligi tufayli ko'pgina xorij mamlakatlarida ham keng qo'llaniladi, tovushlarni

aks ettirish esa faqatgina ilmiy-musiqiy adabiyotlarda qo'llaniladi. Germaniya, Buyuk Britaniya va Gollandiya singari ba'zi Yevropa mamlakatlarida esa

harfiy tuzilma hozirgi kunda ham asosiy bo'lib hisoblanadi.

Musiqa tovushqatoridagi yettita asosiy pog'onaning nomi ma'lum bir vaqtda takrorlanib turadi hamda shu yo'l bilan barcha asosiy pog'onalar tovushlarini o'z ichiga qamrab oladi. Bu yuqori tomon

sanalgan, oq klavishlarda chiqariladigan har bir sakkizinchi tovush birinchi tovushga nisbatan ikki marta tezroq tebranishi natijasida hosil bo'ladi. Demak, u birinchi boshlang'ich tovushning ikkinchi yuqori toniga mos keladi va unga hamohang bo'lib eshitiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Vaxromeev V. "Muzikaning elementar nazariyasi". T.: "O'qituvchi"-1980, 224- b.
2. Вахромеева Т. "Справочник по музыкальной грамоте и сольфеджио". М.: -2004.
3. Панкевич Г. "Звучащие образы. М.: "Знание"-1977, 112-б.
4. Akbarov I. " Musiqa lug'ati". T.: "O'qituvchi"- 1987, 444- b.
5. Mishael Pilhofer and Holly Day "Music Theory for dummies" Indiana USA 2007. Wiley Publishing Inc.
6. James Tackett. "Fundamentals of church music Theory" Austin Christian Akappella Musik. Abilene Christian University. 2009.
7. Mark Fe ezell. "Music Theory Fundamentals" Copyright. 2011 All Rights Reserved. LearnMusic Theory. Net-2011-34-page

BO'LAJAK MUSIQA TA'LIMI KADRLARINI TAYYORLASHDA "VOKAL VA ZAMONAVIY MUSIQA" FANINI O'QITISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Dilafro'z SALIMOVA – Nizomiy nomidagi TDPU "Musiqiy ta'lim" kafedrasida o'qituvchisi

Mazkur maqolada respublikamizdagi pedagogika sohasi "Musiqa ta'limi" yo'nalishida tayyorlanayotgan bo'lajak musiqa o'qituvchilariga "Vokal va zamonaviy musiqa" fanini o'qitishning maqsad va vazifalari bayon etilgan.

В данной статье изложены цели и задачи предмета "Вокал и современная музыка" будущих учителей музыки, обучающихся по направлению "Музыкальное образование" в области педагогики нашей республики.

This article describes that the aim and the task of teaching the subject "Vocal and modern music" in preparing future musical teachers of the direction "Musical education" in our Republic's pedagogical branch.

Kalit so'zlar: vokal, xonanda, xonandalik, musiqa, qo'shiq, aytim, akademik ijro, opera, texnika.

Ключевые слова: Основные понятия: вокал, исполнитель-вокалист, вокальное исполнительство, музыка, попевки, песня, академическое исполнительство, опера, техника.

Key words: Main concepts: vocal, singer, musical song, melody, academic execution, opera, technics.

Mamlakatimizda vokal va zamonaviy musiqa san'ati gurrak rivojlangan bir davrda, mazkur fan asosida bo'lajak musiqa o'qituvchilarining estetik va badiiy didini tarbiyalash xonandalik mahoratini professional uslubda egallash, uning nazariy xususiyatlarini tushunish, amaliy jihatdan kuylash malakalarini shakllantirishga katta yordam beradi. Bo'lajak musiqa o'qituvchilari alohida e'tibor qaratishi lozim bo'lgan yana bir jihati o'quvchi yoshlar tovush apparatining texnik rivoji, artistlik mahoratini rivojlantirish va yuqori badiiy saviyada tarbiyalashga qaratilgan bilimlar majmuyi bilan qurollantirishdan iboratdir.

"Vokal va zamonaviy musiqa" fani "Musiqa ta'limi" ta'lim yo'nalishi bo'yicha tahsil olayotgan talabalarga vokal va zamonaviy musiqa, shu jumladan, estrada xonandaligi san'ati ijrochiligi bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishga xizmat qiladigan fanlar sirasiga kiradi. Talaba yoshlarni yuqori malakali mutaxassis sifatida tarbiyalashda vokal ijrochiligi hamda zamonaviy musiqa – estrada

xonandaligi bo'yicha nazariy bilimlarning o'rni kattadir.

Alohida e'tibor tovush apparatining texnik rivojiga, artistlik mahoratini rivojlantirish va yuqori badiiy saviyada tarbiyalashga qaratilishi kerak. Mazkur fan yuzasidan talaba davr talabi asosida dunyoqarashini shakllantirish va keng fikrlash ko'nikmasini egallash, ya'ni insoniyat madaniyati tarixi, rivojlanish pog'onalari, xususan, yangi paydo bo'lgan kompyuterlar tizimidagi jahon musiqiy dasturlari yuzasidan ham tushuncha, tasavvur, bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi yuzasidan yetarlicha bilimlarni o'zlashtirish shart [1, 3].

Fanning asosiy vazifalari qatorida dars jarayonida talabalarga ta'lim va tarbiya berish, ularni dunyo standartiga to'la javob beradigan chuqur bilimli, yuqori malakali mutaxassis qilib tayyorlash, vokal va estrada xonandaligi ijrochiligining tizimlilik, izchillik, oddiydan murakkabga qarab rivojlaniishi, ijrochilik mahoratini egallashida yakka tartibda yondashish

kabi qator didaktik tomonlari bilan tanishtirishdan iborat bo'ladi.

Vokal va zamonaviy musiqa (estrada xonandaligi)da tovush yo'llarining tuzilishi va harakatlanishi xususiyatlarini, vokal va estrada xonandaligi to'g'risidagi asosiy tushunchalarni, ovoz hosil qilish va uning turlarini, xonandalik nafasi, artikulyatsiya, intonatsiya va dinamik belgilarni bilishi, nafasni qovurg'aning pastidan, asosan qorindan shovqinsiz olish va uni tejimli sarflash, barcha registrlarda yuqori holatda ovoz hosil qilib kuylay olish, sof va toza kuylash, so'zlarni orfoepiya qoidalariga muvofiq talaffuz qilib kuylash, turlicha ovoz hujumlari bilan kuylay olish, legato va stakkatoda kuylash, o'zbek va Yevropa estrada va vokal asarlarining klassik va zamonaviy uslubiy yo'nalishlarining manyorali ijrosi, yakka va turli guruhlar bilan mustaqil ijodiy ishlash va konsert faoliyatini yurgizish, mikrofonni erkin ishlatish qoidalarini bilish va unga rioya qilish, xonanda ovozinin registrlari va badiiy texnik imkoniyatlarini, ovozni ishlatish va qo'yish mashqlarini, o'quvchi bilan asar ustida ishlab, sahnaga chiqishga tayyorlash kabi ko'nikmalarni egallashi talab etiladi. Shuningdek, mazkur fan asosida bo'lajak musiqa mutaxassislarini vokal sir-asrorlarini chuqur bilish va yuqori professional uslubda kuylay olish, musiqa asbobi jo'rligida hamda unison yoki ko'p ovoqli ansambllar jo'rligida yakka xonanda sifatida kuylash, ovoz va musiqa asbobi uchun yozilgan asarlarni ifoda etish shtrixlari, uslub (stil) va xarakteri nuqtayi nazardan tahlil qilish, boshlang'ich va o'rta ta'lim tizimida pedagogik faoliyat yuritish, o'quvchi ovozini rivojlantirish, ovozda nuqsonlarni bartaraf etish, o'quvchiga dastur tanlash, dastur ustida ishlash, estrada qo'shiqchiligi tarixi va rivoji bosqichlari, jo'rnavoz va fonogramma minus (plyus) bilan ishlash yo'llari, estrada musiqasining klassik va zamonaviy uslubiy yo'nalishlarini, vokal ovoz registrlari, hajmini va ovoz imkoniyatlarini, vokal nota matnlarini o'qish va tahlil qilishni, xonandalik pedagogikasining asosiy tushunchalari, xonandalik ovozlarni klassifikatsiyasi, musiqiy qobiliyat psixologiyasi, tovush apparatining tuzilishi va ishlashi, o'zbek va dunyodagi mashhur estrada xonandalarining ijro uslublarini bilish kabi bilimlarini o'rganadi [1, 3, 5, 6].

Kursning asosiy mazmuni ovoz hosil qilish malakalari va fiziologiyasini o'rganish hamda uni amalda qo'llay olish, shuningdek, vokal va estrada xonandaligi malakalarini egallashdan iborat.

O'zbekistonda vokal xonandalik san'atining asoslarini bo'lajak musiqa ta'limi mutaxassislariga o'rgatar ekanmiz jahon xonandalik maktablari tarixiga nazar tashlashimiz lozim. Respublikamizda akademik kuylash uslubi asosan rus xonandalik maktabi tajribasiga tayanadi. Rus akademik xonandaligi irmoqlari esa - rus xalq qo'shiqlarining o'ziga xos kuychanligi, kuyinigi kengligi va ma'nosining boyligini o'ziga jamlagan. O'ziga xoslikni avaylagan holda rus xonandaligi maktabi Italiya, Fransiya va Germaniya xonandalik maktablarining boy udumlarini o'zlashtirdi.

Rus xonandaligi maktabining rivojiga katta hissa qo'shganlardan, Glinkaga qadar davr bastakorlari ham hisoblanishadi.

Akademik yo'nalishda barcha millat vakillari kuylay oladilar, lekin doim talaffuz etishda o'zgarish ro'y beradi. "Til ovoz naychalarining vibratsion ishiga o'z ta'sirini ko'rsatadi, ta'sir ko'rsatibgina qolmay, kekirdak faoliyatida ham katta o'rin egallaydi" (L.Dmitriev). Iste'dodli akademik yo'nalishda kuylovchi xonanda uchun kuylash qancha oson bo'lsa, milliy yo'nalishda kuylash ham shuncha oson bo'ladi. O'zbekistonda bu ikki yo'nalishda kuylagan xonandalar bor, bular xalq artistlari K.Zokirov, N.Xoshimov, S.Yarashev, A.Azimov, S.Qobulova va boshqalar [1].

Xulosa o'rnida shuni a'lohida ta'kidlash joizki, 2016-2017-o'quv yilidan Respublikamizning pedagogika sohasida "Musika ta'lim" ta'lim yo'nalishi talabalar shu fan bo'yicha egallashi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalari minimumi aniqlangan, ya'ni ovoz apparatining tuzilishi va uni boshqarish, vokal va zamonaviy musiqa to'g'risidagi asosiy tushunchalar bo'yicha metodik ko'rsatmalar, shular bilan bir qatorda, talaba yoshlarning vokal ijrochiligi, O'zbekistonda zamonaviy musiqa rivoji, xonandalik asoslari, xonanda texnikasi bo'yicha yetarlicha bilimlarni ham nazariy ham amaliy jihatdan puxta egallashga zamin yaratildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

- 1.Qahharov N."Vokal asoslari". O'quv qo'llanma. T.: "Iqtisod-moliya"- 2008, 314- b.
- 2.Umarov M. "Estrada va ommaviy tomoshalar tarixi". Darslik. T.: "Yangi avlod asri"-2009, 304- b.
- 3.Mirzaeva N.A. Xonandalik uslubiyoti asoslari. Ma'ruzalar matni. Toshkent. 2008. 48 b.
4. Cathrine Sadolin. Complete vocal technique. 2012. www.Completevocalinstitute.com
5. Larri Star & Christopher Waterman. American popular music. Oxford Universite Press. Inc. 2007.

YOSHLARNI MA'NAVIY-MAFKURAVIY TAHDIDLARDAN HIMOYA QILISHDA IJTIMOY ME'YORLARNING O'RNI

Nargiza BAXRIYEVA – Buxoro davlat universiteti “Psixologiya” kafedrası o'qituvchisi

Mazkur maqolada shaxslararo munosabat va faoliyatlarda ijtimoiy me'yorlarning roli masalasi, uning tadqiqi va bugungi kundagi tasarrufi bilan bog'liq jarayonlar ilmiy tahliliy tarzda yoritilgan. Ijtimoiy me'yorlar rolini oshirish jamiyatimizda yoshlarni ma'naviy-mafkuraviy tahdidlardan himoya qilishda katta hissa qo'shishi mumkin.

В данной статье приведены основные требования по изучению и применению в общественной жизни, в установлении отношений и деятельности широких масс социальных ролей. Поднятие положения социальных ролей в социуме может принести большой вклад в защите молодежи от духовно-идеологических угроз.

In given article are brought main requirements on study and using in public life, in determination of the relations and activity of the broad masses of the social roles. Lifting the position of the social roles in соцууме can bring the big contribution to protection youth from spiritual-ideology of the threats.

Kalit so'zlar: *Ijtimoiy me'yor, ma'naviy-mafkuraviy tahdid, globallashuv, ijtimoiy institut, ijtimoiy tuzilmalar, "deformatsiya", "korrektsiya", moslashuvchanlik, "axborot inqilobi", individualistik yondashuv, axloqiy e'tiqodlar.*

Ключевые слова: *Социальная норма, духовно-идеологическая угроза, глобализация, социальный институт, социальные системы, "деформация", "коррекция", гибкость, "информационная революция", индивидуалистический подход, нравственные убеждения.*

Key words: *The Social rate, spiritual-ideology threat, global, social institute, social systems, "deformation", "correction", flexibility, "information revolution", individual approach, moral beliefs.*

O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha "Faol tadbirkorlik, innovatsion g'oyalar va texnologiyalarni qo'llab-quvvatlash yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturida "Aholini, ayniqsa, yoshlarni diniy ekstremizm, aqidaparastlik kabi buzg'unchi harakatlar ta'siridan asrash masalasiga alohida e'tibor qaratish" ta'kidlab o'tilgan.

Zamonaviy gumanitar fanlar, xususan, ijtimoiy psixologiya fani vakillari diqqat markazida zamonaviy milliy madaniyatimiz va ma'naviyatimizni yanada rivojlantirish, ayniqsa yoshlarni ma'naviy-mafkuraviy tahdidlardan himoya qilishda ijtimoiy me'yorlarning rolini oshirish bugungi kundagi muhim va dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Ijtimoiy me'yorlar va ular mohiyatining zamonaviy global olamdagi ijtimoiy-psixologik hamda falsafiy tahlili, ularni takomillashtirish orqali kutiladigan natijalar ushbu mavzu doirasidagi dolzarb yo'nalishdir.

Ijtimoiy me'yorlar muammosi ko'p qirrali va keng miqyosli bo'lib, mazkur muammoni M.Bobnyova, A.Bogdanov, P.Blau, M.Veber, Э.Giddens, Э.Dyurkgeym, S.Dashtamirov, O.Drobnitskiy, G.Zimmel, V.Kudryavtsev, M.Kovalevskiy, T.Lukman, D.Markovich, R.Merton, T.Parsons, A.Ruchka, S.Frolov, Yu.Xabermas, V.Xvostov va boshqalar ma'lum darajada tadqiq etishgan. R.Mills, T.Parsons, U.Somner va G.Spenserlar ijtimoiy tuzilmalar kontseptsiyasini ishlab chiqishdi.

Ijtimoiy me'yorlarning "deformatsiyasi" bo'yicha V.N.Kudryavtsev va R.Mertonlar tadqiqotlar o'tkazib, "korrektsiya" va "deformatsiya" tushunchalari ularda ochiq tarzda emas, balki yopiqroq shaklda ("o'tish" va "inqiroz" tarzida) ifodalangan. Ijtimoiy me'yorlarga moslashuvchanlikni tarixiy shart-sharoitlar nuqtayi

nazaridan D.E.Grigorenko, V.D.Kalashnikov, N.V.Fomina va N.M.Churinovlar, o'zgaruvchan global jarayonlar nuqtayi nazaridan U.Bek, A.Veber, V.L.Inozemtsev, V.J.Kelle, A.Neklessa, A.S.Panarin, I.A.Pfanenshtil, X.Shaxnazarov va boshqalar o'rganishgan.

Tadqiqotchi M.I.Bobnyova insonning ijtimoiy rivojlanishini xatti-harakatlarning turli variantlarini tanlash orqali jamiyatdagi ilg'or qatlamning taraqqiy etgan ijtimoiy me'yorlari nuqtayi nazaridan hamda munosabat tizimi orqali baholashni ko'rsatib berdi. Bu shaxsning o'z hatti-harakatlarini yaxlit holda psixologik tahlil etishi orqali mumkin bo'ladi.

Globallashuv jarayonida ijtimoiy me'yorlarning amal qilishi, o'zgarishi va uni takomillashtirish masalasiga yetarli darajada e'tibor qaratish zarurati mavjud. Shundan kelib chiqqan holda aytish lozimki, ijtimoiy me'yor kategoriyasi nafaqat jiddiy diqqatni, balki, metodologik tahlilni ham talab etadi.

Ijtimoiy me'yorlar va ularni samarali joriy etish muammosini o'rganish qator omillarga bog'liq. Birinchidan, globallashuvning umumjahon tendentsiyalari milliy madaniyatimiz va ma'naviyatimizga ham o'z ta'sirini ko'rsatmoqda. Albatta, globallashuvning asosiy negizi bu – "axborot inqilobi" bo'lib, u iqtisodiyot, siyosat, madaniyat, til, ta'lim, ma'naviy-axloqiy qadriyatlar va millatlararo munosabatlarga ta'sir ko'rsatadi. Bu sohalarning barchasi jadal axborot almashinuvi jarayonida yangi sifat ko'rsatkichlari bilan namoyon bo'lmoqda.

Globallashuv jamiyat hayotiga ta'sirning yetakchi omillaridan biriga aylandi. Ularga dunyo miqyosining axborot nuqtayi nazaridan kichrayganligi, zamonaviy jamiyatda o'zaro bog'liqlik darajasining jadal o'sganligi, turli madaniyatlarda bir-biriga o'zaro ta'sir jarayonlarining kuchayishi kiradi.

Global jarayonlar o'z mohiyatiga ko'ra jamiyatdagi ijtimoiy me'yorlarni yo'naltiradi. Bularning barchasi an'anaviy va yangi ijtimoiy me'yorlar nisbatining u yoki bu darajasini aks ettiradigan maqbul o'zaro munosabatlarni ishlab chiqishni taqozo etadi.

Ikkinchidan, mamlakatimizda o'tkazilayotgan jadal ijtimoiy va iqtisodiy islohotlar taraqqiy etib borayotgan jamiyatimiz hamda undagi mavjud ijtimoiy me'yorlar borasidagi qarashlar va tasavvurlarni yanada takomillashtirishni talab etadi.

Uchinchidan, ushbu muammoni o'rganish jamiyatdagi jamoaviylik va individualistik yondashuvlarni farqlash uchun zarurdir. Ijtimoiy muhitda turli milliy an'analar, qadriyatlar va me'yorlar o'ziga xos xususiyatlarga ega. Ushbu milliy an'analar hurmat va ularni asrab-avaylab kelajak avlodga yetkazish zamondoshlarimizning ezgu vazifalaridan biri sanaladi. Ulardan ma'lum darajada chekinish salbiy oqibatlariga – an'anaviy qadriyatlarni mensimaslik, axloqiy me'yorlarning tan olinmasligi, pirovard natijada ma'naviyatga e'tiborning pasayishi va boshqa salbiy holatlarga olib kelishi mumkin.

Hozirgi kunda jamiyatimiz yoshlarida ishchan, ijobiy muhitni, qulay, samarali ijtimoiy me'yorlarga rioya etish ko'nikmalarini shakllantirish yurt, Vatan istiqbolini yaratish uchun qulay shart-sharoitlar yaratadi.

To'rtinchidan, ijtimoiy jarayonlarning jadallashganligi o'qish, mehnat faoliyati va hayot faoliyatida qulay sharoitlarning yaratilishi, shuningdek, insonlar muloqoti va o'zaro munosabatlarida ba'zan turli psixologik holatlarning uchrab turishi – milliy merosimizga, ota-bobolarimiz tomonidan minglab yillar davomida shakllangan va avloddan-avlodga o'tib kelayotgan milliy me'yorlar, qadriyatlar, an'analar va udumlarga qayta-qayta murojaat qilishni taqozo etadi.

Ijtimoiy me'yorlar ijtimoiy institutlarning o'zaro hamkorlikdagi faoliyati orqali namoyon etiladi, ya'ni, ushbu ijtimoiy jarayonlarning ijtimoiy shartlanganligi natijasida yuzaga chiqadi. Albatta, ijtimoiy hayotning moddiy, ijtimoiy, ma'naviy va boshqa jabhalari o'z me'yorlari, tuzilmasi va ta'sir imkoniyatlariga ega.

Bunday sharoitda ijtimoiy institutlar bir vaqtning o'zida ijtimoiy nazorat mexanizmlari sifatida namoyon bo'ladi, ya'ni, o'zining me'yorlash xarakteri orqali insonlarni qabul qilingan ijtimoiy me'yorlarga to'la amal qilishga chaqiradi. Shu nuqtayi nazardan mahalla instituti orqali yoshlarni ma'naviy-mafkuraviy tahdidlardan himoya qilish uchun keng imkoniyatlar yaratiladi.

Aytish lozimki, ijtimoiy me'yorlar jamiyat taraqqiyotida zarur bo'lgan undash va ta'qiqning jamlanmasini tashkil etadi. Ijtimoiy me'yorlarning mazmuni ob'ektiv shart-sharoitlar, sub'ektiv omillar orqali belgilanadi hamda ularning tarqalishi va ta'sir doirasi jamiyatdagi ob'ektiv shart-sharoitlar, sub'ektiv omillarning yoyilganligi darajasiga bog'liq.

Ijtimoiy me'yorlar umumiy va xususiy tiplarga ajratiladi. Umumiy ijtimoiy me'yorlar globallashtirish darajasi, jamiyatda mustahkam o'rin egallaganligi

darajasiga ko'ra umumiy - barcha insonlarga xos bo'lgan ijtimoiy me'yorlardir.

Xususiy ijtimoiy me'yorlar esa moslashuvchanlik, murosallilik orqali inson faolligining ko'p qirrali xarakterini aks ettiradi. Xususiy ijtimoiy me'yorlar ilmiy faoliyat, tijorat, ijodiyot, aniq kasblar shifokor, muhandis, quruvchi, ijtimoiy rol funksiyasini (hokim, deputat, ishchi, fuqaro kabi) aks ettirishi mumkin.

Ijtimoiy me'yorlarni ma'lum tarixiy davr va ijtimoiy holatlarni qamrab olganligi darajasi bo'yicha gradatsiyalarga (qaysidir belgining ortishi yoki kamayish ketma-ketligi) bo'lish mumkin. Ma'lum tarixiy davr va ijtimoiy-ma'naviy holatlar bilan bog'liq ijtimoiy me'yorlar mavjud.

Ijtimoiy me'yorlarning eng kam o'rganilgan sohasi – bu instituzatsiya, ya'ni ijtimoiylik va individualistik nuqtayi nazardan o'rganilishidir. Ijtimoiylashgan jamiyat - ijtimoiy me'yorlarni tabiiy holda moslashtirish yordamida ularni takomillashtirishga nisbatan ustanovkani shakllantirish ustuvor ahamiyat kasb etadi. Ijtimoiy me'yorlar ijtimoiy mehnat faoliyati bilan mashg'ullik bo'yicha ham farq qiladi. Binobarin, ijtimoiy me'yorlar jamiyatda sog'lom muhitni, ijobiy shaxslararo munosabatlarni qaror toptirishda muhim ahamiyatga ega bo'lganligi sababli, asosiy ijtimoiy me'yorlar tiplari ular bilan bog'liq holda namoyon etiladi. Ahamiyati darajasi bo'yicha ham ijtimoiy me'yorlar bir-biridan farq qiladi. Ular orasida yozma va og'zaki, formal va neformal, ochiq ifodalangan va ochiq bo'lmagan ijtimoiy me'yorlar bor. Jamiyat taraqqiyoti dinamikasiga ko'ra ijtimoiy me'yorlar progressiv va regressiv me'yorlarga bo'linadi. Umuman, ijtimoiy me'yorlar o'zaro kesishadi va bir-biri bilan bog'liq bo'lib, ijtimoiy munosabatlarni ijobiy yo'naltirishda murakkab boshqaruv faoliyatini amalga oshiradi.

Insonlar o'z ijtimoiy kelib chiqishi, faoliyat turi, qadriyatlari, dunyoqarashi, malakasi va afzal ko'rishlariga qarab turli ijtimoiy me'yorlarni o'zida aks ettiradi. G'arb neoklassik falsafasi vakili, qadriyatlar falsafasi asoschisi G.Lyuttse qadriyatlar olamini "majburiyat qadriyatlar" va "hodisa qadriyatlar"ga ajratib, ularning o'zaro ta'sirini tahlil qildi.

Э.Gusserl esa o'zining "formal aksiologiya"si doirasida ijtimoiy me'yorlar tabiatiga oid qimmatli fikrlarini bayon etdi. G.Nitsshega ko'ra, qadriyatlar, shuningdek ijtimoiy me'yorlar markazida "burch" kategoriyasi turadi. Neokantistlar G.Rikkert va V.Vindelband qadriyatlarda ijtimoiy me'yorlar genezisi, ularning jamiyatdagi o'rnini o'rganib, qadriyatlar asosan ijtimoiy me'yorlar va burchdan iborat, deb talqin etishdi.

Umuman, "Ijtimoiy me'yorlar tushunchasi, birinchidan, alohida hodisalar, predmetlar, jarayonlarning tipik belgilari xarakteristikasi; ikkinchidan, me'yor qoida sifatida namoyon bo'ladi va xatti-harakatlar hamda faoliyatni yo'naltiradi".

Biz o'z tadqiqotimiz jarayonida ijtimoiy me'yorlarni qo'llash va bu boradagi mavjud ta'riflarni tahlil qilib, quyidagi aniqlanmaga ega bo'ldik: ijtimoiy me'yorlar o'zida huquqiy, axloqiy, diniy, estetik, texnik,

madaniy, ma'naviy va boshqa zaruriyat (burch, majburiyat)larni aks ettiruvchi (turli darajadagi aniqlikda), yo'naltiruvchi va boshqaruvchi talablar bo'lib hisoblanadi. Bu jamiyat tomonidan insonlarning faoliyati va xatti-harakatlarini baholash namunalari, inson o'z faoliyati va xatti-harakatlarida erishishga intiladigan maqsadlaridir.

“Polisemantik tushuncha sifatida hamda qo'llanish diapazonining kengligi bilan ijtimoiy me'yorlar universal mazmunga ega. Bu - insonning muntazam tarzda “zarur” va “istalgan”larni tanlashini

aks ettiradigan, ya'ni, yagona to'g'ri qaror qabul qilish yo'lidagi izlanishidir”.

Keyingi yillarda olib borilayotgan jadal iqtisodiy va ijtimoiy islohotlar sharoitida mamlakatimizda zamonaviy jamiyatimizning madaniy asoslari, jumladan, shaxslararo munosabatlar, mehnat, dam olish, o'qish va boshqa faoliyatlarda ijtimoiy me'yorlarning roli oshib, yanada takomillashib bormoqda. Bularning barchasi yoshlarni ma'naviy-mafkuraviy tahdidlardan himoya qilishda katta hissa qo'shadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha “Faol tadbirkorlik, innovatsion g'oyalar va texnologiyalarni qo'llab-quvvatlash yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. “Xalq so'zi” gazetasi, 2018- yil 23- yanvar.
2. “Толькоый словарь русского языка”. Под редакцией Т.Ф.Ефремовой. М.: 1998, С.32.
3. Попова Э. “Онтологическая и гносеологическая спетсифика норми”. Дисс. канд. филос. наук. Омск: “Изд-во Уралского ун-та”- 2005, С.4.
4. Солкина П. “Социальные нормы и их реализатсия в жизни общества”. Автореф. дисс. канд. филос. наук. Красноярск:- 2012, С.9.

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINI ARIFMETIK MASALALARNI YECHISHGA O'RGATISH

Matluba ERGASHEVA – JDPI “Boshlang'ich ta'lim metodikasi” kafedrasini o'qituvchisi

Maqolada masalalar uchun ularni ishga foydasi tegadigan qilib bunday ma'lum guruhlarga klassifikatsiyalashning yagona asosi yo'qligi, biroq metodik mulohazalar bo'yicha turli-tuman murakkab masalalar majmuasidan ba'zi guruhlarni matematik strukturasiqarab ajratib ko'rsatish maqsadga muvofiqligi yoritilgan.

В статье обсуждаются преимущества классификации таких групп, чтобы они могли быть полезными для бизнеса, но их целесообразно отличать от набора сложных вопросов, начиная от методологических подходов до некоторых групп или математических структур.

The article discusses the advantages of classifying such groups so that they can be useful for business, but they should be distinguished from a set of complex issues, from methodological approaches to some groups or mathematical structures.

Kalit so'zlar: arifmetik masala; arifmetik masalalarning turlari, masala sharti, matematik struktura, nazariyani amaliyot bilan bog'lash, analiz va sintez, konkretlashtirish va abstraktlashtirish, taqqoslash, umumlashtirish.

Ключевые слова: арифметика; типы арифметических вопросов, состояние проблемы, математическая структура, практика теории, анализ и синтез, конкретция и обобщение, сравнение, обобщение.

Key words: arithmetic; types of arithmetical questions, the state of the problem, the mathematical structure, the practice of theory, analysis and synthesis, nodule and generalization, comparison, generalization.

Turmushda sonlar bilan bog'liq bo'lgan cheksiz ko'p hayotiy vaziyatlar vujudga keladiki, bu sonlar ustida turli arifmetik amallar bajarish talab qilinadi. Bular masalalardir, masalan:

1. Yosh tabiatshunoslarga 15 tup olma ko'chati va 10 tup olxo'ri ko'chati ajratildi. Yosh tabiatshunoslarga qancha ko'chat ajratilgan?

2. Yengil mashina yo'lda 4 soat bo'ldi va soatiga 56 km tezlik bilan yurdi. Mashina qancha masofani bosib o'tdi?

3. Do'konda 2 bo'lak chit sotildi. 1-bo'lak uchun 18 so'm, 2-bo'lak uchun 2 marta ko'p pul berishdi. 2-bo'lak uchun qancha pul berishgan?

Ta'lim maqsadlarida ko'pincha abstrak vaziyatlardan foydalaniladi va “mavhum masalalar” deb ataluvchi masalalar hosil qilindi. Masalan:

8 ni hosil qilish uchun 12 dan qaysi sonni ayirish kerak? Biz bir nechta arifmetik masalalarni ko'rib chiqdik, ularda qanday umumiylik bor?

Har bir masala berilgan va noma'lum sonlarni o'z ichiga oladi. Masaladagi sonlar tup sonlar sonini yoki miqdorlarning qiymatini xarakterlaydi,

munosabatlarni ifodalaydi yoki berilgan mavhum sonlar bo'ladi. Masalan, 1-masalada 15 soni olma ko'chatlari to'plamining sonini xarakterlaydi, 2-masalada 56 soni miqdor- uzunlikning qiymatidir. 3-masalada 2 soni ikki sonning munosabatini: ikkinchi va birinchi munosabatdagi chitning bahosini ifodalaydi. 4-masalada 12 va 8 mavhum sonlar berilgan bo'lib bular mos ravishda kamayuvchi va ayirmadir.

Har bir masalada shart va savol bo'ladi. Masala shartida berilgan sonlar orasidagi va berilgan sonlar bilan izlanayotgan son orasidagi bog'lanish ko'rsatiladi; bu bog'lanishlar tegishli arifmetik amallarni tanlashni belgilab beradi. Savol esa qaysi son izlanayotgan son ekanligini bildiradi. Masalan, 2-masalaning sharti: "Yengil mashina yo'lda 4 soat bo'ldi va soatiga 56 km tezlik bilan yurdi", uning savoli: "mashina qancha masofani bosib o'tdi?"

Masalani yechish –bu masala shartida berilgan sonlar va izlanayotgan son orasidagi bog'lanishni ochib berish va bu son asosda arifmetik amallarni tanlash, keyin esa ularni bajarish hamda masala savoliga javob berish, demakdir.

Yuqorida keltirilgan masalalarning yechilishini ko'rib chiqaylik.

1-masala sharti olma va olxo'ri ko'chatlari to'plamlari birlashmasi amalini aniqlaylik. Masala savoli mazkur to'plamlar birlashmasi sonini topishni talab qiladi. To'plamlarning birlashmasi amali masala yechilishi uchun zarur bo'lgan berilgan sonlarni qo'shish amaliga mos keladi: $15+10=25$. Masala savoliga javob: yosh tabiatshunoslarga 25 tup ko'chat ajratilgan.

2-masala shartidan mashinaning tezligi va uning harakat vaqti ma'lum. Mashina bosib o'tgan yo'lni topish talab qilinadi. Bu kattaliklar orasidagi mavjud bog'lanishdan foydalanib, masalani yechamiz: $56 \cdot 4 = 224$. Masala savoliga javob: mashina 224 km yo'l bosgan.

3-masalani yechish uchun "ikki marta ko'p" ifodasining ma'nosini bilishdan (tushunishdan) foydalaniladi: $18 \cdot 2 = 36$. Masala savoliga javob: ikkinchi bo'lak 36 so'm turadi.

Ko'rib turibmizki, hayotiy vaziyatlardan arifmetik amallarga o'tish turli masalalarda berilgan sonlar va izlanayotgan son orasidagi turli bog'lanishlar bilan belgilanar ekan.

Masalalarning turlari haqidagi masalalarga to'xtalamiz.

Hamma arifmetik masalalar ularni yechish uchun bajariladigan amallar soniga qarab sodda va murakkab masalalarga bo'linadi. Yechilishi uchun 1 ta arifmetik amal bajarilishi zarur bo'lgan masala sodda masala deyiladi. Yechilishi uchun bir-biri bilan bog'liq bo'lgan bir nechta amalni bajarish zarur bo'lgan masala murakkab masala deyiladi.

Sodda masalalarni qanday amal yordamida yechilishiga qarab (qo'shish, ayirish, ko'paytirish, bo'lish bilan yechiladigan sodda masalalar) yoki ularning yechilishi davomida shakllantiriladigan

tushunchalarga bog'liq ravishda turlarga ajratish mumkin.

Murakkab masalalar uchun ularni ishga foydasi tegadigan qilib bunday ma'lum guruhlariga klassifikatsiyalashning yagona asosi yo'q. Biroq metodik mulohazalar bo'yicha turli-tuman murakkab masalalar majmuasidan ba'zi guruhlarini yo matematik strukturasiqarab (masalan, yig'indini songa bo'lish lozim bo'lgan masalalar), yoki yechish usuliga qarab (masalan, o'zgarmas miqdorning qiymatini topish usuli bilan yechiladigan masalalar), yoki konkret mazmunga qarab (masalan, harakat bilan bog'liq bo'lgan masalalar) ajratib ko'rsatish maqsadga muvofiqdir.

Matematika boshlang'ich kursida sodda masalalar va asosan 2-4 amalli murakkab masalalar qaraladi.

Masala-savollar deb ataluvchi mashqlar arifmetik masalalar bilan yaqin bog'lanishda bo'ladi. Masala-savollarda ham masalalardagidek masala sharti (unda sonlar bo'lishi ham mumkin) va savol bo'ladi. Biroq masala savolni hal etish uchun masaladan farqli o'laroq berilgan sonlar bilan izlanayotgan son orasidagi tegishli bog'lanishni aniqlash yetarli bo'lib, arifmetik amallarni bajarish zarur emas. Masalan: "ikki shahardan bir vaqtning o'zida bir-biriga qarab velosipedchi va motosiklchi yo'lga chiqib, ular 36 minutdan so'ng uchrashdilar. Ularning har biri uchrashguncha yo'lda qancha vaqt bo'lgan?"

Matematikani o'qitish umumiy sistemasida masalalar yechish samarali mashq qilish turlaridan biridir.

Masalalar yechish bolalarda avvalo mukammal matematik tushunchalarni shakllantirish, ularning dasturda belgilab berilgan nazariy bilimlarini o'zlashtirishda favqulotda muhim ahamiyatga ega.

Masalan, agar biz o'quvchilarda qo'shish haqida to'g'ri tushuncha shakllantirishni istasak, buning uchun bolalar yig'indini topishga doir yetarli miqdorda sodda masalalarni deyarli har gal to'plamlarni birlashtirish amalini bajarib yechishlari zarur. Masalan, quyidagi masala berilgan : 4 ta rangli va 2 ta oddiy qalam bor. Qizchada hammasi bo'lib nechta qalam bor? Masala shartiga muvofiq ravishda bolalar, masalan, 4 ta cho'p qo'yadilar, keyin bu 4 ta cho'p yoniga yana 2 ta cho'p surib qo'yadilar va hammasi bo'lib nechta cho'p bo'lganligini sanaydilar. So'ngra masalani yechish uchun 4 ga 2 ni qo'shish kerakligi va 6 hosil bo'lishi oydinlashtiriladi. Shunga o'xshash masalalarni ko'plab yechib, bolalar qo'shish amali haqidagi tushunchani asta-sekin egallab boradilar.

Shunday qilib, masalalar konkret material bo'lib, ular yordamida bolalarda yangi bilim vujudga keladi va mavjud bilimlar tatbiq qilinishi jarayonida mustahkamlanib boradi. Masalalar bilimlarni shakllantirishda konkret material bo'lgani holda nazariyani amaliyot bilan bog'lab olib borish imkonini beradi. Masalalar yechish bolalarda kundalik hayotda har bir kishi uchun zarur bo'lgan amaliy uquvlarni vujudga keltiradi. Masalan, xarid qilingan narsaning

narxini, poyezdga kech qolmaslik uchun uydan qachon chiqish lozimligini hisoblash kabi.

Yangi bilimlar bilan tanishtirish va bolalarda mavjud bilimlarni tatbiq qilish uchun masalalardan konkret asos sifatida foydalanish bolalarda materialistik dunyoqarash asoslarini shakllantirishda beqiyos darajada muhim rol o'ynaydi. O'quvchi masalalarni yechayotganida ko'p matematik tushunchalar real hayotda, odamlarning tajribasida o'z ildiziga ega ekanligiga ishonch hosil qiladi.

Masalalar yechish orqali bolalar bilish va tarbiya sohasida muhim bo'lgan faktlar bilan tanishadilar. Masalan, boshlang'ich sinflarda yechiladigan ko'p masalalarning mazmunida bolalar va kattalarning mehnati, mamlakatimizning xalq xo'jaligi, texnika, fan va madaniyatda erishgan yutuqlari yotadi.

Masalalar yechish jarayonining o'zi ma'lum metodikada o'quvchilarning aqliy rivojlanishiga ancha ijobiy ta'sir ko'rsatadi, chunki u aqliy operatsiyalarni: analiz va sintez, konkretlashtirish va abstraktlashtirish, taqqoslash, umumlashtirishni talab etadi. Masalan, o'quvchi istalgan masalani yechayotganda analiz qiladi: savolni masala shartidan ajratadi, berilgan va izlanayotgan sonlarni ajratadi; yechish rejasini tuzatayotganida sintez qiladi, bunda u konkretlashtirishdan, so'ngra abstraktlashtirishdan foydalanadi; biror bir turdagi masalalarni ko'p marta yechish natijasida o'quvchi bu turdagi masalalarda berilgan va izlanayotgan son orasidagi bog'lanishlar haqidagi bilimni umumlashtiradi, buning natijasida bu turdagi masalalarni yechish usuli umumlashtiriladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ergashev J. "Matematikani o'qitishda interaktiv yondashuv". T.: "Fan va texnologiyalar"-2016.
2. G'oziyev E. "Psixologiya". T.: "Noshir"-2013.
3. Levenberg L., Ahmadjonov I., Nurmatov A. "Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasi". T.: "O'qituvchi"-1985.
4. Banatova M., Belyukova G., Polevshikova A. "Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasi". T.: "O'qituvchi"-1983.

TALABALARNING KUYLASH MALAKALARINI SHAKLLANTIRISHDA O'ZBEK AN'ANAVIY XONANDALIK SAN'ATINING O'RNI

Mirshod ELOV – O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti Milliy qo'shiqchilik kafedrasida o'qituvchisi

Mazkur maqolada mumtoz ashula, katta ashula, marosim va mehnat qo'shiqlari, marsiya, navha, ayolg'u qo'shiqlari hamda ularni an'anaviy xonandalik maktabida kuylash malakalarini shakllantirish, hamda aruz vaznidagi g'azallarning qadimiy o'qilish uslublari zaminida vujudga kelganligi va ularni ijro etish uslublari to'g'risida so'z yuritilgan.

В этой статье ведётся речь о классической музыке, о большой песни, песни традиционное и трудовой песни, а также формирование их исполнение в вокальных школах.

In this article we are talking about classical music about the great song, songs of traditional and labor songs and also the formation of their use in vocal schools.

Kalit so'zlar: an'anaviy xonandalik, sharq mumtoz musiqasi, musiqiy matn, mukammal ijro, mahorat. Folklor "ustoz-shogird" maktabi

Ключевые слова: традиционный вокал, восточная классическая музыка, текст музыки, профессиональное исполнение, профессионализм.

Key words: traditional vocal, eastern classical music, text music, professional execution, professionalism.

An'anaviy xonandalik maktabida kuylash malakalarini shakllantirishda ijrochilik bo'yicha nazariy bilimlarni o'zlashtirish katta ahamiyat kasb etadi. Buning uchun xonandalik ijro maktabi namunalari haqida to'liq ma'lumotga ega bo'lish uchun qo'shimcha bilimlarni taqdim etish katta samara beradi.

O'zbek xonandalik san'ati juda qadimiy va serqirraligi bilan Sharq xalqlari madaniyati orasida alohida ahamiyat kasb etib kelgan.

An'anaviy xonandalik maktabi mumtoz ashula, katta ashula hamda bastakorlik ijodi ijrochilik maktablari namunalariidan iborat ekanligi haqida

eslatib o'tamiz. Mumtoz ashula mumtoz musiqaning yetakchi janrlaridan bo'lib, o'zining kuy rivoji, vazmin lirik yoki og'ir xarakteri, hayajonli va dardli mazmuni, diapazon kengligi, usul-ritmining sezilarli darajada murakkabligi va ijro uslubi mukammalligi bilan ajralib turadi. Sharq mumtoz va o'zbek shoirlarning aruz vaznida yozilgan g'azal, ruboiy, muhammaslari ashula janrida keng qo'llanib kelingan. Falsafiy ma'noga ega bo'lgan, shuningdek, alam, ayriqlik va hasratni ifodalovchi ishqiy-lirik hamda ayrim nasihatgo'y mazmun ko'proq ashula mavzusiga xosdir. Ashulada so'z va kuy uzviy bog'liq bo'lib, bu holat asarning butun mazmun - mohiyatini tashkil

etadi. Chunki undagi umumiy mantiqiy bog'liqlik, vazn, qofiya, ohang, musiqiylik tinglovchida zavq-shavq uyg'otadi, hayajonli kayfiyat paydo qiladi.

2) Создание отвечающих особенностям индивида рекомендаций и программ обучения, способствующих овладению адекватной его индивидуальным особенностям системой действий (В.С. Мерлин, Е.А. Климов, А.И. Сухарева и др.).

- *Создание ситуации успеха.* Следует отметить, что ситуация успеха должна соответствовать возможностям школьника, для которого она создается учителем. Раскрывая психологические особенности деятельности учителя по моделированию и созданию для детей ситуации успеха в учении, Н.П.Аникеева отмечает, что учителю важно одновременно действовать двусторонне: а) психологически - с учетом возрастных, индивидуальных, личностных особенностей ученика и классного коллектива в целом; б) педагогически, когда продумывается и выбор наиболее удачного момента в учебно-воспитательном процессе для ее создания, и организационное обеспечение.

- *Развитие гуманитарных способностей учащихся.* Способности - это реализуемые и развиваемые, а также развивающиеся в процессе той или иной деятельности врожденные свойства (задатки) личности (Л.С. Выготский, С.Л. Рубинштейн, Б.М. Теплов, Д.Б. Эльконин и др.). Специфические особенности их проявления и развития рассмотрены в трудах К.З. Агатуровой, В.А. Крутецкого, М.Я. Микулинской, А.И. Файбушевич, И.Е. Ядрихинской и др.

Под гуманитарными способностями личности исследователи (Е.Б. Бабошина и др.) понимают такие духовные способности человека, обладание которыми необходимо для освоения наук, связанных с человековедением, а также с освоением и созданием тех или иных видов искусства. Видовая структура гуманитарных способностей довольно обширна: музыкальные, художественные, литературные, лингвистические и другие.

Поскольку мы ограничиваем рассмотрение комплекса психолого-педагогических условий развития воображения и творческих

способностей уроками литературного чтения, ограничимся способностями, реализующимися и развивающимися, прежде всего в процессе освоения данной науки. К таким видам гуманитарных способностей исследователи относят художественные, литературные и лингвистические, при этом, отмечая, что они имеют взаимодополняющий характер (К.Н. Волков, З.А. Голубева, И.А. Гризова, Е.И. Игнатьева, Л.В. Носова, Л.Т. Охитина, Н.Е. Селиверстова и др.). Поэтому при развитии гуманитарных способностей более эффективным в сравнении с «повидовым» и «покомпонентным» представляется целостный подход.

К ведущим компонентам литературных способностей выделяют: творческое воображение и мышление, образную память, эстетическое восприятие, непринужденность в выделении деталей предметов и явлений, развитое чувство языка, способность к связному, эмоциональному протеканию мыслей, событий (В.П. Ягункова, Л.Т. Охитина, Е.А. Шумилин и др.).

Анализируя возрастные особенности развития литературного воображения и способностей (Л.С. Выготский, М.Н. Шадриков, Д.Б. Эльконин, И.С. Якиманская), исследователи считают, что они формируются позже других видов гуманитарных способностей. Для их развития необходимо: обучать целостному анализу произведения, проявляя внимание к отдельным значимым деталям; предоставлять возможность учащимся самим формулировать темы творческих работ по литературному чтению, что в значительной степени исключит вероятность их шаблонного раскрытия; уделять внимание развитию воображения.

Выделенные условия развития гуманитарных способностей учащихся с позиций реализации целостного подхода имеют между собой немало общего, что подтверждает их взаимодополняющий характер.

Выделив внешние психолого-педагогические условия, способствующие развитию творческого воображения младшего школьника на уроках литературного чтения, необходимо, на наш взгляд, обозначить также те условия, которые мешают этому процессу. Анализ опытно-экспериментальной работы Л. Т. Охитиной показал, что развитию творческого воображения младших школьников препятствуют следующие внешние психолого-педагогические условия: ограничение активности, инициативности, самостоятельности учащихся; критика творческих попыток ребенка, неодобрительные, негативные оценки его деятельности; стереотипы, штампы в мышлении, в обучении, в поведении; лимит времени, жесткая регламентация деятельности, излишняя опека; невозможность позитивного творческого выхода, отсутствие свободы в выборе приложения сил и способах достижения цели; несовершенство преподавания;

посторонние раздражители, работа по необходимости, без желания и др.

Целью внутренних (субъективных) условий является формирование личностных, психологических механизмов развития творческого воображения у младших школьников.

К группе внутренних (субъективных) условий мы отнесли:

- эмоционально-ценностное отношение учащихся к творческой деятельности;
- способность учащихся к рефлексивной деятельности;
- наличие внутренней свободы личности.

Изучение творческих основ исследуемой проблемы позволило предположить, что:

1. Каждый ребенок, приходя в школу и вливаясь в учебную деятельность, уже имеет свои определенные задатки, склонности, запас знаний, представлений и поэтому свои индивидуальные предпосылки к осуществлению творческой деятельности. Поэтому каждый первоклассник должен «стартовать» со своего потенциала и занять в образовательной системе место, соответствующее актуальному уровню развития его творческих способностей.

2. Учебная деятельность, как совокупность мотивационного, содержательного, операционного и личностно-результативного компонентов, позволяет создать условия для полноценного развития личности младшего школьника, в том числе его творческого развития.

3. В процессе осуществления мотивационного компонента учебной деятельности у учащихся формируется отношение к творческой деятельности, направленность на творчество. В ходе содержательного компонента учебной деятельности у учащихся формируется отношение к творческой деятельности, направленность на творчество. В ходе содержательного компонента учебной деятельности происходит усвоение учащимися системы знаний, а также опыта творческой деятельности, формирование готовности к ее осуществлению. В ходе операционного компонента осуществляется формирование действий, адекватных их содержанию, овладение способами умственной деятельности, приемами, процедурами, механизмами творческой учебной деятельности.

ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА:

1. Никитин Б. «Ступеньки творчества или развивающие игры». М.: «Просвещение»- 2002, 183-с.
2. Роджерс К. «Эмпатия». Пер.с англ. «Психология эмоций. Тексты под ред. В.К.Вилюнаса., Ю.Б. Гиппенрейтер». М.: «МГУ»- 2002, 287-с.
3. Тряпицина А. « Организация творческой учебно–познавательной деятельности школьников» . Л.-1989, 91- с .

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA IJODIY TASAVVURNI RIVOJLANTIRISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH

Umida USMONOVA – Andijon davlat universiteti tayanch doktoranti

Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarini ijodiy tasavvurlarini rivojlantirish pedagogik tahlil qilinib, psixologik yondashuv asosida ko'rib chiqilgan. Boshlang'ich ta'lim amaliyotida o'quvchilarning ijodiy faolligini oshirishning dolzarbligi va zarurligi ushbu mavzuga pedagogik muammo sifatida qarash imkonini belgilab berdi.

В этой статье анализируется развитие творческого мышления учащихся начальной школы как педагогическая проблема и основано на психологическом подходе. Актуальность и необходимость повышения творческой активности учеников в практике начального образования позволили им рассмотреть этот вопрос как педагогическую проблему.

This article analyzes the development of the creative thinking of primary school students as a pedagogical problem and is based on a psychological approach. The urgency and necessity of increasing the creative activity of students in the practice of primary education allowed them to consider this issue as a pedagogical problem.

Kalit so'zlar: *ijodkorlik, tasavvur, aqliy rivojlanish, ijodiy fikrlash, ijodiy tasavvur, ijodiy tasavvurni tashkil qilish usullari.*

Ключевые слова: *творчество, воображение, интеллектуальное развитие, творческое мышление, творческое воображение и методы создания творческого воображения.*

Key words: *creativity, imagination, intellectual development, creative thinking, creative imagination and methods of creating creative imagination.*

Respublikamiz ta'lim muassasalarida o'quvchi-yoshlarning erkin, mustaqil fikrlash, atrofda voqelikka ongli munosabatda bo'lish, daxldorlik va ijtimoiy faollik kabi sifatlarini rivojlantirish, ijodiy tafakkuri va tasavvuri rivojlangan shaxsni kamol toptirishning moddiy-texnik bazasi yaratildi, me'yoriy hujjatlar ishlab chiqildi. Sog'lom bolani voyaga yetkazishda ta'lim tizimining rolini kuchaytirish, boshlang'ich ta'limning yuqori sifatini ta'minlab, ilg'or pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini boshlang'ich sinf o'qituvchilari faoliyatiga joriy qilish uchun zamin yaratildi. Jismonan sog'lom, ruhan va aqlan rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan, Vatanga sodiq, qa'tiy hayotiy nuqtayi nazarga ega yoshlarni tarbiyalash, demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonida ularning ijtimoiy faolligini oshirish kabi masalalar mamlakatimiz Prezidentining Farmoni bilan belgilab berilgan. Bu shaxsning intellektual qirralarini shakllantirish, uning jamiyat ishlab chiqarishi va ijtimoiy, siyosiy, madaniy, ma'rifiy hayotida faol va muvaffaqiyatli ishtirokini ta'minlashga zamin yaratadi.

Tasavvurni tarbiyalash, uni shakllantirish, rivojlantirish, ta'lim-tarbiya jarayonidagi o'quvchi tasavvurini o'stirish hamisha ustozlarning zimmasidagi muqaddas bir vazifa ekanligi millatning ilg'or kishilari diqqat markazida bo'lgan. Ma'lumki bolalar maktabgacha bo'lgan davrda favqulodda ijodiy tasavvurlari boy bo'ladi. 5-6 yoshda atrof -muhit haqidagi tasavvurlarni o'zlashtirib oladilar, o'zlarining amaliy faoliyatlari va borliqni anglashlari uchun zarur bo'lgan har xil ma'lumotlarga ega bo'ladilar. Ularning bu davrdagi taraqqiyoti muntazam o'qitish ishlarisiz yashash tarzi jarayonida amalga oshadi. Bolalar maktab hayotiga kirib kelganlarida, ularning faoliyati

dasturlar asosida tizimli bilim olishga o'tganda bir qadar o'zgaradi. Bizningcha, bu o'qish-o'rgatish jarayonida tabiiylikning buzilgani, unga sun'iylikning aralashuvi tufayli sodir bo'ladi. Bola maktabga kirgach, uning mustaqilligi, o'z intellektual darajasidagi fikrlashi va ixtiyoriy faoliyati ma'lum darajada cheklanadi. Undan maktab talablariga muvofiq ish yuritish talab etiladi.

Xorijiy adabiyotlarga nazar solsak, umumiy tajribalardan foydalanish imkoni paydo bo'ladi. M.I. Rozetning fikriga ko'ra, tasavvur va fikrlashdagi o'xshashlik yoki farqni hisobga olsak, muammoni hal etish katta yoki kichik noaniqlik bilan ifodalanishi mumkin. Muammoli vaziyatni tavsiflovchi turli vaziyatlarga qarab, ayni muammo xayoliy tasavvur va fikrlash yordamida hal qilinishi mumkin. Tasavvur shu paytning o'zida vaziyatning noaniqligi juda yuqori bo'lgan vaqtda ishlaydi. Ushbu funksiya yordamida bola rasmlarda haqiqatni namoyish qilishi va muayyan muammolarni hal qilishda ularni ishlatishi mumkin".

Bolaning yosh xususiyatini hisobga olsak, harflarni tanishga, bir-biriga bog'lab o'qishga qiynalishi tabiiy holdir. U o'qiy olmagach rasmlar kitoblarga qiziq boshlaydi. O'qiy olmagani uchun ko'plab savollari javobsiz qoladi. Biz tadqiqotchilar ijodiy tasavvurini rivojlantirishga qaratilgan, rang-tasvirga boy bo'lgan, o'zbek, rus, ingliz tilidagi metodik qo'llanmani tayyorlashni o'z burchimiz deb hisoblashimiz lozim.

O'ylashimizcha, bugungi kunda boy tasavvurga ega bo'lgan insonda ijodkorlik, yaratuvchanlik, ijobiylik, keng fikrlilik, fantazyaviylik va shunga o'xshash xislatlarni kuzatish mumkin. Qolaversa, boy rang-tasvir namunalari orqali o'quvchining ongiga kirib borish va shu orqali zarur bilimlarni berish yuqori

samara berishi xorij tajribasidan ma'lum. Bolaning 6 yoki 7 yoshdan ta'lim olishga jalb qilinishini hisobga olsak, rasm kompozitsiyasiga asoslangan kitob orqali bolani zeriktirmay, ta'lim olishdan bezdirmay ta'lim-tarbiyaga jalb qila olish zarur ahamiyat kasb etadi.

Boshqa aqliy vazifalar singari tasavvurlar ham bolaning yoshi bilan o'zgaradi. Maktabgacha va boshlang'ich sinf yoshidagi o'quvchilarda tasavvur funksiyasining faollashuvi kuzatiladi. Dastlab, qayta tiklash, keyin esa ijodiy fantaziya shakllanishi uchun o'zlarining faol ishlarini xayolga bog'lashadi.

Demak, rang-tasvir namunalari orqali bolalarning ijodiy tasavvurini rivojlantirish boshqa usullarga nisbatan yuqori samara beradi. Chunki, tasvir orqali yetkazilishi mo'ljallangan bilimni yaqqol tasvirlash mumkin. Bola o'qiy olmasa-da rasm kompazitsiyalari orqali asosiy g'oyani anglab etadi.


Bu maqsad yo'lida tadqiqot ishlarimizda 6-7 yoshdagi maktab o'quvchilarining ijodiy tasavvurini rivojlantirishdan iborat "Tasavvurni rivojlantiruvchi Alifbe" deb nomlanuvchi metodik qo'llanma yaratilmoqda, ushbu metodik qo'llanmani tayyorlash uchun kerakli guruhni shakllantirish, rivojlantirish va ularning amaliy yordamini yo'lga qo'yish zarur. Ushbu metodik qo'llanma orqali bolalarning tasavvurini

o'stirish bilan birga o'zbek lotin alifbosini o'rgatish maqsad qilib belgilangan.

Qolaversa, boy rang-tasvir namunalari orqali o'quvchining ongiga kirib borish va shu orqali zarur bilimlarni berish yuqori samara berishi xorij tajribasidan ham ma'lum. Tanlangan rasmlar 6-7 yoshli bolalarga tushunarli bo'lishini hisobga olish kerak. Kitobning qo'shimcha yopishtiriladigan ilovalarini ham rassom yaratgan rasmlar asosida tayyor holatga keltirish lozim bo'ladi. Topshiriqlar uchun xizmat qiladigan har bir ilova shu varaqning o'rtasiga kichik hajmda joylashtiriladi.

O'ylashimizcha bunday metodik qo'llanma o'quvchiga zavq berish bilan birga ijodiy tasavvurini rivojlantirishga xizmat qiladi. Boy tasavvurga ega bo'lgan insonda ijodkorlik, yaratuvchanlik, ijobiylik, kengfikrlilik, fantaziyaviylik va shunga o'xshash xislatlarni kuzatish mumkin. Bundan tashqari, yaratilayotgan bunday metodik qo'llanma bolaning kasbiy qiziqishlarini rivojlantirishga, hayvonlar bilan tanishish va do'stlashishga, milliy urf-odat va an'analarimizni, umuminsoniy qadriyatlarimizni anglab etishga, tabiatni asrashga o'rgatib boradi. Metodik qo'llanmaning ayrim betlaridan namunalari keltirilib o'tamiz.

1-ilova



O'quvchilarga ushbu rasm kompozitsiyasi orqali (1-ilova) bajariladigan topshiriqlar beriladi. Masalan: Fasllarga mos buyumni toping; Qaysi hayvon qayerda yashaydi... O'quvchilarda yil fasllari haqidagi tasavvurni rivojlantirishda fasllarga mos buyumlarni keltirish orqali ko'zlangan maqsadga erishish mumkin. Bahor fasli o'zining gullarga boyligi, tabiatning go'zallashuvi, qushlarning uchib kelishi bilan ifodalanadi. O'zbek qizlari uchun esa milliy atlas, shoyi, adrasdan tikilgan liboslar kiyish, milliy bayramlarning nishonlanishi orqali o'z aksini topadi. Kichik yoshdagi o'quvchilarning yosh xususiyatiga e'tibor qaratsak, yangi libos kiyish ularga katta zavq beradi. Milliy kiyimlarimizdan biri bo'lgan atlas, shoyi, adraslardan tikilgan liboslarni odatda bayram kechalarida, ayniqsa, milliy bayramlarda kiyadilar. Milliy kiyimlarni ko'rganda o'quvchilar bahor faslini tasavvur qilishlari mumkin.

Jannatmakon diyorumizni quyoshli o'lka deb bermalol ayta olamiz. Har bir faslda quyoshning zarrin nurlarini ko'rish mumkin. Eng quyoshli kunlar yoz fasliga to'g'ri keladi. Yoz kunlarida bolalar oromgohlarida, dam olish maskanlarida, suv havzalarida cho'milish kiyimlari kerak bo'ladi. O'quvchilar cho'milish kiyimini ko'rganida bevosita yozni tasavvur qiladilar.

Kuz fasli esa o'zining xazonrezgi davri bilan boshqa fasllardan ajralib turadi. Yomg'irlar mavsumida ko'proq soyabon olib yurishga to'g'ri keladi. Demak, soyabon kuz fasliga to'g'ri kelishi mumkin.

Qish faslini qor parchalari, oq rangga burkangan dalalarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Yangi yil bayramining ramzi hisoblanmimish archa daraxti qishda ham yashil rangda bo'ladi. Eng issiq kiyimlar qish faslida sovuqdan himoyalani uchun kiyiladi.

Shunday ekan, issiq kiyimlarni ko'rganda o'quvchilar qish faslini tasavvur qilishlari mumkin.

Ikkinchi topshiriq orqali o'quvchilarda tabiatga muhabbat uyg'otishda hayvonlarni parvarish qilishga o'rgatish orqali erishish mumkin bo'ladi. Atrof-muhitni kuzatish orqali o'quvchilar qaysi hayvonning qayerda yashashi haqidagi tasavvurga ega bo'ladilar. Bu

boradagi bilimlarini sinash uchun 1-ilovada berilgan topshiriq juda qo'l keladi. Bunda moslikni topish orqali o'quvchilar ari va ari uyasi, to'ti va qafas, sichqon va kovak, sigir va o'tloq, qush va uya, baliq va akvarium, quyon va uycha, qurbaqa va hovuz kabi juftliklarni topadilar.

2-ilova



Ushbu rasm kompozitsiyasi (2-ilova) o'zbek lotin alifbosidagi "Nn" harfi haqidagi ijodiy tasavvurini rivojlantirishga qaratilgan bo'lib, o'quvchilarga ishlash uchun topshiriqlar beriladi. Masalan: O'zingizga va oila a'zolaringizga nonushta tayyorlang. Metodik qo'llanma ilovasida keltirilgan non, no'xot, novvot, nok kabi yopishtirishga mo'ljallangan rasmlarni olib dasturxon ustiga yopishtiradi. Bolani ijodiy yondashishga chorlaydigan bu topshiriqni har bir o'quvchi o'z tasavvuri doirasida bajaradi. Topshiriqni yakunlagandan so'ng qilingan ishlar yuzasidan suhbat olib boriladi va "Nn" harfi bilan boshlanuvchi

so'zlarni birma-bir talaffuz qiladi. Bolalarda o'zlari bajargan ishlari haqida so'zlash va uni eslab qolishda natija yuqoriroq bo'ladi.

Ko'rgan rasmlarini tahlil qilishda kichik yoshdagi bolalar faqat ko'rganlarini anglab yetsalar, boshlang'ich sinf yoshidagi o'quvchilar mantiqiy nuqtayi nazar bilan yondasha boshlaydilar. Chizilgan rasmdagi obrazlarni ijobiy yoki salbiyga, katta yoki kichikka, to'g'ri yoki noto'g'riga ajrata boshlaydi. Bundan xulosa qilib rang-tasvirga boy kitoblardan keng foydalanish ijodiy tasavvurlarni rivojlantirishga o'z hissasini qo'sha oladi deb aytish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Harakatlar strategiyasi asosida jadal taraqqiyot va yangilanish sari. T.: "G'.G'ulom" –2017.
2. Xayrullayev M. "Farobiy ruxiy protsesslar va ta'lim-tarbiya to'g'risida". T.: "O'qituvchi"-1967.
3. Раҳимов С. "Педагогические идеи Абу Али ибн Сины". Афтореф. дисс... канд. пед. наук. – Т.: - 1964.
4. Rahimov S. "Abu Ali ibn Sino ta'lim-tarbiya haqida". – T.: "O'qituvchi"- 1967.
5. Qullaxmetova M. "O'quvchilarning ijodiy fikrlash qobiliyatini shakllantirish". T.: "Sano-standart" - 2011.
6. Rozet I. "Xayoliy psixologiya". Minsk: 1977.

КОННЫЙ СПОРТ У КАРАКАЛПАКОВ И КАЗАХОВ НИЗОВЬЕВ АМУДАРЬИ

Расул ДЖОЛДАСОВ – Каракалпакский государственный университет

Jismoniy mashqlar va o'yinlar o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, bu borada ot sporti o'sib kelayotgan yosh avlodning jismonan sog'lom va baquvvat bo'lib tarbiyalanishida alohida ahamiyatga ega. Mazkur maqola ot sportining mavjud bo'lgan bir necha turlari va ot sportining kelib chiqishi to'g'risidagi ma'lumotlar berilgan.

Физические упражнения и игры имеют своеобразное значение. Конный спорт имеет особое значение в воспитание физическое здорового и сильного подрастающего поколения. В данной статье дана информация о существующих видах конного спорта, а также об истории возникновения данного вида спорта

Physical experiences and games have a special function especially sport activities which using horses, this type of activities very important in order to be our youth healthy, and full of mature. And also given information different kind of horse activities their history and importance for our younger generation.

Kalit soʻzlar: Kompozit, chavandoz, ot sporti jangi, ekipaj, jabduqlar, "Hippodrom", ot-poyga sporti, oltin burgut, ov qushlari, otda jang san'ati, chavandozlar o'rtasidagi kurash, "Echki" tanlovi.

Ключевые слова: Композит, наездник, конный спорт, экипаж, запрягать, Ипподром, лошадиные бега, золотой орёл, охотничьи птицы, борьба наездников, конкурс «Козёл».

Key words: Composite rider, horse activities, carriage, Hippodrom, race, golden eagle, war of art, battle between riders, "goat election".

Конный спорт — сборное понятие, под которым понимаются спортивные игры с использованием лошадей. При езде верхом всадник активно взаимодействует с движением лошади. Лошадь при этом управляется перемещением веса всадника, сжатием бёдер и ослаблением или натяжением поводьев. Голос всадника тоже может влиять на движение лошади, но не всеми видами конного спорта это разрешено

Главная особенность конного спорта заключается в том, что в роли "спортивного снаряда" выступает живое существо, и успех спортсмена в равной степени зависит от его собственных способностей и способностей лошади. Более того, от спортсмена, кроме физических и волевых качеств, требуется особое свойство, известное как "чувство лошади". Очень важно уметь выбрать подходящую лошадь для определенного вида спорта, а также для определенного всадника: она должна соответствовать его характеру и темпераменту.

Конный спорт - один из самых дорогих видов спорта. Затраты складываются из стоимости самой лошади (цена хорошей лошади - несколько десятков тысяч долларов), ее кормления, содержания, ветеринарного обслуживания, услуг коваля, снаряжения (седло, оголовье, попоны, нагайка и др. - для верховой лошади; экипаж, сбруя - для упряжной лошади), костюм спортсмена (сапоги, бриджи, фрак или редингот, цилиндр или каска, перчатки, шпоры, хлыст...).

Сюда же входит оплата труда тренера, аренда манежа, площадок и различных трасс, оборудованных препятствиями, транспортировка лошади к месту соревнований и другие затраты. И все это умножается на годы методичного, ежедневного тренинга.

В современное понятие конный спорт входят все виды испытания лошади, облеченные в зрелищную, азартную форму и преследующие достижение какого-либо результата, оцениваемого по определенным правилам. В конном спорте можно выделить несколько групп.

1. Классические виды: выездка или высшая школа верховой езды, преодоление препятствий, или конкур и троеборье.

2. Национальные конные игры, распространенные у многих народов, особенно на Кавказе, в Казахстане, в республиках Средней

Азии. Здесь их около 30. Это различные виды джигитовки, игры с мячом (конное поло), с копьем или дротиком (иссинди, кабахи), борьба за тушу козла (кокпар), дистанционные скачки (аламан-байга) и другие.

3. Ипподромные испытания, или так называемый коннозаводской спорт - бега и скачки.

4. Отдельно стоят конные охоты: конная охота с гончими на оленя или лису (часто по искусственному следу), при которой всадник преодолевает всевозможные, подчас неожиданные, препятствия; охота с борзыми, а также ловчими птицами.

Традиционными видами наскальных спортивных состязаний в Каракалпакии являются: атжарысы - конное состязание, гурес-борьба, -жузиу - плавание, окатыу - стрельба из лука и т.д.

Термины, связанные с конными состязаниями: атшабыу - конные состязания, ат спорт - конный спорт, атбайгеси - конные скачки. Атшаптырып той бериу - устроил торжества с конными состязаниями(фольклор).

Широко употребителен термин байги - скачки. По определению профессора С.Аманжолова, байги - это диалектизм каракалпакского и казахского языков. Однако это слово не встречается в диалектологических словарях каракалпакского и казахского языков. Наоборот, термин байгивстречается в толковых словарях обоих языков, а также в литературном языке. В других тюркских языках: киргизском, уйгурском - бэйге, в узбекском - пойга.

Термин байги в каракалпакском языке употребляется в двух значениях: во-первых - скачки, бега, во-вторых - премия, приз на скачках.

В каракалпакском языке на базе этого термина развились такие терминологические сочетания как байгиаты - беговая лошадь, байгисызыгы - финиш, байгиалыу - получить приз, байгитигиу - премировать, бас байги - главный приз, ярымбайги- пол приза, байгиорны - ипподром и т.д.

По определению Г.А. Вамбери, слово байрак - в каракалпакском языке означает "приз на скачках", "приз на бегах, состязаниях".

В лексике каракалпакского языка имеется множество термино-сочетаний конного спорта, обозначающих действия в движения

лошадей, например: аттышеберайдау - гарцевать, жортажурис – иноходство и т.д.

В каракалпакском языке функционирует термин журмел - иноходец. Он часто встречается в современном каракалпакском литературном языке, например в поэме "Бахадыр" А. Дабыдова, "Ажинияз" К. Султанова, "Маманбий" Т. Каипбергенова и других.

Одной из интересных национальных игр каракалпаков была конная игра, позже получившая название ылак (букв.: козленок) козлодрание (сокращенный вариант из более полного ылактартыу-козлодрание).

Каракалпаки еще в глубокой древности занимались физическими упражнениями, играми, участвовали в состязаниях. Это нашло отражение в народном творчестве: эпосе, сказаниях, сказках, легендах. Разнообразные упражнения, игры и состязания того далекого прошлого в основном носили военно-прикладной характер.

То в джигитовке удалой они проскочут под горой.

То в небо стрелами разят иль саблями в степи звенят.

То рвут козленка на скаку, справляя шумную байгу.

Каракалпакские сказки также дают представление о самобытных состязаниях, играх и физических упражнениях народа. Изображенные в них народные герои обладают богатырской силой, меткостью, отличаются сообразительностью, находчивостью и смелостью.

Подвижные национальные игры развивались в нескольких направлениях. Особенно характерными для Каракалпакии можно считать конноспортивные игры: «Жоргажарыс» («Состязания на иноходцах»), «Байга», «Кокмар» и др. Распространенными были также игры, не связанные с верховой ездой: «Жууырыстыру» («Бег»), «Сызыктансекириу» («Прыжки через черту»), «Жасырынбак» («Прятки»), «Дурре», «Айкулаш», «Манлайшертпек», «Аксуйек» («Белая кость»), «Аркан тартысу» («Перетягивание каната»), «Сыкпанмененкесекатыу, окжайатыу» («Стрельба из лука») и др. Особо следует выделить игры в воде: «Калакойын», «Сунгиспек», «Су серписбек» и др.

У казахов спортивные игры байги весьма разнообразны:

- "кем бэйге" – скачки на малые расстояния.
- "тоқбэйге" – скачки на нетренированных лошадях разных возрастов.
- "тай бэйге" – скачки на лошадях в возрасте под 2 года.
- "құнанбэйге" – скачки на лошадях в возрасте от 2 до 3 лет.
- "дөненбэйге" – скачки на возрастной группе от 3 до 4 лет.

- "аламанбэйге" – скачки на длинные и сверхдлинные расстояния, от 50 до 100 км. и другие.

До начала 20 века байга проводилась не только на увеселительных мероприятиях (той) - свадьбах, при рождении сына и т.д., но обязательно и на поминках (ас), которые проводились либо на 40-ой дней после смерти, либо по году, либо позже, известны случаи когда поминки проводились по истечении трех лет со дня смерти.

Призы за первые места на байге, которые у казахов называются аттері, букв: конский пот) всегда отличались необычайно дороговизной и роскошью. Для примера известны случаи, когда в качестве приза за 1 место в скачках заявлено было:

- 100 лошадей, 100 овец, 10 верблюдов и 1 свежееизготовленная белая юрта для молодоженов (ақотау) одновременно.

- 40 лошадей, 500 овец, 100 верблюдов, 90 бобров (пушнины) и 1 девочка-невольница одновременно.

- 9 слитков серебра ("jamby" - жамбы) и т.д.

В забегах участвовало порой до 500 лошадей одновременно. В качестве всадников участвуют исключительно дети не старше 12-14 лет.

Призов удостоивались не только хозяева лошадей, пришедших первыми, но и своего рода "утешительный приз" хозяину лошади, пришедшей самой последней - "kökbuqa" или "kökögiz" (көкбұқа или көкөгіз, букв: девять быков или девять волов) в виде 9 быков или 9 волов.

Дальность забега зависела от возрастов участвующих лошадей и достигала 100 км.

2) Вторым по древности и значимости следует отметить состязание "Kökpa" (искаженно от "Kökbögi" - букв: сивый, серый волк), рус: козлодрание. Наименование состязания получило по названию объекта, которым раньше выступала туша волка, позже была заменена на тушу козла, вероятно по схожести масти животных.

3) Один из вариантов состязания "Kökbögi" - это "Qyzbögi" (қызбөрі, букв: девушка волк) - модификация древнесакской традиции игр в волчьих масках и волчьих шкурах.

4) "Audaryspaқ" (аудырыспақ - стаскивание с лошади).

5) "Atomyraulastyru" (атомырауластыру - выталкивание лошадыми).

6) "Qyzquu" (қызқуу - погоня за девушкой).

7) "Kümisalu" или "Teñgealu" (күмісалу или теңгеалу - поднятие монет с земли).

8) "Tumaquu" (тымақуу - сбивание шапки).

9) "Atgegu" (атжегу - запряжание лошади).

10) "Ğigitğarys" (жігітжарыс - состязание джигитов).

11) "Gorğağarys" (жорғажарыс - состязание на иноходцах).

12) "Ġauqařty" (жауқашты - преследование врага).

13) "Ġambyatu" (жамбыату - стрельба из лука на скаку).

14) "Saiys" (сайыс - схватка на копьях).

15) "Toqtyalu" (ловля ягнят).

16) "Barymta" (барымта, рус: баранта) косвенно тоже своего рода одно из видов состязаний, но специфических. Это принудительный конный захват чужого имущества (чаще скота, но иногда и иной собственности) как вынужденная мера или исполнительская санкция за неуплаченный долг, калым или кун, когда виновная сторона уклоняется исполнять должное. Допускалась и законом (известна в "Джетыжаргы" Тауке-хана). Он производился либо явно - днем и насильственно, либо тайно под покровом ночи, но обязательно с извещением противной стороны не позднее трех дней с момента совершения баранты с указанием причин, в противном случае баранта считалась воровством. Потому что за воровство, грабеж, угон у казахов полагался "aiyp" (штраф), а за баранту ничего. При явной баранте барымтачи встречали нередко готовый отпор, часто бывали драки и даже убийства.

Следует резюмировать, что постоянная практика подобных видов состязаний (надо подчеркнуть, что наряду с другими состязаниями и видами деятельности, не упомянутыми в конных играх, а это: "бүркіт салу" – охота с беркутами (или с другими ловчими птицами), "тазы салу" – охота с борзыми собаками, "күрес" - борьба, "арқантарту" – перетягивание аркана, "көтермек", состязания по съеданию барана и испитию огромной чаши кумыса, "жіліксындыру" – ломание ребром ладони трубчатых костей бедра овец и лошадей и т.д.) являлось наилучшей практической тренировкой для молодых мужчин в

постижении воинского искусства верхом на коне в мирное время и постоянной поддержкой себя в форме.

"Козлодранием" состязание стало недавно, раньше было волкодрание, которое у тюрков еще от древних тюрков –хуннов.

Карабаиры хорошо зарекомендовали себя в национальных конных играх, особенно в игре "кок-пар" (борьба всадников за тушу козла). Племенных лошадей испытывают в скачках.

Каракалпаки считает жабы (ябы) ат - это кыпчакская порода! Ябыат широко распространен среди каракалпаков, почти 99% лошадь у каракалпаков это ябыат.

Физические упражнения и игры начинают приобретать все более специфический характер и постепенно превращаются в средства, имеющие большое военно-прикладное значение. Они способствовали воспитанию у молодежи необходимых навыков для военно-кочевого образа жизни. В этих условиях прогрессивные тенденции развития физической культуры определялись творчеством народа. Активное и непосредственное участие в обороне своего рода-племени способствовали повышению роли военно-физической подготовки подрастающего поколения, отдельные физические упражнения и игры постепенно превращаются в упражнения, имеющие узко-военную направленность.

Таким образом, можно выделить следующие основные общественно-социальные функции конного спорта у каракалпаков и казахов низовьев Амударьи: оценочная, воспитательная и социализации, военно-прикладная, зрелищно-развлекательная (досуговая), миротворческая (противовес войне), коммуникативная, функция разрешения конфликтных вопросов (личных и групповых).

ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА:

1. Аманжолов С. «Вопросы диалектологии и истории казахского языка». Алматы-1969.
2. «Кырккыз». Каракалпакский эпос. "Госизд. Уз. ССР"-1949.

BOSHLANG'ICH SINIF O'QITUVCHILARINING KASBIY KO'NIKMALARINI MUSTAQIL ISHLASH ORQALI RIVOJLANTIRISH

Iroda ABDULLAYEVA – Nizomiy nomidagi TDPU talabasi

Ushbu maqolada o'quv jarayonida mustaqil ta'limni tashkil etish jarayoni, bu jarayonda boshlang'ich sinif o'qituvchisining nazariy va amaliy tayyorgarlik darajasiga qo'yiladigan talablar, boshlang'ich sinif o'qituvchilarining mustaqil ish jarayonini innovatsion yondashuvga ko'ra takomillashtirib borish, talabalar tomonidan o'quv materiallarini o'zlashtirish borasida ko'nikma va malakalarning hosil bo'lganligini tekshirish va baholash jarayoni to'g'risida so'z yuritiladi.

В данной статье рассматриваются требования поставленные перед учителем начальных классов для определения его теоретической и практической подготовленности. А также рассматривается сформированность у них умений и навыков в процессе самостоятельного функционирования и усвоения материала.

In this article given information about to organize independent teaching for teachers of primary education theoretical, and practical demands. Controlling teachers how they use information technologies and develop this skill and also checking – up study materials and marking .

Kalit soʻzlar: *mustaqil taʼlim olish, mustaqil fikrlaydigan, intellektual salohiyat, davlat taʼlim standartmi, raqobatbardosh, tashabbuskorlik, tafakkur, nutq, mustaqil taʼlim, innovatsion yondashuv, mexanizm.*

Ключевые слова: *самостоятельное образование, самостоятельно мыслящий, интеллектуальный потенциал, государственно образовательный стандарт, конкурентоспособный, инициативный, речь, инновационная подход, механизм.*

Key words: *Independent study, intellectual skill, state education standards, competition, speech, mechanism, Independent think.*

Oʻzbekiston kelajagi bugungi yosh avlodning har tomonlama barkamol shaxs boʻlib shakllanishiga koʻp jihatdan bogʻliq. Buyuk kelajak mustaqil fikrlaydigan, komil, dili pok insonlar tomonidan quriladi va mustahkamlanadi. Mamlakatimizda taʼlim sohasida boʻlayotgan oʻzgarishlar mamlakatning intellektual salohiyatini oshirishda, davlat taʼlim standarti talablariga javob bera oladigan yetuk, raqobatbardosh kadrlar tayyorlashda muhim omil hisoblanadi. Ayniqsa, bu jarayonda mustaqil taʼlim koʻnikmasini toʻgʻri tashkil etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Bilimlarni mustaqil egallash jarayonini qoʻllash va unda talabalarni faollashtirish natijasida talabalarning ilmiy bilimlari ortadi, ularni amalda ongli va faol qoʻllashga zamin hozirlanadi. Ularda ijodiy tashabbuskorlik, oʻquv faoliyatida mustaqillik, tafakkur va nutq rivojlanadi. Bu sifatlar keyinchalik oʻquv xonalarida, laboratoriyalarda, ustaxona hamda ishlab chiqarish sharoitlarida topshiriqlarni bajarishdagi harakatlarda namoyon boʻladi. Bilimlarni mustaqil ravishda egallashga intilish, mustaqil taʼlim olib, bilim orttirish taʼlim sifat va samaradorligining eng muhim omili hisoblanadi.

Mustaqil shaxs sifatida shakllanish uchun talabalarda mustaqil taʼlim olishga ishtiyoq (motiv), mustaqil taʼlim olish malaka va koʻnikmalari, mustaqil taʼlim olish layoqati boʻlishi lozim. Buning uchun talabaning oʻzida mustaqil bilim olishga, mustaqil ishlashga, erkin, ijodiy faoliyat yuritishga va mustaqil fikrlashga ehtiyoj shakllangan boʻlishi lozim. Boʻlajak oʻqituvchi oʻz faliyat jarayonida mavzularni darslik va oʻquv qoʻllanmalari yordamida mustaqil oʻzlashtirish, berilgan mavzu boʻyicha axborot tayyorlash, seminar va amaliy mashgʻulotlarga tayyorlanish, laboratoriya ishlarini bajarishga tayyorlanish, hisobot-grafik ishlarini bajarish, bitiruv malakaviy ish tayyorlash, nazariy bilimlarni amaliyotda qoʻllash, amaliyotdagi mavjud muammolarning yechimini izlab topish, namunalar yaratish, ilmiy maqola, maʼruzalar tayyorlashda mustaqil bilim olish shaklidan foydalanishi mumkin.

Oʻquv jarayonida mustaqil taʼlimni tashkil etishda boshlangʻich sinf oʻqituvchisining nazariy va amaliy tayyorgarlik darajasini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanish mumkin: fanning ayrim mavzularini oʻquv adabiyotlari yordamida mustaqil oʻzlashtirish, oʻquv manbalari bilan ishlash; (bitiruv) malakaviy ishi uchun materiallar toʻplash;

amaliyotdagi mavjud muammoning yechimini topish, test, munozarali savollar va topshiriqlar tayyorlash; ilmiy maqola, tezis va maʼruza tayyorlash; tavsifiya qilingan adabiyotlarni oʻrganish va tahlil etish; fanni oʻqitishdagi innovatsiyalar, pedagogik texnologiyalar hamda ilgʻor xorijiy tajribalarni oʻrganish va boshqalar.

Boshlangʻich sinf oʻqituvchilarining mustaqil ish jarayoni innovatsion yondashuvga koʻra takomillashtirib borilgan axborot-uslubiy taʼminotga asoslanishi lozim. Boshlangʻich sinf oʻqituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishga doir ilmiy-tadqiqotimiz davomida innovatsion yondashuvga asoslangan oʻquv-uslubiy taʼminotdan oʻqituvchilarning mustaqil ishlash jarayonida foydalanish mexanizmi ishlab chiqildi Xulosa shuki, oʻqituvchi mustaqil ishlash natijasida meʼyoriy hujjatlarni oʻrganish va ular asosida taʼlim-tarbiya jarayonini tashkil etish; pedagogik jarayonlarning oʻzaro bogʻliqligini taʼminlash, sifat va samaradorligini oshirishga tizimli yondashuvni joriy etish; oʻquvchilarning oʻquv faoliyatini takomillashtirish; oʻquvchilar uchun zarur va qulay boʻlgan taʼlim muhitini vujudga keltiruvchi axborotlarni toʻplash; taʼlim-tarbiya jarayonini tashkil etishning innovatsion modellari ishlab chiqishga erishadi.

Boʻlajak boshlangʻich sinf oʻqituvchilarida mustaqil taʼlim olish koʻnikmalarini shakllantirishda mustaqil oʻrganiladigan manbalarning ahamiyatiga alohida eʼtibor berish nihoyatda muhim. Manbalar nisbatan sodda, oʻqituvchi izohini talab qilmaydigan darajada boʻlishi zarur. Keyinchalik tajriba ortgach, murakkabroq darajadagi materiallar tanlab boriladi. Bunda maʼlum bir oʻquv materialini oʻrganish boʻyicha qoʻyilgan savollarga javob berish nuqtayi nazaridan yondashish lozim. Natijada, oʻquv adabiyoti bilan ishlash jarayonining samarasi darhol koʻzga tashlanadi. Bu maʼnosiga tushunmay, yodlab olishga intilishni bartaraf qiladi. Chunki, hozirgi kunda har qanday taʼlimni toʻgʻri tashkil etishda maqsad, jarayon, natija muhim koʻrsatkichlar sanaladi. Bu mustaqil taʼlimni tashkil etishda taʼlim vositalarini qoʻllashni takomillashtirishda muhim omil hisoblanadi. Bugungi kunda mustaqil ishlashga oʻrgatishda mustaqil taʼlimni tashkil etish masalasini nazariy va metodik jihatdan ishlanganlik darajasini oʻrganish nihoyatda muhim.

Bu usulni qoʻllashning afzalligi shundaki, talaba barcha bosqichlarda topshiriqni faqat mustaqil

faoliyat yuritish orqali amalga oshiradi, o'quvchi o'zi topshiriqni yechish bo'yicha ma'lumot yig'adi, rejalashtiradi, qaror qabul qiladi, amalga oshiradi, xulosa chiqaradi va o'z-o'zini baholaydi. O'qituvchi faqat o'quvchiga maslahat beradi, topshiriqni mustaqil bajarishga undaydi.

Bo'lajak o'qituvchilarning mustaqil va ijodiy ishlash faoliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan mashg'ulotlar individual shakllarda olib boriladi. Individual shakl asosan ijodiy ko'rinishdagi topshiriqlarni bajarishga yo'naltiriladi, talabalar mustaqil ishlaydilar. Ularning mustaqil va ijodiy ishlash faoliyatlarini rivojlantirish uchun sharoitlar yaratish, o'quv-uslubiy adabiyotlar hamda didaktik materiallar bilan ta'minlash juda muhim. O'quv-didaktik materiallarga o'qitilishi va o'rganilishi lozim bo'lgan bilimlarni beruvchi har qanday axborot tashuvchilarni misol qilib keltirish mumkin.

Ta'lim jarayonidagi o'quv va mehnat faoliyati mustaqilligini rivojlantirish faollik bilan mustahkam bog'langan. Shuningdek, mavzular bo'yicha aniq o'quv maqsadlari mazmuni o'z navbatida umumiy maqsadlardan kelib chiqadi. Aniq o'quv maqsadlari bir mavzuga oid nazariy va amaliy mashg'ulot bo'yicha talabaning egallashi kerak bo'lgan aniq yakuniy bilim, ko'nikma, malaka va xulqni ifodalaydi. Aniq o'quv maqsadlari o'qituvchilar tomonidan ishlab chiqiladi. Talabalarning mustaqil va ijodiy ishlash faoliyatlarini yo'naltirishga qaratilgan mashg'ulotlar dars ishlanmalari va texnologik xaritalari asosida tashkil etiladi. Mashg'ulotlar asosini mustaqil va ijodiy ish topshiriqlarini bajarish tashkil etadi. O'quv maqsadlarga to'la erishish uchun qo'shimcha mashg'ulotlar ham o'tkazilishi mumkin. Bilimlarni mustaqil egallash jarayonida talabalarni faollashtirish natijasida talabalarning ilmiy bilimlari ortadi, ularni amalda ongli va faol qo'llashga zamin hozirlanadi. Ularda ijodiy tashabbuskorlik, o'quv faoliyatida mustaqillik, tafakkur va nutq rivojlanadi. Bu sifatlar keyinchalik o'quv xonalarda, laboratoriyalarda, ustaxona hamda ishlab chiqarish sharoitlarida topshiriqlarni bajarishdagi harakatlarda namoyon bo'ladi yoki topshiriqlar orqali o'quvchilarning ijodiy fikrlashlarni rivojlantirish, noma'lum yoki noaniq ma'lumotlar mohiyatini tushunish uchun mustaqil izlanishlarini vujudga keltiradi. Biz tomondan olib borilgan pedagogik tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, o'quvchining ijodiy fikrlash qobiliyatini shakllantirish va rivojlantirish, uning mustaqil bilim olishga bo'lgan qiziqishini oshirishda mustaqil ish ijobiy ta'sir ko'rsatar ekan.

Talabalar tomonidan o'quv materiallari o'zlashtirilganligini, ko'nikma va malakalar hosil bo'lganligini tekshirish hamda baholash ta'lim jarayonining zaruriy tarkibiy qismi hisoblanadi. Bu faqat o'qitish natijalarini baholash emas, balki o'qitish jarayoni davrida talabalar bilim olish va mustaqil ish faoliyatiga rahbarlik qilish hamdir. Bilim va ko'nikmalarni tekshirish hamda baholashning ta'limiy ahamiyati shundan iboratki, bunda o'quv materialining o'zlashtirilishi to'g'risida talaba va

o'qituvchi muayyan ma'lumotga ega bo'ladi. Baholash jarayoni o'quvchilarning dastlabki bilim, ko'nikma va malakalarini aniqlash uchun o'tkaziladi.

Baholashning qo'llaniladigan turlari bo'yicha bir qancha samaradorliklar mavjud. Masalan, joriy baholash muntazam ravishda o'tkazib boriladi. U mustaqil ta'lim jarayonidagi yutuq va kamchiliklarni, samarasini tezkor aniqlab borish, o'quv jarayonini muvofiqlashtirish, ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchi o'rtasidagi aloqani ta'minlash imkonini beradi. Oraliq baholash fanning asosiy bo'limlaridan biri bo'yicha mustaqil ta'lim olish egallab bo'lingandan keyin talabalarning bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirganliklari baholanadi.

Yakuniy baholash o'quvchining fan bo'yicha o'zlashtirish natijalarini belgilangan mezon va standartlarga javob berishini aniqlaydi. Yakuniy baholash fanni o'qitish jarayonining yakunida o'tkaziladi. U joriy va oraliq baholash natijalarini jamlaydi.

Talabalarning mustaqil bilim olishlari natijasida ular quyidagi malaka va ko'nikmalarga ega bo'lganligi ham yakuniy nazorat davomida e'tiborga olinadi va baholash yakunida tizimli tahlil etiladi: o'z-o'zini takomillashtirishga yangicha yondashuv, mustaqil ta'lim olish; mustaqil bilim olish, shaxsiy qobiliyatlarni namoyon eta olish, ijtimoiy-kasbiy mustaqillik; mustaqil bilim olish strategiyasi, rejalashtirish va o'z-o'zini boshqarish, o'z-o'zini tarbiyalash; o'zini o'zi kasbiy-shaxsiy jihatdan takomillashtirish; mustaqil bilim olish manbalari, shakli, metod, usul va vositalari, ularning turli-tumanligi, ulardan samarali foydalanish va hokazolar.

Mustaqil malaka oshirish natijasida asosiy muayyan o'qitish faoliyatini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalar, kasbiy kompetensiyalar rivojlantiriladi. O'qituvchining mustaqil malaka oshirishi maktabda ta'lim-tarbiya ishlarning samaradorligini ta'minlashda hal qiluvchi vositalardan biri hisoblanadi, shuningdek, uslubiy va axborot resurslari ta'minlanadi. Mustaqil ishlash orqali egalangan mustaqil ta'lim olish; yangi bilimlarni mustaqil tarzda puxta o'zlashtirish ko'nikmalariga ega bo'lish; kerakli ma'lumotlarni izlab topish, qulay usul va vositalarni aniqlash; axborot manbalari va manzillaridan samarali foydalanish; an'anaviy o'quv va ilmiy adabiyotlar, me'yoriy hujjatlar bilan ishlash; elektron o'quv adabiyotlar va ma'lumotlar banki bilan ishlash; internet tarmog'idan maqsadli foydalanish; o'z faoliyatini innovatsion yondashuv asosida tashkil qilish ko'nikmasining egallanganligi; umumiy va xususiy kompetensiyalarni egallashga yunaltirilganlik o'qituvchi shaxsining eng muhim xususiyatlaridan biridir.

O'qituvchining ish faoliyatining natijaviyligi bevosita uning kasbiy tayyorgarlik darajasi va o'z ustida tinmay ishlashini belgilab beradi. Kadrlar tayyorlash milliy dasturida chuqur nazariy va amaliy bilimlar bilan bir qatorda tanlangan sohasi bo'yicha mustaqil faoliyat ko'rsata oladigan, o'z bilimi va malakasini mustaqil ravishda oshirib boradigan,

masalaga ijodiy yondashgan holda muammoli vaziyatlarni to'g'ri aniqlab, tahlil qilib, sharoitga tez moslasha oladigan mutaxassislarni tayyorlash asosiy vazifalardan biri sifatida belgilangan. O'qituvchilar mustaqil ishlash va mustaqil o'qish jarayonida zarur bilim, ko'nikma va malakalarni qo'lga kiritadilar. Zero, ta'lim tizimidagi islohotlarning hozirgi bosqichidagi asosiy vazifalardan biri ham o'z-o'zini rivojlantiruvchi, keng dunyoqarashga, erkin va mustaqil fikrlash qobiliyatiga ega bo'lgan, ajdodlarimizning bebaho boyligi va umumbashariy qadriyatlarga tayanadigan, ma'naviy barkamol shaxsni tarbiyalashga yo'naltirilgan, moslashuvchan va tezkorlikni ta'minlovchi takomillashgan ta'lim-tarbiya jarayonlarini tashkil etish zaruriyatini belgilamoqda.

Mustaqil ta'limni tashkil qilishda o'qituvchining roli va kasbiy mahorati katta ahamiyatga ega. Mustaqil ta'limni to'g'ri tashkil qilish va talabalar bilan birgalikdagi faoliyat jarayonida muvaffaqiyatli natijalarga ega bo'lish o'qituvchidan fan yuzasidan chuqur bilimga ega bo'lishi, talabalar bilan ishni to'g'ri tashkil qilishni, har bir talabaning iqtidori va qobiliyatini imkon qadar hisobga olgan holda yondashishni talab qiladi. O'qituvchi fan yuzasidan ma'ruza va seminar mashg'ulotlari jarayonida turli pedagogik texnologiyalar va interaktiv uslublarni qo'llagan holda har bir talabaning o'ziga xos hislatlarini aniqlashtirib, mustaqil ta'lim bo'yicha maslahat darslarida talabalarga to'g'ri yo'nalish ko'rsata olsa, mustaqil ta'limni tashkil qilishdan ko'zlangan maqsadga erisha oladi. Shuning uchun,

o'qituvchi tomonidan mustaqil ishlashni tashkil etishdan avval har bir talabaning iqtidori va mustaqil ta'limni amalga oshirishga qobiliyatini aniqlashi, individual tarzda talabalarga maslahatlar berishi, mustaqil ta'lim uchun aniq va muammoviy mavzularni tavsiya etishi, mustaqil ta'lim mavzularini belgilashda fan dasturi va ishchi dasturga qat'iy rioya etishi, ma'lumotlarni to'plash va ularni klassifikatsiyalash yo'llarini o'rgatishi, qo'yilgan masalani ochish uchun tavsiya qilinishi mumkin bo'lgan adabiyotlar haqida ma'lumotlar berishi, adabiyotlar bilan ishlash yo'llari haqida tushuncha berishi, manbalardan foydalanish jarayonida etibor berilishi lozim bo'lgan jihatlar haqida tushuncha berishi, matbuot materiallaridan foydalanish chog'ida ma'lumotlarni yig'ish va ularni solishtirishi, taqqoslash va xulosalar chiqarish to'g'risida tushuncha berishi, rahbarlik qilish, nazorat va tekshirishni to'g'ri amalga oshirishi, mavzular yuzasidan ma'lum vaqtlar oralig'ida muloqot tarzida erkin suhbatlar uyushtirib borishi va talabalarining fikrlariga e'tiborli bo'lishi lozim.

O'qituvchi talabalarga mustaqil ta'lim uchun belgilangan mavzularni topshirish jarayonida mavzu mazmunidan kelib chiqqan holda, natijalarning umumiy tavsifi, bajarilishi lozim bo'lgan vazifalar, natijalarga erishish yo'llarining taxminiy uslublari va tavsiya qilinayotgan manbalar haqida umumiy tushuncha berib o'tadi.

Bu holat talabalarga mavzu yuzasidan o'z dunyoqarashlari asosida ma'lumotlar yig'ish va ularni tahlil qilishlariga imkon beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Karimov I. "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch". – T.: "Ma'naviyat"- 2008.

XORAZM MAHALLIY AYTIMLARI VA UNING O'ZBEK XALQ MUSIQA IJODIDAGI O'RNI

Ozodbek SOIPOV – Nizomiy nomidagi TDPU magistranti

Maqolada xorazm mahalliy musiqasi va uning ta'lim-tarbiyaviy ahamiyati haqida fikr-mulohazalar yuritilgan bo'lib, ular Xorazm viloyatida mavjud qo'shiq va aytimlar misolida bayon etilgan.

В статье ведётся речь о современной узбекской эстрадной музыке, её значении в воспитании, раскрывающая понятие "эстрада".

This article is about uzbek modern pop music and its educational importance, the term of "pop music" and its role of practical speaking.

Kalit so'zlar: Xorazm musiqasi, aytim, qo'shiq, lapar, yalla, terma, doston.

Ключевые слова: Хорезмская музыка, эстрада, театр, сцена, актёр, трагедия, комедия, мим, хор, оркестр, драма.

Key words: modern music, pop music, theatre, stage, actor, tragedy, comedy, mime, choral, orchestra, drama.

Tarixan boy va serqatlam o'zbek musiqasi merosini tashkil etuvchi xilma-xil ko'hna namunalar butun dunyo xalqlari musiqasi madaniyatiga o'zining ulkan salobati bilan xizmat qilmoqda.

Musiqashunos olimlar O'zbekiston hududining barcha vohalarida, qo'shni Qozog'iston, Qirg'iziston,

Tojikiston, Turkmanistonda istiqomat qiluvchi o'zbeklar orasida ancha murakkab etnik, jug'rofiy, siyosiy-ijtimoiy, tarixiy-madaniy voqeiylikni o'z tarkibiga to'raligicha qamrab olishi uning tarixan qadimiyligidan dalolat beradi. Ular Toshkent - Farg'ona, Buxora - Samarqand, Xorazm va

Surxondaryo - Qashqadaryo mahalliy uslublariga ajratilgan.

O'zbek xalq musiqasining tarixiy rivojlanishida mazkur mahalliy uslublarning bir-biridan o'ziga xosligi jihatdan ajralib turishi o'zbek millati shakllanishining tarixan juda qadimgi davrlarga borib taqalishi, ularning yashashi jarayonida ko'p elatli - serurug' va ko'p qabilali turkiy tilli qavlardan tarkib topganligi, har bir mahalliy aholining o'z urug'i, so'zlashuv shevasi, yashash tarzi, ijtimoiy mehnatining o'zni beqiyosligidandir.

Ajdodlarimiz tomonidan yaratilib, asrlar osha bizgacha yetib kelgan musiqa merosimizning sifat ko'rsatkichi va fazilatleri o'zbek xalqining bitmas - tunganmas xazinasi.

Har bir qo'shiq va musiqiy asarlar o'zbek xalqining orzu-umidlarini, sevinchi va hayratlarini, quvonch va qayg'ularini, jamiki insoniy fazilatlarini yuksak musiqiy idrok bilan tasvirlab, kishilarga hamisha ruhiy - ma'naviy ozuqa berib kelmoqda. Ushbu mumtoz mahalliy musiqa tinglovchini o'lmas qadriyatlar bilan bahramand etib kelgan va bu jarayon davom etmoqda.

Xorazm mahalliy - musiqiy uslubi eng avvalo, o'zining yorqinligi, jo'shqinligi, jozibadorligi, musiqiy cholg'ularining rang-barangligi, boshqa mahalliy uslublardan keskin farqi, qolaversa, aytim va ohangda keng diapazondagi musiqiy asarlarning keng ko'lami, ritmik o'lchovining murakkabligi, aytim asarlarining uzoq muddatda kuylanishi, uslubda til-shevaning yaqqol ko'zga tashlanishi va asar mazmunini boyitishi bilan ajralib turadi. Xorazm diyori qadimiy va o'rta asr davrlarida butun Markaziy Osiyo xalqlarining katta madaniy - musiqiy o'choqlaridan biri bo'lgan. Ko'hna Xorazmning o'ziga xos mahalliy udum va an'analar barcha turmush jabhalarida, aholining yashash tarzi, kun kechirishdagi mehnatida, urf-odat, an'ana va qadriyatlarida o'z aksini topganligini e'tirof etish joiz.

Xorazm mahalliy uslubiga mansub kuy-ohang va aytimlar yerlik aholining musiqa janr tarkibida, suvora, maqom yo'llari, dostonchilik, xalfachilik va hali fanda mustaqil tadqiqot sifatida o'rganilmagan xalq musiqasi janrlari kuzatiladi. Shuningdek, bu musiqaning kuy-ohanglari hamda usullari tabiatida mavjud musiqiy cholg'ular va ulardagi ijrochilik maktabi ham o'ziga xos tarzda shakllanganligi, asosan aholining tabiatini o'zida mujassam etganligini kuzatish mumkin. O'zbekistonning boshqa ba'zi hududlarida doston janri ko'proq she'riy uslubga moyilligi, bo'g'i ovozda ijro etilishi bilan ajralib tursada, Xorazmda dostonlar musiqiy jihatdan ifodali, tabiatan murakkab musiqa janri hisoblangan ashulaga xos tarzda, shaklan rivojlangan xalqchil kuy va aytim yo'llaridagi ijrosi bilan tavsiflanadi. Albatta, Xorazm mahalliy uslubining uzoq o'tmishida qo'biz, qayroq, keyinchalik qoraqalpoq do'mbirasi jo'rligida dostonlar aytilgani ma'lum. Biroq, keyingi davrlarda Xorazm dostonlari o'z cholg'u uslubini dutor, ozarbayjon tori, g'ijjak, bulamon, qo'shnay, doiradan iborat ixcham an'anaviy ansambl shaklida o'zgartirdi.

Xorazmda qo'llanilgan milliy musiqa cholg'ulari o'z gacha xususiyatlari bilan ham farqlanadi. Jumladan, bulamon, respublikamizning faqat ushbu viloyatida hamda unga yaqin bo'lgan qo'shni hududlarda tarqalganligini ko'rish mumkin. Mahalliy surnay, qo'shnayning o'ziga xos shakli va tuzilishi mavjudligini ushbu mahalliy uslubning o'ziga xos jihati ekanligini namoyon etadi. Yana bir qator milliy musiqa asoblarining tuzulishida, ularning an'anaviy ijrochilik yo'llarida ham o'ziga xos holatga duch kelish mumkin.

Xorazmda Kavkazning mashhur tor cholg'usi ham keng tarqalgan. XIX asrdan boshlab esa "garmon" cholg'usi ham qo'llana boshlangan. Bundan tashqari Xorazm musiqa amaliyotida deyarli barcha o'zbek xalq cholg'ulari dutor, tanbur, g'ijjak, nay, qo'shnay va boshqalar qo'llangan holda, do'mbira sozi ham ba'zi-ba'zida uchragan, biroq, bugungi kunda aholi iste'molidan chiqib ketgan. O'tmishda esa Xiva xonligi madaniyatida o'tkazilgan xalq sayli kunlari namoyish etilgan.

Xorazmda xonandalikning boshqa janrlaridan ko'ra ashulachilik san'ati ko'proq ravnaq topgan. Xorazmda ashulachilarni "go'yandachi" deb ataydilar. Ashula janrining muhim jihatlari shundan iboratki u asosan mumtoz she'riyat namunalariga asoslanadi. Kuy-ohanglari esa qo'shiq va laparlarga nisbatan keng rivojlangan bo'lib, ovoz ko'lami bir oktava va undan ortiq bo'ladi. Xorazmda "Suvora" nomi bilan ma'lum va mashhur ashula turkumlari mavjud. Suvora so'zi fors-tojik tilida "otliq" ma'nosini bildiradi.

Xorazm suvoralaridagi g'azallar Navoiy, Mashrab, Nodira, Zalimiy, Ogahiy, Munis, Avaz O'tar, Bedil kabi mumtoz shoirlarning she'rlaridan tashkil topgan. Xorazmda Suvora ijrochilarining mahorat musobaqalari turli to'y-marosimlarida, sayllarda, xullas, erkin marosim va tadbirlarda o'tkazilib kelinmoqda.

Xorazm epik asarlarni kuylovchi ijodkor dostonchilarni aholi baxshi deb ataydilar. Uztoz baxshi rahbarligida uch-besh kishidan iborat ijrochilar jamoasidan iborat doston ijrochilari baxshilar guruhi tuziladi. Baxshilarining bunday ansambl ustoz baxshi, biri bulamonchi, biri g'ijjakchi yoki ikki bulamonchi, ikki g'ijjakchi yoki faqat bulamonchi va bulamonchilar hamda faqat g'ijjakchi va g'ijjakchilardan iborat bo'ladi. Ta'limning keyingi bosqichlarida shogirdlar dutorda ustoz baxshiga jo'r bo'lishlari mumkin. Bunda ansambl a'zolarining soni shogirdlarning soniga qarab ko'p yo oz bo'ladi. Shuni ham aytish kerakki, asrimizning 30- yillaridan boshlab, bir necha Xorazm baxshilari dostonlarni tor va rubobda kuylay boshladilar. Shu munosabat bilan ayrim baxshilar ansamblida g'ijjak o'rniga skripkadan foydalanish, ansamblga doirachi, hatto o'yinchi olib kirish hollari uchraydi. Bola baxshi va uning ansambl bunga yaqqol misol bo'la oladi. Lekin bu hol epik traditsiya uchun tipik hodisa emas.

Xorazm dostonchilik maktabi o'z an'analariga ega bo'lib, u boshqa mahalliy dostonchilik maktablaridan quyidagilar bilan farqlanadi:

- Xorazm dostonlari "Ochiq ovoz" uslubida kuylashi;

- musiqiy cholg'ular dutor, tor, g'ijjak, bulamon, bayan, doira sozlarida jo'r bo'lishi;

- Xorazm dostonlari repertuarining tarkibi "Oshiq G'arib va Shohsanam", "Go'ro'g'li", "Kuntug'mish", "Bozirgon", "Oshiq Oydin" kabi dostonlardan tashkil topganligi.

Xorazm dostonchiligining yirik vakillari qatorida Ahmad baxshi, Bola baxshi Ro'zimbek Murodov, Qalandar baxshi, Feruzbek baxshilar nomini tilga olish joizdir. Xorazm musiqa uslubi doirasida dostonlarni garmonda (sozda) ijro etish an'anasi ham mavjud bo'lib, bunda dostonlar bir butun yaxlit shaklda emas, balki undan olingan parchalar kuylanadi. Xorazm dostonchilik maktabida termalar ham uchraydi. Dostonchilikda soz ijrochiligi ham keng tarqalgan. Bunday ijodkorlar baxshi emas, balki sozchi deb yuritiladi.

Yuqorida bayon qilinganlardan ko'rinadiki, epik asarlarni kuylash, avlodlardan avlodga saqlab qolish va kelajakka yetkazishda O'zbekistonning deyarli barcha hududlarida yakka ijrochilik keng tarqalgan bo'lsa, Xorazmda asosan jamoaviy ijrochilik, doston ijrochilari baxshilarning ansamblda ijro etish jihatlari keng tarqalganligini ko'rish mumkin. Ijro davomida dostonlarning she'riy qismlari deklamatsion shaklda bayon etilib, nasriy o'rinlari baxshilarning o'zlariga xos aytm ijrosi qo'shiq ba'zan ashula janriga xos tarzda kuylangan.

Xorazmda epik asarlarni, ulardan olingan parchalar va ayrim termalarni kuylovchi va aytuvchi ijodkorlarning yana bir turini xalfalar deb yuritiladi.

Xalfachilik ayollar o'rtasida keng tarqalgan. Xalfachilik san'ati asosan ikki ko'rinishda ansamblli – jamoaviy va yakka holda ijro etish an'anasini o'zida mujassam etgan. Xorazm xalfalari xotin - qizlar ishtiroki bilan bog'liq turli yig'in, to'y marosimlari va bayramlarda doimiy faol ishtirok etuvchi ijrochilar hisoblanadi.

Ansamblda ijro etayotgan xalfalar xalq dostonlarini, ulardan olingan parchalarni, to'y qo'shiqlarini, lapar va yallalarni, o'zlari yaratgan yoki boshqa ijodkorlar tomonidan yaratilgan asarlarni garmon va doira jo'rliqida kuylaydilar. Yakka xalfalar doston va qo'shiqlarni sozsiz ijro etadilar. Ular dostonlarni yodaki yoki qo'lyozma va kitobdan qiroat bilan badiiy (yoqimli ohangda) o'qish, "Yor-yor", "Kelin salom", "Muborak" kabi qo'shiqlarni chiroyli ijro etish bilan shuhrat qozonganlar. Bu jihatdan ular o'tmishda xotin – qizlar orasida kitobxonlik (qissaxonlik) qilgan otin oyilarga o'xshab ketadilar.

Ansamblli xalfalar to'y va tantanalarda ishtirok etsalar, yakka xalfalar to'y tantanalardan tashqari motam marosimida ham ishtirok etadilar. "

Xorazm mahalliy uslubida ijro etilayotgan kuy-qo'shiqlardan umumta'lim maktablari hamda pedagogika sohasidagi akademik litsey va kasb-hunar kollejlari, bolalar musiqa va san'at maktablari, maktabgacha ta'lim muassasalarining tarbiyalanuvchilari Davlat ta'lim standartlari va o'quv dasturlari asosida o'qitilib kelinmoqda. Xorazm mahalliy uslublaridagi kuy-qo'shiqardan ta'lim va tarbiya jarayonida keng foydalanish yuqori malakali mutaxassis kadrlarni har jihatdan milliy ruh va iftixor asosida tarbiyalashda zamin yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Karimov I. "Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish kontseptsiyasi". T.: "O'zbekiston"-2010, 56-b.
2. Karimov I. "O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining 19 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutq". "O'zbekiston ovozi" gazetasi. 2010-yil 1-sentyabr.
3. Karimov I. "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch". T.: "Ma'naviyat"-2008.
4. Fayziyev O. "Maktabda musiqiy tarbiya". T.: "O'qituvchi"-1991.
5. Aloviya M. "O'zbek xalq marosim qo'shiqlari". T.: "O'qituvchi"-1974.
6. "O'zbek xalq musiqasi". III tom. T.: "O'qituvchi"-1954.
7. Ibrohimov O. "O'zbek xalq musiqa ijodi". I qism. T.: "O'qituvchi"-1994.

IKKINCHI TARTIBLI SIRTLARNI O'QITISHDA MAPLE DASTURI IMKONIYATLARIDAN FOYDALANISH

Nigora DAUKEYEVA – Nizomiy nomidagi TDPU magistranti

Mavluda ASADULLAYEVA – Nizomiy nomidagi TDPU magistranti

Maqolada Maple dasturi yordamida matematik tenglamalarning grafiklarini yasash usuli va imkoniyatlari to'g'risida so'z yuritilgan. Maple dasturini o'rganishning asosiy maqsadi, o'quv jarayonida talabalarga misol, tenglamalarni yechish, murakkab bo'lgan funksiya va tenglama grafiklarini chizishda Maple dasturining imkoniyatlaridan foydalanish haqida bayon qilingan.

В статье дана информация о решении уравнения и составления графика при помощи математического системного пакета Maple уравнение в общем виде линейного порядка. Основной

задачей изучения математического системного пакета Maple в процессе обучения состоит создание благоприятной обстановки для студентов в решении задач уравнения

In this article is given information about sedition of equation and composing a chart of equation in common type of line order with the help of math systemic Maple pock age. The main problem of learning math systemize Maple pock age in the process of teaching is served for creating pleasant condition for students in sedition of these equation problems.

Kalit soʻzlar: maple dasturi, tenglamalar, grafik, ellipsoid, paraboloid, giperboloid.

Ключевые слова: программа Maple, уравнение, график, эллипсоид, параболоид, гиперболюд.

Key words: program Maple, equation, graphic, ellipse, parabola, giperbola.

Bugungi kunda mamlakatimiz ta'lim tizimidagi asosiy vazifa jahon talablariga mos keluvchi axborot texnologiyalarini o'qitish jarayoniga qo'llash hisoblanadi.

Ta'lim tizimidagi dolzarb masalalardan biri bo'lgan, dars mashg'ulotlarining samaradorligini oshirish, darsda o'qitishning ilg'or pedagogik texnologiya va zamonaviy axborot texnologiyalarini qo'llash asosida o'quvchilarda bilim, ko'nikma, malakalarni shakllantirish jarayonini moddiy-texnika va axborot bazasi bilan ta'minlash, ta'lim tizimi, fan va ishlab chiqarish o'rtasida o'zaro samarali aloqadorlik o'rnatishdan iboratdir.

Geometriya fanini o'qitish jarayonida ham axborot texnologiyalaridan foydalanish o'qituvchiga ko'pgina imkoniyatlar yaratadi.

Hozirda ta'lim jarayonida kompyuterning grafik imkoniyatlaridan foydalanishga bo'lgan qiziqish va bunga bo'lgan talab ortib bormoqda.

Biz kompyuter grafikasidan nafaqat informatika darslarida, balki boshqa ko'plab fanlarni o'qitishda ham keng foydalanishimiz mumkin, jumladan, geometriya fanida fazoviy jismlarni o'quvchi-talabalar tasavvurida hosil qilish, ularni tekisliklar bilan kesimlarini yasashda qo'llash o'zining ijobiy natijalarini beradi.

Kompyuter grafikasidan foydalangan o'qituvchi vaqtdan yutadi, undan samarali foydalanishga zamin

yaratadi, doskada chizilgan chizmadan ko'ra chizmaning aniqlik darajasi ortadi va bir qancha qulayliklarga ega bo'ladi.

Hozirgi kunda kompyuter grafikasi matematik paketlarning o'quv jarayonidagi o'rni va roli bir qancha sezilarli va sifatliroq. Ularning eng ko'p tarqalganlari – Maple, Matlab, Derive, Eureka, Matematika, Mathcad paketlari bo'lib, bular ko'p funksional paketlar hisoblanadi. Murakkab matematik masalalarni yechishni osonlashtiradi. Matematik paketlardan o'quv jarayonida foydalanish matematik va texnik ta'limning fundamentalligini oshirishni ta'minlaydi. Talabalarning nazariy bilimlarini amaliyotga qo'llash mahoratlarini oshiradi.

Geometriya fanida o'zlashtirishda Maple dasturi bugungi kunda talabalarga ko'pgina imkoniyatlarni yaratib bermoqda. Xususan, oliy talim jarayonida ikkinchi tartibli sirtlarga oid masalalarning yechilishi va grafikaviy chizilmasini chizish murakkab bo'lib keladi, Maple dasturi bilan ishlash esa talabalarga ko'pgina yengilliklar yaratib beradi.

Maple dasturi yordamida ikkinchi tartibli sirtlarning umumiy ko'rinishdagi tenglamasining grafigini chizishda bizga Maple da grafiklar yasash tartibi va komandalarni bilishimiz kerak bo'ladi.

Maple da grafiklar yasash tartibi quyidagicha bo'ladi.

| N | Komandalar | Grafigi chiziladigan funksiya |
|----|---|--|
| 1 | plot(f(x),x=a..b, y=c..d, params) | f(x),x=a..b, y=c..d |
| 2 | plot([y=y(t),x=x(t),t=a..b], params) | y=y(t),x=x(t),t=a..b |
| 3 | implicitplot(F(x,y)=0, x=x1..x2, y=y1..y2) | F(x,y)=0, x=x1..x2, y=y1..y2 |
| 4 | implicitplot(F(x,y)=0,G(x,y)=0, x=x1..x2, y=y1..y2) | F(x,y)=0,G(x,y)=0, x=x1..x2, y=y1..y2) |
| 5 | inequals({f1(x,y)>c1,...,fn(x,y)>cn}, x=x1..x2, y=y1..y2, options). | f1(x,y)>c1,...,fn(x,y)>cn |
| 6 | plot3d(f(x,y), x=x1..x2, y=y1..y2, options) | f(x,y), x=x1..x2, y=y1..y2 |
| 7 | plot3d([x(u,v), y(u,v), z(u,v)], u=u1..u2, v=v1..v2) | x(u,v), y(u,v), z(u,v), u=u1..u2, v=v1..v2 |
| 8 | implicitplot3d(F(x,y,z)=c, x=x1..x2, y=y1..y2, z=z1..z2); | F(x,y,z)=c, x=x1..x2, y=y1..y2, z=z1..z2 |
| 9 | spacecurve([x(t),y(t),z(t)],t=t1..t2) | x(t),y(t),z(t),t=t1..t2 |
| 10 | animate ,animate3d | Animatsiya yaratish |

Mapleda funksiya grafigini yasashda ikki o'lchovli va uch o'lchovli grafikalar bizga yordam beradi. Ikkinchi tartibli sirtlar grafigini shizishda uch o'lchovli grafika va uning komandalari bilan ishlashni bilishimiz kerak.

Uch o'lchovli grafikaning Plot3d() komandasi.

Mapleda plot() komandasi ikki o'zgaruvchili vizual funksiya ustida amallarni bajaradi. Ya'ni, ikki o'zgaruvchili funksiya fazoda uch o'zgaruvchili funksiyaning xususiy holi bo'lib, bu yerda ikki o'qi ikki

noma'lumga mos keladi va uchinchi o'qi esa funksiyaning qiymatiga mos keladi. `plot()` komandasida amallarning bajarilishi bir o'zgaruvchili funksiyaning tasvirlanishining `plot()` komandasida bajarilganidek, standart kutubxonada joylashgan, shuning uchun xohlagan vaqtda qo'llanishi mumkin. Agar funksiya aniq turda va parametr ko'rinishida berilgan bo'lsa ham `plot()` komandasi bu funksiyaning grafigini aniq tasvirlab beradi.

`plot3d(expr, x=a..b, y=c..d)`, `expr` algebraik ifodani yoki ikki o'zgaruvchili funksiyani tasvirlaydi. Bunda `x` va `y` o'zgaruvchilarining nomlarini atash kerak.

`plots` paketining uch o'lchovli komandasi.

Fazoda ko'p hollarda silindrik va sferik koordinatalar sistemi qo'llaniladi. Shu koordinatalar sistemasida ikki beg'araz o'zgaruvchi funksiyaning grafigini tasvirlovchi `Plots` paketida maxsus komandalar mavjud. Ular `Cylinderplot()` va

`sphereplot()` hisoblanadi. `cylinderplot()` komandasi aniq ko'rinishda berilgan funksiyaning ko'rinishini tekislikda tasvirlaydi.



Agar funksiya ravshan ko'rinishda berilgan bo'lsa, komanda quyidagi sintaksisga ega bo'ladi:

`cylinderplot(r-exp, theta=диапазон, z=диапазон)`

Parametrik funksiya uchun uning boshqa shakli ya'ni, `cylinderplot([r-exp, theta-expr, z-expr], param1=диапазон, param2=диапазон)` qo'llaniladi.

Ko'rsatilgan argumentdan boshqa barcha grafik komandalar singari uch o'lchamli grafikaning xohlagan operatsiyalari qo'llanishi mumkin. Quyidagi misolda silindrik koordinatalar sistemasining sirt yasashi ko'rsatilgan.


1-misol. Aylana silindrning radiusi 1 va uzunligi 2.
> with(plots):
`cylinderplot(1, theta=0..2*Pi, z=-1..1, color = blue);`



1 – chizma. Silindr.

2-misol. $x^2 + y^2 + z^2 = 4$ sharni chizing.

> with(plots): `implicitplot3d(x^2+y^2+z^2=16, x=-4..4, y=-4..4, z=-4..4, scaling=CONSTRAINED, color = blue);`





2 – chizma. Shar

Ba'zan bitta grafikda bir necha grafik ob'yektlarni joylashtirish zarur bo'ladi. Masalan, ikkinchi tartibli sirtlarning tekislik bilan kesishishini ko'ramiz.



3-misol. $x^2 + y^2 + z^2 = 1$ tenglamasi bilan berilgan sfera va $2x + 3y - z = 0$ tekislikning o'zaro vaziyati

> `e:={x^2+y^2+z^2=1, 2*x+3*y-z=0};`



`with(plots):implicitplot3d(e, x=-1..1, y=-1..1, z=-1..1);`




4-misol. $x^2 + 2y^2 + 3z^2 - 1 = 0$ ellipsoidning $2x + y + z = 0$ tekislik bilan o'zaro vaziyati
 $> e := \{x^2 + 2y^2 + 3z^2 = 1, 2x + y + z = 0\};$
 $\text{with}(plots): \text{implicitplot3d}(e, x = -1..1, y = -1..1, z = -1..1);$



5-misol. $\frac{x^2}{3} + \frac{y^2}{5} - \frac{z^2}{2} = 1$ bir pallali giperboloidning $x + 3y - z = 0$ tekislik bilan o'zaro vaziyati
 $> e := \{x^2/3 + y^2/5 - z^2/2 = 1, x + 3y - z = 0\};$
 $\text{with}(plots): \text{implicitplot3d}(e, x = -5..5, y = -5..5, z = -4..4);$



6-misol. $\frac{x^2}{5} - \frac{y^2}{4} = 6z$ giperbolik paraboloidning $x - y + 6 = 0$ tekislik bilan o'zaro vaziyati
 $> e := \{x^2/5 - y^2/4 - 6z = 0, x - y + 6 = 0\};$
 $\text{with}(plots): \text{implicitplot3d}(e, x = -10..10, y = -25..25, z = -10..10, \text{color} = \text{blue});$



Geometriya fanini o'qitishda kompyuter texnologiyalaridan foydalanish dars samaradorligini oshirishda, talabalar erkin misollarni ishlab uni kompyuter orqali tekshirish va kompyuterdan foydalanib Maple dasturi yordamida geometrik obrazlarning grafiklarini yasash talabalarga ko'pgina yengilliklar yaratib beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Dodajonov N., Jo'raeva Sh. "Geometriya", 1-qism. T.: "O'qituvchi" - 1996, 241-b.
2. Imamov A. "Maple da matematik masalalarni yechish". Uslubiy qo'llanma. NamDU-2011, 84-b.
3. Narmanov A. "Analiitik geometriya". T.: "O'qituvchi"- 2008.
4. Савотченко С., Кузьмичева Т. "Методы решения математических задач в Maple". Учебное пособие. Белгород: "Беллаудит"- 2001, 116- с.
5. <http://www.maplesoft.com>

TEXNOLOGIYA TA'LIMI JARAYONIDA QO'LLANILADIGAN KOMPYUTER VOSITALARINING TURLARI VA KLASSIFIKATSIYASI

Tohir USMONOV – TDPU magistranti

Ushbu maqolada o'qitish jarayonida kompyuter vositalaridan foydalanish, o'qitish vositalarining toifalari, turlari, ularning majmuaviy qo'llanilishi, ular asosida o'quvchining bilim, ko'nikma va malakalarni egallash jarayoni ustidan nazorat o'rnatish borasidagi didaktik talablar haqida so'z yuritiladi. Shuningdek, darslarida kompyuter vositalaridan foydalanishning o'rni, mashg'ulotlarni zamon talablariga javob beradigan tarzda olib borishning dolzarbligiga alohida urg'u berilgan.

В данной статье уделено особое внимание на актуальную тему современности как использование компьютерных технологий, их категории, их видов, их комплексных применениях а также о дидактических требованиях поставленных к усвоению с их помощью контроль усвоения учащимися знаний умений и навыков. А также применения компьютерных технологий на уроках и соответствия занятий мировым требованиям.

In this article given information about using means of computer in the learning process and complex practice of types. And result of this improving pupils' knowledge, skill, and experiences demands which given to teachers. Importance of using modern computer means in the learning process.

Kalit so'zlar: telekommunikatsiya, o'qitish vositalari, loyihalashtirish, ilmiy-texnik taraqqiyot, aqliy texnologiya, vizuallashtirish, o'quv va didaktik materiallar

Ключевые слова: телекоммуникация, проектирование, научно-технический прогресс, визуализация, учебно-дидактический материал, средство обучения.

Key words: tele communication, means of Tele communication, means of education, project, science technique development smart technology, visual study didactic materials.

Hozirgi kunda ta'lim muassasalarining ilg'or pedagogik jamoalari ishlash amaliyotida turli zamonaviy kompyuter vositalaridan keng foydalanish tobora ko'proq qo'llanilmoqda. Shu munosabat bilan kompyuter vositalarining majmuaviy qo'llanilishi masalasi alohida e'tiborga molik bo'ladi.

Pedagogikada bugungi kunda "o'qitish vositalari" tushunchasining bir ma'noli ta'rifi yo'q. Bir toifa mualliflar uni tor ma'nosida qo'llab, o'qitishning umumta'lim va tarbiyaviy maqsadlariga erishishga

xizmat qiladigan vosita-turlarini nazarda tutadi. Ikkinchilari esa, kompyuter vositalariga moddiy vosita-turlaridan tashqari insonga ob'yektiv voqelikni vositali va bevosita bilishni amalga oshirishga imkon beruvchi fikrlash faoliyatini amalga oshirishning aqliy vositalarini qo'shadilar. Uchinchi toifasi, kompyuter vositalarini o'quvchi materialini o'zlashtirishi uchun foydalanadigan o'qish vositalari hamda sof ma'noli kompyuter vositalariga ajratadi. To'rtinchi toifasi esa kompyuter vositalarini keng ma'noda ko'rib chiqib, bu

atama bilan o'qitishning butun mazmuni va bo'lgan loyihalashtirishda hujjat – ta'lim jarayonining mazmunini zamonaviy ishlab chiqarish, ilmiy – texnik taraqqiyotning malakali mutaxassislarni tayyorlashga bo'lgan talablariga muvofiq belgilaydigan o'quv vositadir. Kompyuter vositalari majmui vositaiy materialning butun asosiy mazmunini qamrab olishi lozim. Majmuiylik bu holda o'quv vositasining har bir o'quv mavzui bo'yicha kompyuter vositalarining zaruriy eng kam to'plami bilan ta'minlangan bo'lishi zaruratida ifodalaniadi. Kompyuter axborotlar ustida ish olib borish uchun qoidalari esa kompyuterga yozilgan turli vositalar orqali belgilanadi. Ana shuning uchun ishni axborot tushunchasi bayonidan boshlaganimiz ma'qul. Axborot tushunchasi axborot olamidagi butun borliq, undagi ro'y beradigan hodisalar haqidagi xabar va ma'lumotlardir. Axborot inson nutqida kitoblardagi matnlarda, olimning ixtirosida, musavvir tasvirida, turli o'lchov asboblarda va boshqalarda mavjuddir. Ana shu turli-tuman axborotlardan inson o'z oldiga qo'ygan maqsad yo'lida foydalanadi.

O'quv fanining kompyuter vositalari majmuasini loyihalashtirishda hujjat – ta'lim jarayonining mazmunini zamonaviy ishlab chiqarish, ilmiy – texnik taraqqiyotning malakali mutaxassislarni tayyorlashga bo'lgan talablariga muvofiq belgilaydigan o'quv vositadir. Kompyuter vositalari majmui vositaiy materialning butun asosiy mazmunini qamrab olishi lozim. Majmuiylik bu holda o'quv vositasining har bir o'quv mavzui bo'yicha kompyuter vositalarining zaruriy eng kam to'plami bilan ta'minlangan bo'lishi zaruratida ifodalaniadi. Kompyuter axborotlar ustida ish olib borish uchun qoidalari esa kompyuterga yozilgan turli vositalar orqali belgilanadi. Ana shuning uchun ishni axborot tushunchasi bayonidan boshlaganimiz ma'qul. Axborot tushunchasi axborot olamidagi butun borliq, undagi ro'y beradigan hodisalar haqidagi xabar va ma'lumotlardir. Axborot inson nutqida kitoblardagi matnlarda, olimning ixtirosida, musavvir tasvirida, turli o'lchov asboblarda va boshqalarda mavjuddir. Ana shu turli-tuman axborotlardan inson o'z oldiga qo'ygan maqsad yo'lida foydalanadi.

Inson turli a'zolari yordamida axborotlarni qabul qiladi, ongi bilan qabul etadi va xotirasida saqlaydi. Ammo insoniyat o'z taraqqiyoti davrida shu darajada ko'p axborot to'plaganiki, ularning barini saqlash va idrok etish uchun insonning ongi ojizlik qiladi. XX asrning 70-yillarida mikroprosessor texnologiyasining kashf etilishi va shaxsiy kompyuterlarning hayotimizga keng kirib kelishi yangi axborot inqilobini vujudga keltirdi. Bu inqilob bilimlarni

ishlab chiqish uchun yangi texnologiyalar, uslublar, kompyuter vositalarini ishlab chiqarish bilan bog'liq axborot sanoatining rivojlanishini ilgari surmoqda. Axborot texnologiyalari, xususan, telekommunikatsiyaning barcha turlari axborot sanoatiningeng muhim tarkibiy qismlaridan biridir.

Axborot texnologiyasi – ob'yekt, jarayon va hodisaning holati haqidagi yangi sifat axboroti olish uchun ma'lumotlar yig'ish, ishlov berish va uzatishning vosita va uslablarning jamlanmasidan foydalanadigan jarayondir.

Telekommunikatsiya - kompyuter tarmoqlari va zamonaviy texnik aloqa vositalari negizida ma'lumotlarni masofadan uzatishdir.

Zamonaviy axborot texnologiyasi kompyuter texnikasi va aloqa vositalari sohasidagi yutuqlarga tayanadi. Hozirda kompyuter texnikasi va axborot texnologiyalarining gurkirab rivojlanishi turli xil axborotdan unumli foydalanishga qaratilgan axborot jamiyatining rivojlanishiga turtki bo'ldi. Bu jamiyatda ko'pchilik ishlovchilar axborot, uning oliy shakli bo'lmish bilimlarni ishlab chiqish, saqlash, ishlov berish va amalga oshirish bilan band bo'ladilar. Axborot jamiyatida kompyuterlashtirish jarayoni odamlarga ishonchli axborot manbalaridan foydalanish, ishlab chiqarish va ijtimoiy sohalarda axborotga ishlov berishni avtomatlashtirishning yuqori darajasini ta'minlashga imkon beradi. Bu jamiyatda nafaqat ishlab chiqarish, balki butun turmush tarzi, qadriyatlar tizimi ham o'zgaradi. Jami faoliyat mahsulotlarni ishlab chiqarish va iste'mol etishga yo'naltirilgan sanoat jamiyatiga nisbatan axborot jamiyatida tafakkur, bilimlar ishlab chiqariladi va iste'mol etiladiki, bu holatlar aqliy texnologiya ulushining oshishiga olib keladi. Har bir insondan ijodiyotga qobiliyat talab etiladiki, natijada bilimlarga bo'lgan ehtiyoj yanada oshadi. Kompyuter yordamida o'quv va didaktik materiallar deyarli professional darajada ishlab chiqilishi mumkin. Texnologiya ta'limi daralarida kompyuter vositalaridan foydalanish juda muhim o'rin egallaydi. Shu vositalar yordamida mashg'ulotlarni zamonaviy talablarga javob beradigan tarzda olib borish hamda ta'lim oluvchilarning diqqatini jalb etishda keng foydalanish mumkin. Kompyuter vositalari ma'lumotlarni vizuallashtirishga yordam berib, kerakli tasvir va matnlarni yozib olish va saqlash imkoniyatini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Begimqulov U. "Pedagogik ta'limda zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etishning ilmiy-nazariy asoslari. Monografiya. T.: "Fan"-2007.
2. Sharipov Sh. Talabalar ixtirochiligini shakllantirishning pedagogik sharoitlari. Ped.fan nomz...diss. Toshkent-2000.

IBRAT MAKTABI

Davron QODIROV – Nizomiy nomidagi TDPU “Musiqiy ta’lim” kafedrasida dotsenti

O’qituvchilik – sharaflilik hamda mas’uliyatli kasb, zotan o’sib kelayotgan yosh avlodga ta’lim-tarbiya berish, ularni el-u yurt kori va ravnaqi uchun astoydil xizmat qiladigan sadoqatli insonlar qilib tarbiyalashda ustoz-pedagoglarning o’rni nihoyatda katta. Mamlakatimizda yaratilgan ulkan imkoniyatlardan kuch olib, o’z kasbiy mahoratini tinimsiz oshirib borayotgan, mas’ullik tuyg’usini teran anglagan ustozlar mamlakatimiz yoshlarini buyuk kelajak sari boshlovchi fidoyilik timsollaridir. Bunday mehnatsevar, zahmatkash ustozlar Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetida ko’plab topiladi, ulardan biri oliy ta’lim tizimi professor-o’qituvchilari va ustoz-murabbiylari jamoasi hamda talaba yoshlar e’tirofiga sazovor bo’lgan fidoyi ustoz “Boshlang’ich ta’lim va jismoniy madaniyat” fakulteti “Musiqiy ta’lim” kafedrasida dotsenti Muxtor Ilhomovdir.

Muxtor Ilhomov yoshligidan zukko, bilimdon va ilm olishga intiluvchan yigit bo’lib voyaga yetdi. U maktab davridayoq barcha fanlarni a’lo baholarga o’zlashtirar, hamma sohada sinfdoshlariga o’rnak bo’lar, ayniqsa, maktabda o’tkaziladigan turli tadbirlarda o’sha davrning mashhur qo’shiqlarini rubobda chalib, hammani hayratga solar edi. Unga O’lloh tomonidan in’om etilgan musiqiy uquv, iqtidor, qobiliyat va san’atga bo’lgan cheksiz mehr uning ustozlarini befarq qoldirmadi. U Toshkent shahrida o’rta ta’lim maktabini bitirgach, ustozlar tavsiyasi bilan, qolaversa, musiqa va san’atga bo’lgan nihoyatda kuchli qiziqish uni Yunus Rajabiy nomidagi Toshkent pedagogika bilim yurtiga, keyinchalik Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetining “Musiqiya-pedagogika” fakultetiga yo’lladi.

Donishmandlar yoshlikda olingan bilimni toshga o’yilgan naqshga qiyoslashadi. Ushbu hikmat qahramonimiz Muxtor Ilhomovning hayoti misolida o’z tasdig’ini topgan. Uning talabalik yillarida o’rgangan bilimlari, ustozlaridan olgan saboqlari, qashqar rubobi bilan ishlash bo’yicha shakllantirilgan mahorati hali-hanuz uni tark etgani yo’q. U maktab davrlarida, talabalik yillarida juda ko’plab kuy va qo’shiqlarni o’rganib musiqa va san’at olamiga kirib keldi. O’zbek mumtoz musiqa san’atining noyob kuy va qo’shiqlari, xalq og’zaki ijodi namunalari, turli xalq qo’shiqlarini nihoyatda katta qiziqish bilan o’rgandi.

Bir vaqtning o’zida O’zbekiston Xalq artisti Muhammadjon Mirzayevdan sozandalik mahorati bo’yicha saboq olib, qashqar rubobida har qanday kuy va qo’shiqni yuksak mahorat bilan ijro etadigan, qo’shiq va kuydagi muallif dard-u hasratini, o’y va kechinmasini, quvonch va tashvishini tinglovchiga yetkazib bera oladigan sozandaga aylandi. Uning ijrosidagi “Cho’li iroq”, “Munjo’ot” kabi kuylar kishini moziyga, olis tarix sahifalariga chorlaydi. Rubobning sehrli sozlari inson yuragining nozik torlarini ham

qo’shib chertadi, uning nota tanlashdagi mahorati, rubob torlari ustida go’yo suzib ketayotgan barmoqlar va rubob nolasi sozandaning mazkur kuyga o’z yurak ilhomlarini qo’shganligidan dalolat beradi, tinglovchini kuy va qo’shiq sehrining ilohiyligini anglashga undaydi. O’z davrining mashhur qo’shiq va kuylari bo’lgan bir qancha kuy va qo’shiqlarni o’rganish, ijro etish esa uni hamisha zamon bilan hamnafas bo’lishga, yangiliklardan boxabar bo’lib o’z ustida tinmay ishlashga undar edi.

U universitetning turli tadbirlarida talabalar va hamkasblari bilan birgalikda bir necha yillardan buyon faol qatnashib, universitetdagi ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarga o’zgacha shukuh bag’ishlamoqda, bilimlarini auditoriyalarda talabalarga o’rgatmoqda va kelgusida ularning amaliyotda qo’llashiga zamin hozirlamoqda.

Uning mehnat faoliyati Zangiota tumanidagi 22-sonli Bolalar musiqa maktabida boshlangan, u maktabda o’quvchi yoshlar bilan ishlash mahorati va malakalarini shakllantirdi, o’zidagi bilim va tajribalarini yosh avlodga ulashdi, 1990-yilda esa Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetiga ishga kelib, o’z ustozlari safiga qo’shildi. O’z ustozlari bilan yonma-yon ishlash, ular bilan birga bo’lajak o’qituvchilarga ta’lim-tarbiya berish kishining zimmasiga katta mas’uliyat yuklaydi, albatta. Buni teran va chuqur his etgan Muxtor Ilhomov o’z oldiga yangi maqsadlar qo’ydi, o’ziga nisbatan bo’lgan talabchanlikni oshirdi, o’z ustida tinmay ishladi, yillar uning bilimini boyitdi, hayotiy tajribasi oshdi, oddiy o’qituvchidan dotsent darajasigacha yetib keldi, keyinchalik ustozlar safiga qo’shilib, musiqa san’ati va fanni o’qitishga doir ko’plab metodik qo’llanmalar, ilmiy-ommabop maqolalar tayyorladi. Bir nechta adabiyotlarning yaratilishiga hissa qo’shdi. Uning “An’anaviy cholg’u ijrochiligi” (Qashqar rubobi) va “Barkamol avlod tarbiyasida she’r, qo’shiq va ohang”, “Cholg’u ijrochiligi” (electron darslik) singari kitoblari soha xodimlari tomonidan iliq kutib olindi va hozirgi kunda ko’plab ta’lim maskanlarida mazkur qo’llanmalardan samarali fo’y dalanib kelinmoqda.

Muxtor Ilhomov 50 dan ortiq ilmiy maqolalar mullifi. Uning maqolalari respublika va xorijiy nashrlarda muntazam chop etiladi.

Muxtor Ilhomov o’z umrining chorak asrdan ortig’ini mazkur dargohda ilm va tarbiya sohasiga bag’ishladi: ko’plab ustozlardan saboq oldi, olgan bilimlarini yosh avlodga ulashdi; ilm yo’lida izlanishlar olib bordi, to’plagan bilimlarini kitob sahifalariga joylab, bolalarga taqdim etdi; ustozlarga munosib voris bo’ldi, o’zi ham ko’plab shogirdlar yetishtirdi. Universitet Muxtor Ilhomov uchun nihoyatda qadrlidargoh. U o’z kasbini sevadi, jamoani qadrlaydi, talabalarga bilim ulashib faqat zavq oladi. Uning shogirdlari pedagoglik kasbini e’zozlash, iqtidor

sohibi bo'lgan yoshlarni qo'llab-quvvatlash va iste'dodni yuzaga chiqarish ruhida tarbiyalangan yoshlardir. U boshqarayotgan "Yosh sozanda" to'garagiga har yili o'nlab talabalar a'zo bo'lishadi, ular yil davomida musiqaning sehirli olami bilan tanishishadi, soz sehriga oshno etiladi, natijada yoshlarda san'atga bo'lgan qiziqish ortadi, ulardagi madaniyat, san'atga bo'lgan mehr rivojlanadi. U boshqarayotgan to'garak a'zolaridan A.Ulug'bekov Rossiya, Shvetsiya, Turkiya, Ispaniyada o'tkazilgan xalqaro tanlovlarda faxrli o'rinlarni egallashga muvaffaq bo'ldi. Shuningdek, bugungi kun san'atining F.Safayeva, S.Farmonov, A.Ro'zmatov, O.Soipov, E.Mirzayev kabi iste'dodlari ham qahramonimizning shogirdlari hisoblanadi.

Muxtor Ilhomov o'z yo'nalishi bo'yicha muntazam ilmiy-amaliy izlanishlar olib boradi. U bugungi kunda talabalarning o'qishdan tashqari vaqtlarini namunali tashkil etish, mustaqil ta'limni yuqori saviyada tashkil etish masalalari bo'yicha tadqiqotlar o'tkazmoqda.

Muxtor Ilhomov qilayotgan ishidan ma'naviy rag'bat, ruhiy lazzat tuyarkan, ularning natijalarini maqola, risola o'quv qo'llanmalari va darsliklar shaklida chop etib boradi. U yaratgan kitoblar

respublikamizda o'tkazilgan "Yilning eng yaxshi darsligi va o'quv adabiyoti muallifi" ko'rik-tanlovida ham faxrli o'ringa loyiq deb topildi.

U jamoat ishlarida ham faol. U ko'p yillar davomida "Musiqqa-pedagogika" fakultetining kasaba qo'mitasini boshqardi, bugungi kunda o'zi yashayotgan mahallada fuqarolar yig'ini raisi vazifasida ham faoliyat yuritib kelmoqda.

Ilm-u ma'rifat insonni baxt va saodat manzillari tomon eltadi va uning hayot kitobini zarhal satrlar bilan bezaydi, inson ko'ngliga yashash zavqi, ijod shukuhini naqshlaydi, odam-u olamni teranroq anglashga imkon beradi. Hadisi shariflarda aytilishicha, olimlarning yaxshisi o'z ilmiga amal qilganlaridir. Mahoratli o'qituvchi, jonkuyar hamkasb, fidoyi jamoatchi, dotsent Muxtor Ilhomov hamisha o'z bilimiga, ilmiga, hayotiy tajribalariga tayanib ish ko'rishi bilan ham hammamiz uchun qadrli. Uning hayot yo'li bugungi kun yoshlari uchun fidoiylilik hamda ibrat maktabi vazifasini o'tay oladi.

Bugungi kunda 60 yoshni qarshilayotgan Muxtor Ilhomovdan ilm-ma'rifat yo'lida yangi marralarni zabt etishini kutib qolamiz.

MUNDARIJA

ANIQ FANLAR

| | |
|--|----|
| Murod BARAKAEV, Umida MEYLIYEVA. Grafik laboratoriya ishlari asosida “matematika” fanini o’qitish samaradorligini oshirish imkoniyatlari..... | 2 |
| Davron DAVLETOV, Muhammad JABBOROV, Umida MEYLIYEVA. Nogeometrik masalalarni geometrik usulda yechish..... | 3 |
| Tursunбой ЖУРАЕВ, Камариддин ЖУВОНОВ. Размерностные и экстензорные свойства подпространств пространства вероятностных мер..... | 9 |
| Умида ЯКУБОВА, Нодира ПАРПИЕВА. Об одной проверке гипотез при семействах близких альтернатив..... | 15 |
| Dilsora ABDUVALIYEVA. Matematika o’qitishda rivojlantiruvchi ta’lim..... | 20 |

TABIY FANLAR

| | |
|--|----|
| Qalandar SAPAROV, Ziyoda MIRKOMILOVA. Respublikamizdagi sut emizuvchilarida parazitlik qiluvchi filyariatlar va ularning oraliq xo’jayinlari..... | 23 |
| Toshbibi NORBOBOEVA, Shoxsanam YAKUBJONOVA, Barno SHERNAZAROVA. O’simliklarning hayotiy shakllari..... | 28 |

FILOLOGIYA

| | |
|---|----|
| Давлатбек САЪДУЛЛАЕВ. Об инновационных основах деятельностного аспекта обучения языку..... | 31 |
| Alisher MIRAZIZOV. O’zbek tili darslarida talabalarning tarjima ko’nikmalarini rivojlantirish..... | 33 |
| Farhod XOLSAIDOV, O’rinboy BOBOYOROV, Zayniddin DOLIMOV. O’tkir Hoshimov va uning “Bahor qaytmaydi” asarini o’rganishda o’quvchilarning mustaqil ishlarini tashkil etish texnologiyasi... .. | 35 |
| Окила ТУРАКУЛОВА. Некоторые методические вопросы развития культуры чтения у учащихся в процессе литературного образования..... | 38 |

IJTIMOIY-GUMANITAR FANLAR

| | |
|--|----|
| O’tkir YUSUPOV, Behzod TO’RAEV. O’zbekiston va Markaziy Osiyo: hamdo’stlikning yangi qirralari..... | 41 |
| O’ktam SHAKAROV. “Siyosatnoma” asarida rahbar ma’naviyatiga doir qarashlar..... | 43 |
| Baxtiyor ABSATTOROV. Zamonaviy sivilizatsiya rivoji va uning axloqiy mezonlari..... | 45 |

PEDAGOGIKA

| | |
|---|----|
| Sunatulla ABDIRASILOV, Mirolim XUDOYBERDIYEV. Uumumta’lim maktablarning tasviriy san’at darslarida kompetensiyaviy yondashuv..... | 48 |
| Azim PARPIYEV, Ziyodaxon SABIROVA. Oliy o’quv yurtlarida innovatsion faoliyat yuritishning asosiy muammolari..... | 55 |
| Азамат АКБАРОВ. Обеспеченность преподавателей в отношении управления работой в классе и их профессиональной подготовки в этой области..... | 59 |
| Muhabbat HAKIMOVA, Dilshod LUTFULLAEV. Ta’lim tizimining mamlakat iqtisodiy taraqqiyotiga ijtimoiy ta’siri..... | 64 |
| Davron QODIROV. Talabalar kuylash mahoratini shakllantirishda so’z va talaffuzning tutgan o’rni... .. | 66 |
| Qudrat JUMANIYOZOV, Sanobar YUSUPOVA. Aakademik litsey o’quvchilarining masalalar yechish yordamida matematik tafakkurini rivojlantirish..... | 68 |
| Ra’no UMURZAQOVA, Fatxulla MIRAXMEDOV. Sport tibbiyoti fanini o’qitishda ta’lim texnologiyasidan foydalanishning ahamiyati..... | 72 |
| Saodat MAHKAMOVA. Yoshlarni kasb tanlashga yo’naltirishda san’at maktablarida tasviriy san’atini o’qitishning pedagogik muammolari..... | 73 |
| Gavhar IBROXIMJONOVA. “Musiqqa ta’limi” yo’nalishi talabalariga “tovush va uning nazariy xossalari” mavzusini o’qitish yuzasidan nazariy tavsiyalar..... | 76 |
| Dilafro’z SALIMOVA. Bo’lajak musiqa ta’limi kadrlarini tayyorlashda “Vokal va zamonaviy musiqa” fanini o’qitishning o’ziga xos xususiyatlari..... | 80 |

| | |
|--|-----|
| Nargiza BAXRIYEVA. Yoshlarni ma'naviy-mafkuraviy tahdidlardan himoya qilishda ijtimoiy me'yorlarning o'rni..... | 82 |
| Matluba ERGASHEVA. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini arifmetik masalalarni yechishga o'rgatish... | 84 |
| Mirshod ELOV. Talabalarning kuylash malakalarini shakllantirishda o'zbek an'anaviy xonandalik san'atining o'rni..... | 86 |
| Фароғат СОЛИЕВА. Организация работы по воспитанию толерантности в средних общеобразовательных школах..... | 88 |
| Madina SOIPOVA. Go'zallik mohiyatini anglash psixologiyasi..... | 93 |
| Зухра БАКИYEVA, Хасанбой БЕГИМҚУЛОВ. The facilities of information and communication technologies in the formation of students' personality..... | 96 |
| PSIXOLOGIYA | |
| Iroda REJAMETOVA. Pedagog -tarbiyachilarning giperfaol bolalar bilan ishlash usullari..... | 98 |
| Guлchehra ALIMOVA, Abduqodir ALIMOV. Barkamol avlod tarbiyasida tarbiyachining psixologik bilimlarni egallashi va amaliyotda qo'llash zaruriyatining ahamiyati..... | 101 |
| Лилия НИГМАТУЛИНА. Результаты исследования компьютерной зависимости в подростковом и раннем юношеском возрасте и пути психологической коррекции компьютерозависимого поведения..... | 102 |
| Дилбар КАРШИЕВА. Психолого-педагогические условия развития творческих способностей младшего школьника в учебной деятельности..... | 106 |
| YOSH TADQIQOTCHI MINBARI | |
| Umida USMONOVA. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ijodiy tasavvurni rivojlantirish metodikasini takomillashtirish..... | 110 |
| Расул ДЖОЛДАСОВ. Конный спорт у каракалпаков и казахов низовьев амударьи..... | 112 |
| Iroda ABDULLAYEVA. Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy ko'nikmalarini mustaqil ishlash orqali rivojlantirish..... | 115 |
| Ozodbek SOIPOV. Xorazm mahalliy aytimlari va uning o'zbek xalq musiqa ijodidagi o'rni..... | 118 |
| Nigora DAUKEYEVA, Mavluda ASADULLAYEVA. Ikkinchi tartibli sirtlarni o'qitishda maple dasturi imkoniyatlaridan foydalanish..... | 120 |
| Tohir USMONOV. Texnologiya ta'limi jarayonida qo'llaniladigan kompyuter vositalarining turlari va klassifikatsiyasi..... | 124 |
| ЮБИЛЯРЛАР | |
| Davron QODIROV. Ibrat maktabi..... | 126 |